

A. MUHAMMADJONOV

# O'ZBEKISTON TARIXI

(MILODNING IV ASRIDAN  
XVI ASR BOSHLARIGACHA)

7 - S I N F

*O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi umumta'lim  
maktablari uchun darslik sifatida tasdiqlagan*

TOSHKENT

ABDULLA QODIRIY NOMIDAGI XALQ MEROSI NASHRIYOTI

2004

63.3(59)

63.3(2) Mas'ul muharrir

Taqrizchilar:

O'zbekiston Fanlar Akademiyasining  
akademigi, professor **B. Ahmedov**

Tarix fanlari nomzodlari:

**Sh. Pidayev, U. Mavlanov,**

**J. Rahimov, S. Mirzaxo'jayev,**

oliy toifali o'qituvchi


**J. Sharipova,**

birinchi toifali o'qituvchi

**F. Sultonov**

Darslikning uslubiy tuzilishi Toshkent shahar, Hamza tumanidagi  
216-maktabning oliy toifali o'qituvchisi  
**M. Vohidova** tomondan bajarilgan.

Ushbu nashrga doir barcha huquqlar himoya qilinadi va nashriyotga  
tegishlidir. Undagi matn va rasmlarni nashriyot roziligrisiz to'liq yoki  
qisman ko'chirib bosish ta'qiqlanadi.



W 30365  
398

M 4306020600-472 Axb. hat. - 2004  
M361(04)-2004

© A. Qodiriy nomidagi xalq  
merosi nashriyoti,  
2004.

ISBN 5-86484-012-2

## KIRISH

Aziz o'quvchi! Ma'lumki, Vatanimiz va o'zbek xalqi olamshumul voqealarga boy qadimiy tarixga ega. Turon, so'ngra Movarounnahr va Turkiston nomlari bilan shuhrat topgan bu mamlakatning va uni o'z mehnati bilan obod etgan o'zbek xalqimizning o'tmishi g'oyat qiziqarli va saboqlidir.

Umumta'lim maktablarining 7-sinf o'quvchilari uchun darslik sifatida tavsiya etilayotgan ushbu kitob Vatanimiz — O'zbekiston tarixiga bag'ishlanib, undagi mavzu milodning V asridan XVI asr boshlariga qadar bo'lgan voqealar bayonini o'z ichiga oladi. Ming yildan oshiqroq muddatni qamragan bu davrda avvalo o'zbek xalqi shakllandi. Bu mehnatkash xalqning bilak kuchi bilan kanallar qazilib, poyonsiz dashtu biyobonlarga suv chiqarildi. Qo'riq yerlar o'zlashtirilib, ekin dalalari bog'-u bo'stonlarga aylantirildi. Ikki muhim xo'jalik: dehqonchilik va chorvachilik rivojlandi, el-yurt ahli to'ydirildi, kiyintirildi. Dehqonchilik vohalari bo'ylab ko'plab qishloqlar va hunarmandchilik shaharlari qad ko'tarib, ilm-u ma'rifatning va kasb-hunarning markaziga aylandi. Ilk o'rta asrdayoq o'zining davlatchiligi, dini, e'tiqodi va mafkurasiga ega bo'lgan bu xalq yuqori darajada rivoj topgan o'ziga xos madaniyatni yaratdi. Shaharlarda tasviriy san'at, musiqa, me'morchilik va hunarmandchilikning turli sohaları rivoj topdi.

Bu davrda o'zbek xalqining ijtimoiy hayotida katta o'zgarishlar ro'y berdi. «*Qishloq hokimi*» deb atalgan va katta yerga ega bo'lgan «dehqonlar» va ularning ekinzorlarida ishlovchi yersiz «*kadivarlar*», ya'ni *korandalar* paydo bo'ldi. Yerga, suvga bo'lgan munosabat tubdan o'zgardi. Turli xil yer egaligi shakllanib, qaror topdi. Yerdan ishlash va unda qo'shchilarni ishlatish tartiblari o'zgardi. Ijtimoiy hayotda tabaqalanish yanada keskinlashib, mehnatkash omma ustidan zulm kuchaydi, tabaqalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar esa tobora ziddiyatlashib bordi.

Tarixiy taraqqiyot taqozosi bilan dehqonchilik vohalarida dastavval mayda hokimliklar tashkil topdi. So'ngra esa Eftallar,

Turk xoqonligi, Somoniylar, Qoraxoniylar, Xorazmshohlar va Amir Temur davlati kabi yirik podsholiklar barpo bo'ldi. Bu mahalliy davlatlar Xitoyni O'rta Yer dengizi mamlakatlari bilan bog'lagan Buyuk ipak yo'li orqali olib borilgan xalqaro savdoda faol qatnashdilar. Darslikda siz O'rta asr davlatchiligining boy an'analari, qonunlari, tartiblari va mansabdorliklari bo'yicha manbalar bilan tanishib, ulug' davlatchiligimizning mustahkam poydevori bor ekanligiga ishonch hosil qilasiz.

Ilk o'rta asrlarda mamlakatimizning siyosiy va ma'naviy hayotida muhim o'zgarishlar sodir bo'ldi. Mamlakatimiz Arab xalifaligi tomonidan bosib olinib, o'z mustaqilligini yo'qotdi. Diyorimizda ham islom dini va musulmonchilik mafkurasi qaror topdi. Mahalliy din va e'tiqodlarga barham berildi, elga yot bo'lgan arab yozuvida savod chiqarildi. Yana ma'rifatli bo'lish uchun avlodlarimiz umri sarf bo'ldi.

Xalifalik hukmronligi tugatilib, mamlakat o'z mustaqilligini tiklagach, ilm-u ma'rifatning rivoji uchun sharoit yuzaga keldi.

O'rta asrlarda mamlakatimizda Abu Rayhon Beruniy, Muso Xorazmiy, Ahmad al-Farg'oniy, Ibn Sino, Ulug'bek va Alisher Navoiy kabi buyuk olim va mutafakkirlar qatorida islom dini va ta'limotining rivojiga ulkan hissa qo'shgan Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, Ahmad Yassaviy, Najmiddin Kubro, Bahouddin Naqshband va Xoja Ubaydulloh singari mashhur ulamo va mashoyixlar yetishib chiqdi.

Bu boy va ozod mamlakatimizda doimo tinchlik barqaror bo'lavermadi. Uning mehnatsevar xalqi osoyishta hayot kechirmadi. Ko'pincha, goh G'arb, goh Sharqdan bostirib kelgan bosqinchilarning tajovuzlari, goh mustabid hukmdorlarning o'zaro urushlari natijasida mamlakatimiz vayron etilib, uning moddiy va ma'naviy qadriyatlarini oyoq osti qilindi. Mamlakat va yurt boshiga tushgan bunday og'ir va musibatli damlarda erksevar xalqimiz Ona-Vatan mudofaasi yo'lida oyoqqa turdi. Uning mustaqilligi uchun tajovuzkorlarga qarshi qahramonona kurashganligini o'rganib, mustaqillik xalqimizning orzusi va kurashlarining natijasi ekanligining guvohi bo'lasiz.

Ma'lumki, Amudaryo va Sirdaryodek yirik suv havzalarida joylashgan qadimgi Turon hududlarida azaldan o'troq o'zbeklar

bilan yonma-yon qardosh tojik, qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq va turkmanlarning ham ota-bobolari yashab kelgan. Shu boisdan o'zbek xalqining o'tmishi etnik jihatdan yaqin va hayotining ko'p jihatlari umumiy bo'lgan bu qardosh xalqlarning tarixi bilan chambarchas bog'lanib ketadi. Ayniqsa, chet ellik bosqinchilarga, adolatsiz hukmdor mustabidlarga, shafqatsiz mulkdor zodagonlarga qarshi olib borilgan kurashlar qardosh xalqlarni birlashtirdi. Shu tufayli ular ko'p hollarda yagona davlatning umumiy fuqarosi bo'lib yashadi, el-yurtni obod etishda faol ishtirok etdi.

Xullas, ushbu kitobda Vatanimiz va o'zbek xalqining o'rta asrlarda boshidan kechirgan g'oyatda murakkab va mashaqqatli hayot tarixi bayon qilinadi. Unda siyosiy voqealarning yoritilishi jarayonida mehnatsevar xalqimizning bunyodkorlik faoliyatini, yaratilgan yuksak madaniyat va e'tiqodini hamda uning Ona-Vataniga bo'lgan cheksiz muhabbat va sadoqatiga bag'ishlangan satrlarni o'qib, shunday mo'tabar xalqning vorisi ekanligimizdan qalbingiz faxrga to'lib boradi. Chunki mamlakatimiz Prezidenti Islom Karimov ta'kidlaganlaridek ***«O'zlikni anglash tarixni bilishdan boshlanadi... Haqqoniy tarixni bilmasdan turib esa o'zlikni anglash mumkin emas».***

**BIRINCHI QISM**  
**ILK O'RTA ASRLARDA O'ZBEKISTON (IV—VIII asrlar)**  
**I BOB**

**ILK O'RTA ASRLARDA DEHQON' MUNOSABATLARI**  
**VA DAVLATCHILIK**

**1-§. ILK O'RTA ASRLARDA QISHLOQ JAMOASI**

**1. Dehqonchilikdagi yutuqlar**

Qadimgi Turon diyorida zamonasining buyuk davlatlaridan Qang' (Kanguy) podsholigi va uning janubiy hududida Kushon podsholigi ravnaq topgan davrda yuksalish boshlangan edi. Bu o'zgarishlar albatta mamlakat aholisining ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va siyosiy hayotida muhim o'zgarishlarga olib keldi. Dehqonchilik vohalarida shaharlarning soni ko'paydi. Shaharlar kengayib, hunarmandchilik, savdo-sotiq va madaniy hayotning markaziga aylandi. Vohalar bo'ylab, ayniqsa sersuv azim daryo adoqlarida qator yirik sug'orish tarmoqlari qazilib, sug'orma dehqonchilik maydonlari kengaydi. Suv tegirmoni, chig'ir va charxparaklar kabi o'z davri uchun anchagina murakkab suv inshootlari kashf etildi. Oqar suv sathidan birmuncha balandlikda joylashgan maydonlarga suv chiqarib obod etildi. Ziroatchilikda g'allakorlik va polizchilik bilan bir qatorda paxtachilik va bog'dorchilik maydonlari kengaydi.

Ekinlarga ishlov berish sohasida orttirilgan ziroatkorlarning ekin maydonlarni sug'orish va ishlov berishdagi asriy tajribalari tufayli aholi dehqonchilikdan mo'l hosil oladigan bo'ldi.

**2. Ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar**

Bu davrda shaharlarda aholining gavjumlashuvi, hunarmandchilikning rivoj topishi, ichki va tashqi savdoning kengayishi bilan shubhasiz, qishloq xo'jalik mahsulotlariga bo'lgan ehtiyoj ortib shaharlar, tevarak-atrofdagi qishloqlarning hududlari tobora kengayib bordi. Natijada mamlakatning iqtisodiy hayotida muntazam xomashyo yetkazuvchi sifatida qishloqlarning nufuzi ko'tarilib, bir tomondan yerga, xususan ziroatkor maydonlarga bo'lgan munosabat, ayniqsa ularga egalik qilish


---

<sup>1</sup> Dehqonlar mulkdor sifatida O'rtta asrlarda G'arbiy Yevropada shakllangan «fcod» yoki «len» yerlarining zamindorlariga yaqin turardilar.

udumlari asta-sekin o'zgarib boshladi. Ikkinchi tomondan esa, o'troq ziroatkor aholi bilan chorvador qabilalar o'rtasidagi aloqalar rivojlandi. Mamlakatning dasht va tog' oldi mintaqalarida yashovchi ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi aholining o'troq hayotga o'tishi kuchaydi. Oqibatda dehqonchilik uchun yaroqli obikor yerlarga bo'lgan muhtojlik tobora oshib bordi. Natijada qo'riq va bo'z yerlarga suv chiqarib katta-katta yer maydonlarini ochish ishlari jadallashdi. Bunday obodonchilik ishlarini amalga oshirishda el-yurtning ijtimoiy hayotida kattagina nufuzga ega bo'lgan mulkdor va quldor tabaqa vakillari, qishloq oqsoqollari hamda urug' va qabila boshliqlari ishboshi sifatida faol qatnashadilar. Qo'riqlarda ochilgan yangi yer maydonlarining ma'lum bir ulushi o'sha zamon udumi bo'yicha, qonuniy ravishda sarkorlar qo'liga o'tadi va ularning vorisiy mulkiga aylanadi. El-yurtning ijtimoiy hayotidagi bunday xizmati tufayli omilkor sarkorlarning ziroatkor aholi o'rtasida obro'-e'tibori va ta'siri yanada kuchayadi.

### 3. «Dehqon»lar va ular xo'jaligidagi hayot

Sarkorlar o'zlariga tegishli yer maydonlarini sug'orish tarmoqlarining yuqori qismidan, ayniqsa to'g'on boshi atrofidan ajratib oladilar. Bu yo'l bilan ular suvdan dehqonchilikda bemalol foydalanish, suv taqsimotini nazoratga olib, qishloq aholisi ustidan o'z tazyiqini o'tkazish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu tariqa ular qishloqlarda o'z tazyiq doirasini kengaytirib, bora-bora ziroatkor aholi ustidan hukmronlik qila boshlaydi. Shuning uchun ham ular ilk o'rta asrlarda «dehqon», ya'ni «qishloq hokimi» nomi bilan shuhrat topadi. Dehqonlar o'rta asrlarda endigina shakllana boshlagan yangi ijtimoiy munosabatlarning o'rnatilishi oqibatida, qadimgi mulkdor tabaqa bag'rida dunyoga kelgan va yanada boyib feodallashib borayotgan quldor katta yer egalari edi. «Dehqon»lar odatda shaharlarda hashamatli qasr va saroylarga, savdo va hunarmandchilik do'kon-u rastalaridan iborat kattagina xo'jalikka ega edilar. Qishloqlarda esa, ekinzor paykallardan tashqari, ularning ko'shk va istehkomi qo'rg'onlari, objuvoz-u moyjuvoz va tegirmonlari bo'lardi. Qul, cho'ri, yetim-yesirlardan iborat



1-rasm. Bolaliktapa. Devorga tushirilgan tasvir. V–VI asrlar.

ko'pdan-ko'p xizmatkorlar dehqonlarning ulkan patriarxal xo'jaligida qishin-yozin, kecha-yu kunduz beorom mashg'ul edi. Bulardan tashqari, har bir katta yer egasining mol-u jonini qo'riqlab, uni ichki va tashqi yovlardan muhofaza qiladigan 30–40, 50–100 va ba'zan undan ortiq qurollangan harbiy yigitlari bo'lgan. Ular «chokar» deb atalardi. Chokarlar baquvvat va abjir hamda o'z valine'matiga sadoqatli o'spirinlardan tanlab olingan. Ayrim manbalarda qayd etilishicha, o'sha davr udumi bo'yicha, hojasi vafot etgan

chokarlar hatto u bilan birga tiriklayin go'rga ko'milishi lozim bo'lgan. Bunday sodiq va jangovar chokarlari bilan dehqonlar yovgarchilik paytlarda dushmanga qarshi harbiy yurishlarda qatnashardi. Osoyishtalik zamonda esa chokarlarga suyanib, qishloqning ozod ziroatkor ahli ustidan o'z hukmlarini yurgizishga harakat qilardilar.

#### 4. Dastlabki dehqon (feodal) munosabatlar

Avvalda o'z qaramog'idagi xizmatkorlari mehnatidan foydalanib kelgan dehqonlar, keyinchalik turli yo'llar bilan qishloq jamoalari ustidan hukmronlik qiladigan, bora-bora ular kuchidan foydalanadigan bo'ldilar. Dehqonlarga qaram bo'lib qolgan qishloqning mehnatkash ahli bu davrda «*kadivar*», ya'ni qishloq qo'rg'onida yashovchilar nomi bilan yuritilgan. Shunday qilib, mamlakatda ilk o'rta asrlar mulkchiligi munosabatlarining shakllanishi bilan qishloq jamoalari ichida yirik yer egalari bo'lmish dehqonlar bilan bir qatorda o'z erkidan mahrum bo'lgan, mutlaqo yersiz va mulksiz kambag'al ziroatchi tabaqa —

kadivarlar paydo bo'ladi. Ular ilk o'rta asrlarning ijtimoiy hayotida dunyoga kelgan va yerdor dehqonlar tabaqasiga qaram bo'lgan qishloq jamoasining, yangi mehnatkash, mazlum aholining vakillari edi. Mamlakatda yer-suv mulkchiligining xususiyligi ortib, feodal munosabatlarning mustahkamlanib borishi bilan qishloqning mulksiz va erksiz ziroatchi mazlum ahli — kadivarlarning soni ko'payib, dehqonchilik xo'jaligining asosiy ishlab chiqaruvchi kuchlarining biriga aylanadi.

2<sup>60</sup> V asrning o'rtalariga kelib, garchi ekin yerlarining ma'lum bir qismi mulkdor dehqonlar va majusiy ruhoniylar — kohinlarning qo'l ostidagi mulklardan iborat bo'lsa ham, ammo ziroatkor vohalardagi obikor yerlarning asosiy qismi hali ham qishloq jamoalarining qaramog'ida edi. Ziroatchi jamoalarning oddiy mehnatkash a'zolari «kashovar», ya'ni verni havdovchi — verni omoch bilan ag'daruvchi — «qo'shchi» deb yuritilardi. Dehqonchilik mahsulotlarining deyarli asosiy qismi mana shu qo'shchi-kashovarlarning mashaqqatli mehnati bilan yetishtirilardi.

Shunday qilib, ilk feodal munosabatlarning tarkib topishi bilan mamlakatning ijtimoiy hayotida keskin o'zgarishlar sodir bo'ldi. Patriarxal qishloq jamoalari ijtimoiy jihatdan tabaqalanib, u yerli mulkdor dehqon va unga qaram bo'lgan yersiz va erksiz mazlumdiyalarga ajralib ketdi. Shu bilan birga dehqonchilik vohalaridagi qishloq jamoalari yerlarida yashab kelgan hamda yer va suvdan iborat umumiy mulkka ega bo'lgan erkin ziroatchilar — qo'shchi-kashovarlarning ma'lum bir qismi jamoa yerlaridan mahrum bo'ldi. Ularning yerdor dehqonlarga qaram mazlum — kadivarlarga aylanish jarayoni kuchaydi. Ayrim dehqonchilik vohalarining katta yerlariga ega bo'lgan dehqonlari o'z viloyatlarida hatto mustaqil hokim bo'lib oladilar. Xullas, milodning I ming yilligi o'rtalarida qadimgi Turon aholisining ijtimoiy va iqtisodiy hayotida sodir bo'lgan bunday keskin o'zgarish mamlakatning mayda davlatlarga bo'linib ketishiga sabab bo'ladi.

#### *Savol va topshiriqlar*

?

1. Dehqonchilikda qo'lga kiritilgan yutuqlarni aytib bering. 2. Bu yutuqlarning ahamiyati nimada deb o'ylaysiz? 3. Qishloqlar nufuzining ko'tarilishi qanday voqealarga bog'liq? 4. «Dehqon» so'zi dastlab qanday ma'noni bildirardi? 5. Dehqon xo'jaliklari haqida nimalarni bilasiz?

6. «Kadivarlar» va «kashovarlar» haqida gapirib bering.
7. Qanday munosabatlar dastlabki feodal munosabatlar hisoblanadi?
8. Milodning V asri o'rtalarida mamlakatimiz nima uchun mayda davlatlarga bo'lindi?
9. Bu bo'linishning yaxshi va yomon tomonlarini aniqlang.

### MAVZUNI TO'LDIRISH UCHUN YOZMA MANBADAN MA'LUMOT

Ilk o'rta asrlarda yirik yerlarga ega bo'lgan dehqonlar gir aylanasi paxsa va yirik xom g'ishtlardan bino qilingan baland va qalin devorlar bilan o'ralgan qo'rg'on, qasr va ko'shklarda yashaganlar. Qo'rg'onlar o'z zamonida yovgarchilik vaqtlarida tashqi dushman hujumlariga qarshi kurashda mustahkam istehkom vazifasini o'tagan. Shu sababli ularning tashqi devorlarining aylanasi bo'ylab keng va chuqur xandaq qazilib, u suvga to'ldirib qo'yilgan. Qo'rg'on ichkarisiga bir tomondan torgina yo'l va xandaq ustiga o'rnatilgan osma ko'priq orqali kirilgan. Qasrga esa ko'tarma yo'l — *pandusdan* ko'tarilganlar.

Bunday imorat — mudofaa inshootlarining xarobalari baland tepalar shaklida bizning davrimizgacha saqlangan. Mahalliy aholi o'rtasida ular odatda «*Oqtepa*» nomi bilan yuritiladi. Toshkent shahri atrofida sakkizta: shu jumladan, Yunusobod, Chig'atoy, Sag'bon, Ko'kcha va Chilonzor Oqtepalari hozirgi vaqtgacha saqlangan. Bu yodgorliklar orasida Yunusobod Oqteпасi arxeologik jihatdan deyarli to'la qazib o'rganilgan. Tepalik ostida dehqon qo'rg'oni, qasri va ko'shkining hamda ularga tutashib ketgan hunarmandchilik mahallalarining xarobalari qayd etilgan. Yunusobod Oqteпасining eng baland qismi 21 metrga, umumiy maydoni 100 gektarga teng.

Yunusobodda qazib ochilgan dehqon qo'rg'oni va qasri tabiiy do'nglik ustiga o'rnatilgan tagkursi (platforma) ustiga qurilgan. U ikki qavatli qasr va ko'shkdan iborat. Birinchi qavatining maydoni — 80×80 m, ikkinchi qavatining maydoni — 50×50 m ga teng. Ko'shkining maydoni esa 22×22 m. Imorat devorlari xalq tilida «*devg'isht*» deb atalgan paxsa bo'laklari (70×70×70 sm) hamda uzun va qalin xomg'isht (48×24×10 sm) lardan urib chiqilgan. Binoning tashqi devorining to'rt burchagida doira shaklidagi to'rt

burji — mo'lasī bo'lgan. Mo'lalar ichkari tomondan ravoqsimon qilib yopilgan uzun yo'lak — galereya bilan tutashirilgan. Galereya halqasi bo'ylab qator yo'laksimon kazematlar, toqli eshik o'rinlari, doira shaklidagi burjxonalar, xona gumbazlari davrimizgacha juda yaxshi saqlangan. Qasr ichida mulkdorning turar joyi, mehmonxona, ibodatxona, omborxona, chillaxona kabi turli xil imoratlar joylashgan.

Qazishma jarayonida ko'plab sopol idishlar, tosh, suyak, metallardan yasalgan buyumlar, qurol-yarog', zeb-ziynat, jumladan, temir pichoq, xanjar, bolta, o'roq, yoy o'qlarining paykonlari, tosh yorg'uchoqlar, kumush uzuk kabi ashyolar topildi. Topilmalar orasida nuroniy mo'ysafidning qiyofasi tushirilgan *terrakota* ayniqsa diqqatga sazovor. Unda qadimgi Choch (Toshkent) da yashagan aholining etnik qiyofasi mujassamlashgan. Arxeologik topilmalar orasida 18 ta kumush tanga va bir dona mis chaqa topilgan. Ulardan 6 tasi Choch mahalliy hukmdorlar tomonidan sosoniylar shohi **Pero'zning (459—484) dirhamlariga**



2-rasm. Haykalning bosh qismi.



3-rasm. Quva. Budda ibodatxonasidan topilgan haykal boshi. V—VI asrlar.

taqlidan zarb etilgan. 12 kumush tanga esa 705—732-yillarda so'qilgan. Ular xalifalikning ummaviylar xonadoniga tegishlidir. Bulardan tashqari, tepalikdan old tomoniga gajak dumli bars, orqasiga Chochning ayri tamg'asi va sug'dcha «Yabg'u Tarnavch» deb yozilgan Toshkentning mahalliy hokimining tangalari topildi. Ushbu tangalarga asoslanilganda Yunusobod qo'rg'oni V asrlarda bino qilinib, VIII asr o'rtalariga qadar unda hayot bo'lgan.

Xullas, Toshkent hududidagi oqtepalalar ilk o'rta asrlarda shahar atrofida qad ko'targan mudofaa qasrlarining xarobalari bo'lib, nodir arxeologik manba hisoblanadi. Ular ilk o'rta asrning mayda mahalliy hokimiyatchilik, o'zaro harbiy yurishlar, mehnatkash aholining ichki va tashqi g'animlarga qarshi ko'targan qo'zg'olonlari sharoitida bunyod etilgan yerdor dehqonlarning mustahkam istehkomli qasri namunasi sifatida Toshkent shahri atrofida yashagan aholining ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotining hamda o'sha vaqtlari sodir bo'lgan tarixiy voqealarning ko'pgina sahifalarini to'ldiradi.

## 2-§. ILK O'RTA ASR DAVLATLARI

### 1. Xorazm davlati

Zaiflashib borayotgan Qang' davlatidan birinchi bo'lib Xorazm ajralib chiqdi. Uni mahalliy Afrig'iylar sulolasiga mansub xorazmshohlar idora qila boshlaydi. Xorazm davlatining poytaxti dastlab Qoraqalpog'istonning hozirgi Ellikqal'a tumanida joylashgan qadimgi Tuproqqal'a shahar xarobasining o'rnida bo'lgan.

Mudofaa jihatidan poytaxt nihoyatda mustahkam qurilgan bo'lib, shaharning janubida devorning qoq belida mustahkam labirintli (g'ulomgardish) darvozaxonasi bo'lgan. Darvoza qarshisida shahar markazidan kesib o'tkazilgan ko'chaning har ikki tomonlari bo'ylab shaharliklarning turar joylari qanot yozgan. Shahar markazidan yuqoriroqda ibodatxona majmuasi, uning shimoli-g'arbiy burchak qismida esa balandligi 25 metr bo'lgan uch minorali xorazmshohlar qasri qad ko'targan. Qasr imoratlari ikki qavatli shoh saroyi va koshona turar joylarning devor-utokchalari turli mazmundagi rangdor tasvirlar, qabartma ganchkor naqshlar hamda haykallar bilan bezatilgan. Shaharning

umumiy maydoni 26 gektarni tashkil etadi. Bu davrda Xorazmda atrofi mustahkam devorlar bilan o'ralgan shaharlar, istehkomli qishloqlar juda ko'p bo'lgan.

Beruniyning yozishicha, milodiy 305-yilda xorazmshoh Afrig' o'z qarorgohini Xorazmning qadimgi poytaxti *Kat* shahriga ko'chirdi. Kat qayta tiklanib uning yonida joylashgan *Alfir* qasri ichida shoh o'ziga yangi saroy qurdirdi. Xuddi shu vaqtdan boshlab Xorazmning *Afrig'iy* podshohlari betiga shoh va orqasiga suvoriy tasvirlari tushirilgan kumush tangalar zarb etib, mamlakatning ichki va tashqi savdo munosabatlarida mustaqil bo'lib oladilar.

## 2. Xiyoniylar davlati

IV asr o'rtalarida Yettisuv va Sharqiy Turkistondan ko'chmanchi chorvador yoki *xiyon* nomli qabilalarning hujumi boshlanadi. Xiyoniylarning o'rta yoshdagi *Grumbat* ismli podshohi bo'lgan.

U bilimli, dono, behisob g'alabalari bilan dong'i taralgan zabardast hukmdor bo'lgan. Milodiy 353-yilda Grumbat boshchiligida xiyoniylar Sug'dga bostirib kiradilar. So'ngra ular Eronda tashkil topgan va tobora kuchayib borayotgan Sosoniylar davlati bilan to'qnashadilar. Dastlabki janglardayoq sosoniylar shohi *Shopur II* (309—379) xiyoniylardan yengiladi. So'ngra o'zaro sulhga kelishilib, hatto ular o'rtasida ittifoqlik ipi bog'lanadi. O'rtadagi ittifoq goh buzilib, goh tuzilib turadi.

Nihoyat, IV asrning 70-yillarida O'rta Osiyoda xiyoniylar hukmronligi o'rnatildi. Sirdaryo bo'ylaridan to Amudaryo havzasigacha cho'zilgan keng maydonda xiyoniylarning kuchli davlati qaror topadi. Bu davlat 120 yildan oshiqroq hukmdorlik qiladi.

## 3. Kidariylar davlati

V asrning 20-yillarida Sharqdan Sirdaryo va Orol bo'ylari orqali Xorazm hamda Amudaryo havzasiga yana bir ko'chmanchi chorvador aholi — *toxarlar* kirib keladi. Toxarlar kushonlarning avlodlaridan bo'lib, *Kidar* ismli hukmdor ularga yo'l boshchi edi. Shuning uchun ular *kidariylar* nomi bilan tilga olinadi. Tez orada kidariylar Amudaryo havzasi hamda g'arbiy va janubiy

Sug'd yerlarini ishg'ol qilib, xiyoniylar davlatining janubiy qismida o'z hukmronligini o'rnatadi. Amudaryoning so'l tomonida joylashgan Balx shahri esa bu yangi davlatning poytaxtiga aylantiriladi.

Aftidan kidariylar xiyoniylar bilan ittifoqchi sifatida harakat qilgan va tajovuzlarini Xurosonga tomon kengaytirishga intilgan. V asrning to 60-yillariga qadar ular Sosoniy shohlarining Sharqdagi asosiy dushmani bo'lib qolgan. Marv vohasida kidariylar bilan sosoniylar o'rtasida sodir bo'lgan jangda shohning qo'li baland kelib, o'z dushmani ustidan g'alaba qozonadi. Kidariylar va sosoniylar davlatlari o'rtasida Talikon yaqinida chegara belgilanadi. 456-yilda bo'lib o'tgan navbatdagi to'qnashuvlardan birida sosoniylardan qaqshatqich zarbaga uchragan kidariylar o'zini qayta o'nglab ololmaydi.

Shu vaqtda ular shimoldan janubga tomon siljigan yana bir ko'chmanchi chorvador aholi — *Eftallar* bilan to'qnashadilar. Natijada kidariylar O'rta Osiyoni tark etib, janubga — Shimoliy Hindistonga tomon chekinadilar va u yerlarda 75 yil hukmronlik qiladilar.

#### 4. Eftallar davlati

V asrning o'rtalarida diyorumizga shiddat bilan kirib kelgan bu yangi ko'chmanchi aholi yozma manbalarda *eftal*, *xaftal*, *xaytal* degan nomlar bilan tilga olinadi. «Eftal» degan nom ilk bor «xetal» shaklida V asr arman manbalarida uchraydi. Bu nom aslida «Eftalon» deb yuritilgan qabila nomidan olingan. So'ngra qabila oqsoqoli *Vaxshunvar* boshliq Eftallar davlati tashkil topdi. Qisqa vaqt ichida Chag'oniyon, Toxariston va Badaxshon bo'ysundiriladi. Bir zarba bilan Sug'dda xiyoniylar hukmronligi barham topadi. V asrning 50-yillarida Eftallar davlati nihoyatda kuchayadi. Hatto ular o'zaro aloqa o'rnatish maqsadida 456 yilda Xitoyga elchi yuboradilar. Eftallarning tobora kuchayib borayotgan tajovuzidan xavfsiragan sosoniylar ularga qarshi yurish qiladi. Ikki o'rtadagi jang-u jadallar Pero'z hukmronlik qilgan davrda (459—484) ayniqsa avjiga chiqadi. Sosoniylar shohi eftallarga qarshi uch marta yurish qiladi. Dastlabki janglardayoq u mag'lubiyatga uchrab,

asir tushadi. Vizantiya imperatori *Zenon* tomonidan yuborilgan o'lpon evaziga u asirlikdan ozod etiladi. Bir oz vaqt o'tgach, ikkinchi marta eftallarga qarshi qo'shin tortadi. Pero'zning ikkinchi yurishida ittifoqdosh Vizantiyaning elchisi ishtirok qiladi. Ikkinchi yurish ham muvaffaqiyatsiz tugaydi. Ikkinchi marta asirlikka olingan Pero'z 30 xachir o'lpon to'lash majburiyatini oladi. Biroq uning deyarli bo'shab qolgan xazinasidan faqat 20 xachirga yuk bo'ladigan mablag' topiladi, xolos. Shohning Kubod ismli yosh o'g'li eftallar yurtiga garovga yuborilib, Pero'z tutqunlikdan ozod etiladi. Ikki yil davomida eftallarga katta o'lpon to'lab turiladi. O'lponni shoh aholi boshiga og'ir soliq solish yo'li bilan to'playdi.

Belgilangan o'lponni to'lab bo'lgach, Pero'z eftallar bilan aloqani yaxshilashga harakat qiladi. Ular bilan quda-andachilik ipini bog'lash maqsadida, raqibiga singlisini xotinlikka taklif etadi. Eftallarning iltimosiga binoan 300 nafar harbiy mutaxassislar yuboriladi. Ammo eftallar hokimi Kunxa Eron mutaxassislarining bir qismini o'ldirishga, qolganlarini esa urib mayib qilishga buyuradi. Chunki shoh singlisi o'rniga cho'rilardan birini yuborib, eftallar hukmdorining izzat-nafsiga tekkan va bunday hiyla-nayrangi bilan uni nihoyatda ranjitgan edi. Shu boisdan Pero'z 484-yilda eftallarga qarshi uchinchi marta yurishga o'tlanadi. Bu galgi urush sosoniylar shohining halokati bilan tugaydi. Marv ishg'ol qilinib, Eron ustiga juda og'ir o'lpon yuklanadi. Garchi Pero'z vorislari *Kubod* (488—531), *Anushervon* (531—579) hukmronlik qilgan davrlarda eftallar bilan munosabatlar ancha yumshab tinchlik tusini olgan, hatto ayrim vaqtlarda Vizantiyaga qarshi eftallarning ittifoqdoshi sifatida harakat qilingan bo'lsa-da, ammo sosoniylar yil sayin kumush hisobida muayyan bojni muttasil to'lab turadi.

Shunday qilib, V asrning ikkinchi yarmi va VI asrning boshlarida O'rta Osiyo, Sharqiy Eron, Shimoliy Hindiston va sharqda Turkiston yerlarini birlashtirgan ilk o'rta asrlarning yangi qudratli Eftallar davlati tashkil topadi. Garchi bu davlat siyosiy jihatdan Kushon podshohligiga nisbatan unchalik mustahkam

bo'lmasa-da, ammo maydoni jihatidan undan katta edi. Bu buyuk davlat Sharq mamlakatlari, ayniqsa O'rta Osiyo xalqlari tarixida muhim rol o'ynadi.

### *Savol va topshiriqlar*

- ?
1. Xorazm davlati haqida nimalarni bilasiz?
  2. O'rta Osiyoda xiyoniylar davlati qanday qaror topdi?
  3. Yurtimiz yerlariga toxtarlarning kirib kelishi qanday yuz berdi?
  4. Qudratli eftallar va ularning davlati haqida nimalarni bilasiz?
  5. Sosoniylar va eftallar o'rtasidagi urushlar haqida gapirib bering.
  6. Sosoniylar shohi Pero'zning aloqalarni yaxshilash haqidagi taklifini eftallar nima uchun yomon qabul qildi?
  7. Sizing fikringizcha, 3-marta ular o'rtasida urush chiqishiga kim aybdor? Davlatlar o'rtasida shunday munosabatlar olib borilsa bo'ladimi?
  8. Ilk o'rta asr davlatlarining tarixini aytib bering.

### *MAVZUNI TO'LDIRISH UCHUN YOZMA MANBADAN MA'LUMOT*

**Samarqand, Buxoro, Qashqadaryo va Toshkent** viloyatlarida olib borilgan arxeologik tadqiqotlardan ma'lum bo'lishicha, V—VI asrlarda dehqonchilik vohalari tevarak-atrofiga kelib o'rtnashgan ko'chmanchi eftallarning ommaviy ravishda o'troqlashuvi kuchayadi. Buning oqibatida obikor yerlarga bo'lgan muhtojlik ortadi. Daryo vodiylari bo'ylab katta-kichik sug'orish kanallari qazib bitkaziladi. Minglab gektar yangi yer maydonlari o'zlashtiriladi. Sug'orma dehqonchilikning kengayishi bilan sug'orish texnikasi murakkablashib boradi. Shoxariqlar chuqurlashtirilib, sersuv va sershoxa sug'orish tarmoqlariga aylanadi. Ular daryodan suvni bog'lab oluvchi va yuqoriga ko'tarib beruvchi suv inshootlari bilan jihozlanadi.

Xuddi shu davrda **Chag'oniyon, Termiz, Samarqand, Buxoro, Kesh, Naqshab va Toshkent** atroflari to'la o'zlashtirilib, alohida-alohida dehqonchilik vohalari shakllanadi. Keyinchalik bu vohalarda yerdor dehqonlarning siyosiy mavqei oshib, ilk o'rta asrlarning deyarli mayda hokimiyatlari tashkil topadi. Buxoro viloyatining **Jondor** tumanidagi **Varaxsha** qasri VI—VII asrlarda *buxorxudotlar* — Buxoro mahalliy hukmdorlarining yozgi qarorgohiga aylantirilgan edi.

### 3-§. EFTALLAR DAVLATIDA IJTIMOY VA IQTISODIY HAYOT

#### 1. Xo'jalik hayoti

Eftallar davlati tasarrufiga birlashgan ulkan mamlakatning tabiiy geografiyasi qanchalik rang-rang bo'lsa, aholisining etnik tarkibi ham shunchalik qurama, ijtimoiy va iqtisodiy hayoti esa biri ikkinchisidan keskin farq qiladi. Eftallarning kelib chiqishi ko'chmanchi qabilalarga mansubligi tufayli ilk o'rta asr Xitoy manbalarida ularning yurtida shaharlarning yo'qligi, o'zlari esa o'tloqlarga boy yaylovlarda kigiz o'tovlarda yashashi ta'riflanadi. VI asr Vizantiya muarrixlarining asarlarida esa aksincha ular «shaharlik» ekani ta'kidlanadi. Biri ikkinchisiga zid bunday ma'lumotlarning har ikkisida ham ma'lum darajada asos bor. Eftallar zabt etgan yerlarida obod dehqonchilik vohalariga va savdosi rivojlangan shaharlariga ega bo'ldilar. Yillar o'tishi bilan omilkor mahalliy aholi bilan qon-qarindosh bo'lib, ularga qorishib ketadilar. Shu boisdan 568—569-yillarda Vizantiya imperatori *Yustin II* huzurida bo'lgan turklar elchisi imperatorning «*Eftallar shaharlarda yashaydilar mi yoki qishloqdami?*» — degan savoliga «*Ular— shaharda yashovchi qabilalar, janobi oliylari*» deb javob bergan.

Demak, Eftallar davlatiga birlashgan aholining bir qismi ko'chmanchi chorvador bo'lsa, ikkinchi kattaroq qismi shahar va qishloqlarda yashovchi o'troq aholi edi. Uning aholisi asosan ziroatchilik bilan shug'ullanardi. Toxariston va Sug'd rivoj topgan dehqonchilik va bog'dorchilikning markazi hisoblanardi. Qashqadaryo va Zarafshon vodiylarida g'alladan tashqari sholi ham yetishtirilardi. Xitoy manbalarida qayd etilishicha, V—VI asrlarda Sharqiy Turkiston va O'rta Osiyo yerlarida ko'plab g'o'za ekilardi. Uning tolasidan oppoq va nihoyatda mayin mato to'qilgan. Xitoy bozorlarida bunday matoga talab katta bo'lgan. Chunki o'sha davrlarda Xitoyda paxta hali ekilmas edi.

Aholining dashtliklarda yashovchi yarim ko'chmanchi qismi chorvachilik, xususan mayda va yirik shoxli hayvonlar boqish, tuyachilik, tog'li va tog' oldi mintaqalarida esa yilqichilik bilan shug'ullanardi. Farg'ona vodiysi hamon zotli arg'umoqlari bilan mashhur edi.

## 2. Yer egaligi

Ziroatkor yerlarning kattagina qismi hali ham qishloq jamoalari tasarrufida bo'lsa-da, ammo mamlakatda feodal munosabatlarining tarkib topishi oqibatida yer maydonlarining ma'lum bir qismi mulkdor tabaqa vakili — «dehqon» lar qo'lida to'plana boshlagan edi. Buning natijasida qishloq jamoasining erkin qo'shchilari ma'lum darajada dehqonlar asoratiga tushib, ularga qaram kadivarlarga aylanmoqda edi. Obikor yerlarning bir qismi ibodatxonalar mulki hisoblanar edi. Bunday yerlar «vag'nze» deb yuritilar edi.

Yaylovlarning asosiy qismi esa qabila va urug' jamoalari hamda ularning oqsoqollari — *biylar* tasarrufida edi. Hozirgi vaqtda Toshkent vohasi va Janubiy Qozog'iston yerlarining bir qismini suv bilan ta'minlab turgan *Zog'ariq* va *Bo'zsuv*, Samarqand viloyati janubiy tumanlarining asosiy suv manbai *Darg'om* kanali V asrda barpo etilgan eng yirik sug'orish tarmoqlaridan hisoblanadi. Bu davrda tog' oldi mintaqalarida joylashgan adir yerlarga suv chiqarib, obod etishda o'q, gupchak, tishli g'ildirakka asoslangan va o'z davri uchun ancha-muncha murakkab suv inshootlari charxparrak, chig'ir va boshqalardan foydalaniladi.

Yangitdan o'zlashtirilgan yerlarda mulkdor dehqonlarning yirik qo'rg'onlari-yu hashamatli qasrlari bilan bir qatorda mehnatkash qo'shchilarning ko'pdan-ko'p qishloqlari-yu mayda turar joylari qad ko'taradi. Xuddi shu davrda Chag'oniyon (Surxondaryo), Samarqand, Buxoro, Kesh (Shahrisabz), Naqshab (Qarshi) va Toshkent atroflari to'la o'zlashtirilib, alohida-alohida dehqonchilik vohalari shakllanadi. Keyinchalik bu vohalarda yerdor dehqonlarning siyosiy mavqei oshib, ilk o'rta asrlarning mayda hokimiyatlari tashkil topadi.

Aholining ommaviy hashari va mashaqqatli mehnati bilan suv chiqarilib obod qilingan vohalarni tashqi yov bosqinlaridan muhofaza qilish maqsadida ularning tevarak-atrofi bir necha o'n va yuz chaqirimlarga cho'zilgan baland va qalin devorlar bilan o'rab olinadi. Ilk o'rta asrlarning bunday mudofaa inshootlari ko'rinishdan qadimgi Buyuk Xitoy devoriga o'xshar edi.

### 3. Tashqi savdo va pul muomalasi

Tashqi savdo bojidan manfaatdor bo'lgan eftallar bu shaharlar orqali o'tgan «*Ipak yo'li*» ni o'z nazoratlari ostida tutib turishga harakat qilgan. Xitoy, Hindiston, Eron va Vizantiya bilan bo'lgan xalqaro savdoda ular faol qatnashardi. Ipak yo'li savdosida sosoniy savdogarlari bilan raqobatda asosan sug'diylar vositachilik rolini o'ynardi.

Xalqaro savdo aloqalarining rivojlanishi bilan mamlakatda tanga pul muomalasi tartibga solinadi. Ichki va tashqi savdo munosabatlarida eftallar dastavval sosoniy hukmdorlarining kumush tangalaridan keng foydalanadilar. Bu davrda sosoniylar to'lagan o'lponlar va yillik bojlar hisobidan Eftallar davlat xazinasida juda katta miqdorda Eronning kumush dirhamlari to'planib qolgan. Shu boisdan V asr sosoniy tangalari mamlakatning ichki hayotida keng muomalada bo'lgan.

Keyinchalik eftallar sosoniylar tangalariga taqlid qilib kumush tangalar zarb qiladilar. Bulardan tashqari, Buxoro, Poykand, Vardona, Naqshab, Samarqand va Xorazmda mahalliy hokimlar tomonidan chiqarilgan chaqa tangalar mamlakatni ichki savdosida keng muomalada bo'lgan. Bu, shubhasiz, mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy hayotida mahalliy hokimlar katta nufuzga ega ekanidan dalolat beradi. Eftallar o'rtasida tabaqalanish va mulkiy tengsizlik kuchli bo'lgan. Ularda o'z davlat tuzumi qaror topgan qonun va qoidalari mavjud bo'lgan. Jinoyatchilik bo'yicha jazo nihoyatda qattiq bo'lgan. O'g'rilik qilgan jinoyatchining boshi kesilgan. O'g'irlangan mol-mulkning miqdoridan qat'i nazar u o'n barobar qilib undirib olingan.

Eftallar o'z tashqi siyosatlarida harbiy kuchga suyananlar. Ularning juda kuchli qo'shini bo'lgan. Uning asosiy qismini suvoriylar tashkil etgan. Eftal suvoriylari *gurzi* va *shamshir* bilan qurollangan. *Kamondan* o'q uzishda mohir mergan bo'lishgan.

VI asr Vizantiya tarixchisi *Prokopiyning* yozishicha, eftallarning qonuniy davlati **podshohi mutlaq** tomonidan boshqarilgan. Qo'shni davlatlar bilan munosabatlarida ular *rumiy* (vizantiyalik) *lar* va *forslar* adolatidan zarracha kam bo'lmagan adolatga amal qilganlar.

#### 4. Madaniy hayot

Buyuk Eftallar davlatining tashkil topishi mahalliy aholining madaniy hayotiga ham ma'lum darajada ta'sir etdi. Chorvador ko'chmanchilar bosqini oqibatida tevarak-atrofi dashtliklarga tutashgan Xorazm, Buxoro, Naqshab kabi viloyatlarning ziroatkor yerlari payhon etilib, ko'plab qishloqlar, katta-kichik shaharlar bo'shab, huvillab qoldi. Xorazm aholisining kattagina qismi o'z ona yurtini tark etib, Zarafshon vodiysiga borib o'rnatildi.

Ko'chmanchi qabilalarning dehqonchilik vohalari atrofiga kelib o'rnatilishi bilan shubhasiz ma'lum darajada dasht udumlari va e'tiqodiy tasavvurlari o'troq aholining hayotiga kirib bordi. Mamlakatda sodir bo'lgan tushkunlik uning moddiy madaniyatida albatta o'z aksini topdi.

Hunarmandchilikning kulolchilik sohasi mahsulotlari odmi-lashdi va dag'allashdi. Bunday holat garchi Xorazm, Buxoro va Qashqadaryo vohalarida yaqqol ko'zga tashlansa-da, ammo u asriy madaniy an'analari kuchli bo'lgan Toxariston va Sharqiy Sug'dda deyarli sezilmadi. Aksincha, bunday vohalarda ko'chmanchilar tez orada o'troqlashib, mahalliy aholi bilan qorishdi va uning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotida faol ishtirok etdi. Ilk o'rta asr munosabatlari qaror topayotgan sharoit-



da ko'chmanchilarning tazyiqi ostida o'troq hayotning madaniy an'analari dasht udumlari bilan omixtalashib, ilk o'rta asrlarning o'ziga xos madaniyati shakllana boshladi. Mahalliy hayotda sodir bo'lgan bunday o'zgarishlar ayniqsa binokorlik, me'morchilik va tasviriy san'atning ayrim jab-halarida ko'proq namoyon bo'ldi. Ayniqsa binokorlikka kuchli ta'sir ko'rsatdi. Samarqand, Buxoro,

4-rasm. Sopol obdasta — murg'obiy.  
VII—VIII asrlar.

Naqshab va Toshkent kabi dehqonchilik vohalarida baland tagkursi ustiga bino qilingan ko'plab istehkomli qasrlar va feodal qo'rg'onlari qad ko'tardi.

IV asrda Xorazmshoh *Afrig'* tomonidan qurilgan *Al-Fir* qal'asini ta'riflar ekan, Beruniy uning «... *uchta devori paxsadan va xom g'ishtdan urilgan; bularning biri ikkinchisi ichiga joylashgan; har birining balandligi boshqasidikiga qaraganda oshib boradi, ammo shohlar qasri hammasidan ham balanddir*» — deb yozadi.

Bu davr binokorligi va me'morchiligida ayniqsa qasrlar alohida o'rin tutgan. Ularning ayrimlari hatto ikki qavatli bo'lib, yuqorisiga maxsus ko'tarma — pandus orqali chiqilgan.

Eftallar davrida ham saroy va ibodatxona devorlarini turli mazmundagi rangdor tasvirlar bilan bezash hamon odatiy tusda edi. Bunday tasviriy san'atning nodir namunalaridan biri Bolaliktepa qasri devorlarida qayd etilib o'rganildi.

V—VI asrlarda diniy e'tiqod va tasavvurlar bilan uzviy bog'liq bo'lgan tasviriy san'at — koroplastika — ma'budalarning sopol haykalchalarini yasash va ularga topinish keng yoyiladi. Bu davrga oid sopol haykalchalar juda ko'pligi va xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Ular qadimda Ka'baga qo'yilgan sanamlarni eslatardi. Hatto Samarqand, Buxoro, Naqshab va Toxaristonda yasalgan sopol haykalchalarda tasvirlangan siymolar faqat yuz tuzilishidagina emas, balki kiyim-kechaklari va taqinchoqlari bilan ham bir-biridan mutlaqo farq qiladi.

## 5. Diniy qarashlar va til

Ma'lumki eftallar siyosiy jihatdan juda ko'p xalqlarni birlashtirgani sababli turli diniy e'tiqoddagi aholi yonma-yon yashagan. Sug'dda otashparastlik dini keng yoyilgan bo'lsa, Toxariston va Sharqiy Turkistonda budda diniga e'tiqod qiluvchilarning soni ko'p edi. Shaharlarda nasoro va yahudiy jamoalari ham mavjud bo'lgan. Ayrim viloyatlarda esa, hatto Moniy va Mazdak ta'limotlari tarqala boshlagan edi. O'rta Osiyo zardushtlari Noxid, Mitra va Siyovush kabi mahalliy ma'budalarga ham sig'inardilar. Navro'z kuni Buxoro otashparastlari Siyovush «qabri» ustida xo'roz so'yib qurbonlik qilardilar.



5-rasm. Sopol ko'za.  
VII—VIII asrlar.

Geografik jihatdan bir-biridan uzoqda joylashgan va har xil diniy tasavvur va an'analarga ega bo'lgan viloyatlarning aholisi turli tillarda so'zlashgan. Chorvador aholi o'rtasida shubhasiz turkiy til muhiti hukmron edi. O'troq aholining kattagina qismida sug'diycha so'zlashuv va sug'd tilining keng muomalada bulishi kuzatiladi. Bu davrda sug'd tili va yozuvi xalqaro savdo tili sifatida Yettisuv va Farg'ona orqali Sharqiy Turkistonga kirib, Xitoy hududlarigacha yetib boradi. V—VI asrlarda Sug'd yozuvi va uning

«Samarqand yozuvi» uslubidan tashqari Xorazm va eftal yozuvlari ham tarqalgan edi. Eftallar xati Baqtriya yozuvi asosida paydo bo'ladi. Xitoy sayyohining yozishicha: eftallar yozuvi asosan 25 harfdan iborat bo'lgan. Xat chapdan o'ngga tomon ko'ndalangiga yozilgan.

Bu davrda qo'shni mamlakatlar bo'lmish Xitoy, Hindiston va Eron bilan iqtisodiy va madaniy aloqalar kengayib boradi. V asrda O'rta osiyolik shishasozlar Xitoy hunarmandchilariga rangli shisha va shisha buyumlar yasashni o'rgatadilar. O'rta Osiyo shishasi rangdorligi, yarqiroqligi va tiniqligi jihatidan Vizantiya shishasidan ustun turgan. Xitoy imperatorlari o'z saroylarini bezashda O'rta Osiyodan keltirilgan rangli shishadan foydalanganlar. Shunday qilib, eftallar davrida O'rta Osiyo aholisining madaniy an'analari qo'shni mamlakatlar, xususan, Hindiston va Eron sosoniylarining tasviriy uslublari bilan omixtalashib ilk o'rta asrlar madaniyatining shakllanishida mustahkam poydevorga aylandi.

#### *Savol va topshiriqlar*

- ? 1. Eftallarning ijtimoiy va iqtisodiy hayoti haqida nimalarni bilasiz? 2. Eftallarda yer egaligi qanday edi? 3. Sug'orish tarmoqlari haqida gapirib bering. 4. Tashqi savdo qanday yo'lga qo'yilgan? 5. Eftallar davlati

mahalliy aholi madaniy hayotiga qanday ta'sir qildi? 6. Binokorlik, me'morchilik haqida gapirib bering. 7. Eftallar qanday dinlarga e'tiqod qilishgan? 8. Ularning tili va yozuvi haqida gapirib bering.

#### MAVZUNI TO'LDIRISH UCHUN YOZMA MANBADAN MA'LUMOT


V—VII asrlarga mansub tasviriy san'atning nodir namunalari biri 1953—1955-yillarda arxeolog L. I. Albaum tomonidan Surxondaryo viloyatining *Angor* tumanida joylashgan *Bolaliktepa* yodgorligini qazib ochib o'rganildi. Kattagina xonaning devorlarida rangli bo'yoqlar bilan qandaydir mehmondorchilik — *izdahom* tasvirlangan. Unda gilamchalar ustida juft-juft bo'lib, tiz cho'kib o'tirgan erkak va ayollar tasvirlangan. Erkaklarning egnida uchburchak shaklda keng qaytarma yoqali va hoshiyali uzun kamzul, oyog'ida mahsi, belida ingichka kamarga o'tkazilgan qayrilma uchli xanjar osilgan. Birida vaza, ikkinchisida to'g'ro tutgan qo'llarining jimjilog'ida bittadan ikkita yirik ko'zli uzuk taqilgan. O'ng qo'lida qadah, so'lida ko'zgu tutgan ayollarning kiyim-kechaklari nihoyatda bashang. Ichki libos ustidan hoshiyali qaytarma yoqali hamda uqali uzun va keng guldor yopinchiq — *qabo* yelkaga tashlangan. Quloqlarida yakkadurli zirak, jimjiloqlarida esa ko'zli uzuk taqilgan. Xullas, Bolaliktepa qasri devorlarida tasvirlangan ayollarning tashqi qiyofasi VI asrda eftallar hukmdori huzurida bo'lgan budda kohinini hayratga solgan saroy ayollarini eslatadi. Uning ta'riflashicha, o'sha vaqtlarda etfal malikalari juda qimmatbaho matodan tikilgan, orqa etagi uch quloch va undan ham uzunroq bo'lgan serbezak ko'ylak kiyar, uning etagini esa maxsus joriyalar ko'tarib yurganlar.

#### 4-§. TURK XOQONLIGI

##### 1. Xoqonlikning tashkil topishi

V asrning ikkinchi va VI asrning birinchi yarimlarida Oltoy va Janubiy Sibirda *Ashina* qabilasining yabg'ulari **Asanshod**, **Tuu** va **Buminlar** (460—553) boshchiligida turkiy qabilalarning ittifoqi vujudga keladi. VI asr o'rtalarida **Bumin** boshliq bu turk ittifoqi tele qabilasini o'ziga bo'ysundiradi. 551-yilda Bumin «*xoqon*», ya'ni

## ILK O'RTA ASRLARDA TURKISTON



hukmdor deb e'lon qilinib, O'rta Osiyoda yangi saltanat — «*Turk xoqonligi*» ga asos soladi. *Oltoy* xoqonlikning markazi qilib belgilanadi. Turklarning g'arbga tomon yurishlarida **Istemi** boshchilik qiladi. Unga «*Yabg'u xoqon*» degan unvon beriladi. Tez orada Yettisuv va Sharqiy Turkistonga tutashgan yurtlarda yashovchi turkiy qabilalar bo'ysundiriladi. 555-yildayoq turklar Sharqiy Turkistonning obod dehqonchilik viloyatlarining kattagina qismini va boy hunarmandchilik shaharlarini hamda Sirdaryo va Orol dengizi bo'ylarigacha cho'zilgan keng dashtliklarni egallaydilar. Turklar hukmronligi shu paytlarda, shubhasiz Xorazmga ham yoyilib, xoqonlik chegarasi Eftallar davlati hududlariga borib yondoshadi.

558-yilga borganda turklar *Yoyiq* (Ural) va *Itil* (Volga) bo'ylarini zabt etib, undan g'arbdagi va shimoliy Kavkazning bepoyon yerlarini egallab olgan *avarlar* bilan to'qnashadilar. Turklar-tazyiqi oqibatida bu davrda yuzaga kelgan qulay vaziyatdan foydalanib sosoniylar **Toxariston** va **Chag'oniyonni** eftallardan tortib oladilar.

## 2. Xoqonlikning Eron va Vizantiya bilan munosabati

Bunday murakkab siyosiy vaziyat shubhasiz o'z-o'zidan turklarni Eron, so'ngra Vizantiya bilan yaqinlashtiradi. Uzoq vaqt eftallar tazyiqida yashagan sosoniylar bu davlatning tamomila barbod bo'lishidan manfaatdor edi. **Xusrav I Anushervon** (531—579) tashabbusi bilan yuzaga kelgan o'zaro harbiy ittifoq Eron shohining Yabg'u xoqon Istemiga kuyov bo'lishi orqali yanada mustahkamlanadi.

O'sha yili Eron askarlarining Balxga hujumi ko'magida turklar Eftallar davlati yerlariga bostirib kiradilar. Parak (Chirchiq) vodiysi va uning markazi *Choch shahri* ishg'ol qilinadi. Sirdaryodan o'tib, Zarafshon vodiysiga kirib boradilar. Samarqand, Kesh va Naqshabni egallab, ular Buxoroga yaqinlashadilar, qo'shni viloyat shaharlaridan katta kuch to'plab eftallar Buxoro yaqinida jangga tayyorgarlik ko'radilar. Sakkiz kun davom etgan shiddatli jangda eftallar qo'shini turklardan yengiladi. Shunday qilib, janubdan Eron sosoniylaridan, shimoldan esa Turk xoqonligidan zarbaga

uchragan Eftallar davlati bir asrdan oshiqroq hukmronlikdan so'ng, tamomila barbod bo'ladi. Natijada mag'lub davlatning merosi o'zaro bo'linib, Amudaryoning janubiy qirg'oqlarigacha bo'lgan viloyatlar Eron, uning sohillari bo'ylab Kaspiy dengizigacha cho'zilgan yerlar Turk xoqonligi tasarrufiga o'tadi.

Eftallar podsholigi qulagach, vaziyat tubdan o'zgaradi. Endilikda o'z chegarasini shimoli-sharqqa tomon kengaytirib olgan Eron Amudaryodan to Suriyaga qadarli Ipak yo'li ustida haqiqiy sarbon bo'lib oladi. Uni qattiq nazoratga olib, ipak savdosidagi ustunlikni o'z qo'lida tutib turishga urinadi. Uzoq Sharqdan Eron hududlarigacha karvon yo'li nazoratini o'z homiyligi ostiga olgan turklar esa, Eron orqali Vizantiya bilan bevosita savdo qilishga harakat qiladi. Biroq Eron bunga yo'l bermaydi. Shu boisdan vaziyat murakkablashib, ittifoqchilar o'rtasida adovat paydo bo'ladi. Eron orqali Vizantiya bilan olib borilgan bevosita savdo aloqalari deyarli uziladi. Turklarning aloqani tiklash uchun elchilarni yuborishi natija bermaydi.

Turklar Vizantiya bilan harbiy ittifoq tuzib, sosoniylarga qarshi yurish boshlashga qaror qiladilar. 568-569-yillarda Turk xoqonligi Konstantinopolga imperator Yustin II saroyiga o'z elchilarini yuboradi. Turk elchilari poytaxtda tantana bilan qabul qilinib, Vizantiya va Turk xoqonligi o'rtasida Eronga qarshi harbiy ittifoq tuziladi. Qaytishda turklar mamlakatiga javob elchiligi yuboriladi. Vizantiya elchisini xoqon Tangritog' (Tyanshan) ning Oltin tog'i etagidagi O'rdugohida qabul qiladi.

Biroq ko'p o'tmay Vizantiya bilan munosabat jiddiylashadi. Turklar Yustin II ning avarlar bilan olib borgan tinchlikka oid aloqalarini ittifoqlikka xiyonat deb, undan ranjiydilar. 575—576-yillarda ular Qrim yarim oroligacha kirib boradilar.

Shunday qilib, VI asrning 70—80-yillarida Enasoyning yuqori oqimidan to Amudaryo bo'ylarigacha, Manchjuriyadan to Kimmeriy Bosforigacha cho'zilgan ulkan maydonda ko'chmanchi chorvadorlarning Buyuk Turk xoqonligi tashkil topdi. Bu ulkan davlat Xitoy, Eron va Vizantiya kabi zamonasining yirik davlatlari bilan iqtisodiy va siyosiy munosabatlar o'rnatib, ular qatoridan munosib o'rinni egallaydi.

### 3. Turk xoqonligining boshqaruvi

Shuni ta'kidlash joizki, turk xoqonligi qanchalik buyuk bo'lmasin, chinakam markazlashgan davlat emas edi. Uning asosi turkiyzabon qabilalarning ittifoqidan iborat edi. Bu ittifoqni xoqon boshqarar edi. Hukmdorning hokimiyati urug'-aymoq udumlariga tayangan harbiy-ma'muriy boshqaruvga asoslangan edi. Mamlakat chorvador ko'chmanchi va o'troq dehqon aholiga bo'linardi. Ko'chmanchi chorvador aholi «budun» yoki «qora budun» nomlari bilan yuritilardi. Budun o'z navbatida qabilalar ittifoqi birlashmasini tashkil etardi. Elning hokimi «yabg'u» yoki «jabg'u» nomi bilan atalardi. Yabg'u darajasida faqat xoqon urug'iga qonqarindosh bo'lganlarga ko'tarilardi. Shu boisdan ba'zan u «yabg'u xoqon» deb ulug'lanardi. El sardori rahnamoligida bir tuman, ya'ni o'n ming suvoriyni safga tortar edi. Bunday harbiy bo'linmaning tumanboshisi «shod» deb yuritilardi.

O'rta Osiyoda hukmronlik o'rnatilgan dastlabki davrda turk xoqonlari mamlakatning o'troq aholi yashaydigan obod viloyatlarini ko'chmanchilar ixtiyoriga topshirsalar-da, ammo eftallar kabi aholisining ichki hayotiga deyarli aralashmaydilar. Manbalardan ma'lum bo'lishicha, VI asrda Chirchiq, Zarafshon, Qashqadaryo va Amudaryo havzalarida o'ndan ortiq mayda feodal hokimiyatlar mavjud edi. Ularning iqtisodiy va siyosiy boshqaruvi yerli sulola hukmdorlari qo'lida qoldirilib, turklar ulardan faqat *boju yasoq* undirib olish bilan cheklanadilar.

Bunday ulkan mamlakatni, xususan uning o'troq viloyatlarini boshqarishda turklar chet el maslahatchilaridan keng foydalanadilar. Xitoy, Sharqiy Turkiston, Yettisuv va Sug'dning katta shaharlarida yetishib chiqqan bilimdonlardan bir guruhi doimo xoqon saroyida yashardi.

Biroq mamlakat boshqaruvida urug'-aymoqchilik udumlarining kuchliligi, avvalambor, xoqonlikning siyosiy jihatdan mustahkamlanib, uning markazlashuviga to'sqinlik qilardi. Oqibatda Turk xoqonligi 603-yilda ikki mustaqil davlatlarga ajralib ketadi. Ulardan biri Mo'ng'ulistonda tashkil topgan *Sharqiy turk davlati*, ikkinchisi esa O'rta Osiyo, Jung'ariya va Sharqiy Turkistonning bir qismini o'z tasarrufiga olgan *G'arbiy turk xoqonligi* edi.

#### 4. G'arbiy turk xoqonligi

G'arbiy turk xoqonligining markazi Yettisuv edi. G'arbiy xoqonlik ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy jihatdan Sharqiy xoqonlikdan mutlaqo ajralib turardi. Sharqiy xoqonlik aholisining asosiy qismi chorvador ko'chmanchilar edi. G'arbiy xoqonlik aholisining kattagina qismi esa o'troq dehqonchilik, hunarmandchilik va savdo-sotiq bilan mashg'ul edi.

Yarim asrlik hukmronlik jarayonida turklarning bir qismi o'troqlashadi, qolganlari yerli chorvadorlar bilan qorishib ketadi. O'troq hayotning an'anaviy ma'muriy udumlari ta'sirida boshqaruv tartiblari asta-sekin o'zgaradi.

VII asrning birinchi choragida G'arbiy xoqonlik nihoyatda kuchayadi. Uning sharqiy chegarasi Oltoyga, janubiysi esa Hind daryosi bo'ylariga borib taqaladi. Xoqon **To'nyabg'u** (618—630) hukmronlik qilgan davrda boshqaruv tartiblari isloh qilinadi. O'troq viloyat hokimlarini xoqonlik ma'muriyati bilan bevosita bog'lash va ularning ustidan nazoratni kuchaytirish maqsadida mahalliy hukmdorlarga xoqonlikning «yabg'u» unvoni beriladi. Natijada ular xoqonning noibiga aylanadilar. Shu bilan birga O'rta Osiyo, Sharqiy Turkiston va Toxaristonning deyarli mustaqil hokimliklari ustidan siyosiy nazorat kuchaytirilib, ular huzuriga xoqonlikning vakillari yuboriladi. Bunday vakillar «tudun» deb yuritiladi.

Biroq xoqonlikdagi ayrim qabilalar o'rtasidagi hokimiyat uchun tobora kuchayib borgan kurash oqibatida G'arbiy turk xoqonligi zaiflashib, bo'linib ketadi.

#### 5. Ijtimoiy hayot

Turk xoqonligiga birlashgan aholining hayoti ham, xo'jaligi ham turlicha edi. Ko'chmanchi chorvador turklarda urug' jamoachilik an'analari hali nihoyatda kuchli edi. Bunday patriarxal oilada ba'zan uy qullari ham bo'lar edi. Ko'chmanchilarning asosiy qismi kambag'al chorvachi va ovchilar edi. Ular o'z urug'i va qabilasi doirasida oqsuyak tabaqaga tobe holda yaylovma-yaylov ko'chib yashar edilar. Davlatni bosh hukmdor «xoqon» yoki «qog'on» deb yuritiladigan buyuk podshoh boshqarardi.

Ko'chmànchilarning asosiy mashg'uloti chorvachilik edi. Yilqichilikka katta ahamiyat berilib, xo'jalikda tuyachilik muhim o'ringa ega edi. Chorvador ko'chmànchilar orasida mulkdorlar va ularning xizmatida esa ko'plab qul, cho'ri va xizmatkorlar bo'lardi. Davlatmandlarning eng yirik vakili xoqonning o'zi edi.

Xoqonlikda shaharlar va qishloqlar ko'p bo'lib, aholisi asosan dehqonchilik, hunarmandchilik va savdo-sotiq ishlari bilan shug'ullanardi. Bu joylarda Sug'ddan kelib o'rmashib qolgan aholi ko'p edi. Dehqonchilikda asosan don ekinlari: bug'doy, arpa, sholi va tariq ekilardi. Paxta, beda ekish, uzumchilik, bog'dorchilik va tut ko'chatlari o'tqizish hamda uy hayvonlarini boqish bilan shug'ullanilar edi.

Shahar aholisi hunarmandchilik va savdo-sotiq bilan mashg'ul edi. Kulolchilik, to'qimachilik, sarrojlik, miskarlik, chilangarlik, temirchilik va zargarlik ancha-muncha rivoj topgan edi. Shaharlarda hunarmandchilikning kengayishiga turklar katta ta'sir ko'rsatadilar. Chunki qadimda ularda kasb-hunarning ko'pgina sohalari nihoyatda rivoj topgan edi. Turk hunarmandlari yasagan zebzi-ziyatlar va qurol-yarog'lar xilma-xilligi va nihoyatda puxtaligi bilan ayniqsa ajralib turardi. Farg'ona va Sug'dda *oltin, mis, temir* va *simob*, Eloqda *qo'rg'oshin, kumush* va *oltin* qazib olinardi.

Ichki va tashqi savdo-sotiq ishlari ham shahar aholisining asosiy mashg'ulotlaridan biri edi. Bu davrda ayniqsa Sug'd savdogarlarining mavqei baland edi. Xoqon savdo ahli bilan juda yaxshi muomalada edi. Chunki xoqon boshliq turk mulkdorlari orttirgan boyliklarini savdo karvonlari orqali turli mamlakatlarga yuborar va tashqi savdodan katta foydaga ega bo'lar edi. Eron bilan munosabatlarning keskinlashuvi oqibatida bu davrda karvon yo'llari janubdan shimolga tomon ko'chgan edi.

VII asrning birinchi yarmida G'arbiy turk xoqonligi bilan Xitoy o'rtasida iqtisodiy aloqalar ayniqsa gavjumlashdi. Bu davrda Xitoyga to'qqiz marotaba savdo elchiligi yuboriladi. Birgina 627-yilning o'zida **Buxoro, Samarqand, Ishtixon** va **Ustrushona** (Jizzax va O'ratepa viloyatlari) dan birlashgan juda katta savdo karvoni Xitoyga yetib boradi.

Shunday qilib, G'arbiy turk xoqonligiga birlashgan aholining dehqonchilik, hunarmandchilik va savdo-sotiq bilan shug'ullangan

o'troq qismi madaniy jihatdan ilg'or bo'lib, xoqonlikning ijtimoiy va iqtisodiy turmushida yetakchi rolni o'ynagan.

## 6. Xalq qo'zg'olonlari

V—VII asrlarda O'rta Osiyoda feodallashtirish jarayoni tobora avj olib, feodal zulm kuchayadi. Yer va suvdan ajralib qashshoqlashib borayotgan ozod *ziroatkor kashovarlar* mulkdor dehqonlar asoratiga tushib, *qaram kadivarlarga* aylanadi. Qashshoqlik, jabr-zulm va dehqonlar asoratiga qarshi aholi bosh ko'tarishga majbur bo'ladi. Shunday xalq qo'zg'oloni dastavval V asr oxiri va VI asr boshlarida Eronda *Mazdak* boshchiligida ko'tarilgan edi. Yer, suv va boylik hamda hokimiyatni egallab olib, aholini muhtojlikka solgan katta yer egalariqa qarshi mazdaklar «hamma barobar bo'lsin» —degan g'oyani olg'a surgan edilar. Mazdak qo'zg'oloni bostirilib, oradan qariyb yarim asr o'tgach, Buxoroda mana shunday xalq harakati ko'tariladi. Qo'zg'olonga *Abruy* boshchilik qiladi. X asr Buxoro tarixchisi Muhammad Narshaxiyning yozishicha, qo'zg'olon natijasida Abruydan jabrlangan mulkdor dehqonlar va boy savdogarlar Buxoro viloyatini tark etib **Turkiston** va **Taroz** atrofiga borib o'rnashadilar. Qochib ketganlar orasida bir katta dehqon bo'lgan, u Buxoroning qadimiy dehqonzodalariidan bo'lgan. Daromadli yerlarning ko'pi uning mulki, kadivar va xizmatkorlarning ko'pchiligi uning xizmatida bo'lganidan u *Buxorxudot* nomi bilan shuhrat topgan edi. Qochib borganlar turk xoqoniga murojaat qilib qo'zg'olonchilarga qarshi kurashda yordam berishni so'raganlar. Turk xoqoni *Qoracho'rin Turk* o'g'li *Sheri Kishvar* boshliq qo'shin yuboradi. Abruy o'ldirilib, qo'zg'olon bostiriladi. Kadivar va xizmatkorlar o'z xo'jayinlari — dehqonzodalarga qaytariladi.

Shu tariqa VI asrning ikkinchi yarmida Buxoroda ilk feodal dehqonlarning kadivarlar ustidan hukmronligi yanada mustahkamlanadi.

### *Savol va topshiriqlar*

?

1. Xoqonlik qanday tashkil topdi? 2. Xoqonlikning Eron va Vizantiya bilan munosabatlarini gapirib bering. 3. Turk xoqonligi boshqaruvi haqida

nimalarni bilasiz? Bu boshqaruv qanday udumlarga asoslangan edi? 4. G'arbiy turk xoqonligi haqida gapirib bering. 5. Xoqonlik aholisining xo'jalik mashg'ulotlari haqida gapirib bering. 6. Xalq harakatlari va ularning sabablarini aniqlang.


### MAVZUNI TO'LDIRISH UCHUN YOZMA MANBADAN MA'LUMOT

Qadim turk manbalari fanda *runik* yoki *ko'kturk* bitiklari deb yuritiladi. Ularning aksariyati XVII asrda **Sibir**, **Mo'ng'uliston**, **Oltoy** va **O'rta Osiyoda** topilgan. Ular orasiga Mo'ng'ulistonda topilgan **To'nyuquq**, **Qultegin**, **Bilga xoqon** va **Ongin** bitiklari O'rta Osiyo aholisi tarixini o'rganishda qimmatli manba hisoblanadi. Masalan, Qultegin bitigi VII asrning birinchi yarmida qabr toshiga o'yib yozilgan. Qabr toshining balandligi 3 m 15 sm, kengligi 1 m 24 sm, qalinligi 41 sm. Bitik 63 satrdan iborat. Bu yozma manbada Turk xoqonligining asoschilari to'g'risida quyidagi jummalarni o'qish mumkin. «*Yuqorida ko'k osmon, pastda qora yer yaratilganda, ikkinchisining o'rtasida inson bolalari yaratilgan. Inson bolalari ustidan bobom Bumin xoqon, Istemi xoqon bo'lib o'rtnashganlar. Ular taxtga o'rtnashib turk xalqining davlatini, rasm-rusumini tutib turganlar*».

Bitikda Bilga xoqon nomidan avlodlariga yo'llangan quyidagi pand-nasihati ayniqsa diqqatga sazovordir: «*So'zimni tugul eshitgil, keyindagi inim, urug'im— xalqim... bu so'zlarni yaxshilab eshit, diqqat qilib tingla... Tabg'och xalqining so'zi shirin, ipak kiyimi nafis... ekan. Shirin so'z, nafis ipagi bilan aldab, yirik xalqni shu holda yaqinlashtirar ekan... Yaxshi dono kishini, yaxshi alp kishini yo'latmas ekan. Biror kishi adashsa, urug'i, xalqi, uyi, yoping'ichigacha qo'ymas ekan... Shirin so'ziga, nafis ipagiga aldanib, ey turk xalqi o'lding*».

Bitikda turli davrlardagi turk xoqonlariga haqqoniy baho beriladi. Kimlar tadbirkorlik bilan davlatni boshqargani, kimdir xalqning boshini berk ko'chaga olib kirib qo'ygani, natijada turk davlatini inqirozga olib kelgani... Hukmdorlik qilgan layoqatsiz xoqonlar xalqning boshiga ko'p kulfatlar keltirgani bayon qilinadi. Bunday falokatlardan turklarni **Eltarish** xoqon qutqargani, bu borada

## BUYUK TURK XOQONLIGI



Bilga va Kultegin xizmatlari, ayniqsa Kultegin jasorati va qahramonligi to'g'risida bayon etiladi.

Bitiklar, shubhasiz turkiy xalqlarning qadimgi tarixini o'rganishda nodir yozma yodgorlik bo'lib, unda avlodlarga qaratilgan vasiyatlar ayniqsa diqqatga sazovordir. Undagi g'oyalar—tarix saboqlaridir, hozirgi kunimiz, xususan ma'naviy hayotimiz uchun ham o'ta muhimdir.

## 5-§. ILK O'RTA ASRLARDA MAHALLIY DAVLATLAR

### 1. Sug'd ixshidlari

Feodal munosabatlar rivoj topib, siyosiy jihatdan zaiflashuv oqibatida V—VI asrlardayoq mamlakat bir qancha mayda davlatlarga bo'linib ketadi. Uning hududida viloyat va uning yirik shaharlariga tayangan 15 dan ortiq mustaqil feodal hokimliklar tashkil topdi. Bunday davlatlardan eng yirigi **Sug'dda** — *ixshidlar*, **Toxaristonda** — *malikshohlar*, **Xorazmda** — *xorazmshohlar*, **Choch va Eloqda** — *budun va dehqonlar*, **Farg'onada** — *ixshidlar* hukmronlik qilardilar.

V—VII asrlarda bu mayda feodal davlatlar avval eftallar, so'ngra Turk xoqonligiga bo'ysundirilgan bo'lsa-da, ammo eftallar ham, turklar ham ularning ichki hayotiga aralashmaydilar. Markaziy hokimiyatga boj to'lab turish bilan ular o'z mustaqilliklarini ma'lum darajada saqlab qoladilar. Bu davlatlarning hukmdorlari o'z atrofidagi mulkdor dehqonlar va ularning harbiy chokarlariga tayanardilar. Chunki ular o'zaro bir-birlari bilan dushmanlik kayfiyatida bo'lib, shu boisdan biri ikkinchisidan cho'chigan holatda yashar edilar.

Ular orasida eng yirigi *Samarqand ixshidlari* bo'lib, u Sug'dning ilk feodal davlatlari konfederatsiyasi tarkibida katta siyosiy nufuzga ega edi. Bu ittifoqqa asosan Zarafshon va Qashqadaryo vodiylariga joylashgan **Samarqand**, **Buxoro**, **Kesh** va **Naqshab** mulklari birlashgan edi. Bu mulklarning har biri o'z hokimiga va harbiy chokarlarga ega edi. Ularning ko'pchiligi Samarqand ixshidiga siyosiy jihatdan tobe bo'lsa-da, ammo Buxoro, Kesh va Naqshablar deyarli mustaqil edi. Hatto ular o'z tanga pullarini zarb qilardilar. Samarqand ixshidi saroyida

ajdodlar ruhiga atab qurbonlik qilish uchun maxsus ibodatxona bino qilingan edi. Unda o'tkaziladigan har yilgi diniy marosimlarda viloyat hukmdorlarining barchasi qatnashardi. Sug'dda aholi gavjum yashardi. Sug'diylar dehqonchilik va bog'dorchilik, ayniqsa uzumchilikda nihoyatda omilkor edilar. Sug'd yerlari juda hosildor edi. Chorvachilikda mayda va yirik shoxli hayvonlar bilan bir qatorda ot, xachir, eshak va tuyalar boqilardi. Ayniqsa, Sug'dning histori qo'ylari va tulporlari juda mashhur edi. Sug'dda hunarmandchilik va savdo aloqalari nihoyatda rivojlangan edi.

Sug'd shaharlari bu davrda hunarmandchilikning markaziga aylanadi. Ularda to'qimachilik, kulolchilik, ko'nchilik, chilangarlik, taqachilik, najjorlik (egar-jabduq tayyorlovchi ustalar) va zargarlik yuqori darajada rivojlangan edi. Temirdan xo'jalik asboblari va uy-ro'zg'or buyumlardan tashqari, qurol-yarog'lar: shamshir, xanjar, tabar, gurzi, sovut, qalqon va dubulg'alar yasalardi. Hatto 718-yilda sug'diylar hadya tariqasida yuborgan dubulg'asidan nusxa olib, Xitoy qurolsozlari o'z qo'shinlarini dubulg'alar bilan ta'minlagan edilar. Sug'd tog'laridan *oltin*, *jez*, *novshadil* va *yalama tuzlar* kovlab olinardi. Shaharlarda hunarmandchilikning yuksalishi o'z navbatida ichki va tashqi savdo aloqalarining kengayishiga imkon beradi. Sug'ddan Sharqiy Osiyo va Xitoyga qimmatbaho toshlar va ulardan yasalgan zeb-ziynatlardan tortib, turli-tuman matolar va dorivorlargacha olib chiqilardi.

## 2. Toxariston

Ilk feodal mahalliy davlatlardan bir nechtasi Toxariston viloyatida tashkil topgan edi. U Surxondaryo viloyati, Janubiy Tojikiston va Shimoliy Afg'oniston hududlarida joylashgan edi. Bu mustaqil davlatlar 27 tog' va tog' oldi viloyatlarini o'z hududida birlashtirardi. Ularning har birini o'z hokimi va chokarlari bo'lardi. Mahalliy hukmdorlarning eng kuchli va nufuzlisi Xuttalon, Shuman, Qabodiyon, Shug'non va Vaxon viloyatlarining hokimlari bo'lib, ular harbiy kuchlar zarur bo'lgan paytlarda 50 minggaacha chokar to'play olardilar. Toxariston avval eftallar, so'ngra Turk xoqonligi tomonidan

bo'ysundiriladi. Manbalarda ta'rif etilishicha, VII—VIII asrlarda Toxariston aholisining yarmi mahalliy, yarmi esa turklar bo'lgan. Aholisi budda diniga sig'ingan, qator ibodatxonalari va kohinlari bo'lgan. 25 harfli yozuvi ko'ndalangiga chapdan o'ngga qarab bitilgan. Aholisi ip va ipak matolardan kiyingan. Tog'liklari po'stin va jun chakmon kiyishgan. Erkaklari soch va soqollarini qirtishlab, ayollari esa uzun soch qo'yib yurishgan.

Toxariston aholisining asosiy qismi o'troq dehqonchilik bilan shug'ullanardi. Chorvachilikda mayda va yirik shoxli hayvonlardan tashqari ot, xachir, tuya va eshaklar boqilgan. Ilk o'rta asrlarda Toxaristonda bo'lgan sayyohlar uning ikki o'rkachli tuya va pastak otlarining uzoq masofalarga qatnashda nihoyatda chidamli ekanini maqtab yozganlar.

Toxaristonda qadimdan konchilik taraqqiy topgan. Bu o'lkada noyob tabiiy boyliklar serob edi. Ayniqsa, qurolsozlik yuksalgan edi. Chokarlari kamon, gurzi, cho'qmor, xanjar va shamshir bilan qurollangan edi. Ularning ajoyib to'qima Balx sovutlari bo'lardi. Toxaristonda shishasozlik ham ancha rivoj topgan edi. Viloyatda ayniqsa to'qimachilik yuksak darajada edi. Toxariston juda ko'p mamlakatlarga elchilar yuborib, ular bilan savdo aloqalari olib borgan. Bu ilk o'rta asr feodal davlat viloyatlarida Sug'd tangalariga taqlid etib so'qilgan o'z chaqa tangalari ichki savdo muomalasida yurgan. Toxaristonning markazi qadimdan Balx shahri bo'lgan.

Xullas, Toxaristonning ilk o'rta asr mahalliy feodal davlatlari hali yagona davlatga birlashib markazlashmagan edi.

### 3. Farg'ona

Bu davrda Farg'ona vodiysida yana bir ilk o'rta asr mahalliy davlati hukm surardi. Qadimda bu mamlakat **Dovon** va **Farkona** deb yuritilgan. Uning podsholari «*ixshid*» deb atalgan, poytaxti **Koson** va **Axsikat** shaharlarida joylashgan. Xitoy manbalarida ta'riflanishicha, Farg'ona yerlari juda hosildor, aholisi dehqonchilik bilan kun kechirgan, paxta va sholi ekan. Unda bog'-u bo'stonlar va gulzorlar mo'l bo'lgan. **Koson**, **Axsikat** va **Qubo** kabi yirik markaziy shaharlarida hunarmandchilikning turli

sohalari rivoj topib, uning mahsulotlari ichki va tashqi bozorlarda juda xaridorgir bo'lgan. Qo'shni mamlakatlarga *arg'umoqlar, bo'yoq, rangli shisha buyumlar va dori-darmonlar* chiqarilgan.

Farg'ona vodiysida o'troq aholi bilan bir qatorda tog' va tog' oldi yaylovlarida ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi chorvadorlar yashagan. Qurama va Qoramozor tog'lari yon bag'irlarida qadimdan yilqichilik bilan shug'ullanilgan. Bu diyorda ko'paytirilgan tulpor otlarning dong'i jahonga taralgan. Farg'onada qo'y, xachir va tuyalar ham boqilgan.

Shunday qilib, *VI—VIII asrlarda Farg'ona dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik xo'jaliklari va ichki, tashqi savdo rivoj topgan mustahkam iqtisodiy poydevorli o'lka edi.* Uning strategik jihatdan qulay geografik o'rni, mustahkam mudofaa inshootlari bilan ta'minlangan Koson, Axsikat, Kubo kabi yirik shaharlari, tog' qal'alari, vodiy bo'ylab joylashgan qator-qator istehkomli qo'rg'onlari tufayli bu diyor kuchli harbiy imkoniyatga ega edi. Shularni nazarda tutganda ilk o'rta asrlarda Farg'ona O'rta Osiyoning siyosiy hayotida muhim davlat bo'lgan.

#### 4. Choch va Eloq

V—VII asrlarda Chirchiq va Ohangaron vodiylarida ikkita mustaqil ilk feodal davlatlari hukmronlik qilardi. Manbalarda ulardan biri **Choch** davlati, ikkinchisi **Eloq** mulki nomlari ostida tilga olinadi. Chochning poytaxti **Chochkat** shahri bo'lib, podshohi «*tudun*» deb yuritilardi. Eloqning poytaxti **Tunkat**, hokimlari «*dehqon*» deb atalardi. V asrda Choch viloyati Eftallar davlatiga, VI asrda esa G'arbiy turk xoqonligiga bo'ysundiriladi. VIII asrga borganda Choch va Eloq birlashib, yagona davlatga aylanadi va o'z mustaqilligini tiklab oladi.

Choch va Eloq sertarmoq xo'jalikka ega mamlakat edi. Unda sug'orma dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik, ayniqsa konchilik, ichki va tashqi savdo yuksak darajada edi. Ilk o'rta asrlarda Choch vohasi uzil-kesil shakllanib, u 50 ga yaqin sug'orish shoxobchalari vositasida sug'orilardi. Dehqonchilikda ko'proq *arpa, bug'doy va tariq* ekilardi. Ayniqsa, Chochning poytaxt shahri atroflari obod edi. Unda 50 dan ortiq katta-kichik istehkomlar,

feodal qo'rg'onlari va ko'shklari, obod qishloqlar qad ko'targan edi.

Choch va Eloq tog'lari oltin, kumush, rangli ma'danlar, temir va jilvador chaqmoq toshlarga boy edi. Bu tabiiy boyliklar tufayli qadimda bu o'lkada konchilik va unga asoslangan hunarmandchilik rivoj topadi. Oltin va kumushlarni kovlab olishda, ayniqsa Eloq O'rta Sharq mamlakatlarida shuhrat topadi.

Karvon yo'lining o'lka orqali o'tishi Choch va Eloqda ichki va tashqi savdo-sotiqning kengayib, shaharlarning gavjumlashuviga imkon beradi. Chochdan *oltin, kumush, qimmatbaho toshlar, g'alla, quruq meva va yilqilar* chetga chiqarilgan.

Shahar aholisining bir qismi savdogarchilik bilan mashg'ul bo'lgan. VI—VIII asrlarda Sharqiy Turkiston bilan savdo-sotiq qilishda chochliklar Samarqand va Buxoro savdogarlaridan keyin uchinchi o'rinda turgan.

Choch poytaxti tashqi savdo munosabatlarining markazi edi. VII—VIII asrlarda Chochda kumush va mis tangachalar yasaydigan zarbxona bo'lgan. VIII asrda esa kumush dirhamlar hatto Eloqning kumush konlarida ham zarb etilgan. Choch tudunlari old tomoniga mulkdorning portreti, orqasiga gajak dumli sher yoki qoplon tasviri, ba'zan sulolaviy ayri tamg'a tushirilgan chaqa-tangalar zarb etganlar. Shu davrda zarb etilgan Chochning ayrim tanga pullari orasida podshoh bilan yonma-yon turgan malika tasviri tushirilgan pullar ham uchraydi. Bu siyosiy hayotda hukmdor ayollarining nufuzini ko'rsatadi. Chochda turkcha va sug'dcha so'zlashuvchi ikki tillilarning safi kengayib boradi. Biroq, Choch o'lkasi bu davrda Turk xoqonligiga tobe bo'lishiga qaramay, hali o'zining tili, yozuvi va qadimiy madaniyati an'analarini saqlab qolgan edi. Bu yerda hali sug'd tili rasmiy til edi. Chochning ijtimoiy tarkibi ham ilk feodal jamiyatiga xos edi.

## 5. O'rta Osiyoda ilk o'rta asr shaharlarining shakllanishi

V—VII asrlarda O'rta Osiyoda, bir tomondan, feodal munosabatlarining o'rnatilishi, ikkinchi tomondan, ko'chmanchi chorvadorlarning beto'xtov shiddat bilan kirib kelishi oqibatida yuzaga kelgan o'ta murakkab ham siyosiy, ham ijtimoiy vaziyat mamlakat obodonchiligi, xo'jaligining ravnaqi, shahar va

qishloqlarining qiyofasi va aholisining turmush tarzi-yu ahvoliga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Dehqonchilik xo'jaligida ilk feodal munosabatlarining jadallashuvi, ko'chmanchi qabilalar o'troqlashuvining kuchayishi bilan ekin yerlariga bo'lgan ehtiyoj ortib bordi. Ziroatkor yerlar kengaydi. Sersuv chuqur va sershoxa kanallar barpo etilib, dehqonchilik vohalarining suv ta'minoti tubdan yaxshilandi. Tog'oldi maydonlariga suv chiqarilib, yangi yerlar o'zlashtirildi. Shaharlar gavjumlashdi. Qishloqlarda «ko'shk», «qasr», «qo'rg'on» va «qo'rg'oncha» nomlari bilan shuhrat topgan istehkomli turar joylar qad ko'tardi.

Ko'shk, qasr va qo'rg'onlar ko'proq yirik sug'orish shoxobchalari boshida, markaziy shaharlarning tevarak-atrofida hamda dehqonchilik vohalari chegaralari bo'ylab joylashgan edi. Mayda qo'rg'onchalar esa suv chiqarilib obod etilgan vohalar bo'ylab katta-kichik qal'alar tevarak-atrofida qad ko'targan edi. Ko'shk va qasrli qo'rg'onlarda mulkdor dehqonlar, qo'rg'onchalarda esa ziroatchi mehnatkash aholi yashar va dushmandan o'zini mudofaa qilardi. Shubhasiz, ilk o'rta asrlarning murakkab ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayot taqozosi bilan qurilgan istehkomli qasr, qo'rg'on va ko'shklar asosan tashqi dushman hujumiga qarshi mudofaa inshooti, chokarlar — harbiy garnizon to'planadigan joy, ma'muriy markaz hamda oziq-ovqat va qurol-yarog' saqlanadigan ombor vazifasini o'tagan.

Bu davrda sug'orma dehqonchilik maydonlarini kengayib, qishloq xo'jalik mahsulotlarining ortib borishi, hunarmandchilik buyum va asbob-uskunalariga bo'lgan ehtiyoj, savdo-sotiqning avj olishi, o'z navbatida shaharlarning ravnaqiga, ayniqsa uning hunarmandchilik mahallalarining kengayishiga ta'sir etdi. Chunki VI—VII asrlarda O'rta Osiyo shaharlarida savdo-sotiq ishlari avj olishiga qaramasdan, hali ularning maydoni unchalik katta emas edi. Eng katta shaharlardan biri Samarqand bo'lib, u 220 gektar maydonga ega edi. VI—VIII asrlarda bir tomondan, shahar aholisining ortib, uning gavjumlashuvi, ikkinchi tomondan, hunarmandchilik, savdo-sotiqning tobora kengayib borishi bilan shaharlar atrofi o'zlashtirilib, obod etiladi. Natijada ayrim markaziy shaharlarning tashqi devorlariga tutashgan joylarda hunarmandchilik mavzefari paydo bo'ladi. Atrofi mudofaa devori

bilan o'ralmagan bu istehkomsiz mavzelar manbalarda «rabod» nomi bilan eslatiladi. Keyinchalik rabodlar ham alohida devor bilan o'rab olinadi. Rabodlarda hunarmandchilik mahallalaridan tashqari savdogarlar, o'zga yurtlardan kelgan musofirlar uchun karvonsaroy, bozor, ibodatxona va dahmalar qad ko'taradi.

Shunday qilib, shaharlar yonboshida rabodlarning qad ko'tarishi bilan ilk o'rta asrlarda ular uch qismli bo'lib qoladi. Uning podshoh qasri joylashgan qismi «ark», ichki shahar «shahriston» deb yuritiladi. Shaharning uchala qismi ham alohida-alohida devorlar bilan o'rab olinadi. Ularning bir nechta darvozalari bo'lgan. Manbalarda ta'rif etilishicha, VIII asrda Buxoro besh qismdan iborat bo'lib, u besh qator devorlar halqasi bilan o'ralgan edi. Shahar devorlari bo'ylab oqib o'tgan anhor *xandaq* vazifasini bajargan.

## 6. Aholisi

Ilk o'rta asrlarda Sug'dda shahar va qishloq aholisi «naf» deyilgan. Ijtimoiy jihatdan u bir nechta tabaqaga bo'lingan. Mulkdorlar «ozod», shahar hunarmandlari «ozodkor», savdogarlar «guvokor», ziroatkorlar «kashovarz», xizmatkorlar «korikor», muteqo'shchilar «kadivar», qul va cho'rilar: erkaklar «bantak» va ayollar «doya» deb yuritilgan. Aslzoda — «ozod» lar tabaqasiga podshoh, mahalliy hukmdorlar va feodal dehqonlar kirgan. Bu ijtimoiy zinapoyaning tepasida podsho turgan. Uning tasarrufida umumdavlat mulkidan tashqari o'z shaxsiy mulki ham bo'lgan. Undan feodal mulkdor sifatida podsho shaxsan o'zi foydalangan. Dehqonchilik maydonlarining kattagina qismi mahalliy hokimlar va mulkdor dehqonlarning mulki hisoblangan. Ularning yerlarida kadivarlar qo'shchilik qilganlar. Kadivarlarning mutlaqo yeri bo'lmagan. Ekin yerlarining bir qismi erkin kashovarzlarning mulki bo'lib, ular davlatga soliq to'lab turgan. Bulardan tashqari, Sug'dda ibodatxonalar va ularning tasarrufida mulk va yerlar bo'lgan. Ibodatxonalar «vag'n», uning bosh ruhoniy mulozimi, ya'ni kohini «vag'npat» deb yuritilgan. Kohinlar tasarrufidagi yerlar esa «vag'nze» deb atalgan. Bunday yerlardan olinadigan daromad ibodatxona ehtiyojiga sarflangan. Ilk o'rta asrlarda O'rta

Osiyoda hukm surgan mayda davlatlarda va ularning viloyat hokimliklarida ma'lum tartibdagi boshqaruv ma'muriyati tashkil topgan edi.

Ilk o'rta asr boshqaruv ma'muriyatining asosiy vazifasi fuqarolardan boj, soliq va yasoqlarni o'z vaqtida yig'ib olish, jamoat ishlariga ularni safarbar etishdan iborat bo'lgan. Ma'muriyat o'z vazifasini astoydil bajargan. Kirim-chiqimlar aniq va ravshan qayd etilib, hujjatlashtirilgan. Ularga barmoq bosilib, hatto muhr bilan tasdiqlab qo'yilgan. Mamlakatni boshqarishda ham an'anaviy tartib va udumlari bo'lgan. Narshaxiyning yozishicha, VII asr oxirlarida Buxoro taxti vorisining hali go'dakligi tufayli uning tul qolgan onasi yurtni boshqargan. Malika Buxoroda donolik bilan hukmronlik qilgan, xalq unga itoatda bo'lgan.

VI—VIII asrlarda ham mehnatkash aholining hayoti nihoyatda og'ir kechgan edi. U hamma vaqt nochorlik, tanglik, xavf-xatar va muhtojlikda yashagan. Og'ir qo'l mehnati evaziga yetishtirgan mahsulotining bir qismini soliqlar hisobida davlatga topshirib, qolgan rizq-ro'ziga shukrona va qanoat qilib kun kechirgan. Osoyishtalik zamonlarida uzluksiz amalga oshirilgan hasharlarda ishtirok etishga majbur bo'lgan. Yovgarchilik davrlarida esa lashkarlar safida turib, kindik qoni to'kilgan Vatanni tashqi dushman tajovuzidan mudofaa qilishda ko'kragi bilan qalqon bo'lgan. Yillar davomida to'xtovsiz olib borilgan o'zaro urushlar oqibatida vayron etilgan uy-joylar, shahar-u qishloqlarni qayta tiklab yana yurtini obod etgan. Doimo mehnatni muqaddas bilib, e'tiqod bilan yetishtirgan halol noni bilan bola-chaqasini boqqan, voyaga yetkazgan va bunyodkor xalq ommasini safini muntasil to'lg'azib, buyuk inson zotidan Vatanga munosib avlod qoldirgan.

#### *Savol va topshiriqlar*

2. 1. Sug'd ixshidlari haqida gapirib bering. 2. Toxariston viloyatidagi davlatlar haqida nimalarni bilasiz? 3. Farg'ona ahamiyatli va qudratli davlat bo'lganligi nimalarda namoyon bo'lgan? 4. Choch va Eloq davlati haqida nimalarni bilib oldingiz? 5. Nisbatan osoyishtalik ziroatchilikni rivojlanishiga olib kelganligini ayting. 6. Shaharlarning tashkil topish

jarayoni qanday yuz berdi? 7. Aholi qanday tabaqalarga bo'lingan? 8. Aholining iqtisodiy hayotiga baho bering. 9. Shaharlarning har bir qismidagi hayotni tasvirlang.

### MAVZUNI TO'LDIRISH UCHUN YOZMA MANBADAN MA'LUMOT

1932-yilda Mug' tog'idan nodir hujjatlar majmuasi topiladi. Bu hujjatlardan 74 tasi sug'dcha, 2 tasi xitoycha, 2 tasi arabcha va bittasi turkiy tilda bo'lib, fan uchun beqiyos ahamiyat kasb etdi. Ular orasida VII—VIII asrlarda nikoh guvohnomasi qayd etilgan. Unda oila va nikoh shartlari, oilaviy-mulkiy munosabatlar, nikohlanayotgan shaxslarning o'zaro va har birining ikkala tomon qarindoshlari bilan munosabatlari, ayniqsa, kuyovning kelin qarindoshlari oldidagi majburiyatlari haqida qimmatli tarixiy ma'lumotlar bor.

Hujjatda Uttegin ismli turk yigiti bilan Dug'dg'uncha ismli, **Chata** laqabli sug'd ayoli o'rtasida tuzilgan nikoh qayd etilgan. Bitimga asosan Dug'dg'unchaning ixtiyori bilan qonunga muvofiq Uttegin sevimli va ardoqli xotin sifatida uni qabul qilib, oziq-ovqat, kiyim-kechak, zeb-u ziynat bilan ta'minlamog'i va hurmat-izzat qilmog'i lozim edi. O'z o'rnida Dug'dg'uncha ham Utteginni sevimli va ardoqli er sifatida tutmog'i, uning baxtli turmushi haqida qayg'urmog'i va uning buyruqlarini qonun kabi tinglamog'i darkor edi. Shuningdek, hujjatda er-u xotinlardan biri ikkinchisining rozilgisiz nikoh bitimini buzish shartlari bayon etiladi. Jumladan, agar Uttegin Dug'dg'unchaning rozilgisiz uning ustiga uylansa, u vaqtda Dug'dg'unchaga *30 dinoriy sof kumush draxma* tovon to'lashi va uni na xotin va na xizmatkor sifatida tutib turmay ozod etishi shart bo'lgan.

Yana boshqa hujjat Utteginning Dug'dg'uncha qarindoshlariga bergan vasiqasi bo'lib, unda kuyov quyidagi shartlarni o'z ustiga olgani bayon etiladi. Ushbu vasiqaga binoan *«Chata bugundan boshlab, kelajakda, to abad mening xotinim bo'lib qoladi... Sening va Mitra (xudo) ning ishtirokida majburiyat olaman: uni sotmayman, qarz hisobiga qullikka bermayman, biror kimsaga himoyaga bermayman. Bordi-yu, uni mendan kimdir tortib olsa, xo'rlasa, uni ziyon-zahmatsiz (sizlarga) jo'nataman. Chata o'zi*

*ketishni xohlasa ham... shu tariqa ziyon-zahmatsiz jo'nataman va sog'-salomat topshiraman. Agar ... topshirmasam, u holda ... toza sifatli 100 dinoriy kumush draxma to'layman...»*

Yuqorida ikki hujjatdan keltirilgan ma'lumotlar shuni aniqlab berdiki, VII—VIII asrlarda Sug'd jamoasida inson, ayniqsa, xotinqizlarning haq-huquqlari va axloq qonun-qoidalari, xususan kuyovning kelin oldidagi burchi va majburiyati o'z zamonasi uchun juda adolatli ravishda belgilanib qo'yilgan ekan.

## 6-§. ILK O'RTA ASRLARDA MADANIY HAYOT

### 1. Me'morchilik

Ilk o'rta asrlarda Buyuk ipak yo'li orqali olib borilgan keng ko'lamdagi xalqaro savdo O'rta Osiyo, Xitoy, Hindiston, Eron va Vizantiya o'rtasida iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalarni kengaytirdi. O'troq dehqonchilik vohalari aholisi bilan dasht xalqlari madaniyatlarining o'zaro ta'siri kuchaydi. O'rta Osiyo xalqlari jahon tarixi jarayoniga tortilib, bu diyorda ilk o'rta asrning o'ziga xos serqirra va nihoyatda boy madaniyati shakllandi va rivoj topdi. Bu yuksak madaniyatning serjilo qirralari, ayniqsa VI—VIII asrlarning bebaho madaniyat obidalari, diniy e'tiqodlariyu tasviriy san'at namunalarida o'z aksini topdi.

Ilk o'rta asr me'morchiligining qurilish g'oyalari, muhandislik yechimlari va me'moriy uslubi, naqshlari Xorazm, Sug'd, Toxariston, Farg'ona va Chochning shahar va qal'alari, feodal qo'rg'onlari-yu ibodatxonalari, ko'shklari-yu mudofaa inshootlarining tarx-u istehkomlari, toq-u ravoqlari, ichki naqshlariyu tasviriy san'at obidalarida namoyon bo'ldi.


### 2. Yozuv

Bu davrda Sug'd, Xorazm va Toxariston aholisining alohida-alohida yozuvlari bo'lib, Sug'd va Xorazm yozuvlari qadimgi oromiy yozuvi asosida maydonga kelgan edi. Toxariston yozuvining asosi esa o'z navbatida Sug'd va Xorazm yozuvlaridan olingan edi. Ilk o'rta asrlarda O'rta Osiyo va Xitoyda qog'oz ishlab chiqarish

garchi ancha yo'lga qo'yilgan bo'lsa ham xat, hujjat va ayrim axborotlar kabi maktubotlar asosan charm, yog'och, sopolga va kamdan-kam hollarda qog'ozga bitilardi. Chunki qog'ozning bahosi nihoyatda baland edi. Ayrim bitiklar esa hatto podsho saroylari va ibodatxona devorlariga ham yozilardi. Ular orasida elchilik maktublari, xo'jalik kirim va chiqimlari, yuridik shartnomalar, astronomik hujjat, tarixiy yodnomalar hamda diniy aqidalar bitilgan nodir qo'lyozma topilmalar bor edi, bizning zamonimizgacha saqlanib qolgan sug'd yozuvlari orasida Panjikent yaqinida **Qal'ai Mug'dan**, **Sharqiy Turkistonda Turfan** shahri yaqinida topilib o'rganilgan hujjatlar hamda Samarqandning qadimiy xarobasi **Afrosiyobda** qayd etilgan devoriy yozuvlar ayniqsa betakroridir.

VII—VIII asr boshlariga mansub hujjatlarda Sug'dning siyosiy tarixi huquq va qonunlari, iqtisodiy va diniy e'tiqodlari xususida muhim ma'lumotlar keltiriladi.

Bu davrda Sug'dda boshqaruv tartibi, elchilik aloqalari xalqaro savdosi va murakkab xo'jaligi taraqqiyoti shubhasiz aholisining savodxonligini talab etardi. Shu boisdan Sug'dda savodxonlikka intilish kuchli bo'lgan. Xitoy manbalarining guvohlik berishicha, Sug'dda o'g'il bolalar besh yoshga to'lgach, yozuv va hisobga o'rgatilar, so'ngra ular 20 yoshga kirganlarida savdo ishlarini o'rganish uchun o'zga mamlakatlarga jo'natilar edi. Shuni ta'kidlash kerakki, O'rta Osiyo xalqlarining savodli bo'lishida va o'z yozuvlarini ijod etishlarida sug'd yozuvi muhim rol o'ynagan. Sug'd xati asosida uyg'ur va turk yozuvlari shakllangan. Uyg'ur yozuvidan esa o'z navbatida keyinchalik mo'ng'ul va manjur xatlari paydo bo'lgan. Shubhasiz, bu tabiiy voqelik edi. Chunki VII—VIII asrlarda O'rta Osiyo, Yettisuv va Sharqiy Turkiston viloyatlarida sug'd tilining amaliy ko'lam juda keng edi. Bunday joylarda aholi sug'd va turk tillarida bermalol so'zlashgan. Ayniqsa, shaharlarda ikki tillilik rasmiy holat bo'lgan. Xoqonlikning savodli kishilari orasida sug'd tilining bilimdonlari ham oz bo'lmagan. Sug'diylarning kattagina guruhi doimo turk xoqonlarining qarorgohida yashagan. Ularning ayrimlari saroy a'yonlari va ma'murlari qatoridan o'rin egallab, maslahatchi, elchi, xat va savodga o'rgatuvchi ustoz vazifasini bajarganlar.



6-rasm. Sug'd yozuvi.

Shuningdek, sug'd va uyg'ur yozuvlarining puxta bilimdonlari tomonidan, ya'ni ko'kturk xati ijod etiladi. Garchi bu yozuvning asosi sug'd xati orqali oromiy yozuviga borib taqalsa-da, u turk tilining fonetik xususiyatlarini aniq bera oladigan mutlaqo yangi, o'ziga xos yozuv edi. Turklarning bu yangi yozuvi biri ikkinchisiga tutashib ketadigan 38—40 harflardan iborat edi. U tosh va yog'ochlarga o'yib yozishga nihoyatda qulay edi. Qadimgi *ko'kturk bitiklari* (Kultegin va Bilga xoqon bitiklari) —

runiy yozuvi yodgorliklari Oltoy va Sharqiy Turkistondan tashqari, Yettisuv, Farg'ona va Zarafshon vodiylaridan topilib, o'rganilgan. Ular qabr toshlari, sopol va metal buyumlar, yog'och hamda tanga pullarga bitilgan. Shunday qilib, ilk o'rta asrlarda turk dunyosi sug'diylar vositasida O'rta Osiyo va Yaqin Sharq mamlakatlari aholisining qadimiy yuksak madaniyati yutuqlari bilan tanishdi va ulardan bahramand bo'ldi.

### 3. Diniy e'tiqodlar

VI—VIII asrlarda O'rta Osiyoda *zardushtiy*, *budda*, *nasoro* (xristianlik), *moniy* va *qam* (shomon) kabi bir nechta dinlar mavjud bo'lgan. Mamlakatda ko'p dinlik e'tiqodlari rasm bo'lsa-da, ammo aholining ko'pchiligi olovga topinuvchi ma'jusiyy edi. Otashparastlik Xorazm, Sug'd va Choch viloyatlarida ayniqsa keng tarqalgan edi. Katta-kichik shaharlarda ma'jusiylarning ibodatxonalari bo'lardi. Ular «vag'n» deb, bosh kohinlar esa «vag'npat» deb yuritilardi. Muqaddas otash «azarxurra» deb atalardi. U maxsus olovxona — «otashkada» larda kecha-yu kunduz muttasil yonib turardi. Otashkadada xizmat qiluvchi kichik kohinlar o'ta zohid dindorlardan bo'lib, ular «atrabon» deb

yuritilardi. Oddiy mehnatkash aholidan tortib, zodagon-u podshohlargacha atrabonlarga hadyalar keltirib, ular orqali «muqaddas» olovdan madad soʻrab, iltijo qiladilar.

Zardushtiy dinida yaratuvchanlik qudratiga ega tangri — Axuramazda boʻlib, u olam va odamzodning, tabiat va jamiyatdagi barcha hodisalarning yaratuvchisi sifatida targʻib qilingan. Axuramazda yorugʻlik, farovonlik, sihat-salomatlik, tinchlik va boshqa barcha ezgu hodisalar tangrisi sifatida zulmat, ochlik, urush, oʻlim, yomon (gunoh) ishlar, qabih niyatlar va qabohatliklarning homiysi Axriman bilan doimo uzluksiz kurash olib borgan.

Zardushtiylik eʼtiqodi boʻyicha olov nihoyatda muqaddas hisoblangan. Quyosh olamga hayot bagʻishlaydi. Uning nuri bilan barcha jonzod uygʻonadi va yashnaydi. Qadimiy tangalarda soʻqilgan maʼbudalar tasviri va sopol haykalchalar taxlitiga qaraganda Axuramazdadan tashqari, zardushtiylarning Mitra, Farna, Nana yoki Nohid (Anaxita) Mirrix va Xubbi kabi mahalliy ezgulik tangrilari ham boʻlgan.

Zardushtiylar eʼtiqodiga koʻra koinot olov, tuproq, suv va havo kabi toʻrt unsurdan tarkib topgan. Ular muqaddas hisoblangan va ularga nisbatan eʼtiqod nihoyatda kuchli boʻlgan. Ularga iflos va badboʻy narsalar tashlash qatʼiy taqiqlangan. Hatto marhumlar jasadini yerga koʻmish, suvga tashlash, yoqish yoki koʻkatlar ustida qoldirish qatʼiyan man etilgan. Chunki ular murdor hisoblangan. Marhum yashagan xonadonda bir necha kun oʻt yoqilmagan, ovqat pishirilmagan. Murdalar toshloq tepaliklar yoki shahardan tashqarida bino qilingan maxsus dahmalarning ustida qoldirilgan. Qush-quzgʻunlar va yirtqichlar ularning etini yeb bitirgach, suyaklari quyoshda sargʻayib toblangach, ularni jamlab qopqoqli sopol ostadon (tobut)larga solib qoʻyilgan. Barcha motam marosimlari tugagach, marhum ustaxonlari solingan ostadon (assuariy) — tobutch maxsus xilxona «naus» ga kiritib, supa ustiga terib qoʻyilgan.

Bu davrda aholi oʻrtasida budda dinining ham mavqei past emas edi. Garchi u Sugʻdda juda kam tarqalgan, ammo Oʻrta Osiyoning janubiy viloyatlarida, xususan Toxaristonda, Fargʻona va Yettisuvda hamda Sharqiy Turkistonda, ayniqsa shahar aholisi



7-rasm. Ko'k turk bitiklari.

o'rtasida keng tarqalgan edi. VI asr oxiri, VII asr boshlarida ayrim G'arbiy turk xoqonlari budda dinini qabul etib, butxonalarning qurilishida homiylik qiladilar. VII asrda Balx shahrida yuzta, Termizda o'ntacha, Qabodiyonda uchta budda monastirlari bor edi. Ularning har birida ikkitadan to 50 nafargacha rohib (monax) lari bo'lgan. Ikk O'rta asrlarga mansub ikkita budda ibodatxonalarning qoldiqlari Farg'ona vodiysida qadimgi Quva shahri xarobalaridan qazib o'rganildi. Ulardan buddaning loydan yasalgan rang-barang haykali va haykalchalari topildi.

Termiz yaqinida Zangtepa yodgorligidan VII—VIII asrlarga mansub qayin po'stlog'iga bitilgan buddoyi qo'lyozma matnlari qayd etiladi.

Yozma manbalardan ma'lum bo'lishicha, O'rta Osiyo viloyatlarida bu davrda *nasoro* (xristian) dinining *nestorian* ta'limotiga e'tiqod qiluvchi jamoalarning soni ham oz emas edi. Samarqand viloyatining Urgut tumani Sug'ddagina emas, balki butun O'rta Osiyoda nasoroniy targ'ibotining markazlaridan hisoblanardi. Aftidan nasoro dini Sug'dga V—VI asrlarda kirib kelgan. VI asr boshlarida Samarqandda hatto yepiskop, VIII asrda esa mitropolit kabi nasoro dinining oliy unvonidagi ruhoniylar nasoroniy jamoalariga rahnamolik qilganlar. VII—IX asrlarda Buxoro, Samarqand, Yettisuvda yashagan nasoroniyilar haqida arabnavis mualliflar ham qayd etadilar.

Masalan, Urgut yaqinida Qo'shtepa yodgorligida topilgan xum parchasida xristianlikning asosiy udumlaridan biri — cho'qintirish marosimi tasvir etilgan. Unda chap qo'lida kitob (injil), o'ng qo'lida esa xoch tutgan uzun kiyimdagi rohib xochini boshyalang, tiz cho'kib turgan kishining boshi uzra tutib turibdi.

Ilk o'rtta asrlarda O'rtta Osiyo xalqlarining mafkuraviy hayotida *moniy* dini ham ancha chuqur ildiz otgan edi. Bu din zardushtiy, nasaroniy va buddoiy dinlarining asosida yuzaga kelgan edi. Bu dinga asos solgan *Moniy* tarixiy shaxs bo'lib, u *Bobilda* (216—274) dunyoga kelgan. U o'z targ'ibotini Midiya va Forsda boshlagan. Biroq Eronda uning ta'limoti otashparastlikning ashaddiy ruhoniylari tomonidan qaqshatqich zarbaga uchraydi. Keyinchalik bu mazhab tarafdorlari O'rtta Osiyoning janubiy viloyatlari va Sharqiy Turkistonda qaror topadi. Moniy ta'limoti bo'yicha olamning ibtidosi ikki qarama-qarshi yaratuvchi — yorug'lik va ezgulik hamda zulmat va yovuzlikdan iboratdir. Ibodat, ro'za, sadaqa moniy dinining arkoni hisoblangan. Ibodat Quyosh va Oyga bag'ishlanib, yakshanba va iyd kunlari ro'za tutilgan. Sadaqa berish esa taqvodorlarning asosiy burchi hisoblangan. Moniy ta'limotida savdo-sotiq rag'batlantirilib, sudxo'rlikka ijozat berilgan. Shu boisdan bu ta'limotni dastavval shaharlarning savdo ahli va xalqaro tijorat bilan shug'ullanuvchi mulkdor hamda mahalliy hukmdorlar qabul qiladilar. Bu mazhabning diniy kitoblari qadimgi forsiy tilidan sug'd, tozar, turk va xitoy tillariga tarjima qilinadi.

VI—VIII asrlarda Moniy dini Murg'ob vohasi orqali Tozariston, Sug'd, Sharqiy Turkiston va Xitoyga yoyiladi. Moniy ta'limotida tasviriy san'atga va musiqaga katta ahamiyat beriladi. Diniy targ'ibot va marosimlarda, ayniqsa tasviriy san'atdan keng foydalanilgan.

Turk xoqonligining chorvador aholisi o'rtasida qadimdan shomon diniga sig'inib kelingan. Bu din animistik tasavvur, jon va ruhlarga sig'inish e'tiqodini tarbiyalagan. Qadimda turklar o'z dinini «*qam*» deb yuritganlar. Chunki ularda «*shomon*» degan so'z bo'lmagan. VI—VIII asrlarda G'arbiy turk xoqonligining chorvador aholi o'rtasida *buddoiy* va *nasaroniy* jamoalari paydo bo'lib, ayrim turk xoqonlari bu yangi dinlarga homiylik qilsalarda, ammo chorvador aholining aksariyati hali «*shomon*» diniga e'tiqod qilardi. Bu din koinotni yo'qlikdan bor qilgan «*ko'ktangri*» ga e'tiqod qiluvchi tavhid (yakka xudolik) dini hisoblanadi. Chorvador ko'chmanchi aholi bu tangrilarga bag'ishlangan marosimlar o'tkazib, qurbonliklar qilishgan. Masalan, buyuk

tangri — ko'ktangri sharafiga yozda baland tog' ustida qurbonlik uchun qora qashqa ot bo'g'izlangan. Demak, VI—VIII asrlarda O'rta Osiyoda aholi *zardushtiy, buddoiy, nasoroni, moniy* va *qam* kabi bir nechta dinlarga sig'ingan, ya'ni din erkinligi bo'lgan. Viloyatlarning o'troq, dashtlarning ko'chmanchi aholisi o'rtasida bu dinlarga e'tiqod qiluvchi qavmlar va jamoalar bo'lgan. Xullas, bu diniy e'tiqodlarning omuxtasi asosida O'rta Osiyo xalqlarining ilk o'rta asrlar serjilo moddiy va ma'naviy madaniyati shakllandi va rivoj topdi.

#### 4. San'at

VI—VIII asrlarda O'rta Osiyo shaharlarida hunarmandchilik va me'morchilik bilan bir qatorda tasviriy san'atning rassomlik va haykaltaroshlik kabi bir qator tarmoqlari ravnaq topadi. Ularning ayrim namunalari ilk o'rta asrlarda bino qilingan qasr va saroylarni bezagan devoriy rasm va ganchkori naqshlarda, budda ibodatxonalariga o'rnatilgan haykallarda, e'tiqod ramzi sifatida sopoldan yasalgan ma'buda haykalchalari—yu yog'ochdan yo'nilgan sanamlarda hamda chaqa-tangalar sirtiga tushirilgan siymo va ramziy belgilarda namoyon bo'ladi. Shubhasiz, ular ilk feodal davrida sodir bo'lgan o'zgarishlardan dalolat beradi. Surxon vohasida Bolaliktepa va Zarafshon vodiysida Panjikent, Varaxsha va Afrosiyob, Farg'ona vodiysida Quva xarobalarida hamda boshqa yodgorliklardan topib o'rganilgan devoriy suratlar, haykallar va ganchkori naqshlar o'sha zamonning yuksak san'at asarlaridan hisoblanadi. Ilk o'rta asr devoriy tasvirlari o'z davrining faqat oddiygina san'at yodgorligi emas, balki feodal udumlari qaror topayotgan zamonning o'ta murakkab hayoti, din-u e'tiqodi va tashqi mamlakatlar bilan olib borilgan aloqalaridan hikoya qiluvchi qomusiy manbadir. Bunday asarlarning yaratilishida, shubhasiz o'z davrining e'tiqodlaridan hisoblangan moniylik tariqatining ma'lum darajada ta'siri bo'lishi ehtimoldan uzoq emas.

VI—VIII asr tasviriy san'atida haykaltaroshlik muhim o'rin tutgan. Uning rivojiga ayniqsa budda dini kuchli ta'sir ko'rsatgan. Odatda, budda ibodatxonalariga ko'plab budda va uning mutaobbid

kohinlarining loydan, ganchdan va toshdan yasalgan, katta-kichik haykallari o'rnatilgan. Farg'ona vodiysida Quvadan hamda Qo'rg'ontepa yaqinida Ajinatepadan buddaning bahaybat haykallari topilib, o'rganildi. Ajinatepadan topilgan budda haykalining balandligi 12 metrga boradi.

Bu davrda badiiy yog'och o'ymakorligi san'ati ham yuqori darajada turgan. Afrosiyob hamda Panjikentdan yog'ochdan yo'nilgan sanam, o'ymakor naqsh tabiat manzaralari, hayvonlar, afsonaviy jonzodlar, taxtda o'tirgan hukmdor yoki jang aravasida ketayotgan jangchilarning kuyib ko'mirga aylangan qoldiqlari va bo'laklari topilgan. Ular orasida ayniqsa did bilan jozibali qilib yasalgan raqqosaning noyob haykali diqqatga sazovordir.

Ilk o'rta asr ganchkorligi san'atining nodir yodgorligi namunalari Varaxsha topilmalari orqali tadqiq etildi. Ular orasida turli xil geometrik shakllar, mevali daraxt va o'simliklarning o'ymakor naqshlari

bilan bir qatorda ov manzarasi ham uchraydi. Bunday turli mazmundagi va yuqori darajali san'at bilan ishlangan ganchkori qabartma naqshlar o'z davrida qadimgi Buxoro hukmdorlarining Varaxshadagi qarorgohining hashamatli saroy devorlarini bezab turgan.



8-rasm. Sopol tobut — ostadon (assuariy) VI—VII asrlar.



9-rasm. Haykalchalar yasaydigan sopol qolip. VI—VII asrlar.



10-rasm. Varaxsha. Devorly tasvir. VI—VII asrlar.



11-rasm. Varaxsha. Ganchkor qabartma arxar tasviri. VI—VII asrlar.

## 5. Musiqa san'ati

Xitoy manbalaridan ma'lum bo'lishicha, VII—VIII asrlarda O'rta Osiyoda musiqa, raqs, qo'shiqchilik, qiziqchilik va dorbozlik kabi san'atning boshqa turli sohalari ham kamol topgan edi. Bu davrda san'at sohasida Buxoro aktyorlari, Samarqand naychilari, Toshkent o'yinchi yigit va raqqosa qizlari, Xo'jand sumaychilari va Kucha bastakorlari bilan shuhrat topgan edi.

Buxoro va Xorazm kuylari maqom va vaznlarining dilraboligi, raqslarining bosiq va o'ynoqiligi o'sha zamonlardayoq har qanday tomosha ahlini maftun etib sehrlab qo'yardi. Ayniqsa, ud va nay sadosida juft bo'lib, Choch o'yinchi yigitlari ijro etgan mashhur «Choch raqsi» yoki doira chertmasiga imo bilan yelka uchirib tushadigan o'ynoqi «doira raqsi» Xitoy a'yonlarini maftun etib, ularni hayratga solgan edi. Manbalarda qayd etilishicha, birgina Buxoro shahrida usta hunarmandlar tomonidan o'n turdagi cholg'u asboblari yasalgan. Ular nomlarining yolg'iz o'zi ham ilk o'rta asrlarda O'rta Osiyo musiqa, raqs va bastakorlik san'atining taraqqiyoti to'g'risida ma'lum darajada guvohlik beradi. Lekin xalqning ma'naviy boyligidan ko'proq mulkdorlar bahramand bo'lar edi.

Shunday qilib, VI—VIII asrlarda O'rta Osiyo xalqlarining ijtimoiy hayotida feodal munosabatlar shakllanib, mustahkamlanib bordi. Iqtisodiy hayotda hunarmandchilik, sug'orma dehqonchilik va chorvachilik rivoj topib, ichki va tashqi savdo kengaydi. Madaniy hayotda esa, me'morchilik, xat-savod, diniy e'tiqodlar, tasviriy san'at va musiqa ravnaq topib, madaniy aloqalar jonlandi. Natijada ilk o'rta asrlarning ma'naviy hayotini o'zida mujassamlashtirgan o'ziga xos serqirra madaniyat yaratildi.



12-rasm. Varaxsha. Ganchkor Humo qushi. VI—VII asrlar.

- ?
1. Ilk o'rtta asrlar me'morchiligi qayerda namoyon bo'ladi?
  2. Yozuvlar haqida nimalarni bilib oldingiz?
  3. Sug'dda savodxonlikka intilish kuchli bo'lganligini nimalarda ko'rish mumkin?
  4. Diniy e'tiqodlardan zardushtiylik haqida gapirib bering.
  5. Budda va nasora dinlari qayerlarda keng tarqalgan ekan?
  6. Yana qanday dinlarga e'tiqod qilingan?
  7. VI—VIII asrlardagi san'at haqida gapirib bering.
  8. Shu davrlarda musiqa san'atida qanday yutuqlarga erishilgan edi?

### **MAVZUNI TO'LDIRISH UCHUN YOZMA MANBADAN MA'LUMOT**

V—VIII asrlar O'rtta Osiyoning chorvador aholisi o'rtasida asosan «shomon», ya'ni «qam» dini keng tarqalgan edi. Aholi o'rtasida ushbu din ta'limotini talqin etuvchi urf, aqida va marosimlarini bajarishda rahnamolik qiluvchi dindorlari bo'lgan. Ularning yetuk bilimdonlari «qam» va «to'yin» deb atalgan. Qam va to'yinlar zohidlikda o'rnak bo'lib, aholi o'rtasida ularning nufuzi juda baland edi. Ular ibodatxonalarda yashab, doimo ibodatda bo'lardi. Bu to'g'rida XI asming nodir yozma manbai — Mahmud Koshg'ariyning «*Devoni lug'otit turk*» asarida «*To'yin burxonqa yuqundi, to'yin sanamga topindi*», ya'ni to'yin butxonaga kirdi va sanamga topindi deb, ta'kidlanadi. Qam va ulamo to'yinlar darajasidagi ruhoniylar hisoblanardi. «*Tun-kun topun tangriga bo'yinmag'il. Qorqun angar eymanu o'ynamag'il*», ya'ni kechakunduz ulug' tangriga ibodat qil, yo'ldan ozib adashma, xudodan qo'rq, undan uyal, degan targ'ibotlar aytib, qam va to'yinlar aholini e'tiqod yo'lga chorlaganlar va bu yo'lda o'zlari o'rnak bo'lib, orqalaridan avomni ergashtirganlar.

E'tiqod masalasida shuni ta'kidlash lozimki, ilk o'rtta asrlarda O'rtta Osiyo aholisi o'rtasida turli dinlarga e'tiqod qilish, ya'ni din erkinligi keng tarqalgan edi. Bu davrda aholi zardusht va budda dinlaridan tashqari, nasoroniy, ya'ni xristian, moniy va qam kabi bir nechta dinlarga sig'ingan. Ba'zi bir vo'ha va viloyat hududlarida diniy e'tiqod udumlari va rasm-rusumlari omuxtalashib, aholining ma'naviy hayotida muhim ahamiyat kasb etgan. O'rtta Osiyo va qo'shni mamlakatlar aholisining o'zaro madaniy aloqalariga kuchli ta'sir ko'rsatgan.

Bu diniy e'tiqodlarning omuxtasi asosida O'rta Osiyo xalqlarining ilk o'rta asr serjilo va ma'naviy madaniyati shakllangan va rivoj topgan.

O'rta Osiyo aholisining ilk o'rta asrlar tasviriy san'ati mazmun jihatidan nihoyatda boy, tasviriy jilosi jihatidan esa rango-rang bo'lgan. Masalan, Varaxsha saroyida oq fil ustiga mingan filbon va pahlavonlarning old va orqadan chovut solayotgan arslon va qanotli grifonlar bilan olishuvi yoki suyanchiqlari qanotli tuya shaklida yasalgan oltin taxt ustida o'tirgan hukmdor hamda otashdonda alangalanib turgan olovni tiz cho'kib tavob qilayotgan ziyoratchilar namoyish qilingan.

Afrosiyobda kovlab ochilgan devoriy suratlarning mazmuni yanada o'zgacha. Unda qandaydir tantanali izdahom tasvir etiladi. Oldinda oq fil ustida taxti ravonda malika, fil sag'risida joriya taxti ravonni tutib bormoqda. Fil ortidan qorabayir, to'riq va saman mingan uchta ayol, ulardan birinchisining bilagidan pastrog'iga sug'dcha «malikaning yangasi» degan so'zlar yozilgan. Ayollarni tuya mingan ikki nafar qurollangan erkak kuzatib bormoqda. Yuqoriroqda ot yetaklagan kishi hamda to'rtta oqqush haydab borayotgan o'spirinning surati chizilgan. Ularning og'iz va burunlari oq mato bilan bog'langan. Devorning markazida, boshqa rasmlardan ikki barobar kattalashtirib chizilgan suvoriy, u otliqlar qurshovida. Xonaning g'arbiy devorida shohona liboslarda, qimmatbaho tuhfalar ko'targan kishilar tasvirlangan. Devorda 16 qator sug'd yozuvi ham bitilgan. Unda «*Men Chag'oniyon dabirpati (elchisi) Buxorzd hukmdor Turontosh nomidan podshoga hurmat va ehtirom izhor etgani Samarqandga keldim*» degan mazmundagi so'zlar bayon etiladi. Xatning oxiri «*Choch elchisi (so'zga) og'iz ochdi*» degan jumla bilan uzilib qolgan. Bu yozuv mazmunidan ma'lum bo'lishicha, Afrosiyob suratlari, musavvirning xayoliy mushohadasi bo'lmay, balki unda Samarqandda bo'lib o'tgan tarixiy voqea — Samarqand podshosining Chag'oniyon, Choch, Farg'ona va Ustrushona davlatlari bilan olib borgan elchilik munosabatlari tasvir etilgan.

## O'RTA OSIYONING ARAB XALIFALIGI TOMONIDAN ISTILO QILINISHI, XALIFALIK ZULMIGA QARSHI XALQ OZODLIK QO'ZG'OLONLARI (VII—VIII ASRLAR)

### 7-§. ARAB XALIFALIGINING TASHKIL TOPISHI VA UNING HARBIY YURISHLARI

#### 1. Arab xalifaligi

Qadimdan Arabiston yarim orolida yashab kelayotgan arablar *Somiy* qavmiga mansubdirlar.

Arablarda VII asr boshlarida siyosiy tarqoqlik nihoyatda kuchayadi. Arabistonda sodir bo'lgan bunday ijtimoiy va siyosiy vaziyat, mamlakatning birlashuviga olib keldi. Bunday harakatning asosiy tarafdori bo'lib shaharlarning savdogar va hunarmand aholisi ko'tariladi.

Bu harakat buyuk va birdan-bir haq yo'l — yagona e'tiqodga da'vat qilishdan boshlanadi. Bu yakkaxudolik dini bo'lib, tarixda u «*ifoat*», «*tobelik*» va «*bo'yin egish*» ma'nolarini anglatuvchi «islom» nomi bilan shuhrat topadi. Buyuk va yagona tangri — Ollohning Yerdagi rasuli sifatida Arabistonning yirik markazi Makka shahrida dunyoga kelgan **Muhammad binni Abdulloh (570—632)** bu harakatga rahnamolik qiladi. Islomni qabul qilib, Rasulullohga ergashgan uning izdoshlari o'zlarini «muslim» (musulmonlar) ning xudo oldida teng ekani, rizq-ro'zni barchaga Yaratguvchining o'zi yetkazib berishi hamda jamiyatdagi adolatsizlik barham topishi haq ekanini targ'ib etadilar.

Dastavval o'z ona shahrida muvaffaqiyat qozona olmagan Muhammad 622-yil 16-iyulda Makkadan Madina shahriga hijrat qilishga majbur bo'ladi. Xuddi shu kundan boshlab musulmon Sharqida qabul qilingan hijriy yil hisobi boshlanadi. Shunday qilib, islom bayrog'i ostida Makka shahrida boshlagan *tavhidlik dini* targ'iboti Madinaga ko'chadi va bu shahar kurashning markaziga aylanadi.

Muhammad vafot etgach, avval **Abu Bakr (632—634)**, so'ngra **Umar (634—644)**, **Usmon (644—656)** va **Ali (656—661)** lar «*xalifa*», ya'ni «*o'rinbosar*» deb e'lon qilinadi. Ular hukmronlik

qilgan davrda Arabistonda islom dini to'la g'alaba qozonib, tarixda ilk bor o'ta markazlashgan musulmon davlati — Arab xalifaligi tashkil topadi. Misr, Suriya, Falastin, Iroq, Vizantiya va Eron bo'ysundirilib, islom jahon dinlaridan biriga aylanadi.

Shuni ta'kidlash o'rinliki, arab qabilalarining islomni qabul qilib, siyosiy jihatdan yagona hokimiyatga birlashuvida islom aqidalari, e'tiqod talablari, shariat ahkamlari huquqiy va axloqiy me'yorlarini o'z ichiga qamrab olgan yangi mafkuraning boy va o'ta nodir manbai — Qur'oni Karimning ahamiyati nihoyatda buyuk bo'ldi. Ko'p mamlakatlar bo'ysundirilib, behisob o'ljalarga ega bo'lgan Arab xalifaligi harbiy yurishlarni G'arb va Sharqqa tomon kengaytirishga harakat qiladi.

651-yili arablar jangsiz Marv shahrini egallaydilar. Bu yerda o'mashib olgach, arablar Amudaryodan shimolda joylashgan boy viloyatlarni bosib olishga tayyorgarlik ko'radilar.

## 2. Movarounnahrni zabt etishning boshlanishi

Amudaryodan shimolda joylashgan yerlarni arablar *Movarounnahr*, ya'ni «*daryoning narigi tomoni*» deb atardilar. Hozirgi Afg'onistonning shimoliy, Eronning shimoli-sharqiy qismi hamda Janubiy Turkmanistondan to Amudaryogacha bo'lgan hududlar esa Xuroson deb yuritilardi. Uning markazi Marv shahri edi. Bu viloyatni boshqarish uchun maxsus noib tayinlanib, u Marvda turar edi. Movarounnahrda bo'lgan hujumlar Xuroson noibi tomonidan uyushtirilar edi.

Arablar Movarounnahrda dastlab uni bosib olish uchun emas, balki harbiy jihatdan tayyorgarlik ko'rish, mahalliy hukmdorlarni sinash maqsadida yurish qiladi. Movarounnahrda ilk bor hujumlar 654-yilda *Maymurg'* va 667-yilda *Chag'oniyondan* boshlanadi.

Narshaxiyning yozishicha, 673-yilning kuzida xalifa **Muoviya I (661—680)** farmoni bilan **Ubaydulloh ibn Ziyod** Amudaryodan kechib o'tib, Buxoro muzofotiga bostirib kiradi. Poykand va Romittonni egallab, Buxoro shahrini qamalga oladi. Yordamga kelgan turklar va buxoroliklarning birlashgan qo'shinlari jangda arablardan yengiladi, *bir lak* (yuz ming) dirham hajmda boj

to'laydi. Bojdan tashqari arablar to'rt ming asir, qurol, kiyim-kechak, oltin va kumush buyumlardan iborat ko'p o'ljalar bilan Marvga qaytadilar.

3 Oradan uch yil o'tgach, Xuroson noibi Said ibn Usmon boshliq arab qo'shinlari yana Buxoroga bostirib kiradilar. Sug'd, Kesh va Nasaf viloyatlaridan yordamga kelgan bir yuz yigirma 120 mingli harbiy kuchga suyanib Buxoro malikasi dushman bilan jang qilish uchun o'z qo'shinini safga tortadi. Biroq, sug'dliklar vahimaga tushib Buxoroni o'z taqdiriga tashlab, jang maydonidan chiqib ketadilar. Natijada malika katta boj to'lab, malikzoda va dehqon aslzodalardan 80 nafarini garovga berib, yana sulh tuzishga majbur bo'ladi. Said ibn Usmon Buxorodan Samarqand sari qo'shin tortadi. Bir oydan oshiqroq davom etgan jangda sug'dliklar qahramonona qarshilik ko'rsatadilar. Said ular bilan sulh tuzib, kelishishga majbur bo'ladi. Samarqanddan u o'ljalar bilan bir qatorda 30 ming nafar asir olib qaytadi. Yo'l-yo'lakay u Termiz shahrini egallaydi.

Shunday qilib, arablarning Movarounnahr tomonga qilgan dastlabki yurishlari aslida ayrim sarkardalarning boylik orttirish maqsadida o'zboshimchalik bilan amalga oshirgan talonchiligidan



13-rasm. Afrosiyob. Devoriy tasvir. VI—VII asrlar.

iborat edi. Natijada, Movarounnahrning bir qator viloyatlari talanib, vayron etiladi.

Shubhasiz, arablarning talonchilik yurishlariga qarshi kurashish maqsadida Movarounnahrning mahalliy hukmdorlari o'rtasida harbiy ittifoq tuzish uchun urinishlar bo'lgan. VII asrning 80-yillari boshida ular hatto Sirdaryo etagida Xorazm yaqinidagi shaharlardan birida bir necha bor to'planadi. Biroq, o'zaro siyosiy nizolarni to'xtatish, xalifalikka qarshi birlashib kurashish to'g'risidagi ularning sa'yi-harakatlari

amalga oshmadi. Chunki Movarounnahrning siyosiy tarqoqligi hamda mahalliy hokimlar o'rtasidagi nizolar bunga xalal beradi. Bunday vaziyatdan esa arab lashkarboshilari ustalik bilan foydalanadilar.



14-rasm. Afrosiyob. Devoriy tasvir. VI—VII asrlar.

### 3. Movarounnahrning zabt etilishi

VII asr oxirlarida butun xalifalikda tartib o'rnatilgach, arablar Movarounnahrni uzil-kesil bosib olishga kirishadilar. 704-yilda Qutayba ibn Muslim Xurosonga noib qilib tayinlanadi. Unga Movarounnahrdan to Xitoy hududlarigacha bo'lgan viloyatlarni xalifalikka bo'ysundirish vazifasi yuklanadi. Bu, shubhasiz, jiddiy va nihoyatda og'ir vazifa edi. Harbiy yurishni Qutayba 705-yilda Balx viloyati atroflarini zabt etishdan boshlaydi. Tez orada Chag'oniyon hokimi jangsiz taslim bo'ladi. Shunday qilib, arablarning Movarounnahrغا tomon yurishining ikkinchi davri boshlanadi.

707-yilda Qutayba katta qo'shin bilan Amudaryodan o'tib, Buxoro vohasiga kiradi. Uning bu yurishida sotqin Balx dehqoni va chag'on-xudotlarning harbiy kuchlari ishtirok etadi. Poykandni qamalga oladi. Sug'd va boshqa viloyatlardan kelgan kuchlar bilan



15-rasm. Buxoro Arki.

50 Poykandliklar qattiq turib, arablarga qarshilik ko'rsatadilar. Qamal ellik kun davom etadi. Arablar shahar devori ostidan lahim qazib, unga rahna uradilar va ichkariga bostirib kiradilar. Poykand egallanib, qo'lida qurol tutishga qodir barcha erkak zoti qirib tashlanadi. Xotin-xalaj va yosh bolalar asirga olinib, shahar vayron etiladi. Poykand uzoq yillar davomida xarobazor bo'lib yotadi.

Poykand fojiasidan keyin beshafqat Qutayba boshliq bu xavfli dushmanga zarba berib, uni daf qilish maqsadida Sug'd podshosi **Tarxun**, Buxoro hukmdori **Xunukxudot** va Shopurkom hokimi **Vardonxudot** boshliq katta harbiy kuch hamda qirq ming lashkar bilan yordamga kelgan turklar **Tarob** va **Romitan** oralig'ida to'planadilar. Ittifoqchilar Qutayba qo'shinini qurshovga oladilar. Uning ahvoli nihoyatda tanglashadi. Undan xalos bo'lish uchun Qutayba o'ta makkorlik bilan hiyla ishlatib, Movarounnahrning viloyat hokimlari ustidan birin-ketin g'alaba qozona boshlaydi.

707—709-yillar mobaynida u Buxoro va uning atroflariga bir necha bor hujumlar qiladi, ko'pdan-ko'p qal'alar va obod yerlarni bosib oladi. Buxoro viloyatiga hokim qilib u buxorxudot **Tug'shodani** va unga amir qilib o'z yaqinlaridan birini tayin etadi. Amir buxorxudot ustidan nazorat qilib turish, Buxoroda qoldirilgan harbiy qismga askarboshi, aholidan soliq undirish va uni o'z vaqtida xalifalikka yetkazib berish kabi vazifalarni bajarar edi. Sulh shartnomasiga binoan buxoroliklar har yili xalifalikka

ma'lum miqdorda boj to'lash, uylarining yarmini arablarga bo'shatib berishga majbur edilar. Qutayba Buxoro shahrining markazida joylashgan otashparastlar ibodatxonasini jome masjidiga aylantirib, sug'diy tili va xatida bitilgan «otashparastlik» ka oid asarlarni yo'qotadi. Ibodat qilish uchun masjidga qatnagan mahalliy aholining har biriga ikki dirhamdan pul hadya etib, ularni islom diniga tortishga harakat qildi. Manbalarda ta'kidlanishicha, ikki dirhamni olish uchun ko'proq kambag'allargina qiziqar edilar. Ammo boylar pulga ham qiziqmas va masjidga ham bormasdilar.

710-yilda Qutayba **Shuman**, **Nasaf** va **Keshni** bosib olib, Samarqandga hujum boshlash uchun tayyorgarlik ko'radi. Biroq, Xorazmda boshlangan ichki ziddiyatlar oqibatida yuzaga kelgan qulay fursat Qutaybani Sug'd yurishini kechiktirib, Xorazmga qo'shin tortishga jalb etadi. Xorazm shohi **Chag'on** ukasi **Hurzod** boshliq xalq qo'zg'olonidan qo'rqib, 711-yilda yordam so'rab Qutaybaga murojaat qiladi. Garchi dushman qo'li bilan Hurzod tor-mor qilinib, u o'ldirilsa-da, ammo Xorazmshoh bundan hech narsa yutmaydi. Aksincha, u o'z mustaqilligini yo'qotib, xalifalikning bojdoriga aylanadi. Uning qo'shini esa Qutaybaning harbiy yurishlarida ishtirok etishga majbur etiladi.

#### 4. Sug'd yurishi

712-yilda Qutayba arablardan tashqari Buxoro va Xorazm qo'shinlari bilan Samarqandga tashlanadi. Bu davrda ixshid Tarxun taxtdan tushirilib, uning o'rniga **Gurak (709—738)** Sug'dga podsho qilib ko'tarilgan edi. Bu, shubhasiz sug'diylarning arablarga qarshi olib borgan kurashi tarixida muhim voqea bo'ldi. Chunki u zamonasining vatanparvar siyosatdon arbobi bo'lib, hukmronligi davrida imkoni boricha, arablarga qarshi g'ayrat bilan kurash olib bordi. Gurak Qutaybaga qarshi chiqadi. Kattaqo'rg'on bilan Karmana oralig'ida Arbinjon mavzeida shiddatli jang bo'ladi. Ammo Gurakning kuchi o'zlashtirilib, Samarqandga chekinishga majbur bo'ladi. Sug'diylar Shosh podshohi, turklar xoqoni va Farg'ona ixshidiga (hokimiga) elchilar yuborib, yordam so'raydilar. Turk xoqoni saralangan

qo'shin yuboradi. Ammo Qutayba yordamga kelayotgan kuchlarni birlashtirmaslikka harakat qiladi. Ularning yo'lini to'sib, qo'qqisdan hujum qiladi va tor-mor keltiradi. Bu g'alabadan so'ng Qutayba Samarqandga hujumni kuchaytiradi. Samarqand qamalga olinadi. Arablar shahar devori qarshisiga 300 manjaniqlar (tosh otish moslamasi) o'rnatib, unga rahna urish uchun kecha-yu kunduz devorni teshishga kirishadilar. Sug'diylar bir oy davomida shaharni qahramonona mudofaa qiladilar. Kamondan o'q uzib, tashqariga chiqib, shiddatli janglar qilib dushmanga katta talafot yetkazadilar. Shunday bo'lsa-da, Samarqand taslim bo'ladi. Gurak bilan Qutayba o'rtasida sulh tuziladi. Sulh shartnomasiga muvofiq Gurakning arablarga bir yo'la 2 ming, yiliga esa 200 ming dirham hisobida boj to'lash, 30 ming nafar odam berish, shaharda bironta ham askar saqlamaslik, ichki shaharni bo'shatib, unda minbari bilan masjid bino qilish, otashparastlik ibodatxonasini buzib, butlarini topshirish kabi shartlarni bajarishi lozim bo'ladi. Bularning evaziga Qutayba Gurakni Samarqand, Kesh va Naqshabga hokim qilib tayin etadi. Shunday qilib, u arablarga mute noib bo'lib qoladi. Garchi Samarqand bosib olinsa-da, ammo Sug'dning katta qismi arablarga bo'ysunmaydi. Sug'dlar esa o'zini mag'lub his etmaydilar. Shuning uchun ham ulardan hayiqqan Qutayba Samarqandda ma'lum sonda harbiy kuch qoldirib, o'zi yurishni davom ettiradi.

## 5. Choch, Farg'ona va Xo'jandning arablar tomonidan zabt etilishi

Mug' tog'idan topilgan hujjatdan ma'lum bo'lishicha, Qutayba o'zining keyingi yurishlarida Choch, Farg'ona va Turk xoqonligidan iborat yana bir harbiy ittifoqning qarshiligiga duch keladi.

Tabariyning yozishicha, 713-yilda Qutayba qo'shin saflarini butlash maqsadida **Buxoro, Kesh, Nasaf va Xorazm** aholisidan 20 ming askar to'plab berishni talab qiladi. Yig'ilgan katta qo'shin ikkiga ajratiladi. Uning Kesh, Nasaf va Xorazm qo'shinlarining birlashmasidan iborat birinchi safi **Choch** viloyatiga, o'zi boshliq asosiy kuch esa **Ustrushona** va **Xo'jand** orqali **Farg'ona** vodiysi

## VII-VIII ASRLARDA ARAB XALIFALIGI VA MOVAROUNNAHR



tomon yo'l oladi. Choch vohasi bosib olinib, Chochning poytaxti **Madinat ash-Shosh**, juda ko'p qal'a va qo'rg'onlar hamda qishloqlarga o't qo'yilib vayron etiladi. Qutayba Ustrushona va uning soylik va adirlarida janglar qilib, Xo'jand va Kosonni zabt etadi. 714-yilda u Choch va Turk xoqonligi kuchlarini ajratib, ittifoqdoshlarning birlashuviga yo'l qo'ymaslik maqsadida **Isfijobga**,

10 ch  
yurish qiladi. 715-yilning boshida esa Farg'ona vodiysini uzil-kesil egallab, Qo'sh<sup>ni</sup>g'argacha kirib boradi. Hamma viloyatlarga arablardan amirlar tayinlaydi. O'sha yili xalifa **Volid** vafot etadi. Uning o'rniga Qutaybaning g'animi **Sulaymon** xalifalik taxtiga o'tiradi. Bunday qismatdan norozi bo'lgan Qutayba yangi xalifaga qarshi isyon ko'taradi. Lekin u 715-yilda Farg'onada arab askarlari tomonidan o'ldiriladi. 705 Volid sharq q. yurishlarini tug

Shunday qilib, o'n yil davomida muttasil olib borilgan qonli jang-u jadallar oqibatida Movarounnahr Arab xalifaligiga bo'ysundirilgan bo'lsa-da, ammo uning mag'rur aholisi o'zini butkul tobe etilgan deb hisoblamaydi. Shu boisdan bu erksevar mamlakat xalqidan xavfsiragan Qutayba har yili kuzda Jayhundan qayta kechib, Sug'd va Chochdan uzoqda, Xuroson diyorida xotirjam qishlar va bahor kirishi bilan yangi kuch to'plab, yana Movarounnahr<sup>ga</sup> hujum boshlar edi.

## 6. Movarounnahrni arablar tomonidan osonlik bilan zabt etilishining sabablari

Avvalambor, mamlakatda hukm surgan siyosiy parokandalik va viloyat hukmdorlari o'rtasida o'zaro ziddiyatlar bosqinchilarga juda qo'l kelgan edi. Bunday vaziyatdan ular ustalik bilan foydalana oldilar. Movarounnahr<sup>ga</sup> bostirib kirilgan kundanoq arablar viloyat kuchlarini birlashuviga yo'l qo'ymaslik choralari<sup>ni</sup> ko'rdilar va buni uddasidan chiqa oldilar. O'zaro olishayotgan hukmdorlarning biriga ikkinchisini yengishi uchun yordam ko'rsatib, har ikkisini ham birin-ketin bo'ysundirdilar. So'ngra ular kuchidan boshqa viloyatlarni istilo qilishda foydalandilar. Sug'dni zabt etishda Qutayba arab qo'shini bilan bir qatorda Xorazm, Buxoro va Nasafning harbiy kuchlaridan foydalangan edi. O'n yil davom etgan jang-u jadallarda saflari siyraklashib qolgan qo'shinga muttasil yangi-yangi harbiy kuchlar xalifalikning ichki viloyatlaridan safarbar etilib turildi. Nihoyat arabistonlik fotihlarga keskin qarshilik ko'rsatib, ular bilan shiddatli janglar olib borgan Movarounnahrning mehnatkash xalqi o'z hukmdorlari tomonidan bir necha bor xoinona sotqinlikka uchradi. Xalq ommasining mustaqillik yo'lida dushmanga qarshi olib borgan

kurashida boshchilik qilish o'rniga ularning aksariyati bosqinchilarning tagi puch va'dalariga uchib, arablarga taslim bo'lishni afzal ko'rdilar. Shu sababli ham vatanparvar xalqimizning arabistonlik fotihlarga qarshi qahramonona kurashlariga qaramay, xalifalik Movarounnahrni bosib olishga muvaffaq bo'ldi.

### *Savol va topshiriqlar*

- ?
1. Xalifalik haqida va uning qanday tashkil topganligi haqida gapirib bering.
  2. Arablarning Movarounnahrni zabt etishdagi dastlabki rejalarida qanday maqsad bor edi?
  3. Movarounnahrda hujumning boshlanishi va Poykandning zabt etilishini gapirib bering.
  4. Qutaybaning ittifoqchi qo'shinlarga ishlatgan hiylasi qanday natija berdi?
  5. Buxoroning zabt etilishi va aholining islomlashtirilishini gapirib bering.
  6. Sug'd yurishi va uning natijalari haqida gapirib bering.
  7. Choch, Farg'ona va Xo'jand qanday zabt etildi?
  8. Nima uchun arablar Movarounnahrni osongina zabt eta oldilar?

## **8-§. ARAB XALIFALIGI ISTILOSINING IQTISODIY VA MA'NAViy OQIBATLARI**

### **1. Iqtisodiy oqibatlar**

Arabistonlik arablar avvalda yarim asr davomida Movarounnahrning hunarmandchilik va savdo shaharlari hamda obod viloyatlariga bostirib kirib, muttasil ularni taladilar va katta o'ljalarga ega bo'ldilar. O'lkani zabt etish jarayonida esa uning deyarli barcha obod dehqonchilik vohalarini oyoq osti qilib, juda ko'p shahar va qishloqlarga o't qo'yib vayron etdilar. Suv inshootlari buzib tashlanib, ekin maydonlari suvsizlikdan qurib qoldi. Zabt etilgan shahar va qishloq aholisidan oltin, kumush, qimmatbaho buyumlar va ko'plab qurol-yarog'lar tortib olindi. O'z ixtiyorlari bilan sulh tuzishga majbur bo'lgan Buxoro, Poykand, Sug'd hukmdorlaridan katta miqdordagi boj-u tovonlar undirib olindi. Arablar o'z qo'shinlariga minglab nafar mahalliy yigitlarni jalb etdilar. Natijada mamlakat iqtisodiy jihatdan tanazzulga yuz tutdi.

Movarounnahr butkul bosib olingach, arablar mamlakatda xalifalik hukmronligini mustahkamladilar. Mahalliy aholidan

ko'proq boylik undirib olishga harakat qildilar. Buning uchun avvalo ular faoliyatni Movarounnahrning barcha shahar va yirik qishloqlariga o'z harbiy qismlarini joylashtirishdan boshlaydilar. Bu harbiy kuchga tayanib, ular aholidan turli soliqlar undirib, xilma-xil jamoa ishlariga safarbar etadilar. Mazlumni itoatda tutib turadilar. Marv, Poykand, Buxoro va Samarqand kabi shaharlarda shahriston yoki undagi xonadonlarning qoq yarmi arablarga bo'shatib beriladi. Ayrim istilochi zodagonlar dehqonchilik vohalaridagi eng unumdor yer maydonlarini va suv inshootlarini egallab oladilar. Kelgindilarning bir qismi bosib olingan qishloq atroflariga ko'chib kelib o'rnashadi va o'troqlashadi. Bulardan tashqari, yerli aholi jamoat binolari, suv inshootlarini qurish, sug'orish tarmoqlarini loyqadan tozalash kabi ishlarga safarbar etiladi. Arablar sosoniylarning soliq tartibini joriy qildi. Bunga ko'ra ekin yerlaridan 1/4 hissaga qadar «xiroj», chorva, hunarmandchilik va savdo-sotiqdan qirqdan bir hissasida «zakot» hamda islom dinini qabul qilmagan ma'jusiylardan esa «jiz'ya» kabi jonboshi solig'i olinadigan bo'ldi.

## 2. Islomga da'vat etish

Fotihlar Movarounnahrda o'rnatilgan siyosiy hokimiyatni mustahkamlash va uning barqarorligini ta'minlash uchun islom dinining targ'ibotini aholi o'rtasida kengroq yoyishga alohida ahamiyat berdilar. Bir nechta ma'jusiylar dinlarga topinuvchi va o'z e'tiqodiga kuchli bo'lgan Movarounnahrning taqvodor aholisini uzil-kesil bo'ysundirishda yagona dinga — *Dini islomga* birlashtirish hal qiluvchi ahamiyat kasb etishini ular yaxshigina tushunardilar. Shu boisdan ular yerli aholining ma'naviy hayotida muhim o'rin tutgan *otashparastlik, nasoro, moniy, buddoiy va qam* kabi dinlarni xurofiy soxta dinlar deb e'lon qiladilar. Ayniqsa, Movarounnahr aholisining aksariyatini asosiy dini hisoblanadigan otashparastlikka qarshi qattiq kurash olib boradilar. Ibodatxonalar vayron etilib, ularning o'rniga jome' masjidlar bino qilinadi.

### 3. Aholini islomlashtirish yo'llari

Islom dinini qabul qilib, musulmon bo'lgan mahalliy aholi vakillari dastlabki yillarda xiroj va jiz'ya soliqlaridan ozod etilib, ularga ancha-muncha imtiyozlar beriladi. Islomni qabul qilishdan bosh tortgan



16-rasm. Xalifa Usmon tomonidan ko'chirtirilgan Qur'onni Karim.

kimsalardan jon bosh solig'i «jiz'ya» undirib olingan. Soliqlarni o'z vaqtida to'lamagan kishilar tutib olinib, bo'yinlariga «qarzdor» deb yozilgan taxtacha osib qo'yilardi. Bunday amaliy tadbir va choralar shubhasiz Movarounnahr aholisi o'rtasida islom dinining tarqalishiga yordam beradi. Biroq, shunday bo'lsa-da, islomni qabul qilgan aholining ko'pchiligi nomigagina musulmon bo'lib, uzoq vaqtlargacha pinhona o'z dini va e'tiqodlariga sodiqligicha qolaveradi.

### 4. Mahalliy madaniyatning poymol etilishi

Shunday qilib, Qutayba boshliq arablar tomonidan Movarounnahrni bosib olinishi oqibatida mahalliy xalqning urf-odati, dini va e'tiqodi, va qadimdan rivojlanib kelayotgan madaniyati poymol etilib, uning ma'naviy hayotiga qayta tiklab bo'lmas darajada putur yetkaziladi. Fotihlar Movarounnahrning hamma joylarida mahalliy din namoyandalarini, madaniyat, adabiyot va ilm ahllarini quvg'in qiladilar va qatl etadilar. Mahalliy sug'd yozuvida bitilgan diniy va ma'rifiy kitoblarni, ilmiy asarlarni va qimmatli hujjatlarni hamda sanamlarni gulxanlarda yoqib, yo'q qilib tashlaydilar. Quvadagi budda ibodatxonasiga o'rnatilgan turli-tuman haykallarning parchalab tashlangani, Afrosiyob saroy devorlariga solingan suratlarining, ayniqsa odam rasmlarining ko'zlari o'yilib, bo'yinlariga qilich bilan chizib yuborilganligi bunga yaqqol misoldir. Natijada, Movarounnahr xalqi uzoq davr mobaynida yoppasiga besavod bo'lib qoladi. Arab fotihlari keltirgan va yerli aholi uchun mutlaqo yot bo'lgan imloni o'zlashtirib, savodxon bo'lish uchun yana asrlarga teng avlodlar umri sarf bo'ladi.

- ?
1. Arab xalifaligi istilosi Movarounnahmi qanday oqibatlarga olib keldi?
  2. Fotihlar mahalliy aholini islomga kirgizishda qanday yo'llardan foydalandilar?
  3. Xalifalik istilosi mahalliy madaniyatga qanday ta'sir ko'rsatdi?
  4. Qutayba qanday shaxs edi? Ta'riflang.
  5. Mahalliy xalqning islomga kiritilishini ijobiy oqibatlari haqida sizning fikringiz.

## 9-§. XALIFALIKKA QARSHI XALQ HARAKATLARI

### 1. Qo'zg'olonning sabablari

Arab xalifaligining talonchilik siyosati yerli xalqni barcha haq-huquqlardan mahrum etdi. Madaniyatning oyoq osti qilinishi va zulm hamda islom dini, arab tili va yozuvi xalifalik qonun va qoidalarining zo'rlik bilan joriy etilishi natijasida mahalliy xalq orasida norozilik tobora kuchayib, qo'zg'olonlar ko'tarilishiga sabab bo'ldi.

Xalifa **Umar ibn Abdulaziz** (717—719) murakkab vaziyatni hisobga olib, bo'ysundirilgan yerli xalqlar bilan kelishish siyosatini amalga oshirishga majbur bo'ldi. U yangi yerlarni bundan buyon zabt etishni to'xtatish hamda moliyaviy isloh o'tkazish to'g'risida farmon berdi. Bunga binoan musulmon arablar bilan bir qatorda islomni yangi qabul qilgan ajamliklardan xiroj va jiz'ya soliqlarini olish bekor qilindi. Ammo Xuroson noiblari farmonni xalifalikning moliya siyosatiga zid degan bahona bilan uni bajarishdan bosh tortadilar. Ular hatto aholi hali yuzaki musulmon, jiz'yadan ozod qilish uchun xatnaga e'tibor berish ham lozim degan beandishalikkacha boradilar. Biroq Movarounnahr zodagonlarining ko'pchiligi o'zini haqiqiy musulmon deb hisoblab, soliq to'lamay qo'yadi. So'ngra xalifalik ma'murlari bir yo'la hammadan jiz'ya olish haqida buyruq beradi. Natijada Movarounnahrda yoppasiga islomdan chiqish va eski dinlarga qaytish boshlanadi. Buning oqibatida mahalliy mulkdorlar bilan xalifalik vakillari o'rtasida ziddiyat keskinlashib, butun mamlakatda xalifalikka qarshi xalq qo'zg'oloni ko'tariladi.

## 2. Qo'zg'olonlarning boshlanishi

Bunday qo'zg'olonlardan biri 720-yilda Sug'dda boshlandi. Qo'zg'olonga Samarqand ixshida Gurak va Panjikent hokimi Divashtich boshchilik qiladilar.

Sug'dliklarga yordam berish uchun Yettisuvdan turk lashkarlari keladi. Sug'ddagi barcha hokimliklar aholisi isyon ko'taradilar. Qo'zg'olonchilarning birlashgan kuchlari arablarga katta zarba beradilar. Faqat ayrim shahar va qal'alar ichida qurshovda qolgan harbiy qismlargina katta o'lpon va e'tiborli vakillarini qo'zg'olonchilar ixtiyoriga garovga berish bilan jon saqlaydilar.

Tabariyning yozishicha, qo'zg'olonni bostirish uchun Xuroson noibi Said ibn Abdulaziz Sug'dga qarshi uch marta yurish qiladi. Hatto u shahar va uning atrofini suv bilan ta'minlaydigan to'g'onni egallab, Samarqand va uning tevarak-atrofini suvsiz qoldirish bilan qo'zg'olonchilarni taslim bo'lishga majbur etish uchun harakat qiladi. Biroq, buning uddasidan chiqa olmaydi. Sug'dliklar to'g'on boshini mardonavor himoya qiladilar. Shunday qilib, qo'zg'olonni bostirish yo'lida amalga oshirilgan barcha chora va tadbirlar natija bermaydi.

721-yilda Said Xaroshiy Xurosonga noib qilib tayin etiladi. U Iroqda xalq qo'zg'olonini bostirishda shafqatsizligi bilan dong qozongan edi. Unga sug'dliklar qo'zg'olonini bostirish va ularni islomga qaytarish topshiriladi. Said Xaroshiyning qo'zg'olonchilar bilan olib borgan muzokaralari natijasida Gurak boshliq Sug'd mulkdorlarining bir qismi arablar tomoniga o'tadi. Qo'zg'olonchilarning qolgan qismi Farg'onaga chekinishga majbur bo'ladi. Xo'jandda bo'lib o'tgan jangda qo'zg'olonchilar yengiladi. Sulh tuzilgach, katta mablag' evaziga omon qolgan 400 savdogardan tashqari, deyarli barcha qo'zg'olonchilar xiyonat-korona qirib tashlanadi.

Divashtich boshliq qo'zg'olonchilarning ikkinchi guruhi ham yuqori Zarafshonda Obgar qal'asida qamalga olinadi. Omon qoldirish sharti bilan qo'lga tushirilgan Divashtich Arbinjonga olib borilib, qatl etiladi, boshi Iroq hokimiga yuboriladi, tanasi otashparastlarning xilxonasi — *nous devo-riga* qoqib qo'yiladi.

Xo'jandda qo'zg'olonning yengilishi hamda Divashtichning fojiali mag'lubiyatlaridan keyin Said Xaroshiy Movarounnahr shahar va qishloqlarida jazo choralarini kuchaytiradi. Mahalliy hokimlar buni daf etish choralarini izlaydilar. Tabariyning yozishicha Said Xaroshiyning Keshga hujumi katta o'lpon evaziga to'xtatiladi, ammo erksevar Movarounnahr aholisi xalifalik hukmronligiga qarshi ozodlik va mustaqillik uchun kurashni tinmay davom ettira beradi. 723-yilda arablarga qarshi Farg'ona hokimi qo'shin tortadi. Unga **Shosh**, **Nasaf** va turklar yordamga boradilar. Ittifoqchilar dushmanga qattiq zarba berib, uni Xo'janddan to Samarqandgacha ta'qib qilib boradilar.

Xalifalikning soliq siyosatiga qarshi 725-yilda Xuttalonda, 728-yilda esa yana Sug'dda qo'zg'olon avjiga chiqadi. Xuroson noibi ko'p urinsa-da, ammo bu harakatni bostira olmaydi.

### 3. Qo'zg'olonchilarga yon berilishi

Movarounnahr aholisini tinchlantirish va arablar hokimiyatini mustahkamlash maqsadida Xuroson noibi Ashros islom dinini qabul qilganlardan xiroj va jiz'ya soliqlarini olmaslikka qaror qiladi. Shubhasiz, bu aholini tinchlantirishga qaratilgan vaqtinchalik tadbir edi. Shunga qaramasdan u o'z samarasini berdi. Zodagon dehqonlarning ko'pi o'z *chokarlari* va *kadivarlari* bilan islomni qaytadan qabul qilib, arablar tomoniga o'tadilar. Shu tariqa Sug'dda arablar o'z mavqelarini birmuncha mustahkamlab oladilar. Biroq bu bilan xalifalikning sharqida vaziyat bo'shshamaydi. 736—737-yillarda Toxariston va Sug'dda yana qo'zg'olon ko'tariladi.

Arablar ayniqsa 737-yilda tang ahvolda qoladilar. Xuroson va Movarounnahrning noibi va amirlari bir necha bor o'zgartiriladi. Xurosonning yangi noibi Nasr ibn Sayyor mamlakatda o'z mavqeini mustahkamlab olish maqsadida moliya islohoti o'tkazadi. Islomni yangi qabul qilgan kishilar jiz'yadan ozod etilib, barcha musulmonlar huquq jihatdan tenglashtiriladi. Yer egasining e'tiqodidan qat'i nazar xiroj to'lashi shart qilib qo'yiladi. Shu asosda Movarounnahr va Xurosonning barcha viloyatlari uchun

xiroj miqdori belgilab beriladi. Shu bilan birga Nasr mahalliy mulkdorlari bilan yaqin aloqa o'rnatish va ular yordamida mamlakatni itoatda tutib turishga harakat qiladi. Shu maqsadda u xalifalik tomonga o'tgan yirik dehqonlarning avvalgi imtiyozlarini tiklaydi. Oliy martabali arab lashkarboshilari bilan mulkdor dehqonlar o'rtasidagi qon-qarindoshlik aloqalari o'rnatilishini himoya qiladi. Ayni vaqtda o'zi ham namuna ko'rsatib, Buxorxudotning qiziga uylanadi. Bunday siyosat natijasida, shubhasiz arablar bilan mahalliy zodagonlar o'rtasida ma'lum darajada ittifoq yuzaga keladi. Bu o'z navbatida ittifoqchi kuchlarning bo'linib kurashning susayishiga sabab bo'lsa-da, ammo ozodlik yo'lida olib borilayotgan xalq harakatlariga barham bera olmaydi.

Shunday qilib, VIII asrning birinchi yarmida Movarounnahrda xalifalikka qarshi ko'tarilgan xalq qo'zg'olonlari arab istilochilariga qarshi kurashning birinchi bosqichi edi. Qo'zg'olonchilarning ijtimoiy tarkibi ham, ularning oldiga qo'ygan maqsad va talablari ham turlicha edi. Ammo har bir tabaqaning asli maqsadi va talablari o'zgacha edi. Masalan: mahalliy hokimlar o'zlarining hukmdorligini tiklash maqsadida imtiyozlarga ega bo'lish uchun, mehnatkash aholi esa xiroj va jiz'ya kabi og'ir soliqlardan hamda beshafqat zulmdan ozod bo'lish uchun kurashadilar. Bu kurashda har bir tabaqa vakillari o'ziga najot izlaydi. Qo'zg'olonlarda qatnashganlarning asl maqsadlarini yaxshigina fahmlab olgan fotihlar ayrim mahalliy hokimlarning hukmdorligini tan olib yoki islomni qabul qilganlarni jiz'ya va xiroj soliqlaridan ozod etib, qo'zg'olonning boshqaruvchi kuchlarini arablar tomoniga og'dirishga va bu kuchlarni bo'lib yuborishga harakat qiladilar. Oqibatda Gurak yoki Buxorxudotdek hukmdorlar sotqinlik yo'lini tutib, istilochilar tomoniga o'tdi. Xalq qo'zg'olonlarini bostirishda ular o'z harbiy kuchlari bilan ishtirok etardi. Shunday bo'lsa-da, mazlum xalqning istilochilarga qarshi ozodlik kurashi to'xtab qolmadi. Movarounnahr xalifalikdagi eng notinch va isyonkor o'lkalardan biri bo'lib qolaveradi.

Movarounnahrda arablar hokimligiga qarshi xalq qo'zg'olonlari avj olayotgan bir vaqtda xalifalikning ijtimoiy va siyosiy hayotida ham keskin o'zgarishlar paydo bo'la boshlagan edi. Bu, shubhasiz, arab jamoalari o'rtasida feodal munosabatlarning rivoji bilan bevosita bog'liq edi. Ma'lumki, bu davrda xalifalikni ummaviylar sulolasi boshqarardi. Ummaviylar o'zga yurtlarni bosib olish, talash, mazlum xalqlardan o'lpon olish va soliqlar undirib olish hamda bo'ysundirilgan yerli aholidan harbiy kuch sifatida o'z istilolarida foydalanish kabi o'ta zo'ravonlik va bosqinchilik siyosati bilan shug'ullanadi. Natijada, bu siyosat Arab xalifaligidek ulkan davlatni boshqarish uchun mutlaqo yaramay qoldi. Mamlakatda ummaviylar hukmronligidan norozilik kuchaydi. Natijada bu hukmron sulolaga qarshi ishchan raqiblar guruhi paydo bo'lib, tobora kuchaya boshladi. Bu guruhga Muhammad payg'ambarning amakisi Abbosning evarasi Muhammad ibn Ali asos soldi. Ummaviylar Rasululloh avlodini qirib tashlashda ayblandi. Xalifalikni abbosiy'larga topshirish kerak degan da'vo ilgari surildi. Abbasoiylar harakatini targ'ib qilish uchun bu guruhning sodiq faollari xalifalikning deyarli barcha o'lka va viloyatlariga yuborildi. Bu borada ayniqsa sharqiy viloyatlarga alohida ahamiyat beriladi. Targ'ibotchilar aholining og'ir ahvoriga faqat ummaviylar sababchi degan fikrni oshkora targ'ib qiladilar.

Shunday qilib, ummaviy xalifalarining qo'pol siyosatidan faqat istilo etilgan mamlakatlarning mazlum xalqlarigina emas, balki xalifalikning arab aholisi ayniqsa uning badavlat mulkdor tabaqasi ham norozi bo'ldi. Shu sababli xalifalikda ummaviylar hukmronligini ag'darib tashlash uchun keskin harakat boshlanib ketdi.

#### *Savol va topshiriqlar*

- ? 1. Arab xalifaligiga qarshi qo'zg'olonning sabablari nimada? 2. 720-yildagi Sug'd qo'zg'oloni va uning natijalari haqida gapirib bering. 3. Xalifalikka qarshi boshqa qo'zg'olonlar, ularga yon berilishi haqida gapirib bering. 4. Arab xalifaligining o'zidagi ijtimoiy-siyosiy jarayon qanday edi?

## 10-§. ABUMUSLIM QO'ZG'OLONI VA ABBOSIYLAR HUKMRONLIGINING O'RNATILISHI

### 1. Ummaviylarga qarshi xalq noroziligining kuchayishi

Ummaviylarga qarshi umumiy norozilik ayniqsa VIII asrning 40-yillarida **Xalifa Marvon II (744—750)** hukmronlik qilgan davrda nihoyatda kuchaydi. Bunga xiroj solig'i miqdorining oshirib yuborilgani hamda aholining muttasil hasharlarga majburan jalb etilishi sabab bo'ladi. Ummaviylarga qarshi kurashga da'vat qilish uchun Iroq va Ajam viloyatlariga ko'plab targ'ibotchilar yuboriladi.


746-yilda Abbosiylar targ'ibotiga rahbarlik qilish uchun **Abumuslim Xurosonga** keladi. Abumuslim Kufaning **Savad** qishlog'ida dunyoga kelgan. Yoshligida bir davlatmand kishining qo'lida gumashta bo'lib ishlagan. So'ngra sarrojlik (egar-jabdug' yasovchi hunarmand) bilan kun kechirgan.

Ummaviylarga qarshi tashviqotni Abumuslim Xuroson aholisining yuqori tabaqasiga murojaatdan boshlaydi. Ma'lumki tim qora rang abbosiylar harakatining timsoli sifatida qabul etiladi. Shu boisdan Abumuslim va uning safdoshlari qora libos kiyib, qora bayroq ostida ummaviylarga qarshi qo'zg'algan kuchlarni birlashtirishga kirishadilar.


U Xuroson aholisiga murojaat qilib, payg'ambar avlodlarini quvvatlashga chaqiradi.

### 2. Abumuslim chaqirig'ining quvvatlanishi va qo'shinning to'planishi

Dastlab arab zodagonlari, so'ngra mahalliy dehqonlar Abumuslimni qo'llab-quvvatlaydilar. Ummaviylarga qarshi tashviqotning sadosi tez orada Xuroson, Movarounnahr va Toxariston viloyatlariga keng tarqaladi. Go'yo mamlakat aholisining barcha katta-kichigi arablarga qarshi qo'zg'algandek bo'ladi. Qo'shin avval Abumuslim qarorgohi **Maxuvon** qal'asida to'planadi. Abumuslim qo'shiniga kelib qo'shilgan kishilar ro'yxatga olinib, ularga avval uch dirhamdan, so'ngra esa besh dirhamdan maosh to'lanadi. Qizig'i shundaki, ro'yxatdan o'tgan kishilarning katta qismi har tomondan kelgan qullardan iborat edi. Bu davrda ham qullar aholi



17-rasm. Poykand. Rabot tarxi. VII asr.



18-rasm. Poykand. Sopolga yozilgan arabcha hujjat. VIII asr.

o'rtasida eng quyi tabaqa hisoblanib, ular bilan bir safda turish boshqa tabaqa vakillariga or tuyulganligi hisobga olinib, Abumuslim qullar uchun Shavval qishlog'ida maxsus joy tashkil ettiradi va ularga *Dovud* ismli targ'ibotchini boshliq qilib tayinlaydi.

### 3. Qo'zg'olonchilarning maqsadi

Qo'zg'olonchilar safida arab zodagonlari, Movarounnahr va Xurosonning mahalliy mulkdor dehqonlari, xalifalik sharqidagi mazlum aholi, shahar hunarmandlari va qishloq kadivarlari hamda qullar bor edi. Bularning maqsadlari ham har xil edi. Arab zodagonlari hokimiyatni abbosiylarga olib berib, mamlakatda o'z mavqelarini ko'tarmoqchi edilar. Mahalliy mulkdorlar mamlakatda siyosiy jihatdan arablar bilan tenglashish va iloji topilsa, mamlakatni xalifalikdan ajratib uni mustaqil idora qilishni maqsad qilib olgan edilar.

Abumuslimning o'zi ham, shubhasiz, xuddi shu kuchning vakili edi. Mazlum mehnatkash aholi ummaviylarning zulmi, og'ir soliqlar va uzluksiz majburiy hasharlardan, qullar esa qullik kishanlaridan qutulish orzusida edilar. Bu ezgu umidni ro'yobga chiqarish uchun zulmkorlarga qarshi kurashish yo'liga o'tlanib, astoydil bellarini mahkam bog'lagan edilar. Shu tariqa qo'zg'olonchi mazlumlarning soni kun sayin oshib bordi. 100 ming nafar lashkar yig'ilgan edi. Ularning deyarli hammasi qora libosda edilar.

#### 4. Qo'zg'olonning boshlanishi

747-yilning saratonida Abumuslim ummaviylarga qarshi aholini ochiq kurashga da'vat etdi. Bu davrda Xurosonda Nasr ibn Sayyor noiblik qilardi. U Abumuslim lashkari bilan to'qnashishga jur'at qila olmaydi. 748-yilning boshida u Xurosonning poytaxti Marv shahrini qo'zg'olonchilarga jangsiz bo'shatib beradi. O'zi Nishopurga chekinadi. Biroq uning orqasidan ta'qib qilib borgan qo'zg'olonchilardan qaqshatqich zarbaga uchraydi. Garchi xalifa Marvon o'z ixtiyoridagi barcha harbiy kuchlarni qo'zg'olonchilarga qarshi safarbar qilsa-da, ammo ummaviylar hokimiyatini saqlab qola olmaydi.

749-yilda Abumuslim boshliq qo'zg'olonchilar xalifalikni markaziy viloyatlariga tomon yo'l oladilar. Poytaxt qo'lga kiritilib, Xalifa Marvon II taxtdan ag'dariladi. Uning o'rniga abbosiylar xonadonidan bo'lgan *Abulabbos Saffox* (749—754) xalifalik taxtiga ko'tariladi. Joylarda ummaviylar xonadonining vakillari va yaqinlari qirib tashlanadi. Shunday qilib, Arab xalifaligida davlat abbosiylar qo'lga o'tadi.

#### 5. Abbosiylarning davlat tepasiga kelishi, qo'zg'olon natijalari

Abbosiylarning xalifalik taxtiga chiqishi bilan mehnatkash aholining ahvolidagi hech qanday yengillik sodir bo'lmadi. Abumuslim vositasida abbosiylar tomonidan xalq ommasiga berilgan va'dalardan birortasi ham amalga oshmadi. Abumuslim Bag'dodda davlat va harbiy kuchlarni yuqori lavozimiga tayinlanadi. Biroq abbosiylar uning xalq orasidagi obro'sining tobora ortib borishiga xayrixoh emas edilar. Oqibat Abumuslim poytaxtdan uzoqlashtirilib, Xuroson va Movarounnahrda noib qilib yuboriladi. O'z Vatanida u deyarli mustaqil siyosat yurita boshlaydi. Uni obod etish va unda barqaror tinchlikni saqlab turish yo'lida bir qator ishlarni amalga oshiradi. Yangi sug'orish tarmoqlarini bunyod etadi, qal'alar bino qiladi. Karvon yo'llarini tartibga keltiradi. Biroq abbosiylar va ularning Xurosondagi noibi Abumuslim hukmronlik qilganda

Movarounnahr, Xorazm, Xuroson va boshqa viloyatlarda mehnatkash ommaning ahvoli yaxshilanmadi. Bu davrda ham xalq ikki yoqlama, bir tomondan arab zodagonlari, ikkinchi tomondan esa abbosiylar bilan til biriktirgan mahalliy yerdorlar zulmi ostida qoldi. Bunday og'ir ahvol xalq noroziligini kuchaytirib, yangi sulolaga nisbatan uning g'azabini uyg'otdi.

Mehnatkash aholi o'rtasida abbosiylarga qarshi qo'zg'olon ko'tarish kayfiyati paydo bo'ladi. Bunday qo'zg'olonlardan biri 750-yilda Buxoroda bo'ldi. Abumuslim mahalliy kuchlar yordami bilan arang qo'zg'olonni bostirdi. *10 ming kishilik goshni*

Movarounnahrda ichki ziddiyatdan foydalanib, Xitoy imperatorining qo'shinlari Turkistonga bostirib kiradi. Abumuslim tomonidan yuborilgan harbiy kuch 751-yilda Talos vodiysida Xitoy qo'shinlariga zarba berib, ularni mamlakat hududidan quvib chiqaradi. Abbosiylarga Abumuslim sidqidildan xizmat qilgan bo'lsa-da, ammo ular unga ishonmas edilar. Ularning nazarida Abumuslim xalifalik taxtining da'vogaridek bo'lib tuyular edi. Undan hatto qattiq qo'rqar ham edilar. Shu boisdan ular Abumuslimni yo'qotish payiga tushdilar. Nihoyat 755-yilda qurolsiz va yolg'iz saroyga tashrif buyurgan Abumuslim xalifa buyrug'iga binoan o'ldiriladi. Abumuslimning o'ldirilishi xalifalik sharqida, ayniqsa Xuroson va Movarounnahrda abbosiylarga qarshi xalq harakatlarining avj olib ketishiga bahona bo'ladi.

#### *753 yili qo'zg'olon ko'tarish sum'at boshchiligi*

**Savol va topshiriqlar**

- ? 1. Ummaviylarga qarshi xalq noroziligining kuchayish sababi nimada? 2. Abumuslim va uning qo'shini haqida gapirib bering. 3. Qo'zg'olon qachon boshlandi? Qo'zg'olonidan ko'zlangan maqsad nima edi? 4. Abbosiylarning xalifalikka bosh bo'lishi, qo'zg'olon natijalari haqida gapirib bering.

### 11-§. «OQ KIYIMLILAR» QO'ZG'OLONI

#### 1. Oq kiyimlilar

VIII asrning 70—80-yillari Movarounnahrda juda katta xalq qo'zg'oloni ko'tariladi. Qo'zg'olonchilar oq libos kiyganlari uchun tarixda u «Oq kiyimlilar» qo'zg'oloni nomi bilan shuhrat topadi.

Bu harakatning rahbari **Muqanna** deb atalmish marvlik **Hoshim ibn Hakim** ismli hunarmand bo'lgan. U *Marv* shahri yaqinidagi **Koza** qishlog'ida tug'ilgan. Narshaxiyning yozishicha, uning bir ko'zi ko'r, boshi kal va basharasi juda xunuk bo'lganligidan boshi va yuziga ko'k parda tutib yurgan. Shuning uchun ham u «**Muqanna**», ya'ni «**Niqobdor**» laqabi bilan mashhur bo'lgan. Ba'zilar bir ko'zli Hoshim deb atashgan. Muqanna yoshlik chog'ida kudungarlik (matolarga oxor beruvchi) kasbi bilan shug'ullangan. U savodli, aqlli va tadbirkor bo'lgan. Xurosonda *sarxanglikdan* (kichik lashkarboshi) vazirlik darajasigacha ko'tarilgan. U Mazdak g'oyalariga asoslangan ijtimoiy tenglik va erkin hayotga da'vat etuvchi ta'limotni targ'ib etib, payg'ambarlik da'vosini qilgani uchun xalifa **Abuja'far Davonaqiy** tomonidan Bag'dodda zindonga tashlangan. Bir necha yil zindonda yotgach, undan qutulib, yana *Marv*ga kelgan. Atrofiga o'z tarafdorlarini to'plagan. Ajnabiylar hukmronligi va zulmiga qarshi qo'zg'alishga da'vat qilib, *Movarounnahr* viloyatlariga targ'ibotchilarni yuborgan. Uning targ'iboti *Naxshab* va *Kesh* shaharlarida yaxshi samara beradi. «Oq kiyimlilar»ning safi tobora kengayib boradi. Ularga bevosita rahbarlik qilish maqsadida Muqanna Sug'dga tomon o'tlanadi. Uni *Marvdan* Sug'dga o'tkazmaslik uchun xalifalik ma'murlari ta'qibni kuchaytiradilar. Amudaryo sohilini suvoriylardan iborat katta harbiy kuch kechayu kunduz muttasil qo'riqlab turadi.

## 2. Muqanna harakatining boshlanishi

Shunga qaramasdan Muqanna *Movarounnahr*ga yo'l oladi va o'z yaqinlari bilan omon-eson Amudaryoning o'ng qirg'og'iga o'tib, *Naqshab* va *Kesh* shahriga yetib boradi. *Kesh* yaqinida tog' tepasiga bino qilingan **Som** qal'asini o'z qarorgohiga aylantiradi. Ko'pgina qishloqlarning kadivarlari, shahar hunarmandlari va ayrim mulkdor dehqonlar unga ergashadilar. Tez orada butun *Qashqadaryo* vodiysi Muqanna tarafdorlari qo'liga o'tadi. Shunday qilib, «oq kiyimlilar» harakati kengayib, katta xalq qo'zg'oloniga aylanadi. U ayniqsa *Movarounnahr*ning markazi Sug'dda avj olib **Elq** (*Ohangaron*) vodiysi va *Shoshga* ham o'zining ta'sirini o'tkazadi. Qo'zg'olonda ilk o'rta asr jamiyatining turli tabaqalari

qatnashadi. Ularning o'z oldilariga qo'ygan vazifalari ham turlicha bo'lgan. Mehnatkash aholi og'ir mehnat va iqtisodiy tengsizlikka qarshi kurashsa, mahalliy mulkdor dehqonlar mamlakatdan arablarni quvib, hokimiyatni o'z qo'liga olishni maqsad qilib qo'ygan edi. Ular uchun yagona maqsad mamlakatni istilochilardan ozod qilib, mustaqil davlat tuzishga intilish edi. Bu shubhasiz ularni yagona harakatga birlashtirgan edi.

### 3. Qo'zg'olonning borishi

«Oq kiyimlilar» qo'zg'oloniga zarba berish uchun xalifa *Abu Ja'far* 775-yilda *Jabroil* boshliq katta harbiy kuchni Movarounnahrda safarbar qiladi. Ammo Jabroil qo'zg'olonchilardan yengiladi. U katta talafotlar berib, zo'rg'a Samarqanddagi arab qo'shinlariga keliib qo'shiladi. Qo'zg'olonchilar hujumni janubga tomon davom ettiradilar. Termiz yaqinida, qo'shimcha yordamga kelayotgan arab qo'shinlariga to'satdan hujum qilib, ularni tormor qiladilar. *Naqshab* va *Chag'oniyon* vohalari qo'zg'olonchilar qo'liga o'tadi. Qo'zg'olon 776-yildan boshlab Buxoro vohasida kuchayib ketadi. Narshax qal'asi qo'zg'olonchilarning qo'rg'oniga aylantirilib, unda «oq kiyimlilar» ning kattagina qismi to'plangan edi.

*Narshax* qal'asi yaqinida «oq kiyimlilar» bilan arablardan Buxoro amiri *Husayn ibn Maoz* va Samarqand noibi Jabroilning birlashgan qo'shinlari o'rtasida to'rt oy mobaynida jang bo'ladi. Arablar bilan bo'lgan jangda «oq kiyimlilar» ning qo'li ustun keladi. Ammo son jihatdan ko'p bo'lgan arab qo'shinlari *Narshax* qal'asi devori ostidan uzunasiga 50 gazlik chuqur qazib, uni qulatgach, qal'aga bostirib kiradilar. Qal'a ichida davom etgan shiddatli janglarda qo'zg'olonchilar yengilib, *Narshax* qo'rg'oni ishg'ol qilinadi. Qo'zg'olon boshliqlaridan *Hakim ibn Ahmad* va *Xishriylar* o'ldiriladi.

### 4. «Oq kiyimlilar» ning yengilishi

*Narshax*dagi qo'zg'olon bostirilgach, arablar asosiy kuchni «oq kiyimlilar» qo'zg'olonining markazi bo'lgan Samarqand va *Keshga* tashlaydilar. 777-yilda «oq kiyimlilar» ga uzil-kesil zarba

berish uchun harbiy kuch to'plash maqsadida xalifa Maxdiy Nishopurga keladi. Katta qo'shin to'plab Samarqandga yuboriladi. Qo'zg'olonchilar Sirdaryo vohasida yashovchi turkiy qabilalarni arablarga qarshi yordamga chaqiradilar. O'zaro bo'lib o'tgan jangda arablar qo'shini mag'lubiyatga uchraydi. Natijada Maoz Xuroson noibligidan mahrum etiladi. O'rniga Said Xaroshiy noib etib tayinlanadi va unga qo'zg'olonni bostirib Muqannani qo'lga tushirish topshiriladi. «Oq kiyimlilar» va turkiy qabilalar Samarqandda arablarga qarshi ikki yil jang qiladilar. Nihoyat qo'zg'olonchilar yengilib, Samarqand taslim bo'ladi.

Narshax va Samarqandda «oq kiyimlilar» yengilgach, mahalliy mulkdor dehqonlar sotqinlik qilib, arablarga yordam bera boshlaydilar. Ular Said Xaroshiy qo'shinlari bilan birga Muqannaga qarshi Keshga tomon yurishda qatnashadilar. Kurashning oxirgi bosqichida Kesh vodiysida tog'lar orasida janglar juda qizib ketadi. Muqannaning Som qal'asidagi qarorgohi qamalga olinadi. Uzoq davom etgan qamaldan so'ng kurashdan tinkasi qurigan muqannachilar taslim bo'ladilar. Muqannaning ukasi **Qabzam** uch ming, Som qal'asi mudofaasiga qo'mondonlik qilgan **Sarbama** 3300 nafarli qo'shini bilan Said Xaroshiyga taslim bo'ladilar. Istilochilarga taslim bo'lishni istamagan Muqanna o'zini yonib turgan tandirga tashlab halok bo'ladi. Shunday qilib, o'n yildan oshiqroq davom etgan bu qo'zg'olon o'sha davrda jahonning eng yirik davlati hisoblangan Arab xalifaligini larzaga keltirdi. Movarounnahr xalqining ozodlik harakati shu tariqa tugaydi. Lekin bu qo'zg'olonlar bundan keyin arablarni mahalliy xalq bilan hisoblashishga majbur qildi.

## 5. Qo'zg'olonning yengilish sabablari va oqibatlari

«Oq kiyimlilar» qo'zg'olonining yengilishiga asosiy sabab shuki, avvalambor qo'zg'olonchilar uyushqoqlik bilan harakat qila olmaganlar. Xalifalik hukmronligiga qarshi mamlakat mustaqilligi uchun olib borilgan xalq kurashidan o'z manfaatlari yo'lida foydalanishga uringan, xalq harakatining ommalashib ketishidan cho'chigan mahalliy mulkdor dehqonlar birin-ketin sotqinlik yo'lga o'tib ketganlar. Buning ustiga urushlar uzoq cho'zilib, qishloq aholisi

ekin-tikinlardan ajralib qolgan, darmoni qurigan, charchagan. Shu sababli u tarqalib keta boshlagan. Arablar esa bunday vaziyatdan ustalik bilan foydalanib, har qaysi viloyatda alohida-alohida ravishda qo'zg'olonni bo'g'ib, uni bosishga muvassar bo'lganlar.

Ammo bu bilan arab istilochilariga qarshi mahalliy xalq harakati uzil-kesil to'xtab qolmadi. «Oq kiyimlilar» qo'zg'olonidan 20 yil o'tar-o'tmas, 806-yilda **Rofe ibn Lays** boshchiligida xalifalikka qarshi yana qo'zg'olon ko'tariladi. Qo'zg'olon Samarqanddan boshlanib Shosh, Farg'ona, Buxoro, Naxshab va Xorazm viloyatlariga tarqaladi. Harakat avj olib, mazkur viloyatlar xalifalik qo'lidan ketadi. Qo'zg'olonni bostirish uchun xalifalik tomonidan ko'rilgan chora-tadbirlar natija bermagach, Xuroson noibi **Ma'mun** (806—819) dehqonlardan Somonxudotning nabiralari **Nux, Ahmad va Yahyolardan** iltimos qilib, ulardan yordam so'raydi. Ular Rofe ibn Laysni qo'lga olib, uni xalifaga taslim bo'lishga majbur qiladilar va shu bilan navbatdagi xalq harakati bostiriladi. Somonxudotlarning avlodi bo'lgan somoniylarning xalifalik oldidagi bu xizmatlari xalifa tomonidan inobatga olinib, Movarounnahr kelajak taqdiri mahalliy mulkdorlar vakillari qo'lga o'tishiga yo'l ochiladi.

Xullas madaniyatda past bo'lgan arablar VIII asr boshlarida Movarounnahrni istilo qildilar. Bosib olingan yerlarda islom dini zo'rlik bilan yoyilib, mahalliy xalqlarning ijtimoiy va iqtisodiy hayoti Arab xalifaligining tartib-qoidalariga bo'ysundirildi. Istilochilar mahalliy madaniyatni oyoq osti qilib, xalq boyliklarini taladilar. Ajnabiylar jabr-zulmiga qarshi ko'tarilgan xalq

qo'zg'olonlari beshafqat bostirildi. Ammo yerli xalqlarning istilochilarga va ular bilan inoqlashib ketgan mahalliy mulkdorlarga qarshi kurashlari behuda ketmadi. Asta-sekin xalifalikning hukmronligi zaiflasha bordi va bu hol Movarounnahr aholisining mustaqillikka erishuvini osonlashtirdi va tezlishtirdi.



19- rasm. Poykand. Shisha tabobat buyumlari. VIII asr.



**Savol va topshiriqlar**

1. Muqanna va «Oq kiyimlilar» haqida gapirib bering. 2. Qo'zg'olonchilar va qo'zg'olonning borishi haqida so'zlab bering. 3. Muqanna boshchiligidagi xalq qo'zg'olonining oxirgi kunlari qanday kechdi? 4. Qo'zg'olon nima uchun yengildi? 5. «Oq kiyimlilar» qo'zg'olonining oqibatlari haqida gapirib bering.

**MAVZUNI TO'LDIRISH UCHUN YOZMA MANBADAN MA'LUMOT  
«OQ KIYIMLILAR» QO'ZG'OLONI HAQIDA**

Muhammad Narshaxiy buxorolik «oq kiyimlilar» to'g'risida quyidagi satrlarni yozadi: «*Muqanna toifasining kattalaridan buxorolik Hakim (ibn) Ahmad nomli bir kishi bo'lib, u bilan birga yana uchta lashkarboshi bor edi. Ulardan birining nomi Xashviy, ikkinchisining nomi Bog'iy bo'lib, bu ikkovi Fuzayl ko'shkidan edilar. Uchinchisining nomi— Girdak, u G'ijduvon qishlog'idan edi. Bularning har uchasi ham jangovar kishilar edi.*

Bu uch jangovar lashkarboshilar rahnamoligida «oq kiyimlilar» Narshax qal'asini egallab olib, arablarga qattiq qarshilik

ko'rsatadilar. Narshaxiyning yozishicha, «*To'rt oy mobaynida ertayu kech uzluksiz urushdilar, «oq kiyimlilar» g'alaba qozonmagan bir kun ham bo'lmadi. Musulmonlar (arablar) chorasiz qolib tadbir izlashga tushdilar. **Molik ibn Forim:** «Men bir tadbir ko'rsataman»,— dedi-da, lashkargohdan to hisor devorigacha ariq (lahim— tunel) kovlashga buyurdi va u yerga qurolli kishilarni yuborib qancha joy kovlasalar uni cho'p, qamish va tuproq bilan mustahkamlab berkitib borishga buyurdi. (Shu tarzda) hisor devori tagigacha qazib yetdilar va (hisor devori tagini) ellik gaz miqdorda kovlab ustunlar qo'yib mustahkamladilar. Ellik gaz joy kovlanib bo'lgach, uni o'tin bilan to'lg'izib neft sepdilar-da, u ustunlar yonib qo'rg'on devori yiqilsin deb o'l qo'yib yubordilar. Ammo olov yonmadi, chunki olov yonishi uchun unga shamol tegishi kerak. Hisor ichida esa shamol o'tadigan yo'l yo'q edi. Hisorning tagi kovlangan minorasiga palaqmonlarni to'g'rilab qo'yib tosh otgan edilar, teshik ochilib shamol chiqishga yo'l topdi, olov olib ustunlar yondi va hisor devorining ellik gazcha joyi yiqildi.*

*Musulmonlar (arablar) qilichbozlikka kirishib ko'p kishini o'ldirdilar, qolganlar omonlik tilab, ilgarigi ahdomaga muvofiq musulmonlarni ranjitmaslik, o'z qishloqlariga qaytib ketish, o'z ulug'larini xalifa oldiga yuborilishiga (rozi bo'lish) va o'zlari bilan birga qurol-yarog' olib yurmaslik shartlari bilan sulh tuzdilar».*

## IKKINCHI QISM

### O'RTA ASRLARDA O'ZBEKISTON (IX—XIII asrlar)

#### I BOB

### MOVAROUNNAHR VA XUROSONDA ARAB XALIFALIGI HUKMRONLIGINING ZAIFLASHUVI VA MUSTAQIL DAVLATLARNING TASHKIL TOPISHI

#### 12-§. XALIFALIKDAN MUSTAQIL DAVLATLARNING AJRALIB CHIQISHI

(VIII ASR OXIRI — X ASR O'RTALARI)

#### 1. Qarluqlar davlati

VIII asr oxiri, IX asr boshlarida Arab xalifaligi og'ir siyosiy tanglikka uchradi. Bo'ysundirilgan xalqlarni itoatda tutib turish xalifalik uchun tobora qiyin bo'lib qoldi. Movarounnahr va

Xuroson aholisining tez-tez qo'zg'olon ko'tarib turishi, mamlakat ichida uzluksiz davom etgan feodal urushlar Arab xalifaligi hokimiyatini zaiflashtirdi. Mustaqil davlatlarning paydo bo'lishiga olib keldi. Bunday davlatlar dastavval Movarounnahrning shimoliy va shimoli-sharqiy hududlarida hali xalifalikka bo'ysundirilmagan o'lkalarda tashkil topdi. Ulardan biri *Qarluqlar* va ikkinchisi *O'g'uz* davlatidir.

Qadimda Oltoyning g'arbida, so'ngra Irtish daryosining o'rta oqimida yashagan qarluqlar qadimiy turkiy qabilalardan hisoblangan. VI—VII asrlarda ular Turk xoqonligi tarkibiga kirgan. VII asr o'rtalarida qarluqlar Yettisuv o'lkasiga kelib joylashgan. Ularning katta guruhi *Talos* va *Chu* daryolarining adoqlarida va *Issiqko'lgacha* bo'lgan hududda yashagan.

Manbalarda qarluqlar yurti Farg'ona vodiysi hududlaridan sharqqa tomon o'ttiz kunlik masofaga cho'zilganligi aytilgan. Bu davlatning poytaxti *Chu* daryosidan shimolroqda joylashgan *Suyob* shahrida bo'lgan. Yettisuv o'lkasida tashkil topgan Qarluqlar davlatida podshohlar «yabg'u» yoki «jabg'u» deb yuritilgan. Buxoro, Samarqand va Shoshda yo'nalgan qadimiy karvon yo'lining shimoliy tirsagi *Tarozdan* sharqqa burilib, Qarluqlar davlatining poytaxti *Suyob* orqali *Issiqko'*ning janubiy qirg'og'i bo'ylab Sharqiy Turkiston vohalariga, so'ngra esa Xitoyning ichki yerlariga kirib borgan.

Movarounnahrning o'troq dehqonchilik vohalari va hunarmandchilik shaharlari bilan muttasil olib borilgan savdo aloqalari Yettisuvda qadimdan yashab kelayotgan turkiy aholining ijtimoiy va iqtisodiy hayotigagina emas, balki uning madaniy turmushiga ham ta'sir etdi. Tinchlik yo'li bilan bu hududga avval *moniy* va *nasoroniy* — *xristian dinlari*, so'ngra *musulmonchilik* kirib kelgan. Ayrim ma'lumotlarga qaraganda, VIII asr oxirlaridayoq qarluqlar jabg'usi islom dinini qabul qilgan. X asr o'rtalariga borganda qarluqlarning kattagina qismi musulmon bo'lgan. Bu davrda bir qancha qarluq shaharlarida jome' masjidi bino qilingan.

X asr o'rtalarida yag'molar jikillar bilan birlashib bu o'lkada Qoraxoniylar davlatiga asos solingandi. Bu yangi davlatning siyosiy hayotida qarluqlar faol qatnashadilar. X asr oxirida qoraxoniylar

Movarounahrni egallagach, bu yurtga ko'plab turkiy qabilalar bilan birgalikda qarluqlar ham kelib o'rnashadilar. Keyinchalik, ular asta-sekin Movarounahrning mahalliy o'troq dehqon aholisi tarkibiga singib ketadilar.

## 2. O'g'uzlar davlati (IX asr oxiri — XI asr boshi)

VI asrning birinchi yarmida — Xitoydan to Qora dengiz bo'ylarigacha cho'zilgan keng maydonda ko'chmanchi chorvachilik bilan kun kechirgan turkiy qabilalarning—*to'quzo'g'uzlarning* harbiy ittifoqi yuzaga keladi va VI asrning ikkinchi yarmi, va VII asrda ular Turk xoqonligi tarkibida edi. Turk xoqonligi yemirilgach, to'quzo'g'uzlarning kattagina qismi *g'uz* yoki *o'g'uz* nomi ostida Sirdaryo havzasi hamda Orol dengizi bo'yida muqim o'rnashib, bu hududda ular IX asr oxiri va X asr boshida *O'g'uzlar* davlatiga asos soladilar.

Sirdaryo bo'yidagi *Yangikent* shahri O'g'uzlar davlatining poytaxti hisoblangan. O'g'uz yabg'ulari bu shahardan qishlov uchun qarorgoh sifatida foydalanganlar. O'g'uzlarning o'z qo'li bilan bino qilgan birorta ham shahri bo'lmagan. Chunki ular ko'chmanchi chorvador aholi bo'lgan.

O'g'uzlar asosan chorvachilik, xususan qo'ychilik bilan shug'ullanganlar. Ayrim o'g'uz qo'ychivonlarining 100 ming boshgacha qo'yi bo'lgan. O'g'uz dashtidan o'troq viloyatlar va hunarmandchilik shaharlariga, ayniqsa Amudaryoning quyi oqimida joylashgan Xorazm hududlariga qish-u yoz otar-otar qo'ylar haydab borilgan. Ammo o'g'uzlar o'troq qo'shni aholi bilan hamma vaqt tinch-totuv yashamaganlar. Kezi kelganda ular dehqonchilik vilovatlariga, ayniqsa Shosh va Xorazm yerlariga hujumlar qilib, aholiga omonlik bermaganlar. Obod dehqonchilik vohalarini poymol etib, shahar va qishloqlarni talaganlar, aholining bir qismini asir qilib olib ketganlar. Aholining mashaqqatli mehnati bilan obod etilgan vohalarni ko'chmanchilar hujumidan mudofaa qilish maqsadida dasht chegaralariga *mudofaa devorlari*, *qal'alar*, *ding* (kuzatish minoralari) va *mo'lalar* bino qilingan va ular muttasil ta'mirlanib turilgan.

O'troq vohalar aholisi bilan savdo aloqalarining o'sishi oqibatida o'g'uzlar dashtiga asta-sekin islom dini kirib keladi va

o'troq aholining madaniy ta'siri kuchayadi. X asrdan boshlab o'g'uzlar islom dinini qabul qiladilar.

X asrning birinchi choragida O'g'uzlar davlati shimoli-sharqdan qo'zg'algan qipchoqlar tomonidan qaqshatqich zarbaga uchrab, bo'linib ketadilar. Ular o'z yurtini tark etib, bir qismi g'arbga, *janubiy Rusiya* dashtlariga borib o'rnashadi. Ularning ikkinchi qismi esa avval Movarounnahrda kirib boradi va undan janubi-g'arbga siljib, yangi sulola *saljuqlar* boshchiligida Old Osiyo mamlakatlarini istilo qilishga kirishadi.

Shunday qilib, VIII asr oxiri IX asr boshlarida Movarounnahming shimoliy va shimoli-sharqiy hududlaridan ikki mustaqil turkiy davlatlar: Qarluqlar va O'g'uzlar davlati tashkil topdi. Bir yarim asr hukm surgan bu ikki turkiy davlat faqat Movarounnahmgina emas, balki butun O'rta Sharq hamda Old Osiyo aholisining siyosiy hayotiga kuchli ta'sir ko'rsatdi. Bu davlatlarning aholisi shu hududda yashovchi xalqlarni etnik tarixiga ta'sir qildi. Masalan: qarluqlar o'zbek va tojiklarning, o'g'uzlar turkman, ozarbayjon, qoraqalpoq, turklarning etnogenezida muhim rol o'ynadi.

### 3. Tobiriylar davlati

VIII asr oxiri, IX asr boshida xalifalikni larzaga keltirgan og'ir siyosiy vaziyat abbosiylarni Movarounnahr va Xurosonda olib borilayotgan siyosatni o'zgartirishga majbur etdi. Endilikda ular sharqiy viloyatlarni boshqarishda davlat ishlariga mahalliy zodagonlarni jalb etish va ularning qo'li bilan viloyatlarni xalifalik tasarrufida tutib turishga harakat qiladilar. Natija abbosiylar ko'zlagandek chiqmadi. Mahalliy zodagonlar Movarounnahr va Xurosonni asta-sekin o'z tasarruflariga olibgina qolmadilar, balki xalifalik markazida ham hokimiyatni boshqarishda tobora ko'proq rol o'ynaydigan bo'lib qoldilar. Bunga ayniqsa, Xalifa **Xorun** (786—809) vafotidan so'ng uning o'g'illari **Ma'mun** bilan **Amin** o'rtasida 809—813-yillarda taxt uchun bo'lgan kurash katta yo'l ochib berdi.

Ma'mun uzoq yillar mobaynida Xuroson va Movarounnahming noibi bo'lib, mahalliy mulkdorlar bilan juda yaqinlashib ketgan edi. Garchi uni mahalliy zodagonlar qo'llab-quvvatlasalarda, ammo xalifalikning markaziy qismidagi arablar Aminni xalifalik taxtiga ko'taradilar. Bundan norozi bo'lgan Ma'mun ukasi

Aminga qarshi kurashish uchun besh yil tayyorgarlik ko'radi. Hirot viloyatining zodagonlaridan **Tohir ibn Husayn** boshliq Xuroson va Movarounnahr mulkdorlari unga yordam beradilar. 813-yilda ular Bag'dodga yurish qiladilar. Poytaxt qo'lga kiritilib, Ma'mun xalifalik taxtiga o'tqiziladi. Buning evaziga Tohir yuqori lavozimlarga ko'tariladi. Shuningdek, Ma'mun Movarounnahr zodagonlarining ham yordamini unutmadi. Somonxudotning nabiralari ayrim shahar va viloyatlarga noib qilib tayinlaydi. **Nuxga Samarqand, Ahmadga Farg'ona, Yahyoga Shosh va Ustrushona, Ilyosga esa Hirot** tegadi. Buning evaziga aka-uka somoniylar Movarounnahrning har yilgi xirojidan juda katta mablag'ni tohiriylar orqali xalifa xazinasiga yuborib turadilar.

821-yilda Tohir Xuroson va Movarounnahrning noibi etib tayinlanadi. Oradan bir yil ham o'tmay xutbadan u xalifa nomini chiqartirib tashlaydi. Bu, shubhasiz Bag'dod bilan aloqani uzish va o'zini mustaqil deb e'lon qilish edi. Biroq, ko'p vaqt o'tmay u to'satdan vafot etadi. Uning o'limini xalifaning odamlaridan ko'radilar. Shunga qaramasdan Tohirning o'g'illari **Talxa va Abul Abbas Abdulloh** otasi o'rnida birin-ketin navbat bilan noiblik qiladilar. Shunday qilib, Xuroson va Movarounnahr boshqaruvi tohiriylar xonadoniga meros bo'lib qoladi. **Abul Abbas Abdulloh** noibliigi (830—844) davrida poytaxt Marvdan Nishopur shahriga ko'chiriladi.

Movarounnahrning bir nechta shaharlarida noiblik qilayotgan Somonxudot avlodlarining mahalliy noibliigi tohiriylar tomonidan tan olinadi. Somoniylar esa, o'z navbatida, tohiriylarga tobe sifatida Movarounnahrni idora etadilar. Bu shubhasiz, Xuroson va Movarounnahrda bir asrdan oshiqroq hukm surgan xalifalik hukmronligi tugab, ikki mahalliy sulola siyosiy jihatdan qaror topishi va mustaqil davlatning tiklanishini namoyish etardi.

#### **4. Tohiriylarning davlatni boshqarish tartiblari**

Tohiriylar dastavval hokimiyatni mustahkamlashga va qishloq xo'jaligini tartibga solishga harakat qiladilar. Dehqonchilik vohalarining suv ta'minotini yaxshilash uchun yangi kanallar qazdiradilar. **Abul Abbas Abdullohning** topshirig'i bilan

Xurosonning bilimdon fiqhshunoslari dehqonchilikda suv manbalaridan foydalanish tartiblari, suv taqsimoti va uning qonun-qoidalari haqida risola yozib, ma'muriyatga taqdim etadilar. Bu risola ikki asr mobaynida suvdan foydalanishda dehqonlar uchun ko'rsatma bo'ldi. Tohiriylar, ayniqsa davlat boshqaruvi, fuqarolarga munosabat va soliq solish tartiblariga alohida ahamiyat beradilar.

Tohir ibn Husayn o'g'li Abdullohga yo'llagan maktubida na davlatmand kishilar va na o'z yaqinlarini soliqlardan ozod etmasdan, fuqarolarning barchasiga adolat yuzasidan soliq solish haqida o'g'luga ko'rsatmalar beradi. Abdulloh ham otasi maslahatlariga amal qiladi. Ziroatchilar ahvolini birozgina bo'lsa-da yengillashtirish maqsadida u maxsus farmon chiqaradi. Farmonda mulkdorlar va davlat ma'murlariga qarata «*Olloh mehnat ahlining qo'li bilan rizq-ro'zimizni yetkazib beradi, tili bilan bizni olqishlaydi, ularni ranj etishni taqiqlaydi*» — degan so'zlar bitilgan edi. Shubhasiz, bu bilan Abdulloh mehnat ahlinigina emas, balki umumdavlat manfaatini ko'zda tutgan edi. Biroq, tohiriylar zamonida ham mehnat ahlining ahvoli nihoyatda tang edi. Ular mulkdor dehqonlarning jabr-zulmidan, davlatning og'ir soliqlaridan bezor edilar. Shu boisdan mamlakatda xalq qo'zg'olonlari tez-tez ko'tarilib turardi. Ularda, ayniqsa «*g'oziylar*» faol qatnashadilar. 873-yilda g'oziylar tohiriylarning harbiy qo'shiniga qaqshatqich zarba berib, Xuroson poytaxti Nishopurni egallaydilar. Natijada tohiriylar hukmronligi tugatilib, yangi *Safforiylar davlati* tashkil topadi. Mamlakatda sodir bo'lgan bunday siyosiy o'zgarishdan so'ng Movarounnahr Xurosondan ajralib o'z mustaqilligini to'la tiklab olish imkoniga ega bo'ladi.

#### *Savol va topshiriqlar*

- ?
1. Qarluqlar davlati va ularni islomni qabul qilish jarayoni qanday kechdi?
  2. O'g'uzlar davlati haqida gapirib bering.
  3. Tohiriylar davlati qanday vujudga keldi?
  4. Tohiriylarda boshqaruv tartiblari qanday bo'lgan?
  5. Qarluqlar va o'g'uzlar madaniy hayotiga mahalliy xalq qanday ta'sir ko'rsatdi?

## 1. Movarounnahrning birlashuvi Somoniyar davlatining vujudga kelishi


Bu davrda Movarounnahrning Samarqand, Farg'ona, Toshkent va Ustrushona viloyatlarida noiblik qilayotgan somoniylar xonadonining siyosiy hayotida ham asta-sekin birmuncha o'zgarishlar yuz beradi. Yurtga avval Nux, so'ngra Ahmad boshchilik qiladi. Har biri o'z hukmronligi davrida o'z nomlaridan misdan chaqalar zarb etadilar. Ahmad vafotidan (865) keyin uning o'g'li **Nasr** Samarqandni markazga aylantiradi. **Buxoro vohasi, Naxshab** (Qashqadaryo), **Chag'onrud** (Surxondaryo) vodiylaridan tashqari Movarounnahrning barcha viloyatlarini birlashtirish va uni Xurosondan ajratib olish choralari ko'radi. Tohiriylar davlatining barham topishi bilan vaziyat tubdan o'zgarib, istiqloq uchun qulay sharoit paydo bo'ladi. O'z holiga tashlab qo'yilgan Buxoro ahli hatto safforiylarga tobe bo'lishni xohlamaydi. Shahar zodagonlari somoniylarga murojaat qilib, Samarqandga Nasr huzuriga elchilar yuboradilar, undan Buxoroni o'z qo'l ostiga olishni va somoniylar xonadonidan bir kishini Buxoroga hokim qilib yuborishni so'raydilar. Nasr bu taklifni mamnuniyat bilan qabul qilib, ukasi Ismoilni (874) Buxoroga noib qilib yuboradi. Shunday qilib, IX asrning oxirgi choragida Movarounnahrning deyarli barcha viloyatlari somoniylar tasarrufiga o'tib, u o'z mustaqilligini tiklab oladi. Xuddi shu vaqtdan boshlab **Nasr** o'zini butun Movarounnahrning boshlig'i deb hisoblay boshlaydi. Garchi ukalari Shosh viloyatining noibi **Yoqub** va Farg'ona hokimi **Asadlar** o'z nomlari bilan chaqa pul zarb etib o'zboshimchalik qilsalar ham, ammo u somoniylar hukmronligi tarixida birinchi bo'lib kumush dirham zarb etadi. Kumush tangalar chiqarish davlat mustaqilligining ramzi hisoblanib, to shu vaqtgacha xalifalik viloyatlarida faqat tohiriylargina bunday dirhamni zarb etish huquqiga ega edilar. Shunday bo'lsa-da, Buxoro noibi **Ismoil** akasi **Nasrga** itoat qilishni istamaydi. O'ziga berilgan viloyatni mumkin qadar iqtisodiy jihatdan mustaqil idora qilishga intiladi. Samarqandga—

Nasrning xazinasiga yuboriladigan har yilgi soliqlarni turli bahonalar bilan to'xtatib qo'yadi. Natijada aka-uka o'rtasida adovat paydo bo'ladi. U 888-yildagi jangga olib keladi. Jangda Nasr qo'shinlari tor-mor keltiriladi. Shu yildan boshlab Ismoil butun Movarounnahrni birlashtirib, uning yagona hukmdori bo'lib oladi.

## 2. Ismoil Somoniy

Ismoil Somoniy o'rta asrlarning qobiliyatli, serg'ayrat va nihoyatda zukko davlat arbobi edi. U Movarounnahrni birlashtirgach, mustahkam feodal davlatni tuzishga intildi. U o'z Vatanida barqaror tinchlikni ta'minlab, uni mustahkamlashda hukmronlik qobiliyatining hamma nozik xususiyatlarini ishga soldi. Avvalo katta qo'shin to'plab, ko'chmanchilar dashtiga askar tortdi. 893-yilda **Taroz** shahrini fath etib, dashtliklarga qaqshatqich zarba berdi. Bu somoniylar davrida ko'chmanchilarga qarshi qilingan oxirgi katta yurish bo'ldi. Natijada dashtlik qabilalarning Movarounnahr viloyatlariga bo'lgan uzluksiz bosqinlari barham topib, o'troq aholi endilikda vohalar atrofi bo'ylab yuzlab kilometr ga cho'zilgan mudofaa devorlari-yu, son-sanoqsiz qal'alarni bino qilish va ularni muttasil ta'mirlab turishdek og'ir va mashaqqatli mehnatdan va tashvishdan forig' bo'ldi. Xuddi shu davrdan boshlab, 300 km dan oshiqroq masofada Buxoro vohasining atrofini o'rab turgan qadimiy mudofaa inshooti Kampirak devorining har yilgi odatiy hashari to'xtalib, u qarovsiz qoldirilgan. Narshaxiyning yozishicha Amir Ismoil o'zining kuchli qo'shinlarini nazarda tutib, «*Toki men tirik ekanman, Buxoro viloyatining devori men bo'laman*», — deb aytgan ekan.

Movarounnahr aholisining mustaqillikka erishib, bu diyorda Somoniylar davlatining tobora kuchayib borishi shubhasiz sharqiy viloyatlardan muttasil undirib olinadigan katta boyliklardan mahrum bo'lgan Arab xalifaligini, bir tomondan, nihoyatda ranjitsa, ikkinchi tomondan cho'chitar ham edi. Shu boisdan xalifalik *safforiylar* bilan *somoniylarni* to'qnashtirishga va bu ikki davlatni har ikkisini ham zaiflashtirib, bu boy viloyatlarda, ma'lum darajada, o'z ta'sirini qayta tiklashga harakat qiladi. Natijada 900-yilda ular o'rtasida boshlanib ketgan urush Ismoilning



20-rasm. Buxoro. Ismoil Somoniy maqbarasi. X asr.

g'alabasi bilan tugaydi. Butun Xuroson somoniylar qo'l ostiga o'tadi. Noilojlikdan xalifa Ismoilning bunday ulkan davlatini tan olishga va unga hukmdorlik yorlig'ini yuborishga majbur bo'ladi. Shunday qilib, IX asr oxirlarida Movarounnahr Arab xalifaligi istibdodidan abadiy xalos bo'ldi. Ismoil Somoniy butun Movarounnahrni o'z qo'li ostida kuchli bir davlat qilib birlashtirdi. Xurosonda tashkil topgan Safforiylar davlatiga barham berdi va uni o'z davlatiga qo'shib oldi. Natijada poytaxti Buxoro shahri

bo'lgan zamonasining eng yirik mustaqil feodal davlati tashkil topdi. Bu davlatni somoniylar xonadonidan bo'lgan hukmdorlar — amirlar X asr oxirlarigacha idora qiladilar.

### 3. Somoniylarning davlat boshqaruvi

Movarounnahr mustaqilligining barqarorligi avvalambor markazlashgan mustahkam hokimiyatning qaror topishiga bog'liq edi. Buni yaxshigina anglagan somoniylar o'z tasarrufidagi ulkan mamlakatni boshqarishda dastavval ixcham davlat ma'muriyatini tashkil etdilar. U podsho dargohi va devonlar — markaziy hokimiyatdan iborat edi. Dargohda amir xarami va qarorgohi hamda saroy a'yonlari, navkar va xizmatkorlarining turar joylari bo'lardi. Narshaxiyning yozishicha, Somoniylar davlati asosan *vazir, mustavfiy, amidul mulk, sahibi shurat* kabi o'nta devonlar boshqaruvida idora etilardi. Ular orasida *vazir devoni* bosh boshqaruv mahkamasi hisoblanar va davlatning ma'muriy, siyosiy va xo'jalik tartiboti uning bevosita nazorati ostida tutib turilardi. Barcha devon boshliqlari vazirga tobe edi. **Nasr II (914—**

943) davrida Buxoroning Registon maydonida podsho qasri qarshisida devonlar uchun saroy qurilib, davlat mahkamasi mana shu maxsus binoga joylashgan edi. Mahkama xizmatchilari faqat saroy ahli, ruhoniy va zodagon dehqonlardan bo'libgina qolmasdan, shu bilan birga muayyan bilimlarga ega bo'lishi shart edi. Odatda, ular arab, fors tillarini puxta egallab olgan. Qur'onni va shariatning asosiy qoidalari yaxshi biladigan turli fanlardan birmuncha xabardor bo'lgan savodli asilzodalardan tanlab olingan. Shubhasiz, bu o'rta asrlarning o'ziga xos feodal-amaldorlik madaniyati edi. Qadimiy an'analarga asoslangan bu madaniyat somoniylar davrida ancha-muncha boyitilgan edi.

Markaziy mahkama viloyatlardagi mahalliy boshqarmalar bilan doimiy aloqada bo'lgan. Viloyatlarda barcha devonlarning vakillari bo'lgan. Viloyat devonlari bir tomondan mahalliy hokimga, ikkinchi tomondan esa, markaziy mahkamaning tegishli devoniga bo'ysunar edilar. Viloyat hokimlari ba'zan *vazir* deb yuritilardi. Mansabdorlarning xizmat haqi uchun davlatning yillik daromadi (budjeti) ning deyarli yarmi sarf etilar edi. Shu bilan birga X asrlarda yirik mansabdorlarning davlat oldidagi xizmati uchun yer va suvdan iborat katta-katta mulklar in'om qilina boshlaydi. Ayniqsa u XI asrda keng yoyiladi. Bunday mulkka «*iqto*», unga ega bo'lgan mulkdorlar «*muqto*» yoki «*iqto'dor*» deb yuritilardi. Iqto' tarzida esa ayrim viloyat, voha yoki shaharlar va tumanlar hadya etilgan. Iqto' dastavval asosan oliy tabaqa zodagonlar: sulola a'zolari— amirzodalar va yirik mansabdorlarga in'om etilgan. Iqto' mulklari avvalda bir umrga emas, balki ma'lum muddatga berilib, nasldan-naslga o'tkazilmagan. Iqto'dorlar hadyaga berilgan mulklarga hali to'la egalik qila olmaganlar. Ular iqto' yerlaridan tushadigan daromad yoki uning ma'lum qisminigina yig'ib olish huquqiga ega bo'lganlar, xolos. Butun bir viloyat iqto' qilib berilgan noib — vazirga ba'zan o'z nomi bilan chaqa pul zarb etish huquqi ham berilar edi. Bu shubhasiz, o'z navbatida markaziy hokimiyatni kuchsizlantirib, mahalliy hokimlarning boshboshdoqlik harakatlarning kuchayishiga olib kelar edi.

#### 4. Somoniylar va islom dini

qubatul islom  
Buxoro

Movarounnahr mustaqillikka erishib, Somoniylar davlatining qaror topishi va uning ravnaqida islom dini ruhoniylarining hissasi katta bo'ldi. Shu boisdan ularning obro'si oshib, poytaxt Buxoro Sharqda islom dinining eng nufuzli markazlaridan biriga aylandi. Shaharlarda ko'plab ibodatxonalar, shu jumladan *jome' masjid, xonaqo (g'aribxona) va nomozgoh* (iydi ramazon va iydi qurbon ibodatlarini o'qiladigan sajdagoh) lar bino qilindi. Xuddi shu davrda musulmon Sharqidagi ilk ilmgoh madrasalardan biri Buxoro shahrida qad ko'tardi. Buxoroning bu qadimiy madrasasi shaharning **Darvozayi Mansur** mahallasida xon hammomining yonida joylashgan edi. Mamlakat ma'naviy hayotining asosi hisoblangan islom mafkurasiga bu davrda *«ustod»* deb atalgan din va ilm peshvolari rahnamolik qilardi. Keyinchalik bu nom tark etilib, din peshvolari va islom ulamolarining rahnamosi *«shayxulislom»* nomi bilan yanada ulug'landi. Ustoddan keyin *«xatib»* lar turardi. Somoniylar islom mafkurasining rivojiga katta ahamiyat beradilar. Masjid, madrasa va xonaqolar qurish uchun maxsus joylar va ularning sarf-u xarajatlari uchun katta-katta mulklar ajratilib beriladi. Natijada diniy muassasalar tasarrufidagi yerlar kengayib, yangi turdagi diniy-feodal xo'jaligi tarkib topadi.

#### 5. Somoniylar davlatida mudofaa ishlari

Somoniylar tashqi va ichki dushman xurujlaridan mamlakatni muhofaza qilish masalasiga katta e'tibor beradilar. Xususan Ismoil Somoniy yaxshi qurollangan harbiy qo'shin va maxsus saroy muntazam sarbozlar qismini tuzadi. Muntazam sarbozlar oliy dargoh va shaxsan amirni hamda uning xaramini qo'riqlash uchun turk g'ulomlaridan tuzilgan edi. Turkiston va Movarounnahr harbiy xizmatchi, mohir chavandoz turk o'smirlarini qadimdan doimiy ravishda voyaga yetkazib kelgan bo'lsa ham, ammo faqat somoniylargina turk yigitlarini birinchilar qatorida saroyning shaxsiy sarbozlari safiga tortgan edilar. Saroy sarbozlariga qabul qilingan o'spirin turk g'ulomining harbiy xizmati ma'lum muddatga va qat'iy belgilangan tartibda o'tar edi. Yaxshi va uzoq

xizmat qilgan sarbozlar «*hojib*» lavozimiga ko'tarilgan. Hojiblarning boshlig'i «*hojibul hujob*» yoki «*hojibul buzruk*» deb yuritilar edi. Bunday unvon Somoniylar davlati saroyidagi oliy unvon hisoblanardi. Hojiblar, ayniqsa *hojibul hujob* saroyda katta nufuzga ega edi. U saroyda turar va dargohning ishlarini boshqarar edi. Somoniylar sarbozlardan tashqari ozod mehnat ahlidan tuzilgan harbiy qo'shinlarga ega edilar. Harbiy qo'shin va uning ta'minoti bilan «*ariz*» boshliq devoni ariz deb atalgan maxsus mahkama shug'ullanar edi. Ariz qo'shinlarga maosh berar, uning intizomi, yarog'-aslahasi, oziq-ovqati va otlarining yem-xashagi taminoti bilan shug'ullanar edi. Qo'shinlarga xizmat haqi har uch oyda, ya'ni yiliga to'rt marta to'lanar edi.

Shunday qilib, IX—X asrlarda Movarounnahr va Xurosonda Somoniylar davlati tashkil topdi. O'rta asrlar mulkchilik zamonining bu yirik davlatini boshqarishda hukmdor xonadon Sharqning qadimiy davlat boshqaruvi an'analariga suyanib, muntazam harbiy qism va kuchli harbiy qo'shinlarga ega bo'lgan markazlashgan boshqaruv mahkamasini tashkil qildi. O'rta asrlarning bu yirik davlati o'zining boshqaruv tizimi jihatidan shubhasiz O'rta Osiyoda yirik mulkdorlar davlatchiligining shakllanishi va taraqqiyoti tarixini o'rganishda alohida ahamiyat kasb etadi.

### *Savol va topshiriqlar*

1. Somoniylar davlati qachon, qanday vujudga keldi? 2. Ismoil Somoniy haqida bilganlaringizni gapirib bering. 3. Somoniylar davlati qanday boshqarilgan? 4. «*Iqto'dorlik*» nimalarga olib keldi? 5. Somoniylar islomga qanday e'tibor berdilar? 6. Somoniylar davlatida mudofaa ishlari qanday yo'lga qo'yilgan edi.

## 14-§. SOMONIYLAR DAVLATIDA IJTIMOIY VA IQTISODIY HAYOT

### 1. Qishloq xo'jaligi

IX—X asrlarda Movarounnahr, Xuroson va Xorazmning shahar va qishloqlarida hunarmandchilikning ko'pgina sohalari ancha-muncha rivojlangan bo'lsa ham, ammo bu hududlar qishloq xo'jaligi mamlakati edi. Aholining asosiy qismi sug'orma dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullanar edi. Asrlar osha

## IBN HAVQALNING MOVAROUNNAHR XARITASI (X asr)



1. Hisor, Turkiston va Zarafshon tog'lari
2. Iskandarko'l
3. Zarafshon daryosi
4. Qorako'l

5. Orol dengizi
6. Amudaryo
7. Sirdaryo

takomillashib kelgan sug'orish tarmoqlari va turli-tuman suv inshoot (to'g'on, band, nova, koriz, chig'ir, charxparrak, suvayirg'ich) lari vositasida sug'orilib obod etilgan serunum vohalarda sug'orma dehqonchilik madaniyati— *g'allakorlik, sholikorlik, paxtachilik, sabzovotchilik, polizchilik* va *bog'dorchilik* yuqori darajada rivoj topgan edi. Movarounnahrda hamda Xorazm vohalarida aholi ziroatlarning deyarli barcha navlarini: *arpa, bug'doy, tariq, mosh, adas-yasmiq, kunjut, no'xat, zig'ir, jut* va shu kabilarni yetishtirar edi. Samarqand vohasida asosiy ekin—g'alladan tashqari *zig'ir, kanop* va *kanakunjut*, Xorazmda esa *kunjut* ko'p ekilardi. Zig'ir, kunjut va kanakunjutdan moy olinardi. Movarounnahrning tog'oldi hududlari aholisining asosiy mashg'uloti chorvachilikdan tashqari lalmikorlik bilan ham shug'ullanardi. Lalmi yerlarda asosan g'alla yetishtirilardi. Paxtaning ingichka tolali g'o'za navlari ekilardi. G'o'zadan tashqari *za'faron* va *ro'yan* kabi nodir texnik o'simliklar ekilib, ulardan turli xil dori-darmonlar va bo'yoqlar tayyorlanardi.

Movarounnahr va Xorazmda, ayniqsa bog'dorchilik madaniyati keng ravnaq topgan edi. Bog' va chorbog'larda uzum, anor, anjir, olma, nok, behi, o'rik, shaftoli, olxo'ri, olcha, tut, jiyda va ko'pgina boshqa mevalar yetishtirilardi. Xususan uzumning o'nlab navlaridan nihoyatda ko'p hosil olinardi.

Uzumdan *magiz, shinni, sirka* va *musallas* tayyorlanardi. Movarounnahr va Xorazmda sabzavot va poliz ekinlari serob bo'lib, qovunlari nihoyatda shirali bo'lardi. Buxoro va Xorazmning qirqma qovunlari va qovun qoqilari Sharqning uzoq-uzoq shaharlariga olib borilardi.



21-rasm. Sirdaryo viloyati. X asr suv omborining to'g'oni — Xonbandi.

Dehqonchilik solig'i — xirojdan xazinaga tushadigan daromad davlat kirim-chiqimining kattagina qismini qoplar edi. Shuning uchun ham somoniylar mamlakatda dehqonchilik xo'jaligini rivojlantirishga katta e'tibor berdilar. Avvalambor, ular ayrim viloyat va vohalarda suv taqsimotini tartibga solib, ularning suv ta'minotini yaxshilash hamda iloji boricha ekin maydonlarini kengaytirishga harakat qilardilar. IX—X asrlarda Movarounnahrning viloyat va vohalarida daryo va uning tarmoqlaridan ko'plab yangi yangi sug'orish kanallari qazildi. Oqar suvga tanqis tog'oldi hududlarda bandlar, suv omborlari barpo etiladi. Yer osti suvlaridan dehqonchilikda foydalanish uchun korizlar qazilib, ishga tushiriladi. Suv manbalari sathidan balandroq joylashgan yer maydonlariga suv chiqarish uchun charxparrak, chig'ir va duloblardan keng foydalaniladi.

Vohalarni suv bilan ta'minlab turgan sug'orish tarmoqlarini muttasil loyqadan tozalash, behisob turli xil suv inshootlarini ta'mirlash uchun har yili minglab hasharchilar qazuvga chiqqan. Dehqon paykallariga obirahmatni yetkazib berish uchun *mirob*, *jo'ybon* va *poykor* kabi xalq ichidan chiqqan sug'orish bo'yicha mutaxassislar yoz bo'yi oyoqqa turgan. IX asrdan boshlab Buxoro vohasining suv taqsimoti bilan shaxsan shahar qozisining o'zi shug'ullangan.

Shunday qilib, IX—X asrlarda dehqonchilikning taraqqiy qilishi bilan sug'orish ishlari kengayadi. Muhandislik bilimi asosida qurilgan turli xildagi gidrotexnika inshootlari bilan jihozlangan sug'orish tarmoqlari barpo etiladi.

## **2. Chorvachilik va hunarmandchilik**

IX—X asrlarda Movarounnahr va Xurosonda chorvachilik, xususan yaylov chorvadorligi yuksak darajada bo'lgan. Mamlakatning dasht va tog'oldi yaylovlarida otar-otar qo'y va echkilar, uyur-uyur yilqilar va tuyalar boqilgan. Qishloqlarda ayniqsa yirik shohli hayvonlarning boshi va tuyog'i behisob bo'lgan. Shaharlarda esa xonaki hayvonlarning deyarli hamma turidan boqilgan. Chorvachilik mamlakat aholisini chorva mahsulotlari bilan ta'minlabgina qolmasdan, balki xo'jalikning hamma sohalari

uchun ot-ulovlar yetkazib bergan. Ot, eshak, tuya va ho'kizlar *qo'sh*, *arava*, *moyjuvoz* va *chig'irlarga* qo'shilib ishlatiladi. Ayniqsa davlatning harbiy qo'shinlari, xususan, suvoriy qismlarni ot-ulov bilan ta'min etishda muhim ahamiyat kasb etgan. O'troq aholini chorvachilik mahsulotlari: *go'shi*, *teri*, *jun* bilan asosan dashtli chorvador qabilalar ta'min etardi. Xullas, chorvachilik hunarmandchilikning ko'pgina sohalarini xomashyo bilan ta'minlab kelgan. IX asrlarda aholining xo'jalik hayotida hunarmandchilik katta o'rin tutadi. Movarounnahr va Xorazm shaharlarida *to'qimachilik*, *kulolchilik*, *degrezlik*, *chilangarlik*, *miskarlik*, *zargarlik*, *shishasozlik* va *duradgorlik* kabi kasb-u hunarlar ancha rivoj topadi. Natijada shaharlarning umumiy qiyofasi tubdan o'zgaradi. Unda katta-katta *oliy imoratlar*, *ustaxonalar*, *masjid*, *madrasa*, *maqbara*, *namozgoh xonaqo* va *karvonsaroylar* qad ko'tardi. Endilikda shaharlar ilk o'rta asrlarda *ark* (o'rda) *shahriston* (ichki shahar) va *rabod* (tashqi shahar) deb yuritilgan uch qismini yagona devor bilan o'rab olinib, o'ndan ortiq darvozali kattagina hunarmandchilik markaziga aylanadi. Shaharning do'nglik yerida joylashgan arkda odatdagidek podshoning qarorgohi — *dargoh*, *xazina*, chaqa-tangalar so'qiladigan *zarbxona* va *qamoqxona* bo'lardi. Uning markazida *registon maydoni*, *devonlar*, *mahkama saroyi*, shuningdek amirzodalar, saroy ayonlari, ruhoniylar, mulkdor dehqonzodalar va davlatmand savdogarlarning hashamatli qasrlari, podsholikning qurol-yarog', asbob, egar-jabduq yasaydigan ustaxonalari, hunarmandchilik do'konlari va savdo rastalari joylashgan edi. Bu davrda shaharga atrof qishloqlardan kosiblar, savdogarlar va boshqalar kelib o'rnashib, uning girdi bo'ylab kosib va hunarmandlarning yangi-yangi mahalla-ko'ylari, bozor va rastalar paydo bo'lardi. Mahalla-ko'ylarda zargarlar, sarroflar, to'quvchilar, kulollar, miskarlar, temirchilar, duradgorlar va boshqa shu singari kosib-u hunarmandlarning uy-joylari va do'konlari bo'lardi. Shu davrda Buxoro, Samarqand, Urganch, Marv, Shosh, Kesh, Axsikat kabi shaharlar o'rta asr hunarmandchiligining rivoj topgan yirik markaziga aylanadi.

Bu davrda Samarqand ham hunarmandchilik va savdoning yirik markazlaridan edi. Unda ayniqsa, *miskarlik*, *zargarlik* va *sarrojlik*

rivojlangan edi. Kimxob, shoyi va ro‘mollar to‘qilar edi. Samarqandda, ayniqsa yuqori navli qog‘oz ishlab chiqarilar edi. Shosh o‘zining *ko‘nchilik* mahsulotlari va *charm mollari* bilan, Eloq esa *kumush* va qo‘rg‘oshin konlari hamda kumush tanga chiqaradigan zarbxonasi bilan mashhur edi. Movarounnahrning xo‘jalik hayotida Xorazm ham katta rol o‘ynaydi. Bu yerda hunarmandchilikning ko‘pgina sohalari bilan bir qatorda Movarounnahr uchun juda nodir hisoblangan *qayiqsozlik* taraqqiy qiladi. Xorazm va Termizda yasalgan qayiqlar Amudaryo bo‘ylab to Orol dengizigacha muttasil mol tashib savdogarlarning yukini yengil, uzog‘ini yaqin qilgan.

Bu davrda shaharlar bilan bir qatorda qishloqlar ham mamlakatning iqtisodiy hayotida katta o‘ringa ega edi. Buxoroning *Zandana* qishlog‘ida to‘qilgan malla rang bo‘z «*zandanachi*», Samarqandning *Vador* qishlog‘ida tayyorlangan mato «*vadoriy*» nomlari bilan Sharqda mashhur edi. Vadoriy matodan tikilgan kiyimlarni Xurosonda amirlar, vazirlar va qozilar kiyardilar. Vadoriy ko‘ylakning bahosi ikki dinordan o‘n dinorgacha borardi.

IX—X asrlarda Movarounnahr va Xorazmning qishloq va shaharlarida, ayniqsa kulolchilik va shishasozlik avj olgan edi. Bu davrda yasalgan xilma-xil sirli va naqshinkor sopol idishlar, rangorang shisha buyumlar juda sifatli edi.

### 3. Konchilik

Movarounnahrning tog‘li mintaqalarida qadimdan davom qilib kelayotgan konchilik IX—X asrlarda nihoyat darajada taraqqiy qiladi. Zarafshon tog‘larida *temir, mis, qo‘rg‘oshin, oltin, kumush, feruza* va boshqa qimmatbaho toshlar qazib olinardi. Eloq viloyati kumush va qo‘rg‘oshinlarni qazib olishning yirik markazlaridan biri edi. Undagi Qoramosor tog‘idan bu ikki tur ma‘dandan tashqari oltin, mis, temir va feruza qazib olinardi. Farg‘ona vodiysi tog‘lari ayniqsa foydali qazilma boyliklariga boy edi. Undan *temir, qo‘rg‘oshin, kumush, simob, mis, qalay, feruza, novshadil* qazib chiqarilgan. Hatto Farg‘onadan o‘sha vaqtlardayoq *toshko‘mir* va *neft* topilib ishlatilgan. IX—X asrlarda neftdan ko‘proq harbiy yurishlarda foydalanilgan. Hatto qo‘shinda maxsus «*naftandoz*»,

ya'ni «neft otuvchi»lar bo'lardi. Neft to'ldirilgan pilikli ko'zchalarga o't yoqib, dushman qal'asiga irg'itilgan. Bu davrda qazilma boyliklar ochiq maydondagi hamda bir necha yuz metrli chuqurlikdagi yer osti konlaridan qazib olinardi. Qazilgan rudalar sig'altaklar vositasida yuqoriga chiqarilar edi. Konlarning yaqinida rudalarni eritib ma'dan oluvchi ohangarlar va konchilarning qishloqlari bo'lardi. Konlarda asosan qullar, mahbuslar va qishloq jamoalari zo'rlik bilan ishlatilardi. Konchilarning mehnati nihoyatda mashaqqatli va xavfli, maishati esa o'ta yomon edi. Ular tog'lar ostidagi chuqur va qorong'i konlarda qorachiroqlar shu'lasida turli xil madanlar rudasini qazir edilar. Bu og'ir sharoitda mehnat qilayotgan konchilarning hayoti muhofaza qilinmas edi. Qadimgi konlarda o'tkazilgan arxeologik tadqiqotlar jarayonida IX—X asrning qorachiroqlari, bolg'a, bolta, cho'kich, qozon va boshqa buyumlar hamda topilmalar yonginasida odam suyaklarining topilishi buning yorqin dalilidir.

#### 4. Ichki va tashqi savdo

IX—X asrlarda mamlakatda bir tomondan, dehqonchilik, ikkinchi tomondan, hunarmandchilikning rivoj topishi, shubhasiz, o'z navbatida, ichki va tashqi savdoning kengayishiga olib keldi. Bu davrda Old Osiyoni Mo'ng'uliston va Xitoy bilan tutashtirgan qadimgi karvon yo'li orqali olib borilgan tashqi savdo aloqalari ayniqsa gavjumlashib ketadi. Bag'dod shahridan boshlangan katta karvon yo'li **Hamadon, Marv, Buxoro, Samarqand, Shosh, Tarozi, Suyob, Issiqko'**ning janubiy sohili orqali o'tib, **Sharqiy Turkistonga** va undan **Xitoyga** kirib borar edi. Bu yo'lining Farg'ona orqali o'tgan janubiy, O'g'uzlar yoki Dashti Qipchoq orqali Janubiy Sibirga yo'nalgan shimoliy va Xorazm orqali Idil daryosi sohillari bo'ylab Xazar va Bulg'or davlatlariga eltadigan shimoli-g'arbiy tarmoqlari ayniqsa serqatnov bo'lgan.

Karvonlarni suv va qo'noqlar bilan ta'minlab, uzoq va mashaqqatli yo'l azobini ma'lum darajada yengillashtirish uchun dashtlarda quduqlar qazib, har bir bekatda rabotlar bino qilinadi. Karvonlar o'tadigan shahar va qishloqlarda karvonsaroylar quriladi. Ularda savdogarlar-u sarbonlar va ularning hamroh xodimlari-yu sayyohlar uchun hujralar, mollari uchun ombor-



22-rasm. Somoniylar va qoraxoniylarning mis tangalari. X—XI asrlar.

xonalar: tuyalar, otlar, xachirlar va eshaklar uchun og'ilxonalar bo'lardi, zarur yem-xashaklar va oziq-ovqatlar saqlanardi. Karvonlar huzurida ko'pincha tarjimonlar xizmat qilardi. Yo'ldagi qaroqchilardan karvonni qo'riqlash uchun, ba'zan xatarli joylarda uni qurollangan harbiy askarlar qo'riqlab borardi.

X asrda tashqi savdo muomalasida sarroflik cheklaridan keng foydalanilar edi. O'sha vaqtda

savdogarlar o'zi bilan ko'p miqdorda pul olib yurmas edilar. O'z pullarini ular shaharning inobatli sarroflaridan biriga topshirib, undan tegishli hujjat—chek olardilar. Mo'ljallangan shaharga borish bilan shu chekni sarrofga berib, unda ko'rsatilgan miqdordagi pulni to'laligicha qaytarib olish mumkin edi. *Chek* so'zi forscha ibora bo'lib, o'sha vaqtda ham bu so'z ayni ma'nosida ishlatilgan.

Ko'chmanchi chorvador aholini o'troq dehqonchilik va hunarmandchilik mahsulotlari bilan ta'min etishda shimoliy yo'lining ahamiyati katta edi. Bu yo'l orqali O'g'uzlar dashti, Janubiy Sibir va Mo'ng'ulistonga Movarounnahming shahar va qishloqlaridan bo'z, kiyim-kechak, egar-jabduq, o'q-yoy, qilich, idish-asbob, zargarlik buyumlari, dori-darmon, quruq meva, kunjut va zig'ir moyi va boshqa shu kabi mollar olib borilgan. Sibirdan turli xildagi qimmatbaho mo'ynalar, ko'chmanchilar yurtidan esa asosan chorva mollari va chorvachilik mahsulotlari keltirilgan edi. Xitoyga shisha va shisha buyumlar olib borilar edi. Xitoydan ipak, shoyi gazlamalar, chinni idishlar olib kelinar edi.

IX—X asrlarda Somoniylar davlatining Sharqiy Yevropa mamlakatlari bilan olib borilgan karvon savdosida Xorazm muhim rol o'ynaydi. Itil, Xazar va Bulg'orga Movarounnahr va Xorazmdan *guruch, quruq meva* (yong'oq, mayiz, o'rik va h. k.) *kanakunjut moyi, shirinliklar, tuzlangan baliq, bo'za, mushk-ambar, paxta, ip va shoyi matolar, movut, kimxob, gilam va choyshablar, qulf, kamon, qayiq va kumush tangalar*, shuningdek Xitoy,

Hindiston, Eron, Kichik Osiyo, Iroq va boshqa mamlakatlardan keltirilgan mollar chiqarilar edi.

Bulg'or va Xazardan *qimmatbaho mo'ynalar*, shuningdek *mum, shamlar, o'qlar, oqterak va qayin po'stloqlari, cho'qqi qalpoqlar, baliq moyi va slavyan qullari, asal, qo'y va sigirlar* olib kelinar edi. Tashqi savdo muomalasida tohiriylar va somoniylarning kumush dirhamlaridan keng foydalanilar edi.

Viloyatlararo ichki savdo-sotiq hamda mamlakatlararo karvon savdosining avj olganligi shubhasiz, o'z navbatida ko'p miqdorda chaqa va tangalarning muomalada bo'lishiga olib keldi. Ichki bozorlarda «fals» deb atalgan mis chaqa, xalqaro savdo-sotiqda esa kumush tanga — dirhamlar ishlatilardi. Mis chaqalarni markaziy hukumat ham, shuningdek sulola a'zolaridan bo'lgan ba'zi mahalliy viloyat hokimlari ham, hatto ayrim mulkdor feodallar ham chiqarar edilar. Kumush tangalar faqat hukumat boshlig'i nomidan Marv, Samarqand, Buxoro va Shoshda davlat zarbxonalarida so'qilar edi. Somoniylar «*ismoiliy*», «*muhammadiy*» va «*g'itrifiy*» nomlari bilan yuritilgan bir necha kumush dirhamlar chiqargan edilar. Ular orasida «*ismoiliy*» tangasi yuqori sifatli sof kumushdan zarb etilib, u asosan xalqaro savdo aloqalarida ishlatilgan. Kumush tanga holida ko'proq Sharqiy Yevropa mamlakatlariga olib chiqilgan. Rusiya va Boltiqbo'yi hududlarida arxeologik qazish ishlari jarayonida yuzlab somoniylar davriga oid kumush dirham xazinalarining topilishi buning yorqin dalilidir.

#### *Savol va topshiriqlar*

- ? 1. Somoniylar davrida qishloq xo'jaligi qanday ahvolda edi? 2. Chorvachilik va hunarmandchilikning rivojlanganligi haqida gapirib bering. 3. Bu davrda yer ostidan qanday ma'danlar qazib olingan? 4. Somoniylar ichki va tashqi savdoni rivojlantirishga qanday e'tibor berganlar?

#### **MAVZUNI TO'LDIRISH UCHUN YOZMA MANBADAN MA'LUMOT**

##### *Dehqonchilik vohalarining sug'orilishi haqida*

Sirdaryo havzasida, ayniqsa, **Eloq** (Ohangaron) va **Parak** (Chirchiq) vodiylari nihoyatda obod bo'lib, juda ko'p shahar va qishloqlar joylashgan edi. Bunday obod dehqonchilik vohalari,

qishloq va shaharlarni suv bilan ta'min etish, ekin maydonlarini sug'orish uchun daryolar bog'lanib, ulardan chiqarilgan turli xildagi sug'orish tarmoqlari barpo etilgan. Bu sug'orish tarmoqlarini ishlatishda an'anaviy asriy tajriba va malakaga ega bo'lgan omilkor miroblar yetishib chiqqan. Shu tariqa o'rta asrlarning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti darajasiga mos tartib, qonun-qoidalarga asoslangan suv xo'jaligi tashkil topadi. Masalan, bu davrda birgina Murg'ob vodiysida suv xo'jaligi bo'yicha 10 mingga yaqin turli mansabdagi miroblar suv inshootlarining nazorati-yu suv taqsimoti bilan band bo'lgan. Narshaxiyning yozishicha, Buxoro vohasi suv xo'jaligini davlat qozisi boshqargan.

## 15-§. IX—X ASRLARDA MOVAROUNNAHRDA YER EGALIGI

### 1. Yer egaligining turlari

Somoniylar hokimiyati yirik yerdorlarning hamda mulkdor savdogarlarning manfaatini himoya qiluvchi feodal davlati edi. Mamlakatdagi mavjud yer va suvning kattagina qismi davlat va yuqori tabaqalarga tegishli mulk hisoblansa-da, ammo yerdan foydalanish va unga egalik qilishning bir nechta turi mavjud edi. Davlat tasarrufidagi yerlar «*mulki sultoniy*» deb yuritilgan. Hukmron sulola vakillari, mulkdor dehqon va aslzodalarning tasarrufidagi katta-katta yer maydonlaridan tortib mehnatkash qishloq aholisiga tegishli mayda xususiy yerlargacha «*mulk yerlari*» hisoblangan. Machit, madrasa, xonaqoh va maqbaralarga vaqtincha yoki abadiy foydalanish uchun berilgan yerlar «*vaqf yerlar*» deb atalgan. Bunday turlardagi yerlardan foydalanuvchilarning barchasi, davlatga hosilning 1/3 hajmida *xiroj* to'lar edi. Shu bilan birga, oliy martabali ruhoniylar va saidlar qo'l ostidagi yerlar davlat soliqlaridan qisman yoki tamomila ozod etilgan xususiy yerlar bo'lardi. Bunday turdagi yerlar «*mulki xos*» deb yuritilgan. Bunday imtiyozga ega bo'lgan mulkdorlar davlatga ko'pincha hosilning 1/10 hisobida «*ushur*» solig'ini to'lagan, xolos. Shuningdek, hukmron sulola hamda oliy tabaqa vakillariga davlat oldidagi xizmatlari evaziga hadya qilingan (solig'ining bir qismi) mulklar (viloyat, tuman yoki ayrim shahar va qishloqlar) *iqto* yoki *tuman yerlari* deb yuritilgan.

Bulardan tashqari, qishloq jamoalari tasarrufida ham ma'lum hajmda yer maydonlari saqlanib, ular «*jamo*a yerlari» hisoblanar edi. Bunday ko'pchilikka qarashli jamoa mulklaridan lalmikor hamda korizlar vositasida sug'oriladigan suvga tanqis tog'oldi mintaqalarida keng foydalanilardi.

## 2. Barzikorlar va qo'shchilar

Mayda xususiy hamda jamoa yerlaridan tashqari, barcha mulklarda mehnatkash qishloq aholisi kadivar bo'lib yoki yollanib ishlar edi. Yollanib qo'shchilik qilganlar IX—X asrlarda «*sherik*» yoki «*barzikor*» deb atalardi. Bu davrda katta yer egalari kadivarlarni ishlatishdan ko'ra, o'z yerlarini barzikorlarga ijaraga berishni afzal ko'rardilar. Ijarachilarning asosiy qismi qishloq jamoalarining kam yerli dehqonlari edi. Ular orasida mutlaqo yersizlari bo'lib, bunday oilalar yer egalarning uqubatli bo'lsada, har qanday shartlariga ko'nishga majbur edi. Shu sababli ularning sheriklikka ekan yerlardan oladigan hissasi ham turlicha edi. Agar barzikor o'z urug'i va qo'shi bilan dehqonchilik qilsa, uning hissasi hosilning 1/3, 1/4, yoki 1/5 miqdorida belgilanardi. Na qo'shga va na urug'likka ega bo'lgan, bularni hammasini yer egasi hisobidan ishlatgan qo'shchi hosilning 1/10 yoki 1/12 ulushiga ega bo'lardi.

Davlat soliqlari (xiroj va ushur) yer egasidan ham, qo'shchilardan ham alohida-alohida olinar edi. Shunday qilib, X asrga kelib tarix sahnasida ikkita yangi ijtimoiy tabaqa paydo bo'ldi. Ulardan biri katta-katta mulklarni hadya tariqasida qo'lga kiritgan *iqto'dorlar* edi. Ikkinchisi esa ular qo'lidagi yerlarni ijaraga olib, mehnat qiluvchi *barzikor-qo'shchilar* edi.

## 3. Dehqonlarning ahvoli

Dehqonchilikning mashaqqatli mehnati-yu, davlatning asosiy soliqlarini gardanida tutib turgan qishloqning jafokash aholisi zimmasiga sug'orish tarmoqlarini muntazam loyqadan tozalash, kanallar qazish, to'g'onlar o'rnatish, ko'priklar qurish, suv omborlari barpo etish kabi jamoatchilik ishlari yuklangan edi. Bulardan tashqari, u masjid, madrasa, xonaqoh, maqbara va


karvonsaroylar kabi qurilishlarda, shahar va qal'alarning mudofaa devorlarini ta'mirlash va yo'llarni tuzatishda tekinga ishlab berishga majbur edi. Ayniqsa, somoniylarning harbiy yurishlari, hukmron sulolaning ichki nizolari, mahalliy hokimlarning bosh-boshdoqlik harakatlarining borgan sari avj olib borishi bilan uzluksiz davom etgan o'zaro kurashlardan aholi bezor bo'lgan edi. Bunday og'ir siyosiy vaziyat oqibatida mamlakatda iqtisodiy tanglik sodir bo'lardi. U shunchalik og'ir kechardiki, hatto harbiylar, shu jumladan amirning turk gvardiyasiga maosh to'lash uchun uzoq vaqt mablag' topilmaydi. Bunday og'ir ahvoldan chiqish uchun 942-yilda aholidan ikki marta soliq undirib olinadi. Bunday tartibsizlik, shubhasiz, mamlakatda vaziyatni yanada keskinlashtirib, aholining turli tabaqalarini hokimiyatga qarshi qo'zg'alishiga sabab bo'ladi.

#### **4. Siyosiy vaziyatning keskinlashuvi va Somoniylar davlatining inqirozi**

Siyosiy vaziyat ayniqsa, **Nuh (943—954)** va uning nabirasi **Nuh II (976—997)** hukmronlik qilgan davrda nihoyatda keskin tus oladi. 947-yilda **Nuh** ibn Nasming amakisi **Ibrohim** isyon ko'taradi. Saroy gvardiyasi va Chag'oniyonning yirik feodallaridan **Abu Ali Chag'oniy** yordamida Buxoro taxtini egallab oladi. **Juda** qisqa vaqt bo'lsa-da, hukmronlik qiladi. Ko'p vaqt o'tmay **Abu Ali Chag'oniy** boshliq isyon ko'tariladi. **Nuh** qo'zg'olonni kuch bilan bostira olmaydi. 952-yilda **Abu Ali Chag'oniy**ni u avval **Chag'oniy**onga, so'ngra **Xurosonga** hokim qilib tayinlashga majbur bo'ladi. 961-yilda Buxoro harbiy askarlarining g'alayoni ko'tariladi. Qo'zg'olonchilar amir saroyini talaydilar va unga o't qo'yib yuboradilar. Bunday voqealarning tez-tez qaytarilib turishi shubhasiz, markaziy hokimiyatning zaiflashib qolganidan, Arab xalifaligidan uzil-kesil ajralib, mustaqilligini tiklab olgan **Movarounnahr**da tashkil topgan **Somoniylar** davlatining inqirozga yuz tutganidan dalolat beradi.

Shunday qilib, X asr oxiriga kelib somoniylar o'rtasida avj olib ketgan o'zaro urushlar, **Movarounnahr**da ayrim viloyatlarni, **Xuroson**da esa ko'pgina joylarni egallab olgan ba'zi bir mahalliy hokimlar va yirik mulkdor zodagonlarning markaziy hokimiyatga

## SOMONIYLAR VA G'AZNAVIYLAR DAVLATLARI (IX-XI asrlar)



qarshi chiqishlari mamlakatning iqtisodiy va siyosiy qudratiga katta putur yetkazadi. Natijada Somoniylar davlati nihoyatda zaiflashib qoladi. Bu davrda Yettisuv viloyatida tashkil topgan Qoraxoniylar davlatining mavqei kuchayib borayotgan edi. Ularning Movarounnahrda tomon shiddatli yurishlariga qarshi somoniylar bardosh bera olmaydilar.

#### *Savol va topshiriqlar*

1. Yer egaligining qanday turlari bor edi? 2. Barzikorlar va qo'shchilar kimlar edi? 3. Dehqonlarning ahvoli haqida gapirib bering. 4. Somoniylar davlatini inqirozga olib kelgan sabablar nima?

### 16-§. QORAXONIYLAR DAVLATI

#### 1. Qoraxoniylar davlatining tashkil topishi

X asr o'rtalarida Issiqko'lining janubi va Koshg'arda yashagan *yag'mo* qabilasi kuchayib, avval o'zlaridan shimoli-sharqroqda yashovchi *jikil* qabilasi bilan yagona ittifoqqa birlashadi. So'ngra Yettisuvga xuruj qilib, qarluqlarni bo'ysundiradi va bu ulkan hududda *Qoraxoniylar davlatini tashkil qiladilar*.

Yozma manbalarda *yag'molar* turk qavmlari ichida madaniy jihatdan eng qolog'i deb ta'riflanadi. Ular asosan yilqichilik va qo'ychivonlik bilan shug'ullanar edi. Mo'ynali hayvonlar hamda ov qushlarini ovlardi. Dehqonchilik kam rivojlangan edi. *Yag'molar* turk qabilalari orasida eng jangovari hisoblanardi. Jikillar esa *yag'molarga* nisbatan birmuncha madaniyroq va boy qabila bo'lgan. *Yag'mo* va jikillarga nisbatan qarluqlar ancha madaniyatli aholi hisoblangan. Turk qabilalariga tegishli yurtlar orasida eng obod joylarga ega bo'lishgan. Ular mamlakatida qishloqlar bilan bir qatorda shaharlar ham bo'lgan. Qoraxoniylar davlati tashkil topishida jikil va qarluqlar g'oyat katta rol o'ynaydilar. Davlatning yuqori mansablari va qo'shinda muhim o'rinlarni egallasalar-da, biroq xonlik taxtiga *yag'mo* biylari o'turganlar. Bu yangi turk davlatining podsholari «*arslonxon*» va «*bug'roxon*» unvonlari bilan yuritilgan. Bu ikki so'z oliy daraja hukmdori ma'nosini anglatgan. Buyuklik yoki ulug'lik esa qadimda

turkiy xalqlarda «qora» soʻzi bilan sifatlangan. Shu boisdan taxtda oʻtirgan arslonxon yoki bugʻroxonlar «qoraxon», yaʼni ulugʻxon hisoblangan. Ular hukmdorlik qilgan davlat esa tarixda «Qoraxoniylar davlati» nomi bilan shuhrat topgan. Aslida «arslon» jikil qabilasining totemi—ajdodi ibtidosi hisoblangan. «Bugʻro» esa yagʻmolarning totemi boʻlgan. U ogʻir yuk koʻtaradigan bichilgan tuya maʼnosini anglatgan. Podsholik darajasiga qabila totamlari nomlari bilan nisbat berilishiga qaraganda, Qoraxoniylar davlatining asosini jikillar bilan yagʻmolar tashkil etgan. Davlatni boshqarishda qoraxoniylar qabilaviy udumining ogʻalik tartibiga qatʼiy rioya qilishgan. Bu udumga muvofiq qabila boshliqlari orasida eng yoshi ulugʻini «arslonxon» yoki «bugʻroxon» darajasiga koʻtarib, hukmdor, yaʼni qoraxon qilib saylashgan. Odatda, u «tamgʻachxon», yaʼni xonlar xoni deb yuritilar edi.



23-rasm. Buxoro. Minorai Kalon.  
XII asr.

## 2. Qoraxoniylarning Movarounnahrda hujumi

992-vilda Hasan Bugʻroxon boshliq qoraxoniylar Movarounnahrda tomon hujum boshlaydilar. Ularning harbiy yurishlarida Shosh, Fargʻona va boshqa viloyatlarda yashovchi turk qabilalari ham qatnashadilar. Chunki bu yurtlar Qoraxoniylar davlati tarkibiga kirgan qarluqlar davlatining mulki edi. Bu davrda somoniylar maʼmuriyati va harbiy qoʻshinlari boshqaruvini oʻz qoʻliga olgan turk hojiblari, hatto ayrim viloyatlarni egallab olib,

deyarli mustaqil hukmronlik qilayotgan turk hojiblari mamlakatni mudofaa qilish o'rniga xoinlik yo'lini tutib, qoraxoniylarga yon bosadilar.

Qoraxoniylar Buxoroni qarshiliksiz ishg'ol qiladilar. Ko'p o'tmay **Bug'roxon** hojib **Foyiqni** Termiz va Balxga noib qilib tayinlaydi. Ammo Bug'roxon Buxoroda uzoq turolmaydi. Kasallik uni Koshg'arga qaytishga majbur etadi. Yo'lda u vafot etadi. Bunday qulay sharoitdan foydalangan **Nuh ibn Mansur** Buxoroga qaytib o'z taxtini egallaydi. Ammo ikki mahalliy turk hojiblari Foyiq Balxda, Abuali Simjuriy Xurosonda amirga qarshi qo'zg'olon ko'taradilar. O'z kuchiga ishonmagan **Nuh ibn Mansur** — G'azna hukmdori **Sobuqtakinni** yordamga chaqiradi. Yigirma mingli qo'shin bilan u Movarounnahrğa yetib keladi va Nuh bilan birlashib, qo'zg'olonchilarga qarshi yurish qiladi. Bir necha janglardan so'ng Foyiq va Abuali qo'shinlari tor-mor qilinadi. Shuningdek, Sobuqtakinni Abuali Simjuriy o'rniga Xurosonning noibi qilib tayinlaydi. Natijada G'azna va Xurosonda Sobuqtakin va o'g'li Mahmudning siyosiy xukmronligi mustahkamlanib, **G'aznaviylar davlati** tashkil topadi. Tez orada bu davlat kuchayib, Hindiston chegarasidan Amudaryogacha bo'lgan yerlarni egallaydi.

996-yilda qoraxoniylar Movarounnahrğa tomon yana hujum boshlaydilar. Ularga **Nasr ibn Ali** boshchilik qiladi. Nuhga yordam berish uchun Sobuqtakin **Chag'oniyon**, **G'uzg'on** va **Xuttalon** hokimlarining birlashgan qo'shinlaridan iborat katta kuch bilan **Keshga** yetib keladi. Nuhning ham o'z qo'shini bilan unga qo'shilishini talab qiladi. Bu somoniylar amirining xukmdorlik huquqlarini mensimaslik va ochiqdan-ochiq unga qarshi chiqish edi. Nuh shubhasiz, bundan bosh tortadi va farmoyish yuborib, Sobuqtakinni Buxoroga chaqirtiradi Bunga javoban Sobuqtakin qo'shin yuborib Buxoroni egallaydi. So'ngra u qoraxoniylar bilan muzokaralar olib boradi. Natijada ular o'rtasida shartnoma tuzilib, unga muvofiq **Sirdaryo** havzasi qoraxoniylar qo'liga o'tadi. Sobuqtakin esa Amudaryodan janubdagi yerlar, shu jumladan Xurosonga hukmdor bo'lib oladi Somoniylarga Movarounnahrning markaziy qismigina beriladi, xolos. Biroq, ko'p vaqt o'tmay qoraxoniylar Buxoroni bosib oladilar. Garchi somoniylar to 1005-yilgacha Samarqand va Buxoroni qaytarib olishga uringan bo'lsalar-

da, ammo 999-yilda Buxoroning Nasr Eloqxon tomonidan zabt etilishi bilan somoniylar hukmronligi barham topgan edi. Shunday qilib, X asr oxirida Somoniylar davlati o'rnida ikkita yangi davlat tashkil topdi: biri Koshg'ardan Amudaryogacha cho'zilgan Sharqiy Turkistonning bir qismini, Yettisuv, Shosh, Farg'ona va qadimgi Sug'dni o'z ichiga olgan Qoraxoniylar davlati bo'lsa, ikkinchisi Shimoliy Hindistondan Kaspiy dengizining janubiy qirg'oqlarigacha bo'lgan viloyatlarni qamrab olgan G'aznaviylar davlati edi.

### 3. Qoraxoniylar davlatining ikkiga ajralishi

Garchi Amudaryo bu ikki turk davlatlari o'rtasidagi chegara deb belgilangan bo'lsa-da, ammo qoraxoniylar Xurosonni zabt etilgan yurtning ajralmas qismi hisoblab, uni o'z davlatiga qo'shib olish uchun harakat qiladilar. Oradan ko'p vaqt o'tmay qoraxoniylar va g'aznaviylar o'rtasida shiddatli urushlar boshlanadi. 1006-va 1008-yillarda qoraxoniylar Xuroson ustiga ikki marta qo'shin tortadilar. Balx, Tus va Nishopur shaharlari zabt etiladi. Ularning harbiy yurishini **Sulton Mahmudga** qarshi bo'lgan Xurosonning mulkdor feodallari qo'llab-quvvatlaydilar. Lekin Mahmud G'aznaviy qoraxoniylarga zarba berib, Xurosonni o'z davlati tasarrufida saqlab qolishga muvaffaq bo'ladi. 1017-yilda Mahmud Xorazm ustiga qo'shin tortib, uni bosib oladi. Shunday qilib, Xorazm mustaqil davlat sifatida barham topadi.

Bu davrda Sirdaryo etaklarida yashovchi o'g'uzlardan ajralib saljuqiylar nomi bilan Xurosonga borib o'rnashgan turkman qabilalari kuchayib, o'z vaqtida ularga yer berib homiylik qilgan g'aznaviylarga qarshi tazyiq ko'rsatadilar. Saljuqiylar bilan jiddiy kurash boshlanadi. Bunday vaziyatdan foydalangan qoraxoniylarning mahalliy hukmdori **Ibrohim Bo'ritakin** 1038-yilda Amudaryo bo'yi viloyatlari Xuttalon, Vaxsh va Chag'oniyonni g'aznaviylardan tortib oladi. Ko'p vaqt o'tmay u Movarounnahrni va Farg'onani o'ziga bo'ysundirib, mustaqil siyosat yurita boshlaydi. Natijada qoraxoniylar ikki mustaqil davlatga ajralib ketadi. Biri poytaxti Bolosog'unda bo'lgan Sharqiy qoraxoniylar, ikkinchisi markazi Samarqandda bo'lgan

Movarounnahrdagi Qoraxoniylar davlati edi. Bu g'alabalardan so'ng **Ibrohim Tamg'ach** «*bug'roxon*» unvoniga sazovor bo'ladi. Saljuqiylar bilan qoraxoniylar o'rtasidagi munosabatlar dastavval yaxshi bo'lsa-da, ammo keyinchalik keskinlashib ketadi. Bu ikki turk davlatlari o'rtasida shiddatli janglar bo'lib o'tadi. Hatto, 1130-yilda saljuqiylar sultoni Sanjar Movarounnahrga qo'shin tortib, Qoraxoniylar davlatining poytaxti Samarqandni ishg'ol etadi. Natijada qoraxoniylar Sul-ton Sanjarga tobe bo'lib qoladilar.

#### 4. Davlat boshqaruvi

Qoraxoniylar davlatini el-yurt va viloyatlarga bo'lib idora qilardilar. El-yurt hokimlari «*eloqxon*», viloyat noiblari esa «*takin*» deb yuritilar edi. Viloyat hokimlari faqat qoraxoniylar xonadonining eloqxon unvoniga sazovor bo'lgan a'zolaridan saylanar edi. Eloqxonlar o'z nomlari bilan chaqa-tangalar zarb qilar va viloyatlarning mustaqilligi uchun intilar edilar. Movarounnahr eloqxoni qoraxoniy eloqxonlari orasida katta obro'ga ega edi. U, odatda, Samarqandda taxtga o'tiradi. Viloyat boshqaruv ma'muriyatida somoniylar davridagidek vazirlar, sohibbaridlar, mustavfiylar xizmat qilardi. Shaharlar esa *shahar hokimi*, *raisi* va *muxtasiblari* tomonidan boshqarilardi. Qoraxoniylar mamlakatda o'z hukmronligini mustahkamlab olishda musulmon

ruhoniylari bilan yaqin va do'stona munosabatlar o'rnatadilar. Bu davrda *imomlar*, *saidlar*, *shayxlar* va *sadrlarga* e'tibor kuchayib, ularning obro'yi har qachon-gidan ham balandga ko'tariladi.

Qoraxoniy hukmdorlar garchi bu davrda hali o'troq hayotga ko'chmagan bo'lsalar ham, dehqonchilik vohalari va shaharlarning madaniy ahamiyatini yaxshi anglar edilar. Ular Bolosog'un, Koshg'ar, Taroz, O'zgan, Samarqand va Buxoro



24-rasm. Buxoro. Mag'oki-Attor masjidi. XII asr.

kabi shaharlarni davlat yoki viloyat poytaxtiga aylantirib, shaharlar bilan aloqa bog'lashga harakat qilardilar.

### *Savol va topshiriqlar*

- ? 1. Qoraxoniylar davlati qanday tashkil topdi? 2. Qoraxoniylarni Movarounnahrda hujumi haqida gapirib bering. 3. Qoraxoniylar davlatining ikkiga bo'linishi qanday yuz berdi? 4. Qoraxoniylarda davlat boshqaruvi qanday tashkil etilgan edi?

## 17-§. QISHLOQ XO'JALIGI VA IQTO' YERLARINING KENGAYISHI

### 1. Qishloq xo'jaligidagi ahvol

O'z podalari bilan Movarounnahrda kirib kelgan ko'chmanchi chorvadorlar dehqonchilik maydonlarini toptab, oyoq osti qiladilar. Yerlarning talaygina qismi, o'tloq va yaylovlarga aylantirilgan ekinzorlar qoraxoniylar xonadonining tayanchi hisoblangan turkiy qabilalarning asosiy mulkiga aylantiriladi. XI asrda Movarounnahrda, ayniqsa, Zarafshon vodiysida ko'pgina dalalar, poliz va bog'lar barbod bo'ladi. Ekin maydonlari qisqarib ketadi. Bunday sharoitda mulkdor dehqonlar bilan chorvador ko'chmanchilar o'rtasida ziddiyat kuchayib, dehqonlarga qarshi kurash keskin tus oladi. Qoraxoniylarning tazyiqi oqibatida mulkdor dehqonlar jon saqlash maqsadida o'z yerlarini tashlab ketishga majbur bo'ladilar. O'sha zamonda nufuzli mulkdor dehqonlarga nisbatan zo'rlik choralari ham qo'llanilgan ekan. Shunday qilib, XI—XII asrlarda mulkdor dehqonlar yer-suv mulklaridan hamda mamlakatda tutgan siyosiy mavqelaridan ajralib, katta yer egalari sifatida jamiyat hayotida o'zining ahamiyatini butunlay yo'qotadilar. Shundan keyin «dehqon» degan nom o'zining «qishloq hokimi» ni anglatuvchi asli ma'nosini yo'qotib, qishloq mehnatkashlari uchun umumiy nomga aylanib ketadi.

### 2. Iqto' yerlarining kengayishi

XI asrdan boshlab yerdan foydalanishda iqto' tartiboti juda keng yoyiladi. Qoraxoniylar tomonidan hukmron sulola namoyandalaridan tashqari, oliy darajali harbiylar, davlat

ma'murlari va mahalliy zodagonlarga ham katta-katta yer maydonlari iqto' tarzida hadya qilinadi. Iqto' tartibi qoraxoniylar uchun bo'ysundirilgan mamlakatlar aholisidan tegishli soliqlarni undirib, uni boshqarishning eng qulay shakli hisoblangan. Chunki iqto' daromadlarni muttasil olib turishni ta'minlar va iqto'dorni o'z amlokida doimo muqim o'tirishga majbur qilmas edi. Bu davrda iqto' tartibi shunchalik kengaydiki u faqat ayrim qishloqlargina emas, balki butun bir viloyat va yirik shaharlardan olinadigan daromadlar ham iqto' tarzida in'om qilib beriladigan bo'ladi. Iqto' tartibi keng qo'llanishi bilan u vaqtinchalik in'omdan umrbod foydalanishga, bora-bora esa hatto avloddan-avlodga o'tadigan merosiy mulkka aylana boshlagan. Shunday qilib, XI—XII asrlarda Movarounnahrda va Xurosonda mulkchilikning yangi turi iqto' yerlari kengayib, uning asosiy shakllaridan biriga aylanadi.

Bu davrga kelib musulmon ruhoniylariga bo'lgan e'tiborning kuchayishi va mamlakatda ularning siyosiy ta'sirini tobora ortib borishi bilan vaqf yerlari ham ancha ko'paydi.

Garchi bu davrda barzikorlar ilk o'rta asrdagi kadivarlarga nisbatan ozod hisoblansalar-da, ammo ularning zimmasiga davlat tomonidan turli soliq va har xil majburiyatlar yuklangan edi. Sug'orish tarmoqlari, to'g'onlar, yo'l va qal'alar qurish va ularni ta'mir etishda ularning ishtiroki shart edi.

### **3. Shaharlar, savdo, tovar va pul munosabatlari**

XII asrlarda ayniqsa shaharlar kengayadi, aholisining soni ko'payib, ular yanada gavjumlashadi. Samarqand, Buxoro, Termiz, O'zgan, Toshkent kabi shaharlar ichki va tashqi savdo uchun xilma-xil hunarmandchilik mahsulotlari ishlab chiqaradigan hamda chaqa-tangalar vositasi bilan olib boriladigan bozor tijoratining markaziga aylanadi. Shaharlar markazida shohona saroylar, masjid, madrasa, minora va hammomlar kabi ko'plab monumental imoratlar qad ko'taradi. Shahar ichi va uning atrofida savdo va hunarmandchilik mahallalari, karvonsaroylar va bozorlar barpo etiladi. Bu davrda shaharlarda ayniqsa, kulolchilik, shishasozlik, miskarlik va chilangarlik rivoj

topadi. XI—XII asrning sirli, koshinkor va qabartma naqshli sopol idish va tovoqlari, rangdor shisha buyumlari, naqshinkor mis idishlari o'zining xilma-xilligi va yuqori darajada nafisligi bilan ajralib turadi.

Hunarmandchilikning taraqqiy etishi hamda ichki va tashqi savdoning kengayishi bilan bozor tijoratida pulga talab oshadi. Natijada qoraxoniylar va ularning viloyat hokimlari eloqxonlar tomonidan kumush va misdan ko'plab chaqa va tangalar zarb qilinadi. O'sha vaqtlarda



25-rasm. Jarqo'rg'on minorasi.  
XII asr.

Bolosog'un, Taroz, O'zgan, Toshkent, Samarqand, Buxoro va boshqa shaharlarda pul ishlab chiqaradigan zarbxonalar bo'lgan. Movarounnahr va Xurosonda qoraxoniylarning oltin, kumush va mis chaqa-tangalari hamda dinorlari bilan bir qatorda hatto saljuqiylar, xorazmshohlar hamda g'aznaviylar tomonidan zarb qilingan tangalar ham muomalada yurgan.

Demak, XI—XII va XIII asr boshida Movarounnahr va Xurosonda tovar-pul munosabatlari nihoyatda rivoj topib, u mamlakatning deyarli hamma uzoq va yaqin viloyatlarini qamrab olgan edi.

#### 4. Qoraxitoylar hujumi

Mamlakatni viloyatlarga bo'lib boshqarish va iqto' tartibotini keng joriy etilishi, ayrim viloyatlarning siyosiy mavqeini oshirib, ularning mustaqillikka bo'lgan intilishini kuchaytirdi. Buning oqibatida siyosiy jihatdan tobora zaiflashib borayotgan Qoraxoniylar davlati o'zining avvalgi mavqeini yo'qotib, saljuqiylar tazyiqiga uchradi va unga qaram bo'lib qoldi. XII asrning

30-yillari oxiriga kelganda o'rta asrning bu buyuk turk davlati sharqdan kelgan yangi istilochilar — ko'chmanchi qoraxitoylar hujumiga duchor bo'lib, parchalanib ketdi.

Qoraxitoylarning kelib chiqishi to'g'risida fanda yagona fikr mavjud emas. Ba'zi tadqiqotchilar ularni Sibirning tungus aholisiga, boshqalari esa mo'ng'ullarga mansub deb hisoblaydilar. Bolosog'un shahrini ular Qoraxitoylar davlatining poytaxtiga aylantiradilar. Bolosog'un podshohlari «go'rxon» deb yuritilgan.

Yettisuvga joylashib olgan qoraxitoylar tez orada Sirdaryoning o'rta oqimiga tomon yurish boshlaydilar. Ularning jangovar qo'shinlari avval Shosh va Farg'onaga, so'ngra Zarafshon va Qashqadaryo viloyatiga bostirib kiradi. 1137-yilda ular Xo'jand shahri yaqinida qoraxoniylarning eloqxoni Mahmudga qaqshatqich zarba beradilar. O'zaro sulh tuzilib, qoraxoniylardan katta tovon olingach, o'z yurtlariga qaytib ketadilar. Lekin sulh uzoqqa cho'zilmaydi. Oradan to'rt yil o'tgach ular yana Movarounnahrda yurish qiladilar. Samarqand yaqinidagi jangda bosqinchilar g'alaba qozonadi. Sulton Sanjar va eloqxon Mahmud Termizga chekinib jon saqlaydilar.

Bu g'alabadan so'ng qoraxitoylar avval Samarqandni, so'ngra Buxoroni egallaydilar. Biroq Qoraxoniylar davlatini uzil-kesil barbod qilib, Movarounnahrni batamom bosib olmaydilar. G'olib ko'chmanchilar mahalliy aholining har xonadonidan yiliga bir dinor hajmda soliq yig'ib olish tartibini joriy etish bilan kifoyalanadilar, xolos. Bu vazifani qoraxoniylarning viloyat noiblari yoki mahalliy hokimlar bajarar edi.

Samarqand yaqinida Qatvon cho'lidagi mag'lubiyat oqibatida Movarounnahrda siyosiy vaziyat tubdan o'zgardi. Avvalambor, o'z mustaqilligini yo'qotgan Qoraxoniylar davlati parchalanib, bir nechta viloyat hokimliklariga bo'linib ketadi. Mamlakatda boshboshdoqlik kuchayadi. Qolaversa, Sulton Sanjarning ham buyuk davlati keskin zarbaga uchrab, saljuqiylarga qarshi kurashayotgan Xorazmning mustaqillik uchun olib borayotgan jang-u jadallari avj olib ketadi.

- ?
1. «Dehqon» degan nom qanday qilib o'zining asl ma'nosini yo'qotdi?
  2. Yet' egaligi iqto' tartibining kengayishi haqida gapirib bering.
  3. XI—XII asrlardagi tovar, pul munosabatlari qanday edi?
  4. Qoraxitoylar hujumi va uning oqibatlarini gapirib bering.

## 18-§. XORAZM DAVLATI VA UNING YUKSALISHI

### 1. Xorazmda mustaqillik uchun harakatlar

1017-yilda Mahmud G'aznaviy tomonidan zabt etilib, o'z mustaqilligidan mahrum bo'lgan Xorazm ko'p vaqt o'tmay (1040) Saljuqiylar davlatiga qaram bo'lib qoladi. Saljuqiylar hukmdori **Malikshoh** o'z ma'murlaridan **Anushtakinni** Xorazmga noib qilib tayinlaydi. Anushtakin vafotidan so'ng Xorazmda uning vorisi **Qutbiddin Muhammad (1097—1127)** noiblik qiladi. Garchi u «*xorazmshoh*» unvonini tiklab, bunday jarangdor nom bilan ulug'lansa-da, ammo **Sulton Sanjarning** sadoqatli noibiligicha qolgan edi.

Xorazmning mustaqilligi uchun kurash XII asrning ikkinchi choragidan boshlanadi. U. Qutbiddin Muhammadning o'g'li **Otsiz (1127—1156)** nomi bilan bog'liqdir. Mohir diplomat va g'ayratli lashkarboshi Otsiz va uning vorislari Xorazmni saljuqiylar tasarrufidan ajratib olib, uning mustaqilligi yo'lida Movarounnahr va Eronda sodir bo'lgan har qanday qulay siyosiy vaziyatdan foydalanadilar. Dastavval Otsiz turkman va qipchoqlarni o'ziga bo'ysundiradi. Xorazm bilan iqtisodiy jihatdan bog'liq bo'lgan Sirdaryo etaklari va Mang'ishloq yarim orolini egallaydi. Qang'li va turkmanlardan kuchli yollanma qo'shin tashkil etib, bir necha bor Sulton Sanjarga qarshi isyon ko'taradi. Shunday qilib, Otsiz Kaspiy dengizi sohillaridan to Sirdaryoning o'rta oqimiga qadar bo'lgan yerlarda, keyinchalik buyuk davlat sifatida shuhrat topgan Xorazmshohlar davlatining poydevorini barpo etadi.


### 2. Xorazmshohlar davlatining tashkil topishi

Otsizning siyosatini uning vorislari **Elarslon (1156—1172)** va **Alouddin Takash (1172—1200)** davom ettiradilar. XII asrning



ikkinchi yarmida Movarounnahr va Xurosonda siyosiy vaziyat yanada keskinlashadi. 1153-yilda Sulton Sanjarga qarshi ko'chmanchi guzlar isyon ko'taradilar. Buning oqibatida Saljuqiylar davlati keskin zarbaga uchrab, parchalanib ketadi.

Dastavval undan *Kichik Osiyo* va *Karman* ajralib ketadi. So'ngra *Fors*, *Ozarbayjon* va *Xuroson* viloyatlari mustaqil bo'lib oladi. Bunday siyosiy vaziyatda, shubhasiz Xorazmning hukmronlik doirasi kengaytirilib, uning mustaqilligi yanada mustahkamlanadi. Xorazm davlati, ayniqsa Otsizning



26-rasm. Ko'hna Urganch. Faxriddin Roziy maqbarasi. XII asr.

nabirasi **Takash** davrida juda kengayadi. 1187—1193-yillarda u Nishopur, Ray va Marv shaharlarini bosib oladi. 1194-yilda esa saljuqiylar sultoni Tug'rulga qaqshatqich zarba berib, Eronni Xorazmga qaratadi. Oradan ikki yil o'tgach Takash xalifa askarlariga zarba berib, Iroqqa bostirib kirishga muvaffaq bo'ladi. Ammo Xorazm askarlarining tajovuzkorona xatti-harakatlari Iroqda aholining qo'zg'olon ko'tarishiga sabab bo'ladi. Natijada Takash qo'shinining kattagina qismi qirib tashlanadi. Shunday qilib, o'rta asrlarning iste'dodli davlat arboblariidan hisoblangan Takash Old va O'rta Osiyoda Xorazmshohlar davlatidek yirik va qudratli feodal hokimligini barpo etadi. Uning zamonida Xorazm davlatining hududlari ikki baravar kengayadi.

Takashdan so'ng uning o'g'li **Sulton Muhammad (1200—1220)** ham Xorazm davlatini kengaytirish siyosatini davom ettiradi. Dastavval u Hirot va uning atroflari hamda Xurosonning Xorazm davlati tasarrufiga kiritilmagan viloyatlarini zabt qilishga kirishadi. Ayniqsa, u qoraxoniylarga zarba berib, Movarounnahrni ular qo'lidan tortib olishga harakat qiladi. Bu davrda Movarounnahr viloyatlari turli mahalliy hukmron xonadonlar tomonidan idora qilinar edi. Mamlakatning mehnatkash aholisi,

bir tomondan qoraxitoylar xazinasiga yuboriladigan turli soliqlarni to'lashga majbur edi. Ikkinchi tomondan esa mahalliy hukmdorlarning cheksiz talon-torojlariga duchor edi. Buning ustiga to'xtovsiz urushlar xalq xo'jaligini xonavayron qilib, aholi hayotini og'ir tanglikka solib qo'ygan edi. Bu jihatdan, ayniqsa Buxoro mehnatkashlarining ahvoli juda og'ir edi.

### 3. Buxoroning Xorazmshohlar davlati tasarrufiga kiritilishi

Ma'lumki, qoraxoniylar hukmronligi qulagach, Buxoro viloyatida diniy va dunyoviy hokimiyat *ruhoniylar* qo'liga o'tgan edi. Buxoro va uning tevarak-atrofidagi katta yer maydonlari, machit, madrasa va xonaqolarning vaqf mulklari ularning tasarrufida edi. Buxoro shahrida esa do'kon, karvonsaroy, hammom va tegirmonlarga egalik qilar edilar. Buxoro sadri **Muhammad ibn Abdulaziz** xalq orasida o'z ta'sirini kuchaytirish maqsadida huzurida 600 nafar faqh (huquqshunos)larni tutib turar edi. Biroq xalq o'rtasida uning obro'si ham, ta'siri ham ko'tarilmadi, balki hurmat qilish o'miga hamma undan nafratlandi va yuz o'girdi. Chunki u mehnatkash aholiga nisbatan g'oyat shafqatsiz edi. Oqibatda uning «*Sadri jahon*» unvoni xalq o'rtasida «*Sadri jahannam*» laqabiga aylantirildi. Buxoro mehnatkash aholisining sadrlarga qarshi noroziligi ularni qo'zg'alishga olib keldi. Qo'zg'olon 1206-yilda Buxoro shahrida ko'tarildi. Unga qalqon yasovchi hunarmand Sanjar boshchilik qildi. Qo'zg'olonchilar Sadr va uning oilasini Buxorodan quvadilar. Uning mol-mulklarini talaydilar. Movarounnahrda hukmronlik qilayotgan qoraxitoy go'rxonlariga qarshi yurishga bahona izlab turgan **Xorazmshoh Muhammad** Buxorodagi voqealardan xabar topgach, fursatdan foydalanib, tezda qo'zg'olonchilar ustiga askar tortadi. Qo'zg'olon harbiy kuch bilan bostiriladi. Buxoro Xorazmshohlar davlatiga qaratiladi. Buxoroni egallagach, Muhammad Xorazmshoh Movarounnahr viloyatlarini, birinchi navbatda Samarqandni qoraxitoylar asoratidan ozod qilishga o'tlanadi. Xuddi shu davrda Chingizxon ta'qibidan qochib Mo'ng'ulistondan Yettisuv viloyati tomon chekingan nayman sardori **Kuchluk** qarluqlar bilan birlashib, qoraxitoylarga qattiq

zarba beradi. 1210-yilda hatto Go'rxonning O'zgendagi xazinasini qo'lga kiritadi. Bunday qulay vaziyatdan foydalangan Xorazmshoh, Samarqand hukmdori **Usmon ibn Ibrohim** bilan birlashib, Yettisuvga tomon askar tortadi. Ittifoqchilar Talos vodiysida Go'rxon qo'shinlari bilan to'qnashadilar. Jangda Xorazm askarlari ko'p talafot bergan bo'lsa-da, ikki tomondan zarbaga uchragan Go'rxon askarlari yengiladi. Hatto qoraxitoylar qo'shini-



27-rasm. Karmana. Raboti Malik yodgorligi. XI—XII asrlar.

ning qo'mondoni **Tayang'u** asirga olinadi. Yettisuvga qadarli yerlar Xorazmshohlar davlatiga qaratiladi. Shunday qilib, XIII asr boshida Xorazm juda keng maydonni egallagan buyuk davlatga aylangan edi. Uning shimoli-g'arbiy va g'arbiy chegarasi Orol va Kaspiy dengizi sohillaridan janubi-g'arbda Iroqqa qadar borar edi, janubi-sharqiy hududlari G'azna viloyatidan, shimoli-sharqiy chegarasi esa, Yettisuv va Dashti Qipchoqdan o'tar edi.

Sharqdagi bu ulkan davlatning poytaxti Urganch shahri edi. Xorazmshoh saroyida 27 hukmdor va ularning vakillari itoat kamarini bog'lab, oltin nog'ora chalar va bu buyuk davlatning tojidorini «*Iskandari Soniy*» (Ikkinchi Iskandar) deb atashmoqda edi.

Qoraxitoylardek chet elliklar zulm-u asoratidan ozod bo'lib, Movarounnahr aholisining Xorazm tuprog'ida yagona markazga birlashishi shubhasiz, ijobiy tarixiy voqea edi.

#### 4. Movarounnahrda*gi* ichki ziddiyatlar

Qoraxitoylar zulmidan qutulishgan bo'lsa-da, mehnatkash aholining ahvoli yengillashmadi. Aksincha, xorazmshohlarning harbiy yurishlari, talonchilikdan iborat soliq siyosatidagi beboshlik, amir va ma'murlarning jabr-u zulmi mamlakat fuqarolarining moddiy ahvolini g'oyat og'irlashtirib, xalq xo'jaligini yanada

zaiflashtirdi. Bu shubhasiz, shahar va qishloq mehnatkashlarining xorazmshohlarga qarshi noroziligini oshirdi. Natijada, 1210-yilda O'tror hokimi **Tojiddin** boshliq aholi isyon ko'tardi. 1212-yilda esa, Xorazmshohga qarshi samarqandliklar qo'zg'olon ko'tarib, Xorazm ma'murlari va askarlarining ko'pchiligini qirib tashlaydilar. Qo'zg'olonida Samarqand hokimi **Usmon** ham qatnashdi. Muhammad Xorazmshoh qo'zg'olonni shafqatsizlik bilan bostiradi. Shahar uch kun talanib, Usmon qatl etiladi va aholisi qattiq jazolanadi. O'sha davr tarixchisi Juvayniyning yozishicha, o'sha kunlarda Samarqandda 10 ming kishi o'ldirilgan edi. Samarqand qo'zg'oloni bostirilgach, Xorazmshoh Movarounnahrning boshqa viloyatlaridagi qoraxoniylar noiblarining barchasini qatl qilishni buyurdi. Farg'ona olinib, O'zgan va Samarqand shaharlarida Muhammad Xorazmshoh nomi bilan tangalar zarb etiladi. Bu shubhasiz Movarounnahrda qoraxoniylar sulolasi hukmronligini uzil-kesil tugatilganini namoyish etar edi.

Biroq, qizg'in sinfiy kurash va viloyat hukmdorlarining isyonlari davom etayotgan, xalqning ko'pgina tabaqalari noroziligiga duchor bo'lgan, armiya va saroyda fitnalar kuchaygan bir vaziyatda yashagan Sharqning bu buyuk davlati faqat tashqi ko'rinishdangina kuchli tuyular edi. Shuning uchun ham bu davlat ko'p yashamadi. Chingizxon boshliq mo'ng'ullarning hujumiga bardosh bera olmay, u tez fursatda quladi.

#### *Savol va topshiriqlar*

- ?
1. Xorazmning mustaqillik uchun kurashlari va uning hukmdori Otsiz haqida gapirib bering.
  2. Xorazmshohlar davlati va uning barpo etilishi haqida nimalarni bilasiz?
  3. Buxoro qanday qilib xorazmshohlar davlati tarkibiga kiritildi?
  4. Movarounnahrning xorazmshohlarga qarshi qo'zg'olonlari haqida so'zlang.

## II BOB

### IX—XIII ARS BOSHLARIDA MOVAROUNNAHRNING MADANIY HAYOTI

#### 19-§. O'RTA ASR MUTAFAKKIRLARI VA FAN

##### 1. «Bayt ul-hikma» («Donishmandlar uyi»)

IX—XII asrlarda Movarounnahr va Xurosonda sodir bo'lgan o'ta murakkab siyosiy vaziyatning rivoji, ijtimoiy va iqtisodiy o'zgarishlar mamlakat madaniy hayotiga ham kuchli ta'sir etdi.

Ma'lumki, Movarounnahr istilo qililib, xalifalikka qo'shib olingach, zabt etilgan o'zga mamlakatlar qatorida, bu o'lkada ham faqat islom dinigina emas, balki arab tili va uning imlosi ham joriy etildi. Chunki arab tili xalifalikning davlat tili edi. Shuningdek, Arab xalifaligida davlat tili fan tili ham edi. Shu boisdan ko'p jihatdan arab tilining mohiyati oshib, uni o'zlashtirishga bo'lgan intilish kuchli bo'ldi. Islomni qabul qilgan aholining ko'pchilikka arab tili bilan muloqoti, garchi faqat ibodat vaqtlarida Qur'oni Karimning qisqa suralarini tilovat qilishdan iborat bo'lsa-da, ammo mahalliy mulkdorlar arab tilini xalifalik ma'murlari bilan yaqinlashish va mamlakatda o'z siyosiy mavqelarini tiklab, uni mustahkamlashning asosi deb hisoblardilar. Uni o'zlashtirishga astoydil kirishadilar. Arab tiliga bo'lgan bunday ehtiyoj va intilish tufayli ko'p vaqt o'tmay Movarounnahrda ham hatto o'z ona tilidan ko'ra arab tili va yozuvini yaxshiroq o'zlashtirib olgan bilimdonlar paydo bo'ladi. Davlatni boshqarishda abbosiylar ma'muriyati ayniqsa ko'plab bilimdon siymolarga muhtoj edi. Chunki arablar orasida bu paytda davlat ishiga yaroqli bo'lgan bilimdonlar hali oz, bori ham zaif edi.



28-rasm. Mis barkash.  
XI—XII asrlar.



29-rasm. Qo'sh quloqli sopol idish.  
X—XI asrlar.

Shu boisdan Movarounnahr, Xorazm va Xurosonda mahalliy tillarda yozilgan asarlar yo'q qilinib, yerli bilimdonlar quvg'in ostiga olib turilgan bir paytda bu mamlakatlarning ko'pgina tolibi ilmlari xalifalikning markaziy shaharlari: *Damashq, Qohira, Bag'dod, Kufa va Basraga* borib bilim olishga va arab tilida ijod qilishga majbur bo'ladilar. Bu davrda ayniqsa *Bag'dod* shahri Sharqning yirik ilm va madaniyat markazi edi. IX asrda bu shaharda «*Bayt ul-hikma*» («Donishmandlar uyi») — islom Sharqining o'z davridagi Fanlar Akademiyasi tashkil etilgan edi. «*Bayt ul-hikma*» da katta kutubxona hamda *Bag'dodda* va *Damashqda* astronomik kuzatishlar olib boriladigan rasadxonalar mavjud edi. Bu ilm dargohiga jalb etilgan tolibi ilmlar tadqiqotlar bilan bir qatorda qadimgi yunon va hind olimlarining ilmiy merosini o'rganish va asarlarini arab tiliga tarjima qilish bilan shug'ullanardilar. Bu yerda *Muso al-Xorazmiy, Ahmad al-Farg'oniy, Xabash Marvaziy* va *Abul Abbos Javhariy* kabi Movarounnahr va xurosonlik olimlar ijod qilib, o'rta asr ilm-u faniga katta hissa qo'shadilar.

## 2. Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy (783—850-yillarda yashab ijod qilgan)

**Muso al-Xorazmiy** qadimgi Xorazm diyorida tug'ilib, voyaga yetadi. Dastlabki savod va turli sohadagi bilimlarini u o'z ona yurti Xorazm va Movarounnahr shaharlarida ko'pgina ustozlardan oladi. So'ngra u xalifa **Ma'mun** zamonida (813—833) «*Bayt ul-hikma*» da mudir sifatida faoliyat ko'rsatadi. *Bag'dodda* u *Suriya, Iroq, Eron, Xuroson* va *Movarounnahr* olimlari bilan ijod qiladi. Xorazmiy zamondosh olimlar bilan birgalikda yer aylanasining uzunligi — radiusini hamda geografik xaritalar tuzish kabi masalalar bilan mashg'ul bo'ldi. Zamonasining mashhur matematigi, astronomi va geografi sifatida fanga ulkan hissa qo'shdi. Xorazmiy 20 dan ortiq asarlar yozdi. Ulardan faqat 10 tasigina bizgacha yetib kelgan. Bu kitoblar: «*Aljabr va al-muqobala*» hisobi haqida qisqacha kitob; «*Hind hisobi haqida*», ya'ni arifmetik asar; «*Kitob surat ul-arz*», «*Yer surati*» haqida geografiyaga oid kitob; «*Zij*» va «*Usturlob bilan ishlash haqida kitob*» kabi astronomiyaga

oid asarlar; shuningdek «*Kitob at-tarix*», «*Yahudiylarning taqvimi va bayramlarini aniqlash haqida risola*» nomlari bilan atalgan. Xorazmiy merosida ayniqsa «*Aljabr va al-muqobala*» kitobining ilmiy ahamiyati nihoyatda buyukdir. Bu kitobi bilan u matematika tarixida birinchi bo'lib algebra faniga asos soldi. Hatto «*al-gebra*» atamasi ushbu kitobning qisqartirilib «*al-jabr*» deb yuritilgan qisqacha nomining aynan ifodasidir. Xorazmiy nomi esa matematika fanida «*algoritm*» atamasi shaklida o'z ifodasini topdi. Uning «*Aljabr*» asari asrlar davomida avlodlar qo'lida yer o'lchash, ariq chiqarish, bino qurish, merosni taqsimlash va boshqa turli hisob va o'lchov ishlarida dasturulamal bo'lib xizmat qildi. Xorazmiyning bu risolasi XII asrdayoq Ispaniyada lotin tiliga tarjima qilinadi va qayta ishlanadi. Keyinchalik asrlar davomida Yevropa olimlari Xorazmiy asarini qayta-qayta ishlab, u asosda darsliklar yozadilar. Xorazmiyning arifmetik risolasi hind raqamlariga asoslangan o'nlik pozitsion hisoblash sistemasining Yevropada, qolaversa, butun dunyoda tarqalishida buyuk ahamiyat kasb etdi. Aljabrni mustaqil fan darajasiga ko'tardi. Shunday qilib, vatandoshimiz Xorazmiy matematika faniga asos solib, tarixda o'zidan o'chmas iz qoldirdi.

**3. Ahmad Farg'oniy** (Abul Abbas Ahmad ibn Muhammad ibn Kasir al-Farg'oniy — 797—865-yillarda yashab ijod qilgan).

«**Bayt ul-hikma**» da faoliyat ko'rsatgan olimlardan yana biri buyuk astronom, matematik va geograf **Ahmad al-Farg'oniy**dir. U Farg'onada tavallud topgani uchun Sharqda **Al-Farg'oniy**, Yevropada esa **Alfraganus** taxallusi bilan shuhrat topgan. U avval *Marv*, so'ngra *Bag'dod*, *Damashq* va *Qohira* shaharlarida astronomiya, matematika va geografiya fanlari bilan shug'ullandi. Qator ilmiy va amaliy asarlar yozib qoldirdi. U asosan Damashqdagi rasadxonada osmon jismlari harakati va o'rini aniqlash yangicha «*zij*», ya'ni astronomik jadval yaratish ishlariga rahbarlik qildi. 832—833-yillarda Suriyaning shimolida Sanjar dashtida va ar-Raqqa oralig'ida yer meridianining bir darajasini uzunligini o'lchashda qatnashdi. 861-yilda uning rahbarligida *Fustat* (*Qohira*) shahri yaqinida joylashgan *Ravzo* orolida Nil daryosi

sohilida qurilgan qadimgi gidrometr — daryo oqimi sathini o'Ichagich «Miqyos an-Nil» inshooti va uning darajoti qayta tiklandi. Ahmad Farg'oniy tarixda birinchilardan bo'lib Yerning dumaloqligini isbotlab bergan olimdir.

Bizning davrimizgacha Ahmad Farg'oniyning sakkiz asari saqlanib, ularning birortasi ham hozirgi zamon tillariga tarjima qilinmagan edi. Ahmad Farg'oniy tavalludining 1200-yilligi munosabati bilan uning ayrim risolalari o'zbek va rus tillarida nashr etildi. Ular orasida uning «*Samoviy harakatlar va umumiy ilmi nujum*» kitobi ham bordir. Bu kitob XII asrdayoq lotin tiliga tarjima qilinib, nafaqat musulmon Sharqidagi, balki Ispaniya orqali Yevropa mamlakatlaridagi astronomiya ilmining rivojini boshlab berdi. Shundan so'ng Ahmad Farg'oniy nomi lotinlashtirilib, «*Alfraganus*» shaklida G'arbda shuhrat topdi. Uning «*Astronomiya asoslari*» nomli kitobi bir necha asrlar davomida Yevropa universitetlarida astronomiya fani bo'yicha asosiy darslik sifatida foydalanildi.

#### 4. Imom al-Buxoriy (Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy—810—870-yillarda yashab ijod qilgan).

Dunyoviy fan olimlari bilan bir qatorda bu davrda islom ta'limoti va mafkurasining takomili yo'lida movarounnahrlik muhaddis ulamolarning ham xizmati katta bo'ldi. Bu borada ayniqsa **Imom al-Buxoriy**, uning zamondoshi va shogirdi **Iso Termiziy** — (Abu Iso Muhammad at-Termiziy — 824—894-y. y.) larning hissasi nihoyatda buyukdir. Birgina Imom al-Buxoriy islom ta'limotiga oid yigirmadan ortiq asar yozdi. Uning «*Jomi' as-Sahih*» nomli shoh asari musulmon Sharqida qariyb o'n ikki asr davomida islom ta'limotida Qur'oni Karimdan keyingi asosiy manba sifatida yuqori baholanib kelinmoqda. Bu bebaho asarga kiritilgan 7275 hadislar va ularga berilgan ko'pdan-ko'p sharhlarda faqat shariat ahkomlariga oid qoidalargina ifodalanilmay, balki inson ma'naviy kamolotining ramzi hisoblanilgan mehr-muhabbat, hurmat-u izzat, muruvvat-u himmat, halollik-u mehnatsevarlik, saxiylik-u ochiq ko'ngillik hamda o'zaro tinch-totuvlik kabi insoniy fazilatlar haqida ma'lumotlar berilgan.

Bu davrda Movarounnahr, Xuroson va Xorazmdan xalifalikning markaziy shaharlariga borib, fanning turli sohalarida ijod qilgan olimlardan tashqari madaniyatning deyarli barcha sohaları bo'yicha ham yetuk ustod-u shogirdlarning soni Bag'dod shahrida oz emas edi. Bu yerda ular o'z Vatanlaridagi ilmiy va madaniy an'analarni arab tilida, islom mafkurasiga moslashtirgan holda taraqqiy ettirishga va ularni jahon ilm-u madaniyatiga qo'shishga muyassar bo'ldilar.

## 5. Abu Mansur al-Moturidiy. 870 - 944.

Hadis va fiqh olamining ravnaqiga ulkan hissa qo'shgan buyuk alloma **Abu Mansur al-Moturidiy** taxminan 870 yilda Samarqand yaqinidagi **Moturid** qishlog'ida tugildi. Al-Moturidiy islomiy odob qoidalari, shariat qonunlari, ma'naviy-axloqiy kamolot sirlaridan ta'lim berishga mo'ljallangan qator asarlar yozgan bo'lsa-da, uning eng muhim «*Kitob at-Tavhid*» («*Allohning birligi*») va «*Ta'vilot ahl as-sunna*» nomli asarlarigina saqlanib qolgan. Bu asarlar ilohiyot ta'limotining eng qadimiy asarlaridan bo'lib, alohida ilmiy va nazariy ahamiyatga egadir. Ularda diniy ta'limot, islomiy urf-odatlar insonning kamol topishida, uning dunyo-qarashini shakllanishidagi mohiyati talqin etilgan. Moturidiy asos solgan ta'limot kishilarni yaxshilikka, rostgo'ylikka, sabru qanoatga, sharm-hayoga, oliyhimmatlikka, vatanni sevishga chorlaydi. Al-Moturidiy 944 yilda Samarqandda vafot etgan va shahar yaqinidagi Chokardiza qabristonida dafn etilgan.

### *Savol va topshiriqlar*

- ? 1. «Bayt ul-hikma» haqida nimalarni bilasiz? 2. Xorazmiyning ijodi haqida gapirib bering. 3. Ahmad al-Farg'oniy va uning ilmiy merosi haqida gapirib bering. 4. Imom al-Buxoriy va uning ilmiy merosining ahamiyati haqida nimalarni bilib oldingiz? 5. Abu Mansur al-Moturidiy haqida so'zlab bering.

### *MAVZUNI TO'LDIRISH UCHUN YOZMA MANBADAN MA'LUMOT*

**Ahmad al-Farg'oniy va Nil daryosi sathini o'Ichagichi — «Miqyos ar-Rudah» inshootining qurilishi.**

Asrlar davomida misrlik falohlar Nil daryosi sathini muttasil kuzatib, uning darajasini belgilab kelganlar. Chunki Nil vodiysida dehqonchilik daryo toshqinlariga bog'liq bo'lgan. Yoz oylarida

daryoda suv sathining ko'tarilishi va toshqinlarning o'z vaqtida qaytishi dehqonchilikda hosildorlik mo'l bo'lishining garovi hisoblangan. Shu bois Nil daryosi oqimidagi mavsumiy va davriy o'zgarishlarni belgilab turish uchun qadim zamonlardanoq Nil daryosi bo'ylab suv o'lchagich inshootlari o'rnatilgan. Bunday o'ziga xos inshootlar «*Miqyos an-Nil*» yoki «*Nilometr*» deb atalgan. Nil daryosi bo'ylab Misr hududida o'tmishda 20 ga yaqin suv o'lchagich «miqyos» lar bo'lgan. Ulardan biri qadimgi **Fustat** (Qohira) shahri yaqinida xalifa **Umar (634—644)** davrida yo'nilgan toshlardan bino qilingan. 861-yilda esa xalifa Mutavakkil farmoni bilan qayta tiklangan. Qurilishga IX asrning buyuk astronomi va matematigi **Ahmad al-Farg'oniy** boshchilik qilgan. Tarixda bu suv inshooti «*Rudah miqyosi*» deb shuhrat topgan.

«*Miqyos ar-Rudah*» ostki qismi silindrsimon, yuqorigi ikki qismi esa kvadrat shaklida, markazida sakkiz qirrali baland ustunli chuqur hovuzdan iborat antiqa suv inshootidir. Hovuzning chuqurligi 13,2 metr. Hovuz devorlari yonidan tosh zinapoyalar orqali aylanib hovuz tubiga tushilgan.

Miqyos hovuzining har bir pog'onasida daryo bilan tutashirilgan ravoqsimon shaklda ishlangan lahim (tunnel)lar o'rnatilgan. Daryoda suv sathi ko'tarilishi bilan avval pastki, so'ngra o'rta va yuqorigi lahimlar orqali suv miqyos hovuziga oqib kirgan. Hovuzdagi suv sathi esa, o'z navbatida daryodagi oqimning darajasini belgilab olish imkonini bergan.

Hovuzda to'plangan suv sathini belgilash ustunga past-baland tortilgan gorizontol chiziqlarga qarab amalga oshirilgan. Ustun balandligi hovuz chuqurligiga teng bo'lib, u 24 darajaga, ya'ni tirsakka bo'lingan. Har bir tirsak 52,5 sm, u o'z navbatida, 7 kaftga yoki 28 qirotda taqsimlangan.

Yozma manbalarning guvohlik berishicha, agar Nil daryosi sug'orish mavsumida (iyul-oktabr) suv sathi 12 tirsakdan oshmasa, dehqonchilikda hosil mutlaqo bo'lmay, mamlakatda ocharchilik boshlangan. 14-da o'rtacha hosil yetishtirilgan, 15-tirsakda ekinlar, ayniqsa g'alla yaxshi hosil to'kkan; 16-tirsakda esa bug'doyning hosili nihoyatda ko'p bo'lib, mamlakatda ma'murchilik boshlangan. Qizig'i shundaki, suv sathi darajasi hosildorlikni ta'minlaydigan ko'rsatkichga yetishi bilan davlat soliqchilari, Misr dehqonlaridan qishloq xo'jalik soliqlarini yig'ishga kirishganlar.

Shunday qilib, 864-yilda Fustat — qadimgi Qohira shahri yaqinida «Rudah miqyosi»ni qayta tiklash va uning o'lchov uskunasi darajotini aniq matematik hisoblar asosida yangitdan belgilab takomillashtirishda IX asrning buyuk allomasi vatandoshimiz Ahmad al-Farg'oniying hissasi beqiyosdir.

## 20-§. MOVAROUNNAHR VA XORAZMNING MADANIY HAYOTIDA YANGI DAVR (IX—XIII ASR BOSHLARI)

### 1. Madaniy va ma'naviy hayotning jonlanishi

IX asrning ikkinchi yarmida Movarounnahrning madaniy hayotida yangi davr boshlanadi. Xalifalik hukmronligi tugab, mustaqil Somoniylar davlatining qaror topishi bilan madaniy hayotning jonlanishi uchun keng yo'l ochiladi. Buxoro, Samarqand, Urganch, Marv va Nishopur kabi shaharlar ilmiy va madaniy markaz sifatida taraqqiy qila boshlaydi.

Bu davrda qishloq aholisining aksariyati sug'diy va xorazmiycha so'zlashsa-da, markaziy shaharlarda forsiy-dariy deb yuritilgan xalqning adabiy tili vujudga keladi. Bu til davlat tili sifatida qabul qilinadi. Dariyda nazm, nasr va ilmiy asarlar yozila boshlanadi. Buxoro va boshqa markaziy shaharlarda islom dini ta'limotining asosiy manbalari va shariat bilimlarini o'qitish uchun madrasalar ochilgan edi. Bunday ilmgohda yetishib chiqadigan ilm ahlining hammasi ham qozi, imom bo'lavermay, ular orasidan dunyoviy ilmlar: tabobat, handasa, matematika, kimyo, falakiyot, falsafa, mantiq, tarix va boshqa sohalar bo'yicha puxtagina bilim orttirgan olimlar ham yetishib chiqar edi. Bunday bilim egalari xalq o'rtasida obro'li bo'lib, ular atrofida, shubhasiz, shogirdlar to'planar edi.

Buxoro, Samarqand, Urganch, Marv, Balx, Nishopur kabi markaziy shahar bozorlarida alohida kitob do'konlari bo'lardi. Ularda diniy va dunyoviy ilmlarning turli sohaları bo'yicha turli tillarda yozilgan qo'lyozma kitoblar sotilar edi. Ibn Sinoning yozishicha, u Buxoro bozorida Abu Nasr Forobiyning «*Arastu metafizikasiga sharhlar*» nomli kitobini uch dirhamga sotib olgan. Bu kitobni o'qib chiqqach Ibn Sino yunon faylasufi Arastu ta'limoti va falsafasining mohiyatiga tushunib yetgan.

Shahar madaniyatining ravnaqi, feodal jamiyati ziyolilari davrasining kengayib borishi shubhasiz mustaqillikni qo'lga

kiritgan Movarounnahr va Xorazm hukmdorlarini ham ilm ahli bilan yaqinlashtirdi. Mamlakatni boshqarishda ularning bilimi va maslahatlaridan foydalandilar. Hukmdorlarning aksariyati bu davrda o'z saroylarida olim, shoir va usta san'atkorlar va turli sohalar bo'yicha qimmatbaho kitoblarni to'plashga odatlanadilar. Saroyga jalb etilgan olim va shoirlar, kutubxonalaridagi nodir qo'lyozma asarlar bilan mag'rurlanardilar.

Somoniylar davlatining tashkil topishi va Xorazmning yuksalishi siyosiy barqarorlik va iqtisodiy ko'tarilish madaniy hayotning ravnaqiga imkon berdi. Bu davr Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Abu Abdulloh Xorazmiy, Mahmud Zamaxshariy va Muhammad Narshaxiy, Rudakiy, Daqiqiy, Abulqosim Firdavsiy kabi jahon fani va madaniyati taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan buyuk siymolarni o'z bag'rida tarbiyalab kamolotga yetkazdi.

## 2. Abu Nasr Forobiy (873—950-yillarda yashab ijod qilgan)

**Abu Nasr Forobiy** 873-yilda Aris suvining Sirdaryoga quyulishida joylashgan **Forob (O'tror)** shahrida tug'ilgan. U avval ona shahrida, so'ngra Samarqand, Buxoro va Bag'dodda bilim olgan. Umrining oxirlarida **Xalab** va **Damashq** shaharlarida yashagan, 950-yilda vafot etgan. Forobiy riyoziyot, falakiyot, tabobat, musiqa, mantiq, falsafa, tilshunoslik, tarbiyashunoslik va adabiyot sohalarida ijod etgan. U 160 dan ortiq asar yozib, o'rta asr fan va madaniyatiga ulkan hissa qo'shdi. Bular orasida Arastuning «*Metafizika*» asariga sharh», «*Musiqa kitobi*», «*Baxt-saodatga erishuv haqida*», «*Tirik mavjudot a'zolari haqida*», «*Shaharlar ustiga siyosat yurgizish*» va boshqa ko'pgina asarlari bo'lgan. Forobiy bilimli, ma'rifatli, fikr-mulohazalarining kengligi va mantig'ining teranligi tufayli Sharqda *Arastudan* keyingi yirik mutafakkir — «*Muallimus-soniy*», («*Ikkinchi muallim*») nomi bilan shuhrat topdi. Forobiy ilk o'rta asr sharoitida aql va ilm g'alabasi, ma'naviy ozodlik, inson takomili va adolatli jamiyat uchun kurashgan buyuk siymo edi.

## 3. Ibn Sino — Abu Ali ibn Sino (980—1037-yillarda yashab ijod qilgan)

Bu davrning ulug' mutafakkirlaridan yana biri Abu Ali ibn Sino edi. U 980-yilda Buxoro yaqinidagi Afshona qishlog'ida

mahalliy amaldor oilasida dunyoga keldi. Besh-o'n yoshlarida maktabda ta'lim oladi. Maktabni bitirgach, ustozlari Abu Abdullohdan mantiq, falsafa, riyoziyot va fiqh ilmlarini o'rganadi. O'n olti yoshidan boshlab turli fanlar bo'yicha Sharq va G'arb olimlarining ilmiy asarlarini mustaqil o'rganadi. Ayniqsa u tabobat ilmining qadimgi allomalari **Gippokrat** va **Golen** hamda o'rta asr Sharqining buyuk hakimi va mutafakkiri **Abu Bakr ar-Roziy (864—925)** ning asarlarini puxta o'rganadi. Ibn Sino o'n yetti yoshidayoq e'tiborli hakim va olim bo'lib yetishadi. U amir Nux ibn Mansurni davolab tuzatgach, somoniylarning saroy kutubxonasidan foydalanishga ruxsat oladi. Kutubxonada u bir yil davomida turli sohalaridagi ilmiy asarlarni mutolaa qilib, bilimlarini chuqurlashtiradi. IX asrning oxiri va X asr boshlarida Movarounnahr va Xurosonda yuzaga kelgan og'ir sharoitda Ibn Sino o'z ona shahri Buxoroni tark etib, avval Urganchda, Xorazmshoh Ma'mun saroyidagi olimlar qatoridan joy oladi. So'ngra Mahmud G'aznaviyning tazyiqi tufayli Xorazmdan ham chiqib ketadi. U umrining oxirigacha *Obivard*, *Go'rgon*, *Ray*, *Qazvin*, *Isfaxon* va *Xamadon* shaharlarida hukmdorlar qo'l ostida tabiblik va vazirlik qiladi. 1037-yilda Xamadonda vafot etadi.

Ibn Sino arab va fors tillarida fanning turli sohaları bo'yicha uch yuzdan ortiq asarlar yozdi. Nazm va nasrda qalam yuritdi. Uning tibbiyotga doir asarlarida kasalliklarning kelib chiqish sabablari va manbalari, diagnostika, muolaja usullari, dorivor o'simliklar va dori-darmonlarning xususiyatlari, parhez, inson salomatligi uchun jismoniy tarbiyaning ahamiyati kabi tabobatning ko'pgina g'oyat muhim masalalariga alohida e'tibor berilgan. Uning «*Al-qonun fit-tib*» asari XII asrdayoq lotinchaga tarjima qilinib, to XVII asrgacha Yevropa tabobatida asosiy qo'llanma sifatida foydalanilgan. O'rta asrning buyuk allomasi Sharqda «*Shayx ur-ra'is*», G'arbda esa «*Avitsenna*» nomlari bilan shuhrat topdi.

#### 4. Xorazmda madaniy hayot

Bu davrda Xorazm poytaxti Urganch ham obod va madaniy shahar edi. Xorazmshoh **Abul Abbas Ma'mun** ancha bilimli hukmdor bo'lib, olim, shoir, san'atkor, naqqosh va musavvirlarga



30-rasm. Beruniy.

homiylig qilar edi. Urganchda xorazmshohlar saroyida zamonasining yirik mutafakkirlari **Ibn Sino** va **Beruniydan** tashqari **Abu Sahl Masihiy**, **Abu Nasr ibn Iroq**, **Abul Xayr ibn Xammor**, **Abu Adulloh al-Xorazmiy** kabi ko'pgina olimlar to'plangan edi. Bu yerda «*Bilimdontlar uyi*» da Xorazmshoh **Ma'mun** homiyligida *falsafa*, *matematika* va *tib* ilmiga oid masalalar muhokama qilinar edi. Ammo Urganchda bu ilmiy muhit uzoq yashamadi. Mahmud G'aznaviyning tazyiqi ostida u tezda tarqalib ketdi.

**5. Beruniy.** O'sha zamonda Urganchda yashab ijod qilgan

ulug' mutafakkirlardan biri **Abu Rayhon Beruniy (973—1048)** edi. U Xorazmda tug'ilib, dastlab **Urganchda** ta'lim olgan. Uzoq yillar **Go'rgonda** yashagan. So'ngra Xorazmshoh **Ma'mun** saroyida ijod qilgan. 1017-yilda Mahmud G'aznaviyning talabi bilan G'azna shahriga borib umrining oxirigacha shu yerda ijod qilgan. Beruniy 1048-yilda **G'aznada** vafot etdi. U *falakiyot*, *geografiya*, *matematika* va *tarix* fanlari bo'yicha 154 ta ilmiy asar yozdi. Beruniyning «*O'tmish avlodlardan qolgan yodgorliklar*», «*Hindiston*», «*Mineralogiya*», «*Geodeziya*» kabi yirik asarlari shular jumlasidandir. U o'zining falakiyotga oid asarlarida Kopernikdan qariyb besh asr muqaddam Yerning Quyosh atrofida aylanishi haqidagi fikrni o'rta asrlarda birinchi bo'lib ilgari surdi. Yerning dumaloq shaklda ekanligini asoslab berdi. U dunyoning geografik xaritasini tuzdi. Beruniyning ilmiy va falsafiy katta merosi shubhasiz jahon fani va madaniyati xazinasiga qo'shilgan katta hissa bo'ldi.

## 6. Abu Adulloh al-Xorazmiy

X—XI asrlarda yashab ijod etgan qomusiy olim **Abu Adulloh al-Xorazmiy** hayoti haqida juda oz ma'lumot bizgacha yetib kelgan.

Uning tug'ilgan va vafot etgan yillari ham ma'lum emas. Olimning yoshligi Xorazmning **Xiva, Zamaxshar** va o'zi tug'ilib o'sgan **Kat** shahrida o'tdan. U birmuncha Xurosonda ham istiqomat qilgan. Nishopur shahrida kotiblik, Nuh II ibn Mansur Somoniy (976—997) saroyida vazir lavozimida faoliyat ko'rsatgan. Hayot unga Buxorodagi boy saroy kutubxonasiidan foydalanish imkonini bergan. Bizgacha allomaning arab tilida yozilgan yagona «*Mafotih ul-ulum*» («*Fanlar kalitlari*») nomli asari yetib kelgan. Ushbu kitob fanlarning rivojlanish tarixi va tasnifiga bag'ishlangan. Kitobda o'sha davrda mavjud bulgan huquq, falsafa, mantiq, aruz, matematika, geometriya, kimyo kabi turli fanlarga qomusiy ma'lumotlar berilib, ularning asoslari bayon etilgan. Alloma bu asarida faqat fanlar haqida tushuncha berib qolmay, balki ularning taraqqiyot darajalarini ham aniqlaganki, ushbu asar o'rta asrlarda O'rta Osiyoda aniq fanlarning rivojida muhim ahamiyat kasb etgan.

## 7. Mahmud Zamaxshariy (Abulqosim Mahmud az-Zamaxshariy — 1074—1144- yillarda yashab ijod qilgan)

Bu davrda Xorazm diyorida yetishib chiqqan buyuk allomalardan yana biri Mahmud az-Zamaxshariydir. U 1074-yilda Xorazmning Zamaxshar qasbasida (qishloqcha) dunyoga kelgan. Dastlab ma'lumotni u otasidan oladi. So'ngra madrasada tahsil ko'radi. Ilmga bo'lgan chanqoqlik uni **Buxoro, Marv, Nishopur, Isfaxon, Shom, Bag'dod, Hijoz** va **Makkada** hayot kechirib, arab tili grammatikasi va lug'ati, maqollari, urf-odatlarini chuqur o'rganishiga sabab bo'ldi. Mintaqa geografiyasiga doir ma'lumotlarni to'playdi.

Mahmud Zamaxshariy turli soha ilmlariga oid ellikdan ortiq asarlar yozib qoldirdi. Ayniqsa, uning arab tili fonetikasi va morfologiyasiga bag'ishlangan «*Al-Mufasssal*», xorazmshoh Otsizga bag'ishlangan «*Muqaddamat ul-adab*», «*Tog'lar, joylar va suvlar haqidagi kitob*» kabi asarlari nihoyatda ahamiyatlidir. «*Notiqlik asoslari*» va «*Aruzda o'lchov*» (mezon) asarlari qimmatli manbalardan hisoblanadi. Zamaxshariyning Qur'oni Karim tafsiriga oid «*Al-Kashshof*» asari musulmon olamida ayniqsa mashhurdir. Qohiradagi dunyoga dong'i ketgan Al-Azhar diniy dorilfununining talabalari «*Al-Kashshof*» asosida Qur'oni Karimni o'rganadilar.

Mahmud Zamaxshariyning keng bilimi, fanning turli sohalariga doir salmoqli va mazmundor asarlari u hayot paytlaridayoq musulmon Sharqida unga katta shuhrat keltirgan edi. «*Arab va g'ayri arablar ustozlari*», «*Xorazm faxri*» kabi sharafli nomlar bilan ulug'langan. U 1144-yilda 70 yoshida Xorazmda vafot etgan.

## 8. Burhonuddin al-Marg'inoniy (1118—1197)

Mashhur faqih (huquqshunos) **Burhonuddin al-Marg'inoniy** 1118 yilda **Farg'ona** vodiysining **Rishton** shaharchasida tavallud topgan. U Rishton, Marg'ilon, Samarqand, Buxoro hamda Movarounnahrning boshqa shaharlarida Qur'on, hadis ilmlarini mukammal egallab, islom huquqshunosligi bo'yicha chuqur bilimga ega bo'ldi. Al-Marg'inoniy Najmuddin Abu Xafs Nasafiy, Xusomuddin Umar as-Saraxsiy, Abu Umar ibn Ali Poykandiy, Ahmad ibn Rashid al-Buxoriy va boshqa ko'pgina faqih ulamolardan ilm o'rgandi va Hadis, islom qonunshunosligini puxta egallab, «*Boshlovchilar uchun dastlabki ta'lim*», «*Mazhabning yoyilishi*», «*Ilmni ziyoda qiluvchi kitob*», «*Inson majburiyatlari haqida kitob*» kabi asarlarni yaratdi.

Al-Marg'inoniyning eng nodir va qimmatli asari arab tilida yozilgan, to'rt jildlik «*Hidoya*» asaridir. Bu islom huquqshunosligi bo'yicha mukammal asar bo'lib, bir necha asrlar davomida musulmon mamlakatlaridagi huquqshunoslar uchun ham nazariy, ham amaliy qo'llanma vazifasini o'tab kelgan. Kitob bir qancha tillarga tarjima qilingan. Hozirgi kunda ham muhim manba sifatida foydalanib kelinmoqda.

## 9. Tarix, geografiya

X—XII asrlarda Movarounnahrda tarix va geografiyaga qiziqish va bu ilmlarga e'tibor kuchaydi. Chunki bu davrda mahalliy aholining ma'naviy hayotida o'z ona tili va unda yozilgan tarixiy va adabiy asarlarga bo'lgan ehtiyoji ham tobora ortib bormoqda edi. Ayni shu davrda Gardiziyning «*Zaynul axbor*» (*Xabarlar ko'rki*), Bayhaqiyning o'ttiz jildli tarixiy asari, Majiduddin Adnonning «*Tarixi mulki Turkiston*», Muhammad Narshaxiyning «*Tarixi Buxoro*» kabi asarlari fors tiliga tarjima qilinadi.

## 10. Turkiy yozma adabiyot

Bu davrda Movarounnahr, Shosh, Farg'ona, Yettisuv va Sharqiy Turkistonda turkiy xalqlarning qadimdan davom etib kelayotgan og'zaki adabiyoti bilan bir qatorda, yozma adabiyot yuzaga keladi. Qator didaktik poemalar bitildi. Ammo ularning juda oz nusxalarigina bizgacha saqlangan. Ulardan eng nodiri Yusuf Xos Hojibning «*Qutadg'u bilig*» (*Saodatga boshlovchi asar*) nomli asaridir. Asarda inson va uning ijtimoiy mohiyati, hayotdagi o'rni va vazifasi har tomonlama tahlil qilinadi. «*Qutadg'u bilig*» da oddiy xalq, mehnatkash inson alohida ehtirom bilan tasvirlanadi. Yusuf Xos Hojib ayniqsa dehqonlar, chorvadorlar, hunarmand va savdogarlarni iliq mehr bilan tilga oladi. Dehqonlarni u hammadan ham yuqori qo'yadi. «*Qutadg'u bilig*» da axloq, odob va ilm-ma'rifatga doir ko'p qimmatli pand-nasihatlar keltiriladi. Muallif rostgo'ylik, halollik, odob, sadoqat va sevgi kabi masalalar haqida hikmatli so'zlar yuritadi. U ilm va ma'rifatga saodatning kaliti deb qaraydi. Shuning uchun ham o'z dostonini «*Qutadg'u bilig*» deb ataydi. Unda ilm va ma'rifatni targ'ib qiladi, olimlarni ulug'laydi, davlat boshliqlarini ilm-fan ahllaridan ta'lim olishga va ularning maslahatlari bilan ish ko'rishga da'vat etadi.

XII asrda turkiy tilda ijod etgan shoir va mutafakkirlardan yana biri **Ahmad Yugnakiy** (tug'ilgan yili 1147—1150-yillarga to'g'ri keladi) va ikkinchisi **Ahmad Yassaviy** (vafoti 1166/67-y.y) edi. Ahmad Yugnakiydan yagona adabiy meros «*Hibat ul-haqoyiq*» nomli asar saqlanib qolgan. U turkiy adabiy tilning qimmatli va nodir yodgorligi hisoblanadi. O'z asarida shoir Yusuf Xos Hojib singari ilm-fan, olim va fozillarni ulug'laydi, ma'rifatparvarlikni targ'ib etadi, kishilarni ilmi va ma'rifatli bo'lishga chaqiradi.

Bizga qadar Ahmad Yassaviy she'rlari to'plami «*Hikmat*»ning aynan asli emas, balki keyingi nusxalarigina yetib kelgan bo'lsa-da, ammo bu asar turkiy adabiyotning va adabiy tilning yaratilishida muhim ahamiyat kasb etdi. Bu davr turkiy adabiy tili, xususan eski o'zbek va uyg'ur tillarining vujudga kelishida ham muhim bosqich bo'ldi. Turkiy qabilalarning bir-biriga tobora yaqinlashib borishi bilan ularning tili ham qorishib, o'g'uz, jikil, qipchoq, uyg'ur tili guruhlari yuzaga keldi. O'rta asrlarda «*turk*» yoki «*chig'atoy*» tili deb yuritilgan adabiy tilning taraqqiy etib borishida mahalliy aholi o'rtasidagi iqtisodiy-madaniy aloqalarning hamda yozma adabiyotning o'rni katta bo'ldi.

## 21-§. IX—XIII ASR BOSHLARIDA ME'MORCHILIK, SAN'AT, MUSIQA VA DINIY E'TIQOD

### 1. Me'morchilik va san'at

IX—XIII asr boshlarida Movarounnahr va Xorazmda me'morchilik va san'at yangi rivojlanish bosqichida bo'ldi. Avvalambor, o'rta asr jamiyatining ijtimoiy-siyosiy tuzumi va islom dini mafkurasi madaniy hayotning bu sohasiga ham kuchli ta'sir qildi. Uning tashqi qiyofasi va mazmuni tubdan o'zgardi. Qolaversa, mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi natijasida uning yangi yo'nalishda ravnaq topishi uchun qulay sharoit yuzaga keldi. VIII asrda yuz bergan tushkunlikdan keyin shaharlar kengayib, obodlashadi. Asrlar davomida to'plangan va avlodan-avlodga an'ana ravishda o'tib, tobora boyib kelgan me'morchilik yuqori darajada rivojlanadi. Shaharlarda hashamatli binolar qad ko'taradi. Binokorlikda xom g'isht va paxsa bilan bir qatorda pishiq g'isht va turli xil ganch hamda ohakli qurilish qorishmalari keng ishlatilib, binolarning shakli ham, ko'rinishi ham ko'rkamlashadi. Baland peshtoqli yoki chortoqli, tomi gumbazli hashamatli binolar hamda o'ymakor g'ishtlardan qurilgan ko'rkam minoralar har bir shaharning ko'rki bo'lib, uning husniga husn qo'shar va manzarasini bezab turar edi. *Samarqand, Buxoro, Urganch, Termiz, O'zgan va Marv* kabi shaharlarda bu davrda ko'plab saroy, masjid, madrasa, minora, maqbara, tim va karvonsaroylar quriladi. Buxoro shahridagi Ismoil Somoniy, Nomozgoh, Minorai Kalon, Vobkent va Jarqo'rg'on minoralari va ko'pgina boshqa binolar o'sha davr me'morchiligining namunalari dandir. Bu yodgorliklar IX—XII asrlarda Movarounnahrda o'ziga xos me'morchilikning g'oyat rivoj topganligidan dalolat beradi. Bu davrda monumental me'moriy binolardan tashqari yo'nilgan tosh, pishiq g'isht va suvga chidamli qurilish qorishmalaridan turli xil suv inshootlari: suv omborlari — *bandlar, novlar, ko'priklar, sardobalar va korizlar* barpo etiladi. Qizig'i shundaki, bunday inshootlarning o'lchamlari matematika nuqtai nazaridan g'oyat puxta ishlangan. Masalan, X asrda Nurota tizmalaridagi Past tog' darasi to'silib, barpo etilgan *Xonbandi* nomli suv omboriga 1,5 mln metr kub suv to'plangan. To'g'on granit toshi va suvga chidamli qurilish qorishmasidan qurilgan.

Xonbandining yechimlaridan ma'lum bo'lishicha, uni bino qilishda X asr muhandislari hovuzga to'planadigan suvning vertikal hamda gorizontol ag'daruvchi kuchlarigina emas, balki bu hududlarda tez-tez sodir bo'ladigan zilzilalarning silkinish kuchlarini ham hisobga olganlar. Bu shubhasiz, XVII asr mashhur fransuz fizigi Blez Paskal tomonidan suvning bosim kuchi to'g'risida yaratilgan qonun kashfiyotchisidan qariyb 7 asr muqaddam movarounnahrlik muhandislarga ma'lum ekanligidan dalolat beradi.

X asrdan boshlab binokorlikda sinchkori imoratlar keng tarqaladi. Yakkasinch va qo'shsinchli binolarning tagsinchlaridan tortib, ustunlari-yu sarroflari va to'sinlarigacha yog'ochlarni payvandlash uslubida qurilib, sinchlarning orasi xom g'isht yoki guvalalar bilan urib chiqilgan. Bu tuzilishdagi imoratlarni qurish hozirgacha saqlanib keladi.

*Afrosiyob, Varaxsha, Buxoro va Poykand* shahar xarobalarida kovlab ochilgan turar joy qoldiqlaridan ma'lum bo'lishicha, X—XI asrlarda ham paxsa va xom g'ishtdan qurilgan imoratlar shahar me'morchiligida asosiy o'rinni tutgan.

IX—XII asr boshlarida me'morchilik bilan birga naqqoshlik va o'ymakorlik san'ati ham ancha rivoj topadi. Imoratni o'ymakor ustun va to'sinlar, devorlarini bo'yoqli yoki ganchkori naqshlar bilan bezash keng tarqaladi. Bu davrga kelib naqqoshlik va tasviriy



31-rasm. Sopol yog'log'i. XII asr.



32-rasm. Sopol ko'za. XII asr.

san'at o'zgacha tus oladi. Endilikda jonli mavjudotlarni tasvirlashdan murakkab geometrik va islami gulli naqshlar ishlashga o'tiladi.

Naqqoshlik san'atining taraqqiyoti o'z navbatida kulolchilik, miskarlik va zargarlikning ravnaqiga yordam beradi. Samarqand, Buxoro, Toshkent va boshqa shaharlar kulolchilik, miskarlik va zargarlik rivoj topgan markazga aylanadi. XI—XII asrlarda, ayniqsa sirli sopol buyumlar ishlab chiqarish keng yo'lga qo'yiladi. Bu davr sopol buyumlari nihoyatda yaxshi sifatli bo'lib, chet el mamlakatlariga ham olib chiqilgan. Bu davrda xattotlik xalq san'atining muhim va keng tarqalgan sohalaridan biri edi. Hali kitob bosish kashf etilmaganligi, qo'lyozma kitoblardan nusxalar xattotlar tomonidan faqat qo'lda ko'chirilishi tufayli xattotlik san'ati ancha rivoj topadi. Turli uslubda husnixat bilan bitilgan xattotlik namunalari me'moriy naqshlarda ham hayotiy mazmun va estetik zavq beruvchi bezak sifatida ishlatiladi.

Odatda, imoratlarning peshtoqi, eshigi va devorining ayrim qismlari turli mazmundagi bitiklar bilan qoplanar edi. Shunday qilib, IX—XIII asr boshi me'morchiligi va unda ishlatilgan me'moriy naqsh uslublari o'z navbatida mehnatkash aholining did-nafosat va



33-rasm. Poykand. Fil suyagidan yasalgan narda toshlari. X—XI asrlar.

binokorlik g'oyalari bilan chambarchas bog'langan xalq me'morlari — *bannolarining* sernazmun ijodini namoyish etadi.

## 2. Musiqa san'ati

IX—XIII asr boshlarida musiqa san'ati ham g'oyat taraqqiy qiladi. Bayramlar, to'ylar, xalq sayillari va boshqa marosimlar, shubhasiz kuy va qo'shiqsiz o'tmas edi. Mahmud Koshg'ariyning «*Devonu lug'otit turk*» kitobida keltirilgan ma'lumotlarga qaraganda, xalq orasida ayniqsa qo'shiq janri keng tarqalgan. Bu davrda sozandalar *ud*, *tanbur*, *q'o'biz*, *rubob*, *nay*, *surnay*, *karnay*, *qo'shnay* va *qonun* kabi g'oyat xilma-xil torli, zarbli va puflab chalinadigan cholg'u asboblardan keng foydalanganlar.

Bu davrda xalq kuylari asosida keyinchalik tojik va o'zbek xalqlarining mumtoz kuyi «Shashmaqom» uchun poydevor bo'lgan «*Rost*», «*Xusravoniy*», «*Boda*», «*Ushshoq*», «*Zerafkanda*», «*Buslik*», «*Sipohon*», «*Navo*», «*Basta*», «*Tarona*» kabi yangi-yangi kuylar ijod etiladi. Bu soz va kuylarning ko'pi o'zbek va qardosh xalqlarning madaniy merosi tarzida hozirgi kungacha saqlanib kelmoqda. Musiqa san'ati shubhasiz she'riyat hamda musiqashunoslik ilmi bilan uzviy bog'langan holda taraqqiy etadi. Forobiy va Abu Ali ibn Sino kabi ulug' olimlar musiqa va musiqashunoslikka katta e'tibor beradilar va nodir asarlar yaratadilar.

## 3. Din va tasavvuf

IX—XIII asr ma'naviy hayotida islom dini muhim o'rin egallaydi. Bu davrda musulmon Sharqida keng tarqalib, jahon dini darajasigacha ko'tarilgan islom dini va shariat musulmon dunyosining mafkurasiga aylandi. Arab xalifaligining fotihlik siyosati natijasida o'zining barcha haq-huquqlaridan ajralib, madaniyati oyoq osti qilingan Movarounnahr aholisi o'z e'tiqodi va xat-savodidan mahrum bo'lib, islom dinini qabul qilishga, shariat ahkomlarini bajarishga, shuningdek arab tili va yozuvini o'rganishga majbur bo'ldi. Ko'p vaqt o'tmay e'tiqodli xalq o'ziga yoqib bo'lgan arab imlosida xat-savod chiqarishga kirishdi. Movarounnahr aholisining murakkab arab imlosini o'zlashtirib, xat-savodli bo'lishi uchun arabiy tilni mukammal o'rganib, bu o'zga tilda asarlar yarata oladigan olim va mutafakkirlarning yerli

xalq orasidan yetishib chiqishi uchun qariyb bir yarim asr, ya'ni besh avlodning umri sarf bo'ldi.

Shunday bo'lsa-da, bu davr buyuk allomalar bilan bir qatorda islom ta'limotining rivojiga ulkan hissa qo'shgan **Imom al-Buxoriy**, **Iso Termiziy** va **Mahmud Zamaxshariy** kabi aqoid ulamolarni kamolotga yetkazdi.

Movarounnahr va Xurosonda xalifalik hukmronligi tugatilib, mustaqil *Somoniylar*, *Qoraxoniylar*, *Saljuqiylar*, *G'aznaviylar* va *Xorazmshohlar* davlati qaror topgach, islom ta'limoti, shariat ahkomlari va ilmu ma'rifatga yanada e'tibor kuchaydi. Markaziy shaharlarda qator masjid va madrasalar qad ko'tardi. Manbalardan ma'lum bo'lishicha, dastlabki madrasa Buxoroda X asrda shaharning Kovushdo'zlar timi yaqinida bino qilingan. U Farjak madrasasi deb yuritilgan. XII asrda esa Buxoroning Darvoza mahallasida hatto qonunshunoslar uchun maxsus «*Faqihlar madrasasi*» qurilgan. Bunday oliy dorilfunun asosan islom dini ta'limotining asosiy manbalari: Qur'oni Karim, Hadisi sharif va arab tilini mukammal o'rganishga katta e'tibor bergan. Shariat ahkomlarini har tomonlama chuqur o'rgatishda «*Tafsir*» — Qur'oni Karimning sharhlari juda boy va qimmatli manba hisoblangan. Fiqh fani (islom huquqshunosligi) axloq va shariat ahkomlari borasida mukammal ma'lumot beradi.

Islom dini ta'limotining ravnaqi va targ'ibotining kengayishida, ayniqsa Buxoro shahri markazga aylandi. Buxoro madrasalaridan juda ko'p yetuk fiqhshunos olimlar, odil qozilar, zohid imomlar yetishib chiqadi. Shu boisdan Buxoro IX asrdan boshlab «*Qubbat ul-islom*» — «*Islom dinining gumbazi*» nomi bilan shuhrat topadi.

Biroq hukmdor tabaqa mamlakatni idora qilishda imkoni boricha islom dinidan mafkuraviy qurol sifatida foydalanadi. Mafkuraning barcha sohalari islomga tobe qilinib, zardushtiylik e'tiqodi qoldiqlariga qarshi shafqatsiz kurash olib boriladi. Mehnatkash aholi ustidan jabr-zulm zo'rayib, har qanday hurfikrlilik ta'qib ostiga olinadi. Buning oqibatida zahmatkash xalqning tashvish va azobi ortib, hayoti g'oyat og'irlashadi, uning noroziligi bo'rtib, tug'yoni kuch oladi. Mana shunday g'oyat mushkul sharoitda jabrdiyda xalq o'z dardu alamiga malhamni tasavvufdan axtaradi.

#### 4. Tasavvuf

Tasavvuf, ya'ni sufiylik umumiy tarzda aytganda poklangan zohid, taqvodorlik ma'nosini anglatuvchi diniy ta'limot bo'lib, u o'rtasrlar musulmon Sharqida keng tarqaladi. Feodal davrining bu diniy-falsafiy oqimi dastlab VIII asr o'rtalarida Iroqda yuzaga keladi.

Tasavvuf ta'limoti asosida inson faoliyati va uning kamoloti yotadi. Unda kishining har bir nafasida ong, aql-idrok bo'lmog'i, bosgan har bir qadamida diqqat-e'tibor sezmgog'i, u Vatan ishqii bilan band bo'lmog'i, xalq bilan aloqada birga hayot kechirmog'i kerak deb uqtiriladi.

Tasavvufning tariqat yo'llari g'oyat keng bo'lib, turli davrlarda Turkiston va Movarounnahrning turli o'lkalarida uning turli xildagi yo'nalishlari paydo bo'ladi. Turkistonda XII asrda *Yassaviya*, XII asr oxirida Xorazmda *Kubraviya*, XIV asrda Buxoroda *Naqshbandiya* va boshqalar vujudga keladi. XII asrda Movarounnahrda keng yoyilgan tasavvuf *Yassaviya* tariqati bo'lib, unga Ahmad Yassaviy asos soladi. Tasavvufning asoslari Yassaviyning mashhur «*Hikmat*» asarida bayon etiladi. Ahmad Yassaviyning fikricha, shariatsiz tariqat, tariqatsiz ma'rifat, ma'rifatsiz haqiqat bo'la olmaydi. Ularning har biri ikkinchisini to'ldiradi va takomillashtiradi. Bu kamolot yo'li sari to'rt bosqich bo'lib, inson hayoti va faoliyatining asl mohiyatini tashkil etadi.

Yassaviy sulukining (ta'limot) asosida kamolotga uzlat va tarkidunyochilik orqali yetishish g'oyasi olg'a suriladi. Unga faqat foniy dunyo rohati va farog'atidan voz kechib, uzlatda toat va ibodat yo'lida zahmat chekib, mashaqqatli mehnat qila olgan kishigina yetib boradi. Xullas, Yassaviy sulukida mashaqqatli mehnat va aziyat shariat yo'lida bo'lmog'i hamda tarkidunyochilik targ'ib etilsa-da, ammo inson zoti sharif darajasida ulug'lanadi, uning har qanday mol-dunyodan va davlatdan ustun turishi ta'kidlanadi.

Tasavvuf ta'limotining buyuk siymolaridan yana biri **Najmuddin Kubro** (1145—1221) edi. U Xorazmda sufiylik maktabini ochib, «*Kubraviya*» sulukiga asos soladi.

Yassaviy ta'limotidan farqli o'laroq, *Kubraviya* ta'limoti tarkidunyochilikni rad etadi. Kamolot yo'lida olib boriladigan

mashaqqatli mehnat jarayonida bu dunyo noz-ne'matlaridan bahramand bo'lishning joizligi g'oyasi ilgari suriladi. Kubraviya ta'limotida xalqqa va Vatanga bo'lgan muhabbat nihoyatda kuchli bo'lib, har qanday og'ir damlarda ham omma bilan birga bo'lish, Vatanni mudofaa qilish va uning mustaqilligi uchun kurashga da'vat etiladi. Bunday g'oya yo'lida Najmuddin Kubro 1221-yilda jasorat ko'rsatib, Chingizxon boshliq mo'ng'ul bosqinchilari bilan jangda shahid bo'ladi.

Tasavvuf XIV asrda *Naqshbandiya* ta'limotida yanada rivoj topadi. Unga **Bahouddin Naqshband** asos soladi. U 1318-yilda Buxoro yaqinida qasri Hinduvon qishlog'ida matolarga naqsh bosuvchi hunarmand oilasida dunyoga keladi. Yoshligida o'qish va ta'lim olish bilan bir qatorda kimxob matoga gul bosishni puxta o'rganib, ota kasbi naqqoshlikni egallagan, so'ngra o'z kasbida mahoratga erishib, dovruq qozongan. Ayni zamonda o'z davrining atoqli shayxlari Xoja **Muhammad Boboyi Samosiy**, **Amir Sayyid Kulol** va boshqalardan odob-tariqatdan ta'lim oladi.

Xoja Bahouddin «*Hayotnoma*» va «*Dalil ul-oshiqin*» nomli asarlar yozib, o'z tariqatini yaratadi. Tarixda bu suluk «*Naqshbandiya*» nomi bilan shuhrat topadi. Naqshbandiya tariqati Movarounnahr, Xuroson va Xorazmda keng tarqaladi. Bahouddin tariqati asosida toat-ibodat va mehnat bilan kamol topib, Olloh visoliga yetishish, ma'naviy-axloqiy kamolotga erishish yo'llari yotadi. Naqshbandiya tariqati insonlarni halol va pok bo'lishga, o'z mehnati bilan kun kechirishga, muhtojlarga xayr-ehson berishga, sofdil va kamtar bo'lishga chaqiradi. Uning «*Dil ba yoru dast ba kor*» («*Dil yor bilan, qo'l esa ishda bo'lsin*») degan hikmati Naqshbandiya tariqatining hayotiy mohiyatini ifodalaydi. U tarkidunyochilikni rad etib, mehnatsevarlik, odillik va bilimdonlikni targ'ib etadi. Naqshbandiya ta'limoti taraqqiyotiga keyingi asrlarda Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Xo'ja Ahror kabi buyuk allomalar katta hissa qo'shadilar.

Shunday qilib, tasavvuf Movarounnahr aholisining ma'naviy hayoti bilan chambarchas bog'langan ta'limot bo'lib, o'rta asrning xalqparvar adib va mashoyixlari uni chuqur bilishga va u orqali ommaga ziyo va ma'rifat tarqatishga intilganlar.

### *Savol va topshiriqlar*

- ? 1. Me'morchilikdagi yutuqlar haqida gapirib bering. 2. Musiqa san'atidagi madaniy meros haqida nimalarni bilib oldingiz? 3. Ma'naviy hayotda islom dinining ahamiyati nimada deb o'ylaysiz? 4. Tasavvuf ilmi va uning namoyandalari haqida so'zlab bering. 5. Yassaviya ta'limotini gapirib bering. 6. Kubraviya ta'limotidagi vatanparvarlik g'oyalari ta'riflang. 7. Naqshbandiya ta'limotidagi halol mehnat g'oyasi haqida gapirib bering.

## 22-§. ETNIK JARAYONLAR VA O'ZBEK XALQINING TASHKIL TOPISHI

### 1. Etnik aloqalar

IX—XII asrlar O'rta Osiyo xalqlarining taraqqiyoti tarixida o'zbek va boshqa xalqlarning tashkil topish davri bo'ldi.

Qadimgi Turon yerlarida yashagan o'troq dehqon va chorvador aholining asrlar davomida yaqindan olib borgan o'zaro iqtisodiy va etnik aloqalari natijasida bu ulkan hududda dastavval qadimiy yozma manbalarda *Sug'd, Xorazm, Parkana, Shak va Toxar* nomlari ostida tilga olingan qator voqa xalqlari tashkil topadi. Ular sharqiy eroniy tillarga mansub sug'diy, xorazmiy, shak va toxar tillarida so'zlashardilar. Bu xalqlardan janubda forsiyzabon ajam xalqi, shimolda esa turkiy tilda so'zlashuvchi chorvador qabilalar yashar edi. Shu boisdan bu diyor qadim zamonlardayoq turkiyzabon va forsiyzabon nufuslarning doimiy muloqot maskaniga aylanib, uning tub joyli aholisi shimoldan turkiy tilda so'zlashuvchi qabilalarning, janubdan esa, forsiyzabon xalqlarning kuchli ta'siri ostida istiqomat qilardi.

Miloddan avvalgi birinchi ming yillik o'rtalarida turkiy qabilalarning janubga tomon boshlangan siljishlari milod bo'sag'asida yuyechji va xunnularning Movarounnahr va Xurosonga kirib kelishi bilan yanada kuchayadi. Turkiy xalqlarning ota-bobolari bo'lgan *yuyechji, xunnu, xiyoniy* va boshqalar Movarounnahrning shimoliy va shimoli-sharqiy qismida o'troq mahalliy aholi bilan aralashib, ular tilini turkiylashtirib yuboradi. Binobarin, Movarounnahrning janubiy viloyatlarida esa ular tub joyli aholi bilan qorishib, hatto o'z

tillarini ham yo'qotadilar. Milodiy birinchi ming yillikning birinchi yarmi, shuningdek ilk o'rta asrlarda turkiy aholining katta qismi Yettisuv, Shosh hamda Farg'ona vodiysida, kamroq qismi Zarafshon va Qashqadaryo vohasida yashar edi. Ular turkiy tilni qabul qilgan tub joy aholidan hamda bu yerga kelib o'rnashgan ko'pgina turkiy qabila va urug'lardan iborat edi. Ayrim sug'diy hujjatlarda keltirilgan ma'lumotlarga qaraganda, turkiy aholi o'rnashgan bu o'lka (639) VII asrdan boshlab «Turkiston» nomi bilan atala boshlagan.

Ayni zamonda Yettisuvda o'mashib qolgan sug'dliklarning soni ham anchagina edi. Ular asosan xalqaro savdoning kengayishi va bu savdodan manfaatdor Sug'dning V—VII asrlarda olib borgan harbiy yurishlari oqibatida kelib qolgan edilar. Sug'dliklarning savdo va hunarmandchilik qasaba va manzillari Talos va Chu vodiylarida, Chimkentdan to Ulug' Xitoy devorigacha bo'lgan yerlarda joylashgan edi. Ular turkiy aholiga katta ta'sir ko'rsatsalarda, ammo bora-bora o'zaro madaniy munosabatlarning kengayishi natijasida turk tilida so'zlashadigan bo'ldilar.

Xullas, Arab xalifaligining istilosigacha Shosh, Farg'ona va Zarafshon vodiysi, Qashqadaryo va Surxondaryo vohasi, Xorazm, hatto Amudaryoning so'l qirg'og'idagi tub joy aholisining kattagina qismi allaqachon turkiy tilda so'zlashib, Movarounnahr va Xorazmning ijtimoiy va madaniy hayotida muhim mavqeni egallab olgan edi.

## **2. O'zbek xalqining tarkib topishi**

XI asrda Movarounnahrda Qoraxoniylar davlatining tashkil topishi bilan *qarluq, o'g'uz, jikil, yag'mo* va boshqa turkiy qabila va urug'larning Shosh, Farg'ona va boshqa viloyatlarda yashovchi turkiy aholi bilan o'troq hayotga ko'chish jarayoni jadallashadi. O'troq dehqon va hunarmand aholi bilan aralashib, dehqonchilik va shahar madaniyatining boy tajribasi va an'analari o'zlashtirildi. Turkiy mushtarak til va xalq og'zaki eposiga asoslangan badiiy adabiyot yuzaga keldi. Natijada turkiy tilda so'zlashuvchi aholi Movarounnahrning asosiy nufuzlaridan biriga aylandi.

Shunday qilib, asrlar osha Movarounnahr, Xuroson va Xorazmda sodir bo'lgan o'ta murakkab siyosiy vaziyatda muttasil davom etgan etnik jarayonlarning oqibati tufayli, IX—XII asrlarda qadimdan Turonzaminda yashab kelayotgan yagona nufuzdan, avval o'zbek xalqi tashkil topdi. Bu xalq o'troq dehqon va hunarmand hamda chorvador aholining bevosita merosxo'ri edi. Asrlar davomida bu ikki xil xo'jalik bilan shug'ullanuvchi aholining bir o'lkada yonma-yon yashash, o'zaro jadal iqtisodiy va madaniy munosabatlar, tashqi dushmanlarga qarshi birlashib, yelkama-yelka turib kurashish ularning etnik va til jihatdan aralashishiga va chatishishiga olib keldi. Shu jumladan, turkiy va sug'd tilida so'zlashuvchi xalqlar bir ota-onaning egizak farzandlari bo'lib, ular *urf-odat*, *din-u e'tiqod*, *kiyim-kechak*, *uy-ro'zg'or*, *san'at*, *musiqa* va *badiiy adabiyot* sohasida mushtarak moddiy va ma'naviy madaniyatni yaratdilar. Ularning bu qadimiy madaniy merosi jahon xalqlari madaniyati xazinasiga katta hissa bo'lib qo'shildi.

#### *Savol va topshiriqlar*

- ? 1. Etnik aloqalar qanday yuz berdi? 2. Turkiy tilda so'zlashish jarayoni haqida gapirib bering. 3. Tojik xalqi qanday vujudga keldi? 4. O'zbek xalqining vujudga kelish jarayonini gapirib bering.

### III BOB

#### VATANIMIZ XALQLARINING MO'NG'ULLAR ZULMIGA QARSHI OZODLIK KURASHI

##### 23-§. XORAZMSHOHLAR SALTANATINING MO'NG'UL DAVLATI BILAN MUNOSABATI

#### 1. XII asrda mo'ng'ullar davlati

XII asrda mo'ng'ullar ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotda Markaziy Osiyoda eng qoloq aholi hisoblanar edi. Ularda hali urug'-aymoqchilik munosabatlari nihoyatda kuchli edi. Ular asosan ko'chmanchi chorvachilik, ovchilik va o'zaro ayirbosh savdo bilan shug'ullanar edi. Bu davrda mo'ng'ul urug' va qabilalari ichida mulkdorlik munosabatlari paydo bo'lib, ular o'rtasida sinfiy kurash

avj olib bormoqda edi. XII asrning oxiri va XIII asrning boshlarida mo'ng'ul urug' boshliqlari orasidan ichki kurashlarda **Timuchin** ismli bahodir g'olib chiqadi. 1204—1205-yillarda Mo'ng'ulistonning ko'chmanchi chorvador urug'larini u o'z qo'li ostida birlashtirib, markazlashgan harbiy Mo'ng'ul davlatini tashkil etishga muvaffaq bo'ldi. Hamqavmlari bilan kurashda, turk xonlari bilan urushlarda g'olibona harakat qilgani uchun 1206-yilda Onon daryosi bo'yida chaqirilgan mo'ng'ul urug' va qabila boshliqlarining qurultoyida Timuchinga «**Chingiz**» laqabi beriladi. Shundan so'ng u **Chingizxon** nomi bilan atala boshlaydi. «**Chingiz**» ismi — beg'ubor, toza, musaffo, baquvvat, dovyurak kabi ma'nolarni anglatadi. O'z davlatini kuchaytirib, uning barqarorligini mustahkamlash maqsadida Chingizxon mo'ng'ullardan ko'p sonli yaxshi qurollangan, intizomli va uyushgan qo'shin tuzadi. Jangchilar zarur qurol-yarog': *o'q-yoy, sadoq, nayza, qilich va qalqon*; turli anjomlar— *arqon, qozon, mesh, igna, bolta, hatto ot, tuya, eshaklar* kabi transport vositalarini oldindan tayyorlab qo'yishga majbur bo'lgan. Qo'shin *yuzboshi, mingboshi, tumanboshilar* tomonidan boshqarilgan.

O'n minglik jangchilardan tashkil topgan tuman bo'linmalarini odatda shahzodalar boshqargan. Mo'ng'ul qo'shini intizomlilik bilan emas, balki harbiy yurishlardagi g'oyatda chaqqonligi va janglardagi botirligi bilan ham ajralib turar edi. Asosiy qo'shından tashqari Chingizxon ixtiyorida «*keshik*» deb yuritilgan maxsus gvardiya tashkil etiladi. Bu gvardiya botir harbiy boshliqlardan iborat bo'lib, u jangga juda kam safarbar etilardi. Keshik favqulodda sodir bo'ladigan xavf-xatarga qarshi tashlash uchun doimo jangovar holatda tutib turilar edi.

Davlat ma'muriyatini markazlashtirish maqsadida Chingizxon *Qoraqurum* qal'asini o'z saltanatining poytaxtiga aylantiradi. Xat va savodga mutlaqo ega bo'lmagan, madaniyati nihoyatda tuban mo'ng'ullar davlat boshqaruv tizimini, ayniqsa xat-savod va munshiylik ishini uyg'urlardan hamda Mo'ng'uliston bilan aloqada bo'lgan musulmon savdogarlaridan o'rganadi. Shunday qilib, mo'ng'ullarning ilk ustozlari va dastlabki ma'murlari uyg'urlardan bo'lgan.

## 2. Chingizxonning qo'shni davlatlarni bosib olishi

Chingizxon tarqoq jangari mo'ng'ul urug'larini birlashtirib, Markaziy Osiyoda Mo'ng'ullar davlatini tuzish bilan qanoatlanmadi. Avvaldan u bosqinchilik siyosatini yurgizib, qo'shni mamlakatlarni bosib olishga kirishdi. 1206-yilda *naymonlar* bo'ysundirildi. 1207—1208-yillarda *Enasoy* havzasi, so'ngra *Yettisuv* viloyatining shimoliy qismi zabt etildi va uyg'urlar taslim bo'ldi. 1211—1214-yillarda Chingizxon bir necha bor Xitoyga hujum qilib, katta o'ljalar bilan qaytdi. 1215-yilda esa u Shimoliy Xitoyning markazi *Chjundu (Pekin)* shahrini ishg'ol qilib, *Szin* sulolasini taxtdan qulatdi. Shimoliy Xitoy yerlari Mo'ng'uliston davlatiga qo'shib olindi. Xitoy ustidan qozonilgan g'alaba tufayli mo'ng'ullar turli xildagi juda katta o'ljani qo'lga kiritdilar; o'ljalarning bir qismi mo'ng'ullar uchun harbiy jihatdan, ayniqsa katta ahamiyatga ega edi. Chunki Xitoy o'zining qadimgi yuksak madaniy an'analarigagina emas, balki zamonasining ilg'or harbiy texnika san'atiga ega bo'lgan mamlakat edi. Chingizxon Xitoydan ko'p o'ljalar, cho'rilar bilan harbiy qurol yasaydigan va ularni ishlata biladigan mohir hunarmandlarni ham Mo'ng'ulistonga olib ketadi. Shu tufayli u o'z qo'shinini zamonasining eng yaxshi harbiy qurol-aslahalari bilan ta'minlaydi.

Xitoy bo'ysundirilgandan so'ng Chingizxon o'z nigohini g'arbga, o'z madaniyati, boyligi, buyukligi bilan shuhrat qozongan mamlakat — Xorazmshohlar davlatiga qaratadi. Chingizxon 1218—1219-yillarda *Sharqiy Turkiston* va *Yettisuv* viloyatlarini deyarli talafotsiz qo'lga kiritib, bu yerdagi *Kuchluk* davlatini tugatdi. Shunday qilib, XIII asrning 20- yillari boshida Go'bi sahrosining sharqiy chegarasidan to Tangritov (*Tyanshan*) tizmasining g'arbiy etaklarigacha bo'lgan viloyatlar Mo'ng'ullar davlati hukmronligi ostida birlashtirilgan edi. Endilikda Mo'ng'ullar davlatining g'arbiy hududlari shavkat va qudrat bobida Chingizxonga teng raqib, keyinchalik uning layoqatli dushmaniga aylangan *Sulton Muhammad Xorazmshoh* saltanatining chegarasiga bevosita tutashib ketgan edi.

### 3. Xorazmshoh va Chingizxonning o'zaro elchilik aloqalari

Chingizxonning O'rta Osiyo viloyatlariga tomon hujumi katta tayyorgarliklar bilan boshlanadi. Hali Xitoy zafari qo'lga kiritilmasdan oq bu ikki buyuk davlatlar o'rtasida bir-birining kuch-qudratini bilib olishga va bu haqda ma'lumotlar to'plashga harakat qilinadi. Ikki o'rtada hatto elchilik aloqalari o'rnatiladi. Bunday ishni amalga oshirishda Chingizxon o'z huzuridagi musulmon savdogarlaridan foydalanadi. Har ikki tomondan savdo karvonlari hay'atida yuborilgan elchi va vakillar o'z navbatida ayyoqchilik vazifasini ham bajaradilar. Dastavval, 1216-yilda Chingizxon huzuriga Xorazmshoh Bahouddin Roziy boshchiligida o'z elchilarini yuboradi. Xorazmshoh elchilarini Chingizxon iltifot bilan qabul qiladi. Hatto, elchilardan u Sulton Muhammadni G'arbning sohibqironi, o'zini esa Sharqning podshosi deb hisoblashini Xorazmshohga yetkazishlarini so'raydi. O'zaro totuvlik va do'stlik qaror topib ikki mamlakat hududlarida savdogarlarning erkin qatnoviga xohish bildiradi. Bunga javoban Chingizxon qimmatbaho sovg'alar va mollar ortilgan katta karvon bilan o'z elchilarini Xorazmga yuboradi. Elchilarga xorazmlik savdogar **Mahmud Yalavoch** boshliq qilib tayinlanadi. Chingizxon elchilarini Sulton Muhammad 1218-yilning bahorida Buxoro shahrida qabul qiladi. Elchilar Chingizxon Sulton Muhammadni qudratli podshoh bilib va uni o'zining eng ardoqli o'g'illari qatorida ko'rishi hamda u bilan do'stona shartnoma tuzishga roziligini aytishadi. Eng ardoqli o'g'illari qatorida ko'rish «iltifoti» shubhasiz Sharq ustomonligida Chingizxonning Xorazmshohni o'ziga qaram qilib olish niyati bor degan ma'noni anglatardi. O'zini Iskandari soniy (ikkinchi Iskandar) yoki ikkinchi Sulton Sanjar deb hisoblab yurgan podshoga bunday istiqbol sira yoqmas edi. Xorazmshoh Mahmudni tunda xufyona o'z huzuriga chaqirtirib keladi. Elchiga xorazmlik bo'lgani uchun Chingizxonga emas, balki Xorazm shohiga xizmat qilishini, Chingizxon to'g'risidagi bor haqiqatni aytishini, keyinchalik xon qarorgohida Xorazmshohning josusi bo'lib qolishini talab qiladi. Buning evaziga u elchiga qimmatbaho javohir ham hadya qiladi. XIII asr muallifi **Nasaviy**ning yozishicha, Xorazmshohdan hayiqqan Mahmud

Yalavoch bunday taklifni qabul qiladi. So'ngra Xorazmshoh Chingizxon bilan shartnoma tuzishga rozilik bildiradi va elchilarni jo'natib yuboradi. Chingizxon o'z elchilarining ish natijalaridan mamnun bo'ladi. Chunki Mahmud Yalavoch Xorazm davlati va uning podshosi to'g'risida Chingizxonga, mo'ng'ullar to'g'risida Xorazmshohga aytgan ma'lumotlariga qaraganda ham ko'proq axborot to'plab qaytgan edi.

#### 4. Xorazmshoh va Chingizxon munosabatlarining keskinlashuvi

Chingizxon Sulton Muhammadga o'z minnatdorchiligini izhor etish va ikki buyuk qo'shni davlatlar o'rtasida shartnoma tuzish uchun 1218-yilning o'zidayoq Xorazmga juda katta savdo va elchilar karvonini otlantiradi. Karvon ko'p miqdorda oltin, kumush buyumlar, xitoy ipak matolari, suvsar va qunduz mo'ynalari va boshqa xil qimmatbaho mollar ortilgan 500 tuyadan hamda 450 musulmon savdogarlaridan tashkil topgan edi. Bu ulkan savdo karvoni mamlakat poytaxti Urganch shahri tomon borar edi. Ammo karvon yo'lda chegara shahar O'trorda ushlab qolinadi. Shaharning noibi Inalxonning farmoniga binoan karvon talanib, savdogarlarning hammasi qirib tashlanadi. Faqat bir tuyakashgina o'limdan qutulib qoladi. U Chingizxonning qarorgohiga zo'rg'a yetib borib, karvonning dahshatli qismatidan xabar beradi.

Chingizxon Xorazm ma'murlaridan hisoblangan O'tror noibining xiyonatkorona xatti-harakatidan nihoyatda g'azablangan bo'lsa-da, ammo g'azabini bosib, **Ibn Kafroj Bug'roni**



34-rasm. Samarqand. Shohizinda maqbarasi peshtoqi. XV asr.

ikki ishonchli mulozim kuzatuvchilar bilan Xorazmshoh huzuriga elchi qilib yuboradi. Chingizxon Sulton Muhammaddan aybdorlarni jazolashni va Inalxonni tuttirib, uning ixtiyoriga jo'natishni talab qiladi. Xorazmshoh Chingizxonning talabiga javoban elchini o'ldirishni va u bilan birga kelgan ikkita mulozimning soqol-mo'ylovlarini qirib, sharmanda qilib qaytarib yuborishni buyuradi. Bu voqealar ikkita eng katta davlatlar o'rtasida savdo aloqalari va elchilik munosabatlari tamomila uzilganini bildirar edi. Shunday qilib, bu ikki buyuk davlatlarning harbiy to'qnashuvi muqarrar bo'lib qolgan edi.

## 5. Xorazmshohlar davlatining siyosiy holati

XIII asrning boshlarida Xorazmshohlar saltanati tasarrufidagi o'lka va viloyatlar hududlarining kengligi, Sharq davlatlari o'rtasida saltanat sohibqironlarining nufuzi jihatidan u buyuk davlat hisoblanardi. Xorazm va Movarounnahrda tashqari hozirgi Afg'oniston yerlari va Eronning kattagina qismi ham uning tasarrufida edi. Davlat qang'li-qipchoq va turkmanlardan tuzilgan muntazam qo'shinga ega edi. Bu qo'shinning umumiy soni Chingizxon harbiy kuchiga nisbatan birmuncha oshiqroq edi. Saltanatni hokimlar, noiblar, vazirlar, qo'shin boshliqlaridan iborat kuchli harbiy aristokratiya, mustavfiy (daftardor hisobchilar) qozilar va boshqa ko'pgina saroy mansabdorlaridan iborat ulkan arkoni davlat doirasi qurshab turardi. Yuqori amaldorlarning ko'pchilik qismi yirik yer-suvlarga ega bo'lgan mulkdor oqsuyak tabaqani tashkil etardi. Ko'pgina mansablar odatda, o'rta asrlar jamiyati sharoitida keng tarqalgan, ota-bobodan meros bo'lib o'tar edi. An'anaviy tusga kirgan bunday hol davlat mansabdorligini eng munosib shaxslarni tanlab qo'yish imkoniyatidan mahrum qilar edi. Mansabdorlar davlat tang ahvolga tushib qolgan paytlarda o'z vazifalarini tashlab ketar va podshoga itoatsizlik qilib, o'zboshimchalik bilan o'z bilganlaricha yo'l tutar edilar. Shunday qilib, sirdan juda kuchli, nufuzidan buyuk ko'ringan Xorazmshohlar davlati siyosiy jihatdan unchalik mustahkam emas edi. Hatto ayrim viloyat hokimlari Xorazmshohlarga

nomigagina bo'ysunib, amalda deyarli mustaqil edi. Mamlakat tojdori Sulton Muhammadning hokimligi, shu sababli, arkoni davlat doirasida unchalik nufuzga ega emas edi. Buning ustiga Sulton oliy dargohi ichida kuchli nizo hukm surardi. Ayniqsa, **Turkanxotun**, ya'ni «*turklar onasi*» nomi bilan shuhrat topgan Sulton Muhammadning zabardast validasi qo'shinning oliy sarkardalari hisoblangan qipchoq oqsuyaklari bilan urug'-qabila aloqalari orqali mahkam bog'langan edi. O'z qabiladoshlari manfaati yo'lida saroyda ko'tarilgan barcha fitnalarga bu shaddod ona boshchilik qilar edi. Hatto ularda shohga qarshi adovat ruhini uyg'unlashtirib qo'ygan edi. Mamlakat holatining eng achinarli tomonlaridan yana biri shunda ediki og'ir soliqlardan ezilgan Xorazm xalqining Sulton Muhammadga nisbatan e'tiqodi ham susayib ketgan edi. Ichki nizo bosh-boshdoqlik va fuqarolarning noroziligi kuchayib, mamlakat siyosiy hayoti inqirozga yuz tutgan bir paytda Xorazmshohlar davlati jangari mo'ng'ul qabilalarining Chingizxon boshliq bosqiniga duchor bo'ldi.

#### *Savol va topshiriqlar*

- ?
1. Mo'ng'ullar davlati qanday vujudga keldi?
  2. Chingizxon tomonidan qo'shni davlatlarning bosib olinishi haqida gapirib bering.
  3. Chingizxon va Xorazmshohning elchilik aloqalaridan tub maqsadlari nima edi?
  4. Chingizxon va Xorazm aloqalari nima uchun keskinlashdi?
  5. Xorazmshohlar davlatining siyosiy ahvoli qanday edi?
  6. Xorazmshohlar davlat boshqaruvidagi qaysi udum davlat mansablariga munosib shaxslarni tanlashga xalajit bergan?

### 24-§. CHINGIZXON ISTILOSI

#### 1. Xorazmshohning mudofaa rejasi

«**O'tror voqeasi**» va Chingizxon elchisi **Ibn Kafroj Bug'roning** o'ldirilishi Movarounnahrning obod dehqonchilik viloyatlariga Chingizxonning bostirib kirishi uchun bahona bo'ldi. Shu bilan birga birmuncha vaqtdan keyin boshlanishi muqarrar bo'lgan yurishni ma'lum darajada tezlashtirdi ham. G'arbga tomon yurishni Chingizxon **Sharqiy Turkiston** va **Yettisuv** o'lkalarini zabt etishdan boshladi. Shuni ta'kidlash joizki, Chingizxonning



35-rasm. Samarqand. Shohbizinda maqbarasi. XV asr.

Movarounnahrga yurishi harbiy ko'chmanchi jangari mo'ng'ullarning shunchaki tartibsiz bosqini bo'lmay, balki avvaldan rejalashtirilgan va chuqur o'ylab chiqilgan vahshiyona hujumi edi. Chunki Chingizxon Movarounnahr yurishiga katta ahamiyat berib, o'z rejalarini amalga oshirish uchun puxta tayyorgarlik ko'rgan edi. Hali harbiy yurish boshlanmasdanoq u o'z dushmanining kuch-qudrati va urushga tayyorgarligi to'g'risida savdogarlar orqali to'plagan ma'lumotlarni sinchiklab o'rganib, Xorazmshohlar davlatining ichki ahvolidan to'la voqif edi.

**Sharqiy Turkiston va Yettisuvda** paydo bo'lgan urush tahlikasiga qarshi chora-tadbirlar ko'rish uchun darhol tayyorlanish zarur edi. Xorazm davlati ko'p sonli turkiy gvardiya va yaxshi qurollangan ko'ngillilar lashkariga ega edi. Mamlakatda qamal qurollari va ularni ishlatishni yaxshi biladigan mohir sarbozlar ko'p edi. Urush uzoq muddatga cho'zilgudek bo'lsa ham mudofaachilar uchun yetarli darajada oziq-ovqat va yem-xashak mavjud edi. Askarlarning umumiy soni jihatdan shubhasiz Xorazmshoh birmuncha ustunroq ham edi. Afsuski, podshoh bilan sarkardalar o'rtasida mavjud ixtiloflar avval boshdanoq bunday ustunlikdan foydalanishga imkon bermadi. Harbiy kengashda ular o'rtasidagi ixtilof ayniqsa yaqqol namoyon bo'ldi. Kengashda dushmanga zarba berishning yagona rejasini

yakdillik bilan belgilab olish o'rniga fikrlar bo'linib ketdi. Xiva vakili sarkarda **Shahobiddin Xivakiy** bor qo'shinni Sirdaryo bo'yiga to'plab, mo'ng'ullarni qarshi olish, uzoq yo'l safarida toliqib kelayotgan dushmanga hali o'zini o'nglab olmasdan turib, bor bardam kuch bilan to'satdan zarba berish to'g'risida birdan-bir to'g'ri fikrni bayon qiladi. Biroq Xorazmshoh bunday maslahatni qabul qilmaydi. Chunki u o'zining oliy lashkarboshilari bo'lgan qipchoq sarkardalariga tamoman ishonchsizlik bilan qarar edi. Shuning uchun ham u katta qo'shinni bir joyga to'plashdan va ular fursatdan foydalanib, taxtdan uni ag'darib tashlashidan qo'rqar edi. Harbiy kengashda bo'lajak urushda mudofaa taktikasini qo'llashga qaror qilindi. Xorazmshoh mo'ng'ullarni asosiy zarbasi Movarounnahrning markazi — Zarafshon vodiysiga qaratilsa kerak deb o'ylagan edi. Shuning uchun ham Samarqand va Buxoro shaharlarini mustahkamlashga buyruq berdi. Samarqandni tashqi devorini qayta qurish maqsadida shahar aholisidan hatto bir yil ichida uch marta xiroj ham yig'ib olindi. Shunga qaramasdan Xorazmshoh mudofaaga tayyor emas edi.

## 2. O'tror qamali

1219-yilning kuzida Chingizxon o'g'illari Chig'atoy, O'qtoy va Jo'ji bilan birga Xorazmshohga qarshi yurish boshladi. Uning jami askari 200 mingga yaqin edi. Chingizxon qo'shini qadimgi yo'l bilan **III** daryosi bo'ylab *Shimoliy Farg'onadan* o'tib, Janubiy Qozog'istonda Sirdaryo bo'yida joylashgan **O'tror** shahri ustiga yurish qildi. Bu shahar yaqinida butun harbiy kuchlarini to'plab, Movarounnahrni qisqa muddat ichida zabt etish uchun uni to'rt qismga bo'ldi. Uning bir qismini o'g'illari Chig'atoy va O'qtoy boshchiligida O'tromni qamal qilib turish uchun qoldirdi. Ikkinchi qismga Jo'ji boshliq etilib, u Sirdaryo etagi tomon yuborildi. Unga *Sig'noq*, *O'zgan*, *Jand*, *Yangikent* shaharlarini bosib olishni buyurdi. Besh ming kishilik uchinchi qo'shin **Oloqno'yon** hamda **Suketu Cho'rbiy** ismli sarxanglari qo'mondonligida Sirdaryoning o'rta sohili bo'ylab, uning yuqori oqimiga joylashgan *Banokat* va *Xo'jand* shaharlari tomon yuborildi. Chingizxonning o'zi asosiy kuchlari bilan dashtliklar orqali Buxoroga tomon askar tortdi.



36-rasm. Shohbizinda majmuasi.  
Qusam ibn Abbos maqbarasi.  
O'ymakor eshik. Samarqand. XIV asr.



37-rasm. Shohbizinda majmuasi.  
Me'moriy bezak qismlari.  
Samarqand. XIV asr.

O'tror mustahkam qal'ali chegara shahar edi. Qal'a noibi **Inalxon** boshchiligida shaharda 20 ming suvoriy bor edi. Qamal arafasida unga yordam berish uchun **Qoracha Hojib** qo'mondonligida yana 10 ming kishilik qo'shin kelib qo'shilgan edi. Juvayniyning ma'lumotiga qaraganda, bu kuchdan tashqari **Sulton Muhammad** «*lashkari berun*» deb atalgan 50 ming askar yuborgan edi. Natijada O'tror shahrida dushmanga qarshi kuchli bir himoya quvvati tashkil bo'lgan edi. Shunday bo'lsa-da, o'sha davr solnomachilarining naqliga qaraganda, mo'ng'ullar shaharni qamalga olishi bilan o'trorliklar sarosimaga tushganlar. Qamalning dastlabki kunlaridayoq shahar hokimiyatining vakili **Badriddin Amid**, **Safiy Aqra Hojib** boshliq Sulton Muhammad tomonidan qatl etilgan O'tror qozisining avlodlari mo'ng'ullar tomoniga o'tib ketadilar. Qamal vaqtida **Qoracha Hojib** ham o'z askarlari bilan shahardan chiqib, mo'ng'ullarga taslim bo'ladi. Ammo Chingizdalar Qoracha Hojibning o'z podshohi va valine'matiga sotqinlik qilgani uchun uni barcha tarafdorlari bilan birgalikda qatl etadilar. Shu asnodda o'trorliklar shaharni mudofaa qilib, uni besh oy davomida o'z qo'llarida ushlab

turadilar. Ayniqsa, Inalxon o'zini Chingizxon savdogarlari va sarbonlarini o'ldirishda aybdor his etib, so'nggi nafasigacha dushmanga qarshi kurashadi. Uning askarlari ellik-elliktadan bo'lib, qal'adan tashqariga chiqar va bosqinchi mo'ng'ullar bilan jang qilib, halok bo'lardi. Mo'ng'ullar shaharni egallab, aholisini shahristondan tashqariga quvib chiqaradilar va uni talaydilar. Inalxon boshliq mudofaachilarning bir qismi O'tror arkiga joylashib olib, mudofaani yana bir oygacha davom ettiradilar. Mudofaachilar boshlig'i Inalxonni mo'ng'ullar qanday bo'lmasin tirik qo'lga tushirishga ahd qiladilar. Qurshovga olingan Inalxon asirga tushiriladi va Samarqandga olib borilib, Ko'ksaroyda qiynab o'ldiriladi.

### 3. Buxoro fojiasi

Bu asnoda Chingizxonning asosiy kuchlari Sirdaryodan janubda joylashgan **Zerinuq** (Zarnuq) va **Nur** qal'alarini jangsiz ishg'ol qiladilar. O'z ixtiyori bilan taslim bo'lgani uchun Zerinuq qal'asiga mo'ng'ullar hatto «*Qutlug' baliq*», ya'ni «*Qutli shahar*» degan nomni beradilar. Bosqinchilarning buyrug'iga binoan Nur aholisi qishloq xo'jalik asboblari, hayvonot va oziq-ovqatlarini olib, shaharni mo'ng'ullarga bo'shatib beradilar. Nur qal'asi talon-toroj qilinadi va unga bir yarim ming dinor miqdorida tovon solinadi.

1220-yilning fevralida Chingizxon Buxoroga yetib boradi. Buxoroda bu vaqtda 12 ming jangchidan iborat shaharni himoya qiluvchi qo'shin va 20 ming kishilik «*lashkari berun*» mavjud edi. Shahar lashkariy kuchlariga **Ixtiyoriddin Qo'shlu**, **Inanchxon**, **Hamid Pura**, **Suyunchxon** hamda mo'ng'ullardan qochib kelgan uyg'ur **Go'rxonlar** boshliq edi. Albatta, Buxoro ahli mo'ng'ul bosqinlarining qonli voqealaridan xabardor edi. Binobarin, ular o'z boshiga kelgan baloni bartaraf etishga tayyor ham emasdi. Qamalning uchinchi kuni **Inanchxon** boshliq shaharni tark etgan lashkar mo'ng'ul saflarini yorib o'tib, Amudaryoga tomon chekinadi. Dushman ta'qibidan zo'rg'a qutulib qolgan qochqin Inanchxon lashkarining kichik qismi bilan Amudaryoning narigi tomoniga o'tib oladi. Hamid Pura jangda shahid bo'ladi.

Himoyachilardan judo bo'lib nochorlikdan hayajonga tushgan buxoroliklar dushmanga taslim bo'lishdan o'zga choralari qolmaydi. Buxoro qozisi **Badridin Qozixon** boshliq o'z oqsoqollarini Chingizxon oldiga shafqat so'rab yuboradi.

1220-yilning 16-fevralida mo'ng'ullar Buxoroni egallaydilar. Lekin shahar hali butunlay taslim bo'lmagan edi. Go'rxon boshliq 400 mudofaachilar qamalga olingan Buxoro arkida 12 kun davomida mo'ng'ullarga qarshi qahramonona kurash olib boradi. Mo'ng'ullar arkni zabt etish uchun barcha tadbirlarni qo'llab ko'radilar. Lekin hammasi bekorga ketadi. Qal'a ichidagi barcha chuqurlar odam va hayvon jasadlari bilan to'lib-toshgandan, qahramonlar jonlarini fido qilganlaridan keyingina ularning qarorgohi zabt etiladi. Bu jasoratli qarshilik uchun shahar aholisidan 30 mingdan ziyod kishi qurbon qilindi. Qolganlarini esa tabaqalariga qaramay qul qilindi. Movarounnahming qadimiy markazlaridan hisoblangan Buxoro talon-toroj etildi. Shaharning zeb-ziyatlariga sahroyilar vahshiyona hirs bilan tashlanadilar. Barcha uylar vayron qilinib, sandiqlar buziladi va behisob xazinalar talanadi, asriy qo'lyozma asarlar, muqaddas kitoblar yirtilib, hayvonlar oyog'i ostiga xazondek sochiladi. Ilm va ma'rifat egalari bo'lgan ulamolar va shayxlar qul kabi, e'tiborli mo'ng'ul jangchilariga xizmatkor qilib, goho esa baxshilariga masxara uchun beriladi. Ko'pgina mo'tabar qozilar eshak va xachir boqishga majbur qilinadi. Xullas, san'ati, ilm-ma'rifati, nozik tabiatli va axloqi go'zal bo'lgan Buxoro aholisi xo'rlanadi va masxara qilinadi. Buxoro qismatiga tushgan vahshiyona shafqatsizlik va nomussizlik manzarasiga chiday olmagan



38-rasm. Shohizinda majmuasi.  
Qusam ibn Abbas maqbarasi.  
Eshik tepasidagi koshinkor yozuv.  
Samarqand. XIV asr.

qozi **Badridin, Imomzoda Rukniddin** va uning o'g'li g'azablanib, o'zlariga teng bo'lmagan yarog'li dushmanga hujum qilib halokat topadilar. Shunga qaramasdan mo'ng'ullarga qarshi kurash xufiyona davom etardi. Mo'ng'ullar qilichidan omon qolib, shaharda yashiringan sulton askarlari o'zlarining tungi hujumlari bilan Chingizxonni bezor

qiladilar. Mo'ng'ullar xoqoni bunday tungi jangchilarni ushlab berishni shahar ahlidan talab qiladi. Ammo buxoroliklar g'olibning buyrug'ini bajarmay, ularni asrab turadilar va tungi hujumlariga yordam beradilar. Shundan keyin Chingizxon nihoyatda g'azablanib, shaharga o't qo'yib, uni yondirib yuborishga amr qiladi. Aksari sinchli imoratlardan iborat bo'lgan Buxoro bir necha kun davomida tag-tugiga qadar yonib, kulga aylanadi. Faqat tosh va pishiq g'ishtlardan qurilgan masjid va saroylargina bu kultepa ichida qora tosh kabi do'ppayib qoladi.

Istilochilar Buxorodan g'oyatda ko'p asir olib qaytadilar.

#### 4. Samarqand ostonasidagi jang

Buxoroni zabt etgach, Chingizxon Samarqandga tomon yo'l oladi va 1220-yilning mart oyida Movarounnahming eng ulug' va muhim shahriga yaqinlashadi. Shaharni mudofaa qilish uchun Xorazmshoh 110 ming kishidan iborat kattagina kuchni qoldirgan edi. Ular qo'l ostida 20 ta fil ham bor edi. Shahar noibi **Sulton Muhammadning** tog'asi **To'g'ayxon** edi. Mudofaachilar o'rtasida garchi birlik, birdamlik zaif bo'lsa-da, shahar hunarmand ahli, mayda savdogarlar, kosibu faqir-fuqarolar qo'shinning quvvatiga, oziq-ovqat jamg'armasining yetarli ekanligiga, Xorazmshohning yordam berishiga, jangda zafar qozonishlariga ishonardilar. Chingizxon ham Samarqandda jangni shiddatli bo'lishini bilar edi. Shuning uchun ham u askarlarining hammasini to'plashga kirishadi. Chingizxon Buxoroda qo'lga tushirgan asirlaridan tashqari o'g'illari Chig'atoy va O'qtoylarning O'trordan olib kelgan bandilarini ham Samarqand qamaliga safarbar etadi. Samarqandliklarning shahar atrofi aholisi bilan bo'lgan aloqasini to'sib, ularni tashqi ko'makdan mahrum etish maqsadida, avvalambor, u Samarqand tevarak-atrofida joylashgan qal'alarni zabt etadi va ko'p askarlar to'playdi. Chingizxon shahardan tashqarida joylashgan Ko'ksaroy qasridan turib shaharni qamal qilish ishiga boshchilik qiladi. Shahar ostonasida uch kun shiddatli janglar davom etadi. Qamalning uchinchi kuni mudofaachilar qamalni yorib chiqib mo'ng'ullarga hujum qiladilar. Mo'ng'ullar Xorazmshoh lashkarboshilarining lavangligi va qo'rqqoligidan foydalanib, bir necha o'n ming kishini qirib

tashlaydilar. Shunga qaramay, xorazmiylar o'limga tik boqib, jangni kun bo'yi davom ettiradilar. Qamalning beshinchi kuni ommaviy qirg'inning oldini olish maqsadida bo'lsa kerak, lashkar boshliqlari va shahar ahli mo'ng'ullarga taslim bo'lishga qaror qiladilar.

Qozi va shayxulislom boshchiligida mo'ng'ullarga vakillar yuboriladi. Hatto To'g'ayxon boshliq 20 nafar sarkardalari jon saqlash maqsadida o'z qo'shini bilan mo'ng'ullar xizmatiga o'tishni izhor etadilar. Garchi bunday taklif avvalda Chingizxon tomonidan qabul etilsa-da, ammo oradan bir oz vaqt o'tgach, To'g'ayxonning 30 minglik qo'shini tunda qurshab olinib, 20 nafar sarkardalari bilan birga qirib tashlanadi. So'ngra mo'ng'ullar Samarqandning bosh suv inshooti «*Qo'rg'oshin nova*»sini buzib tashlab, shaharni suvsiz qoldiradilar. Namozgoh darvozasidan bostirib kirib, barcha istehkomlarni vayron qiladilar. Shahristondan aholi haydab chiqariladi va Samarqand talanadi. Yozma manbalarda qayd etilishicha, shahar qozisi va shayxulislomning jur'ati va vakolati tufayli 50 ming nafarga yaqin shaharliklar vahshiyona qirg'indan eson-omon shahar tashqarisiga olib chiqib ketiladi. Faqat mudofaachilarning kichikroq guruhigina shahar arkiga joylashib olib, bosqinchilarga qattiq turib qarshilikni davom ettiradi. Shiddatli janglardan so'ng ark qo'ldan ketgach, himoyachilardan ming nafari jome' masjidga kirib olib, dushmanni sajdagohga yaqin yo'latmay, mardonavor jang qiladilar. Masjidga o't qo'yib yuborilgach, o't ichida ilojsiz qolgan jasur himoyachilar o'limni kiprik qoqmay qarshi olsalar-da, ammo dushmanga taslim bo'lmaydilar. Mo'ng'ullarning Samarqandni bosib olish uchun qilgan janglarida shahar aholisining ko'pgina qismi qiriladi. 30 ming nafarga yaqin hunarmand ahli asirga olinadi. Qurol ko'tarishga holi bo'lganlar mo'ng'ul zulmi ostida askariy xizmatga majbur qilinadi.

Mo'ng'ullar qarorgohida ulug' xonlarning tomosha bog'larini Samarqand uslubida ziynatlab obod etishlari uchun mirishkor bog'bonlar Uzoq Sharqqa yuboriladi. Usta hunarmandlarni, mohir ipakdo'z to'qimachilarni esa xon qul sifatida xotinlari, qarindosh-urug'lari va o'g'illariga bo'lib beradi. Shu tariqa Movarounnahrning markaziy, Sharqning eng qadimiy va ulug' shaharlaridan yana biri jangari ko'chmanchilar tomonidan bosib olinib, yer bilan yakson etiladi. Voqealarning ajablanarlisi shundaki, Chingizxon

boshliq mo'ng'ul askarlari Movarounnahrğa bostirib kirib, uning muhtasham va boy shaharlarini, obod qishloqlarini talab, ularni vayron qilayotgan bir vaqtda mamlakat sultoni Muhammad Xorazmshoh Amudaryo sohillarida saltanat chodirini qurib, bunday musibatli voqealarga betaraf qarovchi, befarq nazoratchi sifatida boqar edi. Dushmanga qarshi kurashni tashkil etish o'rniga, bu to'g'rida o'g'li Jaloliddin Manguberdi (Mangburni)ning oqilona maslahatlariga quloq solmay, u tinchgina bir go'shani qidirish ko'yiga tushadi. 30 minglik mo'ng'ul qo'shinining ta'qibidan zo'rg'a qutulib, Eronga qochadi. So'ngra Kaspiy dengizining janubidagi orollardan biriga borib joylashadi. Qo'rquv, o'ziga va kuchlariga bo'lgan ishonchini butunlay yo'qotgan, xalq va mamlakat oldidagi burchi va javobgarligini tamomila unutgan Xorazmshoh sal vaqt o'tmay orolda xor-zorlikda, g'ariblikda, zotiljam kasali bilan vafot etadi.

## 5. Sirdaryo bo'ylaridagi janglar va Temur Malik jasorati

Bu davrda mo'ng'ullarning Jo'ji boshliq askariy qismi ham Sirdaryo etaklarida zafarona harakat qilmoqda edi. Avval u aholisi zich joylashgan va boy savdo shahri *Sig'noqqa* hujum boshlaydi. Jo'ji *Sig'noqqa* **Hasanxoji** ismli savdogarni elchi qilib yuboradi va shaharni taslim bo'lishini taklif etadi. Sig'noq aholisi bu taklifni rad etadi. Hasanxoji sig'noqliklar tomonidan o'ldiriladi. Bunday voqeadan darg'azab bo'lgan Jo'ji katta qo'shin bilan shaharga hujum boshlaydi. Sig'noq aholisi yetti kun davomida shaharni qahramonona mudofaa qiladi. Sakkizinchi kuni shahar mo'ng'ullarga majburan taslim bo'ladi. Bosqinchilar shaharni talab, aholisining oxirgi kishisigacha qirib tashlaydilar. Bu voqeadan so'ng dahshatga tushgan O'zgan shahri ma'murlari mo'ng'ullarga jangsiz taslim bo'ladi. Ammo *Barchinlig'kent* esa kuch bilan qo'lga kiritiladi.

1220-yilning aprelida Samarqand taslim bo'lganidan taxminan bir oy o'tgach mo'ng'ullar *Jandga* hujum boshlaydilar. Jand noibi **Qutlug'xon** qo'rquvdan Xorazm tomon qochib, shaharni butunlay bebosh qoldiradi. Bosqinchilar Jandni egallab, uni talaydilar. Aholisining qurollangan qismi qatl etilib, shahar vayron

qilinadi. Mo'ng'ullar besh ming askarli kichik bir qo'shin bilan Sayhun daryosi bo'yida joylashgan **Binokat** va **Xo'jand** shaharlari ustiga yuradi. Bu vaqtda Binokatning amiri **Elathumalik** edi. U qang'li qabilasidan yig'ilgan askarlari bilan shaharni to'rt kun mudofaa qilib, so'ng taslim bo'ladi. Jand fojiasi binokatliklar ham boshiga tushadi. Uning qurolli aholisi qilichdan o'tkaziladi. Qolganlari qul qilinib, majburan mo'ng'ul askarlariga qo'shib olinadi. Binokat zabt etilgach, navbat Xo'jandga keladi. Bu shahar daryo ikkiga ayrilgan yerda joylashgan edi. Uning tabiiy joylashishi hamda shahar hokimi Temur Malikning shaxsiy qahramonligi bilan xo'jandliklar mo'ng'ullarga kutilmagan qarshilikni ko'rsatadilar. Juvayniy va Rashididdinning so'ziga qaraganda, Xo'jand qamalida 20 ming mo'ng'ul va 50 ming nafar asir qatnashadi. Biroq, kuchlarning teng emasligi oqibatida Temur Malik shaharni tashlab chiqib ketishga majbur bo'ladi. Ming kishilik lashkari bilan u shahar yaqinida daryo o'rtasidagi orollardan biriga joylashib oladi. Mo'ng'ullarning uzgan kamon o'qlari va irg'itgan palaqmon toshlari orolgacha yetib bormas va himoyachilarga tegmas edi. Mo'ng'ullar 3 farsah (18—24 km) masofadan asirlarga tog'dan tosh tashittirib, daryoni to'sib himoyachilarga zarba bermoqchi bo'ladi. Temur Malik o'z qo'shini bilan tunda qayiqlarda qirg'oqqacha suzib kelar va kun bo'yi barpo etilgan ko'tarmani buzib ketardi. Juvayniyning yozishicha, Temur Malikning farmoyishi bilan 12 ta qayiq yasalib, dushmanning o'qi teshib o'tmasligi, o't yondirib yubormasligi maqsadida qayiqning usti namat bilan qoplanib, sirkali loy bilan suvab chiqiladi. Bunday usti yopiq qayiq bilan sohilga xavfsiz suzib borilar va qayiq yon devorlarida qoldirilgan maxsus shinaklardan dushmanni o'qqa tutardilar. Temur Malik shu tariqa dushmanga qarshi uzoq mudofaa janrlarini olib boradi. Lekin dushman bilan kurashish foydasizligini ko'rgach, bor oziq-ovqat va qurol-yarog'larni 70 ta kemaga yuklatib, tunda mash'allar yorug'ida daryoning quyi oqimi bo'ylab suzib ketadi. Daryoning har ikki sohili bo'ylab esa mo'ng'ul otliqlari kemalarni quvib borar va kemedagilarga kamondan o'q yog'dirar va ichiga neft to'lg'izilib, piliklari yondirilgan ko'zachalarni palaqmonlardan irg'itar edilar. Mo'ng'ullar Temur Malikning yo'lini to'sish maqsadida Banokat

to'g'risida daryoning u sohilidan bu sohiligacha zanjir tortib qo'yadilar. Ammo Temur Malik qayiqchilari uni bir zarba bilan uzib ketadilar. Shu tariqa Temur Malik qo'shini uzluksiz jang qilib, muhtojlik va qiyinchiliklarni yengib, Jand shahriga yetib boradi. Barchinlig'kent va Jand yaqinida daryoning har ikki sohilida yo'lini to'ssalar-da, ammo jasur xo'jandliklar sohilga tushib, dushman bilan so'nggi jangga kiradilar. Bu jangda Temur Malik qo'shini va safdoshlaridan batamom ayriladi. Faqat kichik bir guruh yigitlari bilangina o'zi halokatdan qutulib, Urganch shahriga yetib keladi. Biroz vaqt o'tgach, u Xorazmda to'plangan qo'shin va xalq lashkarlariga boshchilik qiladi. Jo'jiga qarshi muvaffaqiyatli janglar qilib, hatto undan Sayhun daryosining quyi oqimidagi **Yangikent** shahrini qaytarib ham oladi.

Bu davrda Movarounnahrning janubida mo'ng'ullar bosqiniga duchor bo'lmagan bir necha shahar qolgan edi. Zarafshon bo'ylarida askarlariga biroz dam bergach, Chingizxon bu shaharlarni zabt etishga shaxsan o'zi kirishadi. 1220-yilning yozida avval u **Nahshab** (Qarshiga) bostirib boradi. Shaharliklar dahshatga tushib, shahar darvozalarini unga ixtiyoriy ochib beradilar. Yoz faslini u Nahshab viloyatida o'tkazadi. Shu yilning kuzida u **Termizga** askar tortadi. Bu vaqtda Termiz Movarounnahrdan Balx orqali Hindistonga o'tgan qadimiy savdo yo'li ustidagi asosiy Amudaryo kechuvi ham edi. Termiz qamalning o'n birinchi kuni qattiq hujum bilan olinib, bu mustahkam shahar xarob qilinadi.

Termiz aholisi ham mo'ng'ullar panjasiga tushgan ko'pgina boshqa shaharlardagi aholi kabi fojiani o'z boshidan kechiradi.

Sirdaryo (Sayhun) havzasi, Zarafshon va Qashqadaryo vodiylari, Amudaryo (Jayhun) o'rta oqimining o'ng sohili viloyatlari zabt etilgach, Chingizxon asosiy kuchni Xorazmshohlar davlatining markaziy qismi — Xorazmga tashlaydi. Bu harbiy kuchni Chingizxonning o'g'illari — Jo'ji, Chig'atoy va O'qtoylar boshqaradilar. Chingizxon Xorazm davlatining poytaxti Sharqning muhim iqtisodiy va madaniy markazlaridan biri Urganch ustiga yurishga katta ahamiyat beradi.

### *Savol va topshiriqlar*

- ? 1. Xorazmshohning mudofaa rejasi haqida gapirib bering. 2. O'trorning qahramonona mudofaasi haqida gapirib bering. 3. Buxoroning mo'ng'ullar tomonidan talanishi haqida gapiring. 4. Samarqand ostonasidagi jang haqida gapirib bering. 5. Temur Malik jasorati sizga yoqadimi?

## **25-§. XORAZMSHOHLAR DAVLATINING HALOKATI**

### **1. Urganch qamali va shaharliklar**

1221-yilning boshlarida endigina Xorazm davlatining Sultoni deb e'lon qilingan Jaloliddin Manguberdi garchi Xorazm mudofaasiga jiddiy kirishsa-da, ammo unga qarshi sobiq Jand noibi qochqin **Qutlug'xon** boshliq qipchoq lashkarboshilari tomonidan uyushtirilgan fitna uni Temur Malik bilan Xurosonga jo'nashga majbur etadi. Chunki bunday vaziyatda poytaxtga tomon bostirib kelayotgan yovuz dushmanga qarshi Urganch mudofaasini sira ham tashkil qilib bo'lmas edi. Shu sababli tez vaqt ichida shahzodalar **O'zloqshoh** va **Oqshohlar** ham Urganchni tark etib, qochib ketadilar. Poytaxt taqdiri o'ta qo'rqqoq va amalparast amir **Humortakin** qo'lida qoladi. O'zini u Sulton deb e'lon qilib, Urganchni mo'ng'ullardan himoya qilishga va'da ham qiladi. Urganchdek katta shaharni qamal qilish uchun shimoldan Jo'ji, Buxoro tomondan Chig'atoy va O'qtoy askarlari bostirib keladi. 1221-yilning qishida 50 ming kishilik mo'ng'ul askarlari Urganchni qamal qilib, hujum boshlaydi. Urganchliklar dushmanning harbiy kuch va zirhli qurollarining ustunligiga qaramay o'z ona shahri mudofaasiga g'oyat baland ruh bilan kirishadilar. Ular qamaldan, devorni teshib qulatadigan qurollardan, manjaniq va palaqmonlardan qo'rqmaydilar. Mo'ng'ul askarlari ichiga neft to'lg'azilib, piligi yonib turgan ko'zachalarni irg'itib tursa-da, mudofaachilarni shaxtini qaytara olmaydilar. Lekin shahar hukmronligini o'z qo'lga olgan va'daboz xoin amir Humortakin Urganch darvozasini ochib berib, o'z qo'shini bilan mo'ng'ullarga taslim bo'ladi. Bosqinchilar shahar darvozalaridan bostirib kirib, ayrim mahallalarni egallaydilar. Erksevar Urganch aholisi bunday og'ir damlarda ham dushmanga qarshi mardonavor kurashdi. Poytaxt ichida olib borilgan ko'cha

janglarida zamonining buyuk allomasi Shayx Najmiddin Kubro nomi bilan shuhrat topgan 76 yoshli **Ahmad ibn Umar Xivaqiy** o'z do'st-u shogirdlari va behisob murid-u izdoshlari bilan ishtirok etadi. Najmiddin Kubroning iltijo bilan **«Yo Vatan, yo sharofatli o'lim»** deb aytgan xitobi rahnamoligida har bir mahalla, ko'cha-ko'y, guzari rasta, masjidi madrasa va har bir xonadon janggohga aylanadi. Mudofaachilar qadrdon shaharning har bir qarich yerini mardona himoya qilib, mardlik va fidokorlik namunalari ko'rsatadilar. Uzoq davom etgan ko'cha janglarida minglab mo'ng'ul askarlari halok bo'ladi. Mo'ng'ullar to shu paytgacha Movarounnahrning hech bir shahrida bunchalik qurbon bermagan edilar. Bu qonli kurash, manbalarda qayd etilishicha, besh oy davom etgan.

Manbalarda ta'riflanishicha, hatto Chingizxon Najmiddin Kubroga ahli a'yonlari, barcha yor-u do'stlari bilan shahar tashqarisiga chiqib, jon saqlashni taklif etgan. Ammo shayx Chingizxon taklifini rad qilgan. Oqibat son jihatidan teng bo'lmagan dushman bilan olib borilgan shiddatli jangda og'ir yaralangan Najmiddin Kubro o'lim oldida tug' tutgan mo'ng'ul sarboziga tashlanib, qahramonlarcha shahid bo'ladi. Shubhasiz harbiy kuchda va intizomda ustun bo'lgan mo'ng'ullarga qarshi kurashgan urganchliklarning g'alaba qozonishi mushkul edi. Ilojsizlikdan holi tang bo'lib, taslim bo'lgan Urganch bosqinchilar tomonidan talon-toroj qilinadi. 100 ming nafar hunarmand asirga olinib, qolganlari qirib tashlanadi. Shaharning bosh to'g'oni buzib yuboriladi. Urganchni suv bosib, u vayron bo'ladi.

## **2. Amudaryo sohillaridagi jang va Jaloliddin Manguberdining jasorati**

Xorazmshohlar davlati poytaxti Urganchning ayanchli qismatidan so'ng boyliklarga o'ch, ko'zi och mo'ng'ul jangarilari bosqinchilik safarini Amudaryodan janubda joylashgan yirik savdo va madaniyat markazlaridan hisoblangan Balx, Hirot, Marv va G'azna kabi shaharlarga yo'naltiradi. Ammo bu viloyatda ular shu go'shada qaror topgan Jaloliddin Manguberdining qattiq qarshiligiga uchraydi. Bu o'lkada u kuchli lashkar to'playdi.

Dushmanga darg'azab arslondek goh o'ng, goh so'l qanotdan, ba'zan markazdan hujum qilib, uni tinkasini quritadi. Hatto ikki jangda mo'ng'ullarni mag'lub qilib, ularga katta talafot keltiradi. Mo'ng'ul qo'shinining eng atoqli lashkarboshilari Jaloliddinga qarshi tura olmaydilar. U Parvon dashtidagi jangda 45 minglik dushman qo'shinini mag'lub etadi. Jangda harbiy taktika tarixida birinchi bo'lib, Jaloliddin dushman suvoriylariga qarshi ot yonida turib piyoda jang qilish uslubini qo'llaydi. Mo'ng'ullarning Parvon dashtidagi mag'lubiyati to shu vaqtgacha jiddiy zarbaga uchramagan Chingizxonning asosiy kuchini urushga solishga va harbiy harakat rahbarligini o'z qo'liga olishga majbur etadi. Hind daryosi bo'yidagi janglarda Jaloliddin mo'ng'ul askarlariga bir necha bor zarba beradi. Hatto Chingizxonning o'zi to'qnashuvlardan birida jang maydonidan zo'rg'a qochib qutuladi. Endilikda Chingizxon o'ziga teng raqibga duch kelganini yaxshigina tushunib, Jaloliddinning katta kuch to'plashiga xalaqit berish uchun barcha choralarni ko'radi. Mo'ng'ullar ustidan g'alaba qozonilganidan keyin qo'lga kiritilgan o'ljalarni taqsimlashda Jaloliddinning lashkarboshilari o'rtasida o'zaro kelishmovchilik boshlanadi. Oqibatda lashkarboshilardan Sayfutdin Ag'roq, A'zam Malik va Muzaffar Maliklar qo'shından ajralib, o'z viloyatlari tomon ketadilar. Bu voqeadan so'ng Jaloliddinning harbiy kuchi ancha-muncha kuchsizlanib qoladi. Fursatdan foydalangan Chingizxon G'aznaga askar tortadi. Jaloliddin tengsiz janglar olib borib, Hind daryosi qirg'oqlariga yaqinlashib boradi. Daryo bo'yida 1221-yilning noyabrida ikki o'rtada qattiq jang bo'ladi. Mo'ng'ullarning pistirmalarga qo'yilgan 10 ming nafar saralangan askari jangning oqibatini hal qiladi. Jaloliddin taslim bo'lishni va o'z oilasining mo'ng'ullar qo'liga tushishini xohlamay rafiqasi, onasi va bolalarini tik qirg'oqdan daryoga uloqtirib, o'zi esa otda Hind daryosining narigi qirg'og'iga suzib o'tib, ko'zdan g'oyib bo'ladi. U bilan birga uning to'rt ming kishilik askari ham qutulib qoladi. Dushmanining jasoratiga qoyil qolgan Chingizxon hatto uni ta'qib qilish fikridan ham qaytadi. Jaloliddin yana o'n ikki yil davomida mo'ng'ullarga qarshi kurashni davom ettiradi. Kavkazda kuchli davlat barpo etmoqchi bo'ladi. Ammo bu o'lkada ham mahalliy hokimlar va feodallar o'rtasidagi nizolar uning bunday orzusini



ro'yobga chiqishiga to'sqinlik qiladi. Shunday qilib, buyuk sarkarda Jaloliddin Manguberdini va uning jangovar kuchini tashkil qilgan fidoyi safdoshlari, garchi Vatan taqdiri yo'lida o'z hayotlarini tikib, kuch jihatdan bir nechta o'n barobar ortiq bo'lgan dushmanga qarshi yillar davomida qahramonona kurashsalar-da, ammo ona yurt ozodligini saqlab qolishning iloji bo'lmaydi. Chunki fursat boy berilgan edi, eng so'nggi Xorazmshohning hukmdorligi shu tariqa 1231-yilda tugaydi. Shu bilan birga 140 yil hukmronlik qilgan Buyuk Xorazmshohlar davlati va uni boshqargan xonadon batamom halok bo'ladi. Shubhasiz mamlakat sultoni Muhammad Xorazmshohning o'z yurti va fuqarosi oldidagi burchi va mas'uliyatiga nisbatan befarq qarashi, qo'rqoqligi, dushmanga qarshi barcha kuchlarni birlashtirib unga boshchilik qila olmagan, rahbar doiralar o'rtasida hukm surgan fitna va ig'volar oqibatida Chingizxondek yovuz dushman bosqiniga bardosh bera olmay, Sharqdagi bu ulkan davlat batamom barham topadi.

### *Savol va topshiriqlar*

- ? 1. Urganchni mo'ng'ullar tomonidan bosib olinishi haqida nimalarni bilasiz? 2. Najmiddin Kubroning «Yo Vatan, yo sharofatli o'lim» xitobi ma'nosini tushuntiring. 3. Kubro jasoratini Siz mabodo kerak bo'lsa takrorlay olasizmi? 4. Amudaryo sohilidagi jangning borishi haqida gapirib bering. 5. Jaloliddinni qanday kuch jasoratga undagan edi?

## **26-§. MO'NG'ULLAR ISTILOSIDAN KEYINGI SIYOSIY VAZIYAT, XO'JALIK HAYOTI VA XALQ QO'ZG'OLONLARI**

### **1. Mo'ng'ullar istilosining oqibatlari**

Mo'ng'ullar istilosi oqibatida Movarounnahr va Xorazmning kechagina yashnab turgan obod dehqonchilik viloyatlari halokatga uchradi. Gavjum va ko'rkam shaharlar, ayniqsa *Buxoro, Samarqand, Urganch, Marv, Banokat, Xo'jand* va boshqalar xarobazorga aylantirildi. Samarqanddek azim shaharni ichimlik suvi bilan ta'minlab turuvchi yagona suv inshooti — *Qo'rg'oshin* novasi, Marv vohasining sug'orish tarmoqlarining bosh to'g'oni

— mashhur **Sultonband** buzib tashlandi. Samarqandliklar 1750—1800-yil davomida ota-bobolari yashab kelgan o'z ona shaharlarini tark etib chiqib ketdilar. Marv aholisi esa suvsizlikdan qurib borayotgan qishloqlarni tashlab, o'zga yerlarga borib joylashdilar. Vohaning yam-yashil dalalari va mevazor bog'-rog'larini barxanli qumliklar bosib, kimsasiz dashtlikka aylandi. Urganch suvga bostirilib, batamom vayron etildi. Xorazm va Movarounnahrning ziroatchi aholisi sonining keskin kamayib ketishi oqibatida ekin maydonlari jiddiy qisqarib, dehqonchilik tanazzulga yuz o'girdi. Xullas, Osiyoning hech bir o'lkasi mo'ng'ul bosqinchilarining vayronagarchiliklarini Jayxun va Sayxun oralig'idagi viloyatlar kabi dahshatli darajada his etmadi. Chunki bu jangari ko'chmanchilar Movarounnahrda yuksak hunarmandchilik, ichki va tashqi tijorat hamda sug'orma ziroatchilik bilan kasb etilgan asosli idora usulini birinchi marta ko'rdilar. Talon-toroj, zo'rlashga bo'lgan chanqoqlarini ilk bor shu yerda qondirdilar. Mohir hunarmandlar g'oliblarning dasht yaylovlardan iborat bo'm-bo'sh vatanini bezashga majburan Mo'ng'ulistonga yuborildi. Butun Sharqda shuhrat topgan qurol-aslaha yasash, nafis ipak matolar to'qish, naqshli shishasozlik hunarmandchiligi barham topdi.

O'zining hosildorligi bilan dong chiqargan vohalar suvsizlikdan qurib qoldi. Asrlar davomida Xitoy va Hindistondan Ulug' Turkiston orqali Kichik Osiyo va Yevropa tomon kesib o'tgan mashhur «Ipak yo'li» mo'ng'ullar bosqini davrida butunlay barham topdi. Bu davrda ilm va ma'rifatga yetkazilgan jarohat ham oz bo'lmadi.

## 2. Zabt etilgan o'lkalarni taqsimlash va boshqarish

Zabt etilgan o'lka va viloyatlarni Chingizxon hali hayotlik chog'idayoq o'g'illari va nabiralariga taqsimlab berdi. *Janubiy Sibir, Dashti Qipchoq, Itil (Volga) bo'yi, Xorazm va Darbandgacha* bo'lgan o'lka Chingizxonning to'ng'ich o'g'li **Jo'ji** va uning vafotidan keyin esa nabirasi **Botu** qo'liga topshirildi. *Sharqiy Turkiston, Yettisuv va Movarounnahr*ga uning ikkinchi o'g'li Chig'atoy ega bo'ldi. Chingizxon o'zi tug'ilib o'sgan *Mo'ng'ulistonni*, shuningdek *Xitoyni* uchinchi o'g'li va vorisi **O'qtoyg**a



39-rasm. Agat toshidan ishlangan kosa. XV asr.



40-rasm. Jez ko'za. Samarqand. XIV asr.

berdi. Kenja o'g'li **Tuluga** esa *Xuroson, Eron va Hindiston* tegdi. Shunday qilib, mo'ng'ullar bosib olingan viloyatlarni uluslarga taqsimlab, udel asosida boshqarishga kirishdi.

Chingizxon vafotidan so'ng (1227) O'qtoy mo'ng'ullar davlatining ulug' xoqoni qilib tayinlandi. Turkiy aholi odati bo'yicha podshoh «*qoon*» yoki «*xoqon*» deb, uluslarning hukmdorlari esa «*xon*» deb yuritilardi. Ulug' «*xoqon*»ning qarorgohi Qoraqurum shahrida bo'lib, u yerdan turib xonlarning xatti-harakatini u qattiq nazorat qilib borar edi.

Mo'ng'ullar hukmronligining dastlabki davridayoq mahalliy mulkdor oqsuyaklar, ruhoniylar va savdogarlarning ko'pchilik qismi o'z mol-mulkleri, imtiyozlarini saqlab qolish uchun xalqqa xiyonat qilish yo'li bilan mo'ng'ul bosqinchilariga xizmat qilishga o'tadilar. Istilochilarga mamlakat ichida bir tayanch bo'lishi ham zarur edi. Shuning

uchun ham mo'ng'ul xonlari mahalliy mulkdorlar manfaatini ko'zlab, ularning mehnatkash aholiga zulm qilishni kuchaytirishlariga keng yo'l ochib beradilar. Natijada mahalliy aholi ikki tomonlama talana boshlaydi. Mo'ng'ul xonlarining, shuningdek mahalliy hokimlarning jabr-zulmi va beboshliklari haddan oshadi. Ular har yilgi shar'iy soliq va o'lponlardan tashqari aholidan yig'ib olinadigan turli xil to'lov, yig'im va jarimalarning sonini oshirib yuboradilar.

### 3. Aholining og'ir zulm va majburiyatlar ostida ezilishi

Dehqonlardan olinadigan yer solig'i bu davrda «*kalon*» deb yuritilgan. Kalon hosildan 1/10 qismi hajmda, 1235-yilda o'tkazilgan qurultoyda chorvadan «*qopchur*» solig'i yig'ishga qaror qilinadi. Bu soliq bo'yicha, har yuz bosh chorvadan bir bosh olingan. Bundan ravshanki, musulmon mamlakatlarida har qirq bosh chorvadan bir bosh hajmda olinadigan «*zakot*»ga qaraganda birmuncha yengil bo'lib, aftidan chorvador mo'ng'ullarning manfaatlari ko'zda tutilgan. Mo'ng'ullarning «*Yosoq kitobi*»da qayd etilishicha, davlat xazinasi uchun «*shulen*» nomi bilan yuritilgan oziq-ovqat solig'i ham undirilgan. «*Shulen*» har bir podadan ikki yashar qo'y, qimiz uchun har ming otdan bir biya hisobida olingan. Soliqlar mahalliy xonlar tomonidan *barot* (ijara) tartibida avvaldan to'lanib, aholidan yig'ib olish paytlarida ular shubhasiz rasmiylashtirilgan miqdordan oshirib undirilgan.

Mo'ng'ullarning hukmronlik davrida shahar hunarmandlari ham nihoyatda og'ir sharoitda yashardilar. Ko'pgina hunarlar zavolga uchrab, hunarmandlarning soni juda kamayib ketadi. Mo'ng'ul hukmdorlari o'z qo'shinining ehtiyojlari uchun kerak bo'lgan ustaxonalargagina homiylik qiladilar. Shunday bo'lsa-da, hunarmandlarning ahvoli ham dehqon va chorvadorlarnikidan yengil bo'lmagan.

Tarixiy manbalarda mehnatkash aholining istilochilar tomonidan har tomonlama talanganligi va borgan sari talonchilik kuchayib ketgani haqida ko'pdan-ko'p ma'lumotlar yozib qoldirilgan. Mo'ng'ullar hukmronligining dastlabki yillaridayoq mo'ng'ul xoqonlari o'zlariga xizmat ko'rsatgan kishilarga, ayrim katta yer egalari va savdogarlarga turli *yorliq* va *payzalar* berardilar. Payza, oltin, kumush, jez va yog'ochdan yasalgan taxtachalardan iborat bo'lardi. Bunday payza yoki yorliqqa ega bo'lgan kishilar shu jumladan elchi, soliq yig'uvchilar va boshqa ma'murlar aholidan turli xil yig'im va to'lovlarni talab qilib olish huquqiga ega edilar. Bunday payza va yorliqlar ko'plab berilardi.

Bundan tashqari, mamlakatning, savdo yo'llarida joylashgan bekat —«*yom*»larning xizmati va xarajati ham aholining bo'yiniga yuklangan edi. Davlat topshirig'i bilan qatnaydigan son-sanoqsiz

elchilar, choparlar va xabarchilarga bekatlarda o'nlab kishilar xizmat qilishi kerak edi. Aholi ularga ot-ulov, oziq-ovqat, yem-xashak va boshqa kerakli buyumlarni topib berishga majbur edi.

Zo'rlik, jabr-zulmning nihoyatda kuchayishi, xilma-xil majburiy to'lov va yig'implarning haddan tashqari ko'pligi mehnatkash ommaning tinkasini quritgan edi. Bunday ahvol shubhasiz mo'ng'ullarga nisbatan norozilikni oshirib, istilochilar istibdodiga qarshi xalqni bosh ko'tarishga olib keldi. Shunday qo'zg'olonlardan biri Buxoro vohasidagi Torob qishlog'ida ko'tarilgan xalq qo'zg'oloni bo'ldi.

#### 4. Mahmud Torobiy boshchiligidagi qo'zg'olon

Chet ellik bosqinchilar va mahalliy mulkdor zolimlarning toqat qilib bo'lmaydigan zulmi ostida qolgan xalq ommasi bu asoratdan qutulish uchun bir necha bor kurashga qo'zg'aladi. Navbatdagi qo'zg'olon 1238-yilda Buxorodan 3 farsax (21—24 km) uzoqlikda Zarafshon daryosi sohilida joylashgan Torob qishlog'ida boshlanadi. Unda Buxoro shahri va uning atrofidagi qishloqlarning hunarmandlari va dehqonlari qatnashadi. Qo'zg'olonga toroblik g'alvir yasovchi hunarmand Mahmud boshchilik qiladi. Tarixda u **Mahmud Torobiy** nomi bilan shuhrat topadi. Mahmud Torobiy atrofiga to'plangan qo'zg'olonchilarni kurashga da'vat etadi. Uning atrofiga juda ko'p hunarmand va dehqonlardan iborat katta kuch to'planadi. Mo'ng'ul ma'murlari hiyla bilan Mahmudni o'ldirib, qo'zg'olonchilarni yetakchisiz qoldirmoqchi bo'ladilar. Ammo bu urinish muvaffaqiyatsiz chiqqach, ular g'alayonni bostirish uchun **Mahmud Yalavochdan** yordam so'raydilar. Mahmud boshliq qo'zg'olonchilar Torobdan chiqib Buxoroga yo'l oladilar. Bu yerda Torobiyning yaqin safdoshlaridan **Shamsuddin Mahbubiy** va shahar aholisi qo'zg'olonchilarga qo'shilib qo'liga qurol oladi. Mahmud Torobiy va Shamsuddin Mahbubiy Yalavoch harbiy kuchlari yetib kelgungacha qo'zg'olon boshlashga qaror qiladilar.

Mo'ng'ullarga qarshi bosh ko'tarishni taklif qilib, Mahmud Torobiy nomidan hamma tomonga da'vatnomalar yo'llanadi. O'zlarining qadr-don shahar va qishloqlarini mo'ng'ullardan va ularning hamtovoq xizmatchilari va mahalliy ma'murlardan ozod

qilishga otlangan kishilardan kattagina lashkar to'planadi. Mahmud Torobiy o'z tarafdorlari bilan Buxoroga kirib olgach, shahar ichidagi *Robia* saroyini qarorgoh qilib oladi. Bu yerga Buxoroning sadrlari, badavlat a'yonlari, yirik yerdorlarini chaqirtiradi. U o'zini Buxoro va atrof viloyatlarining «*xalifasi*», ya'ni hukmdori deb rasmiy ravishda e'lon qilishga ularni majbur etadi. Shundan so'ng Shamsuddin Mahbubiy sadr deb e'lon qilinadi. Mahmud Torobiy Buxoroda o'z hukmronligini o'rnatgach, mo'ng'ul tarafdorlari bo'lgan mahalliy ma'murlarga qarshi bir qancha jazo choralarini ko'radi.

Juvayniyning yozishicha, u amaldorlar va badavlat kishilardan ko'pini haqoratlab obro'sini to'kadi, ba'zilarni qatl ettiradi, ba'zilari esa qochib ketadi. Oddiy xalq va yalangoyoqlarga aksincha iltifot va marhamat ko'rsatadi.

Qochib ketgan amaldorlar va mo'ng'ullar Karmana yaqinida kuch to'plab, Buxoro ustiga yuradilar. Bundan xabar topgan Mahmud Torobiy dushman harbiy kuchlariga shahardan tashqarida Karmana yo'lida qarshi chiqadi. O'rtada jang boshlanadi. Mo'ng'ullar yengilib, Karmanaga tomon qocha boshlaydilar. Shiddatli janglar qilib, dushman Karmanagacha quvib boriladi. Mo'ng'ullardan 10 mingga yaqin kishi halok bo'ladi. Bu jangda qo'zg'olon boshliqlari Mahmud Torobiy va Shamsuddin Mahbubiy ham shahid bo'ladilar. Qo'zg'olonchilar ularning o'rniga Torobiyning ukalari Muhammad va Alini boshliq qilib saylaydilar. Biroq yangi rahbarlarning harbiy tajribasi va omma o'rtasida yetarli obro'yi yo'q edi. Ularning bunday holati tez orada ayon bo'lib qoladi. Chunki oradan bir hafta o'tmay, ularga qarshi mo'ng'ullarning yangi qo'shini hujum qiladi. Jangda qo'zg'olonchilar butunlay tor-mor qilinib, Torobiyning har ikkala ukalari ham halok bo'ladilar. Mo'ng'ullar Buxoroni yana bosib olib, u yerda ilgari tartiblarni yana qayta o'rnatadilar.

## **5. Qo'zg'olonning ahamiyati**

Shunday qilib, Mahmud Torobiy boshchiligidagi qo'zg'olon mo'ng'ullar hukmronligi va ularning xizmatiga o'tgan mahalliy mulkdorlarning zulmiga qarshi ko'tarilgan xalq qo'zg'oloni edi. Garchi qo'zg'olon bostirilgan bo'lsa-da, lekin u O'rta Osiyo

xalqlarining ozodlik harakatlari tarixida alohida o'rin tutadi. Mo'ng'ul va mahalliy hukmron doiralari qarshisida jiddiy xalq kuchi va uning orasidan yetishib chiqqan Mahmud Torobiy va Shamsuddin Mahbubiy singari xalq qahramonlarining borligini ko'rsatdi. Shundan so'ng mo'ng'ullar va mahalliy hokimlar soliqlarni birmuncha tartibga solib, yig'iladigan o'lpon va to'lovlarni cheklaydigan farmonlar chiqarishga majbur bo'ladilar. Ammo bunday chora-tadbirlar xalq ommasining g'oyat og'ir ahvolini yengillashmaydi. Lekin bu qo'zg'olon mo'ng'ullar istibdodining ildiziga zarba beradi. Mo'ng'ullar va ular xizmatiga o'tgan mahalliy hokimlar xalq bilan hisoblashishga majbur bo'ladilar.

### *Savol va topshiriqlar*

- ?
1. Mo'ng'ullar istibdodidan qaysi shaharlar ayniqsa ko'proq zarar ko'rdi?
  2. Chingizxon zabt etilgan o'lkalarni qanday taqsimladi?
  3. Mo'ng'ullar qanday soliqlarni joriy etdilar?
  4. «Payza»lar kimlarga, nima uchun berilgan? «Yom»lar haqida nimalarni bilib oldingiz?
  5. Mahmud Torobiy qo'zg'oloni qachon va qanday boshlandi?
  6. Qo'zg'olonning borishi haqida gapirib bering.
  7. Torobiy qo'zg'olonining kuchayishiga va mag'lubiyatiga olib kelgan sabablarni aniqlab daftaringizda ko'rsatib bering.
  8. Qo'zg'olon qanday ahamiyatga ega bo'ldi?

## **27-§. CHIG'ATOY ULUSINING TASHKIL TOPISHI VA UNING SIYOSIY AHVOLI**

### **1. Chig'atoy ulusi**

XIII asr boshlaridayoq Chig'atoy tasarrufiga berilgan *Movarounnahr, Yettisuv va Sharqiy Turkistonda Chig'atoy Ulusi* tashkil topdi. Bu feodal davlat XIV asrning 40-yillariga qadar yashaydi. Mo'ng'ullar katta va madaniy rivojlangan viloyatlarni idora qilishda mutlaqo tajribaga ega emas edilar. Buning ustiga bunday viloyatlarni boshqara oladigan ma'murlar ham yo'q edi. Chingizxon va xonzodalar, mo'ng'ul harbiy ma'murlari istilo qilgan mamlakatlardan asosan o'lpon undirib, muttasil daromad olib turishga qiziqardilar. Movarounnahr viloyatlarini va hunarmandchilik shaharlarini boshqarishda Chig'atoy o'ziga

bo'ysundirilgan xalqlarning yuqori tabaqa vakillari xizmatidan foydalanadi.

Movarounnahrni bevosita idora etish ishlari hali Movarounnahr zabt etilmasdan ilgari Chingizxon huzurida xizmat qilgan xorazmlik savdogar sudxo'r **Mahmud Yalavochga** beriladi. U Xo'jand shahrini o'ziga qarorgoh qilib oladi va shu yerda turib, Movarounnahrni idora qila boshlaydi. Chingizxon vafotidan keyin Chig'atoyga to'rt ming askar tekkan edi. Shularga suyanib Mahmud Yalavoch mo'ng'ul xoqonlari talabini ijro qilar va o'zining cheksiz hukmronligini amalga oshirar edi.

1238-yilda Chig'atoy Mahmud Yalavochni amalidan chetlashtirib, Movarounnahrdan chiqarib yuboradi. Mahmud Yalavochning isyonkor hududlarda qo'zg'olonni bostirishdagi sustkashligi hamda aholiga rahm va shafqat qilib, ularga solinadigan soliqlarni kamaytirishi uni amaldan chetlashtirishga sabab bo'lgan edi. Mahmud Yalavoch O'qtoy huzuriga Qoraqurumga yetib borgach, u Dasin (Pekin) shahriga hukmdor qilib tayinlanadi. Chig'atoy ulusiga Mahmud Yalavochning o'g'li Ma'sudbek noib hamda ijarador qilib tayin etiladi. Ma'sudbek ham



41- rasm. Amir Temur va temuriylar davri mis va kumush tangalari.

Movarounnahrda otasi boshlagan siyosatni davom ettirib, ulus daromadini xoqon xazinasiga avvaldan to'lab, aholidan «*barot*» asosida uni ko'paytirib yig'ib olardi.

## 2. Mo'ng'ullar davlatida siyosiy ahvol

XIII asrning o'rtalarida mo'ng'ullar davlatining umumsiyosiy ahvoli og'irlashadi. Bu davrda mo'ng'ullar istilosi butun Sharqiy Yevropaga yoyiladi. 1222—1241-yillarda Rusiya zabt etilib, *Oltin O'rda davlati* vujudga keladi. 1256-yilda Eron bosib olinib, *Xulagular davlati* tashkil topadi. 1258-yilda *Xulagu* abbosiylar sulolasiga xotima beradi. Lekin bunday g'olibona istilolar mo'ng'ullar davlatining mustahkamlanishiga olib kelmaydi. Aksincha, bosh hukmronlik uchun chingiziylar o'rtasida keskin kurash boshlanadi. Bu kurash ayniqsa *Guyukxon* vafotidan (1248) keyin kuchayadi.

1251-yilda Qoraqurumda bo'lib o'tgan qurultoyda chingiziylar orasida yoshi ulug'i Botu va uning ukasi Berkalarning qo'llab-quvvatlashi va ko'magida *Tuluxonning* to'ng'ich o'g'li *Munqa (1251—1259)* Mo'ng'ulistonning ulug' xoqoni qilib saylanadi. Munqa davrida Chig'atoy ulusi mulk sifatida tugatiladi. U Botu bilan Munqa o'rtasida kelishuv asosida taqsimlanib, Sirdaryogacha bo'lgan yerlarni Munqa, Movarounnahri esa Botu egallab oladi. Ammo oradan ko'p vaqt o'tmay, shu asrning 60-yillaridayoq Chig'atoyning nabirasi *Olg'uxon* Oltin O'rda ma'murlariga qarshi keskin kurash olib borib, Chig'atoylar ulusini qayta tiklashga muvaffaq bo'ladi.

Borgan sari keskin tus ola boshlagan siyosiy vaziyatdan ma'lum bo'lishicha, XIII asr o'rtalarida mo'ng'ullar garchi Osiyo va Yevropaning katta qismida o'z hukmronligini o'rnatgan bo'lsalarda, ammo hali ular yagona davlatga ega emas edi. Bu davrda ulug' xoqon nomigagina hokim edi.

## 3. Chig'atoy mo'ng'ullarining mahalliy aholiga nisbatan munosabatlari

1272-yilda Xulaguxonning askarlari Movarounnahrda bostirib kirib, Kesh va Naxshab shaharlarini talaydilar.

1273-yilda esa ular Buxoroga bostirib kirib shaharni g'arot qiladilar. Katta kutubxona va «*Ma'sudiya*» madrasasi yondiriladi.

Buxoroga yordamga kelgan 10 ming chig'atoy mo'ng'ullari ham talonchilikka qo'shilib ketadi. Buxoro vayron bo'lib, huvillab qoladi. Yetti yil davomida shahar deyarli jonsizdek yotadi.

Movarounnahrda Chig'atoy mo'ng'ullarining o'troq hayot, feodal tartiblari, ilg'or shahar madaniyati bilan bevosita muloqoti, shubhasiz, ularning ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlarida jiddiy o'zgarishlar sodir bo'lishiga olib keladi. XIII asr o'rtalarida Chig'atoy ulusining mo'ng'ul ma'murlari doirasida o'troqlikka ko'chish, shahar hayotiga yaqinlashish, mahalliy o'troq aholining boy madaniyatidan foydalanish jarayoni kuchayadi. Albatta mo'ng'ullar hayotidagi bunday yuksalish ular o'rtasida qattiq norozilik va qarshiliklarga uchraydi. Shuning uchun ham bu davrda o'troq dehqonchilik viloyatlari va ularning ziroatkor va hunarmand aholisiga nisbatan mo'ng'ul hukmron doiralari o'rtasida ikki xil munosabat paydo bo'ladi. Ko'chmanchi harbiy ma'murlarning katta qismi o'troq hayotga mutlaqo qarshi bo'lib, mamlakatni boshdan-oyoq yaylovga, shaharlarni xarobazorlarga aylantirish tarafdorlari edilar. Ularni viloyatlarni talash, o't qo'yish, vayron qilib, aholisini asirga olib, haydab ketish bilan ko'proq o'ljalarni qo'lga kiritish qiziqtirar edi.

Mahalliy ma'murlar, ruhoniy va savdogarlarning asosiy qismi ba'zi bir xonlar hamda harbiy ma'murlarning kichik bir qismi o'troq hayot tarafdori bo'lib, ular boshboshdoqlikka qarshi kurash olib borib, markaziy hokimiyatni mustahkamlashga intildilar. O'troq hayotni — dehqonchilik va savdoni ular davlat xazinasiga muttasil tushib, uni to'ldirib turadigan ulkan daromad manbai deb hisoblar edilar.

Bunday siyosat tarafdorlaridan biri Mo'ng'ulistonning ulug' xoqoni **Munqa** va ikkinchisi Chig'atoy ulusining noibi **Ma'sudbek** edi. Hatto Munqa soliq va hashar ishlarini tartibga solish to'g'risida maxsus farmon — yorliq chiqaradi. Bu yorliqda qayd qilinishicha, Munqa hajmi belgilanmagan eng og'ir soliq va o'lponlarni xususan Chingizxon vafotidan so'ng berilgan payza va yorliqlarni bekor qiladi. Yomlar bo'ylab pochta xizmati uchun ajratiladigan otlar sonini belgilab, aholidan ortiqcha ot talab qilish, shaxsiy kishilarning safarda pochta otlarini minib yurishini man etadi. Shuningdek, elchilar qo'llarida bevosita topshiriqlari bo'lmasa,

shahar yoki qishloqlarga bekorga kirmasligi va aholidan ular uchun belgilanganidan ortiqcha yem-xashak hamda oziq-ovqat olmasligi uqtiriladi.

Shunday qilib, Munqaning qonunlashtirilgan chora-tadbirlari cheklanmagan soliq va yig'implarni tartibga solib, o'zboshimchalik bilan yig'ib olinadigan hisobsiz to'lovlardan aholini ozod etadi. Shahar ichki hamda tashqi savdosini jonlanishiga imkon beradi.

Chig'atoy ulusining ijtimoiy va iqtisodiy hayotida bu davrga kelib yuzaga kela boshlagan siljish, shubhasiz, o'z navbatida Chig'atoy mo'ng'ullarining tutgan siyosatiga ham birmuncha ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

#### **4. Movarounnahrning iqtisodiy ahvoli. Ma'sudbekning pul islohoti**

XIII asrning 70—80-yillariga borganda Movarounnahrda asta-sekinlik bilan bo'lsa-da, shahar hayoti, xususan hunarmandchilik va savdo munosabatlari jonlana boshlaydi. Shaharlarning ichki hayoti, ayniqsa tovar va pul munosabatlarining tiklanishida Ma'sudbek tomonidan amalga oshirilgan pul islohoti muhim ahamiyatga ega bo'ladi. U Movarounnahrning 16 ta shahar va viloyatlarida, jumladan Samarqand, Buxoro, Taroz, O'tror, Xo'jand va boshqa shaharlarda bir xil vazn va yuqori qiymatli sof kumush tangalar zarb ettirib, mamlakatda ularni muomalaga chiqaradi. Bu borada shuni qayd qilish joizki, ikki yarim asr mobaynida Movarounnahrda kumush tangalar muntazam so'qilmagani (ishlab chiqarilmagani) nazarga olinsa, Ma'sudbekning pul islohoti tufayli mamlakatda tovar va pul munosabatlari tiklanib, shaharlar qisman bo'lsa-da, ichki hayotining jonlanishida muhim ahamiyat kasb etgan. Ayrim ma'lumotlarga qaraganda, ayni shu davrda Farg'ona vodiysida chig'atoyzodalardan **Tuvixon (1282—1306)** tomonidan Andijon shahriga asos solingan.

Garchi mamlakatda dehqonchilikning ahvoli haqida ma'lumotlar oz bo'lsa-da, har qalay XIII asrning oxirlarida Buxoro atroflarining sug'orilib obod etilishi to'g'risida 1299-yilga

mansub vaqf hujjati bizning davrimizgacha yetib kelgan. Ushbu hujjatda qayd etilishicha, vaqf xo'jaligining tashkilotchisi Buxorodan 4 farsax (28—32 km) uzoqlikda joylashgan, sug'orilib obod etilgan *Xamina* qishlog'ini ekin yerlari bilan sotib olgan. Bu qishloq yaqinida u yana bir qishloq barpo qilib, unda ikki masjid, qo'shchilar uchun turar joylar, tegirmon va bir nechta to'qimachilik korxonasini bino qilgan. Yana bir vaqf hujjatida o'sha vaqtlarda Buxoro va Vobkent atrofidagi qishloqlarda qarovsiz yotgan tokzorlar, mevali daraxtlar arralanib, to'nkalarigina saqlangan bog'larning o'rinlari, qurib qolgan ariq va hovuzlar, vayron qilingan saroy, machitlar, kadivar va ziroatchilar yashagan uy-joylarning xarobalari hali ko'p bo'lgani qayd etilgan.

Xullas, XIV asrning 20—40-yillarida Movarounnahrda mo'ng'ullar amalga oshirgan vayronagarchilik hali tugatilmay, hunarmandchilik, dehqonchilik, savdo-sotiq o'zining XIII asr boshlaridagi darajasiga ko'tarilmagan edi.

#### *Savol va topshiriqlar*

- ? 1. Chig'atoy ulusi qachon va qayerda tashkil topdi? 2. Mo'ng'ullar davlatining siyosiy ahvoliga baho bering. 3. Mo'ng'ullar mahalliy aholiga nisbatan qanday munosabatda bo'ldilar? 4. Ulug' xoqon Munqaning maxsus farmoni to'g'risida gapiring. 5. Ma'sudbekning pul islohoti va uning ahamiyatini gapirib bering. 6. Mo'ng'ullar zulmi bayon etilgan badiiy asar bilan tanishmisiz?

#### **MAVZUNI TO'LDIRISH UCHUN YOZMA MANBADAN MA'LUMOT**

XIV asrning 30-yillarida Movarounnahrda bo'lgan arab sayyohi **Ibn Battuta** Chingizxon boshliq mo'ng'ullar istilosi va uning oqibatlari to'g'risida qisqa bo'lsa-da, ammo qimmatli ma'lumotlarni yozib qoldirgan. Masalan, u bu to'g'rida quyidagi satrlarni bayon qiladi: «Chingizxon Movarounnahrni bosib oldi. Buxoro, Samarqand, Termizni vayron qildi, Jayhun daryosidan o'tib, Balx shahrigacha yetib bordi va uni ham qo'lga kiritdi. Keyin u Bomiyon sari yurib, uni ham egalladi. Keyin Xuroson va Iroq al-Ajam hududiga yorib kirdi. Musulmonlar Balxda va Movarounnahrda Chingizxonga qarshi bosh ko'tardilar. U orqasiga

qaytib qo'lda qilich bilan Balxga keldi va uni butkul buzib tashladi. Termizda ham xuddi shunday ish tutdi. Termiz butunlay xarobaga aylandi va u hozirga qadar (avvalgi o'rnida) tiklanmagan. Shu joydan ikki milya narida (boshqa bir) shahar qurilib, endilikda Termiz deb ataladi. U Bomiyon aholisini qirib, jome' masjidi minorasidan bo'lak butun shaharni tamomila yo'q qilib yubordi. Ammo keyin... totorlarning g'olibona urushi... xalifalik qarorgohi bo'lmish Bag'dodga bosib kirgunlariga qadar davom etdi».

Ibn Battuta sayohati davrida Buxoroda ham ba'zi bir tiklanish sodir bo'lganiga qaramay, shahar hali vayron etilganicha qolgan edi. «*Hozir ba'zi birlarini istisno etganda, — deb ta'kidlaydi arab sayyohi, — shahardagi masjidlar, madrasalar va bozorlar xaroba holida yotibdi... Hozirgi paytda Buxoroda ilm-fanda iqtidorli odamlar qolmadi, ilmga qiziqadigan odamlar ham qolmadi*».

Ibn Battuta Samarqanddan Termizga, undan esa Jayxun daryosi orqali Xurosonga o'tadi. Yo'l-yo'lakay, o'sha vaqtlarda aholi istiqomat qilmay, xaroba bo'lib yotgan Balx shahrini tasvirlaydi: «Balxni ko'rgan odam uni qachonlardir gullab-yashnagan shahar ekanini, muhtasham binolarini beixtiyor eslaydi, hozir ularning ba'zilarigina saqlanib qolgan. U mahallar bu katta sathlarni egallagan ulug'vor shahar edi. Masjid va madrasalarning izigina, lojuvard peshtoqlaridagi xatlarning asarlarigina qolibdi».

## 28-§. CHIG'ATOY ULUSINING IJTIMOY-IQTISODIY AHVOLI VA MADANIY HAYOTI

### 1. Kebekxon va uning islohotlari

XIV asrning birinchi yarmida Chig'atoy ulusida mo'ng'ullarning o'troqlikka o'tish jarayoni kuchayib, ularning ijtimoiy hayotida jiddiy o'zgarishlar sodir bo'la boshlaydi. Movarounnahrdek madaniy o'lka bilan mustahkam aloqa o'rnatishga va o'troq hayot kechirishga intilgan Chig'atoy xonlaridan biri **Kebek (1318—1326)** edi. U hokimiyatni bevosita o'z qo'liga olib, Qashqadaryo vohasidagi qadimgi *Nasaf* shahri yonida o'ziga saroy qurdiradi. Saroy mo'ng'ul tilida «*Qarshi*» deb yuritilib, shu saroyda turib u mamlakatni idora qiladi. Keyinchalik bu saroy atrofida yangi shahar

qad ko'taradi va u ham «Qarshi» deb atala boshlaydi. Bora-bora Qarshi gavjumlashib, eski Nasaf shahri xarob bo'ladi.

Kebek davlatni idora etish tuzilishini va uning iqtisodiy hayotini tartibga solish maqsadida ma'muriy va pul sohasida islohot o'tkazadi. Kebekning islohoti bo'yicha davlat viloyatlarga bo'linib, ular mo'ng'ulcha «*tuman*» deb yuritiladi. Ammo ma'muriy islohot mahalliy hokimliklar va beklklarga barham bermaydi, balki ularga moslashadi. Mayda mahalliy hokimliklar va beklklar tumanlarga, viloyatlarga, ilgorigi hokimlar esa tumanlarning noibiga aylantiriladi. Avvalgi mahalliy hukmdorlar — maliklar va sadrlarning o'rinlarini turk-mo'ng'ul urug' boshliqlari egallaydi. Kebek joriy qilgan ma'muriy bo'linish, garchi qadimiy an'analarga barham bera olmagan bo'lsa-da, u Movarounnahrda feodal davlatni mustahkamlashda ijobiy rol o'ynaydi.

Kebek davrida ichki savdo-sotiqni tartibga solish, qo'shni davlatlar bilan tashqi savdo munosabatlarini yaxshilash uchun butun mamlakatda yagona pul joriy qilinadi. Erondagi Xulagular davlati va Oltin O'rda xonligining kumush tangalari namunasida Kebek ikki xil pul: kumush tanga — «*dinor*» va mayda kumush tanga «*dirham*»lar zarb ettiradi.

O'troq hayotga ko'chgan Kebek va uning noiblarining bu harakatiga garchi Movarounnahrning o'troq aholisi xayrixohlik bilan qarasa-da, ammo mo'ng'ul ko'chmanchi ma'murlarning kattagina qismi unga norozilik bildiradi va qarshilik qiladi. Shunday bo'lsa-da, viloyatlarga kelib o'rmashib olgan mo'ng'ullar asta-sekin o'troq hayotga ko'chib, dehqonchilik bilan shug'ullana boshlaydilar. Bu esa, o'z navbatida, mo'ng'ullarni borgan sari mahalliy, ayniqsa turkiy xalqlarning madaniyati, urf-odatlarini, tilini qabul qilishga va ularga singib, turklashish jarayonini kuchayishiga olib keladi. Ular islom dinini qabul qila boshlaydilar. 1333-yilda Movarounnahrda bo'lgan arab sayyohlaridan biri Kebekning ukasi **Tarmashirinni (1334—1376)** masjidida uchratganligini qayd qilgan.

## 2. Chig'atoy ulusining bo'linishi

Movarounnahr mo'ng'ullarining o'troqlashuvi yerli tojik va turkiy aholining hayotiga ta'sirsiz qolmadi. Mo'ng'ul harbiy doiralarning o'troqlikka o'tib, unumdor yerlarni egallay boshlashi

mahalliy aholining xo'jaligiga zarba beradi. Uning ayrim qismlari o'z joylaridan siqib chiqariladi.

Movarounnahr mo'ng'ul urug'lari va qabilalarining ijtimoiy hayotida yuz bergan katta o'zgarish, ularning mahalliy ijtimoiy tuzumini qabul qilishlari, xo'jalik va madaniy hayotdagi o'zgarishlar mo'ng'ullarning etnik xususiyatlarini ham o'zgartirib yuboradi. Ammo bu jarayon faqat Movarounnahr mo'ng'ullari hayotida sodir bo'lib, Chig'atoy ulusining sharqiy qismida, ya'ni Yettisuvdagi mo'ng'ullar orasida u hali nihoyatda zaif edi. Bu ikki o'lka mo'ng'ullarining ijtimoiy hayotidagi farq borgan sari kuchayib, hatto ular o'rtasida dushmanlik kayfiyatini keltirib chiqaradi. Yettisuvlik mo'ng'ullar Movarounnahrda yashovchi mo'ng'ullarga nafrat ko'zi bilan boqib, ularni kamsitib «qoraunas», ya'ni «duragay» deb atasalar, Movarounnahr chig'atoylari yettisuvlik chig'atoylarni «jeta», ya'ni «qaroqchi-goloqlar» deb haqorat qilardilar.

XIV asrning 40-yillarida Chig'atoy ulusi ikkiga bo'linib ketadi. Uning sharqiy qismida — *Sharqiy Turkiston* va Yettisuvda mo'ng'ullarning *Dug'lat* amirligi, g'arbiy qismida esa *Movarounnahr* amirligi tashkil topadi.

### 3. Iqtisodiy hayotning jonlanishi

Mamlakat aholisining ijtimoiy hayotida sodir bo'lgan jiddiy o'zgarishlar, shubhasiz uning iqtisodiy jihatdan jonlanishiga turtki ham bo'ldi. Mo'ng'ullar istilosi davrida xarob bo'lgan hunarmandchilik, savdo-sotiq va dehqonchilik asta-sekin tiklana boshlaydi. Hunarmandchilik va ichki-tashqi savdoning jonlanishi, shubhasiz, xarob bo'lgan shaharlarning qayta tiklanishiga sabab bo'ladi. Garchi hali ko'pgina shahar va viloyatlar xaroba va yarim xaroba holida yotgan bo'lsa-da, *Urganch* va *Buxoro* shaharlari qayta tiklanadi. Qadimgi Samarqand vayronalari yonginasida yangitdan shahar qad ko'taradi. Movarounnahrda Andijon va Qarshi, Oltin O'rda davlatida *Saroy Botu* va *Saroy Berka*, Eronda *Sulaymoniya* kabi yangi shaharlar barpo etiladi. Ularning ba'zilari, hatto yirik savdo markazlariga aylanadi. Shaharlarda turli xil davlat, jamoat va ma'rifat binolari qad ko'taradi. Shahar bozorlari

gavjumlashadi. Ammo shaharlar va ulardagi hunarmandchilik taraqqiyoti hali Chingizxon istilosi arafasidagi darajagacha yetmagan edi.

XIV asrning birinchi yarmida Chig'atoy ulusining yuqori tabaqasi ko'chmanchilikdan o'troqlikka ko'cha boshlagan, mo'ng'ul harbiy ma'murlari, mahalliy feodallar: yirik yerdorlar, ruhoniylar va savdogarlardan iborat edi. Mamlakatdagi barcha mol-mulk, yer-suv ularning tasarrufida bo'lib, shahar va qishloqlarning mehnatkash ommasi ular hukmronligi ostida kun kechirar edilar.

#### 4. Yer egaligi

Mamlakatdagi unumdor yerlarning asosiy qismi davlat va uning ma'murlari, harbiy oqsuyaklar va ruhoniylar qo'lida edi. Yer va suvdan foydalanishda avvalgidek, iqto'dorlik davom qilar edi. Kam yerli va yersiz dehqonlar og'ir shartlar asosida yirik yerdorlarning mulklarida yollanib ishlashga majbur edi. Mo'ng'ullar hukmronligi davrida O'rta Osiyoda yerga bo'lgan egalikning to'rt xili mavjud edi: 1. *Mulki devon* — davlat yerlari. 2. *Mulki inju-xon*, noiblar va ularning avlodlari tasarrufidagi yerlar. 3. *Mulki vaqf* — masjid, madrasa, xonaqoh, mozar va maqbaralar ixtiyoridagi yerlar. 4. *Mulklar* — xususiy yerlar. Mulklarning kattagina qismi harbiy ma'murlarga davlat oldidagi xizmatlari uchun hadya qilingan yerlar bo'lib, ular «iqto'» yoki «suyurg'ol» yerlari deb yuritilardi. Bunday yerlarga ega bo'lgan yerdorlar «iqto'dor» yoki «suyurg'ol egalari» barcha soliq va to'lovlardan ozod etilardi. Iqto' va suyurg'ol yerlari avloddan-avlodga meros tariqasida o'tardi.

Yirik yerdorlar qo'lidagi mulk yerlariga yersiz yoki kam yerli dehqonlar biriktirilib, ular bunday mulklarda hosilning 1/3 evaziga ijarachi bo'lib ishlar edilar. Yirik yerdorlar va ularning xo'jaliklariga qaram bo'lib qolgan dehqonlar «kadivar» deb yuritilardi.

Kadivarlar feodal qo'rg'onlarida, ular uchun bino qilingan maxsus turar joylarda yashar edilar. Davlatga soliq to'lovchi asosiy mehnatkash dehqon ahli mayda yerdorlar bo'lib, ular arabiy hujjatlarda «muzoriy» nomi bilan tilga olinadi. Muzoriy — ziroatkor dehqon, polizkor ma'nosini anglatadi.

Muzoriy va kadivarlardan tashqari, mamlakatda qullar tabaqasi ham mavjud bo'lib, ulardan dehqonchilikda, ayniqsa suv xo'jaligi ishlarida: sug'orish shoxobchalarini loyqadan tozalash, to'g'onlar qurish kabi og'ir jismoniy ishlarda foydalanilar edi. Ma'lumki, mo'ng'ullar istilosi va qirg'inlari oqibatida kadivar va muzoriylarning soni kamayib ketadi. Dehqonchilikni asta-sekin jonlanishi bilan davlatga soliq to'lovchilarning asosiy qismini tashkil etgan erkin dehqonlar kuchiga bo'lgan muhtojlik orta boshlaydi. Buning oqibatida bu davrda qullarning ma'lum bir qismi joylarda qullikdan ozod etilib, yirik feodal mulklariga xususan vaqf yerlariga kadivar sifatida birlashtirish jarayoni kuzatiladi. Bunday ozod qullar, garchi ijarachilar qatorida hosilning 1/3 qismiga ega bo'lsalar-da, ammo vaqf yerlarini tashlab keta olmas edilar. Chunki ular vaqf yerlarida bir umr dehqonchilik qilishlari uchun ozod etilgan edilar.

## 5. Madaniy hayot

XIII asrning ikkinchi yarmi va XIV asr boshlarida shahar va qishloqlarda xo'jalik hayotining jonlanishi bilan shubhasiz mo'ng'ullar istilosi va bosqini davrida kuchli zarbaga uchrab inqirozga yuz tutgan *fan, adabiyot, ma'rifat* va *madaniyatning* ayrim tarmoqlari ham tiklana boshlaydi. Xususan, bu davrda birinchi navbatda shaharsozlik bilan bog'liq bo'lgan *binokorlik* va *me'morchilik* yo'lga qo'yiladi. Ayniqsa, o'rta asrlar me'morchiligining ko'zgusi hisoblangan *koshinpazlik, ganchkorlik, parchinsozlik, me'moriy g'isht o'ymakorligi* va me'moriy xattotlik asriy an'ana va tajribalar asosida tiklanib, hatto birmuncha taraqqiy ham qiladi. Onda-sonda bo'lsa-da, mahalliy binokor-me'morlar qo'li bilan qurilgan ko'rkam imoratu inshootlar: *masjid, madrasa, xonaqoh, maqbara, minora* va *saroylar* qad ko'taradi. O'sha asrlarda bino qilingan ko'pgina moddiy madaniyat obidalaridan ayrimlari bizning davrimizgacha saqlanib qolgan. **Buxoro shahridagi Sayfuddin Buxorziy, Bayonqulixon** maqbaralari, Samarqanddagi mashhur *Shohizinda* me'moriy ansamblining asosiy qismi bo'lgan **Qussam ibn Abbas** maqbarasining ziyoratxonasi, *Ko'hna Urganchdagi Najmuddin Kubro* va **To'rabekxonim** maqbaralari shular jumlasidandir. Bu davrda maqbaralar bilan bir qatorda

*masjid, madrasa va saroylar* ham qurildi. XIII asr o'rtalarida Buxoroda «*Mas'udiya*» va «*Xoniya*» nomlari bilan shuhrat topgan ikkita madrasa bino qilinadi. Mo'ng'ul xoni Kebek tomonidan qadimgi Nasaf shahri yaqinida xon uchun maxsus qarorgoh — saroy qurilib, u viloyatning markaziga aylanadi.

Garchi yozma manbalarda bizgacha aniq ma'lumotlar yetarli darajada yetib kelmagan bo'lsa-da, har qalay bu davrda ilm va ma'rifat ham ayrim yirik hunarmandchilik va savdo-sotiq markazlarida jonlanadi. Buxoroda bino qilingan «*Mas'udiya*» va «*Xoniya*» kabi madrasalarning har birida mingtagacha tolibi ilm ahli tahsil ko'radi.

XIII asrning ikkinchi yarmi va XIV asr boshlarida fan va adabiyot, asosan mo'ng'ullar hukmronligi o'rnatilmagan viloyatlar — *Kichik Osiyo, Janubiy Eron va Hindistonda* taraqqiy qiladi. Faqat XIV asr, oxiri va XV asr boshlariga kelgandagina yana adabiy muhit va uning markazi Movarounnahr va Xurosonga ko'chadi. Bu davrda fors-tojik shariyatining yirik namoyandalaridan **Jaloliddin Rumiy, Sa'diy Sheroziy, Amir Xusrav Dehlaviy** kabi buyuk siymolar yashab ijod etganlar.

**Jaloliddin Rumiy (1207–1273)** buyuk tasavvuf shoir bo'lib, she'riyatda u so'fiy-falsafiy janrni rivojlantirib, o'zining 36 ming baytdan iborat «*Masnaviyi ma'naviy*» nomli poemasini yaratdi. Bu asarida u so'fiylik falsafasining asoslarini talqin etadi.

Bu davrning mashhur mutafakkir adiblaridan yana biri **Sa'diy Sheroziy (1219–1293)**dir. U o'zining «*Guliston*» va «*Bo'ston*» nomli didaktik asarlaridagi sermazmun g'azallari bilan fors-tojik adabiyotining taraqqiyotida o'chmas iz qoldirdi. U o'z asarlarida ona yerga bo'lgan muhabbat, insonparvarlik g'oyalari mohirona bayon etadi. O'z davrining buyuk adiblaridan **Amir Xusrav Dehlaviy (1253–1325)** Nizomiy Ganjaviydan so'ng «*Xamsa*» dostonini yozgan ham shoir, ham musiqashunos mutafakkirlardan edi. U «*Zafarlar kaliti*», «*Falakning to'qqiz gumbazi*» kabi asarlar muallifidir.

XIII asrning ikkinchi yarmidan boshlab ayniqsa tarixnavislik taraqqiy qiladi. Bu davrda **Juzjoniyning «Tabaqoti Nosiriy», Juvayniyning «Tarixi jahongushay»** («Jahon fotihi tarixi»), **Fazlulloh Rashiduddinning «Jome at-tavorix»** («Tarixlar to'plami») kabi qimmatli tarixiy asarlari yoziladi. Bu asarlar



o'sha davr tarixi, ayniqsa mo'ng'ullar istibdodini o'rganishda birinchi darajali manba hisoblanadi.

Bu davrda Xorazmda islom axloqi, odobi va taqvodorligi asosida turkiy tildagi adabiyot rivoj topa boshlaydi. Keyinchalik u «*Chig'atoy tili*» va «*Chig'atoy adabiyoti*» nomini oladi. Shu bilan birga Xorazmning markaziy shahri Urganchga yana olimlar, adiblar, me'moru musavvirlar to'planadi. Keyinchalik ular Amir Temur davlati qaror topgach, fan va san'atning taraqqiyotiga katta ta'sir ko'rsatadi.

### *Savol va topshiriqlar*

1. Kebekxon islohotlari haqida nimalarni bilib oldingiz? 2. Kebekxon pul islohotining ahamiyati nimada? 3. Chig'atoy ulusining bo'linish sababi nimada? 4. Qanday yangi shaharlar barpo etildi? Shaharlar, binolar qurilishi nimani ko'rsatadi? 5. Mo'ng'ullar davridagi yerga egalik va uning turlari haqida gapiring. 6. Mo'ng'ullar davrida bunyod etilgan madaniyat obidalari haqida gapirib bering. 7. XIII asr oxiri, XIV asr boshlarida adabiy muhit Movarounnahr va Xurosonga ko'chganligini gapirib bering. 8. Tarix fanidagi yutuqlar haqida gapirib bering.

## *UCHINCHI QISM*

### **O'RTA ASRLAR UYG'ONISHI DAVRIDA O'ZBEKISTON (XIV—XVI asr boshlari)**

#### **I B O B**

#### **AMIR TEMUR SALTANATI**

#### **29-§. SIYOSIY TARQOQLIK VA SARBADORLAR HARAKATI**

#### **1. Movarounnahr mayda hokimlar asoratida**

XIV asrning 50–60-yillarida Movarounnahrda feodal tarqoqlik g'oyatda kuchayib, o'zaro kurash yanada keskinlashadi. Mamlakatdagi har bir viloyat alohida hukmdorlikka ajralib, ular o'rtasida nizo kuchayib ketadi va qonli urushga aylanadi. Xondamirning yozishicha, ulus 10 ga yaqin mustaqil bekliklarga bo'linib ketgan. Samarqand viloyatida Amir Bayon Sulduz, Keshda Amir Hoji Barlos, Xo'jandda Amir Boyazid Jaloir, Balxda O'ljaytu Sulduz, Hisori Shodman chegarasida Amir Husayn va Amir Yasovuriylar o'zlarini hokimi mutlaq deb e'lon qiladilar.

Nizomuddin Shomiyning so'ziga qaraganda, mamlakatda hokimlar o'rtasida doimo nizolar va g'alayonlar bo'lib turar, davlat ishlari esa butunlay izdan chiqqan edi. Siyosiy parokandalik, o'zaro urush va janjallar iqtisodiy tanglikka sabab bo'lib, mamlakat aholisini, ayniqsa dehqonlar xo'jaligini xonavayron qilgan edi. Buning ustiga Sharqiy Turkiston va Yettisuvda tashkil topgan Mo'ng'uliston amirlari Movarounnahrni bosib olish maqsadida bir necha bor Movarounnahr ustiga yurish qilib, uni talaydilar. Mo'ng'uliston amirlarining vayronagarchilikka olib keluvchi yurishlari, istibdodi va zulmiga qarshi xalq harakati boshlanadi.

Mana shunday o'zaro ichki urushlar qizigan, mo'ng'ullar zulmiga qarshi mehnatkash xalq harakatlari boshlangan bir davrda, mamlakatda yangi siyosiy kuch yetilmoqda edi... Ya'ni qisqa vaqt ichida jahon imperiyasini vujudga keltirgan Sohibqiron Amir Temur siyosat maydoniga dastlabki qadamlarni qo'yimoqda edi.

## 2. Amir Temur (1336–1405)

**Amir Temur** Kesh (Shahrisabz) shahri yaqinida Xo'jailg'or qishlog'i (Yakkabog')da 1336-yil, 9-aprel kuni tavallud topgan. Uning to'liq ismi **Amir Temur ko'ragoniy ibn Amir Tarag'ay ibn Amir Burkul**. Yozma manbalarda u **Temurlang**, Yevropa adabiyotida esa **Tamerlan** nomlari bilan ham ta'riflanadi. Chunki u Seistonda bo'lgan jangda (1362) o'ng kifti va o'ng oyog'idan jarohatlanib bir umrga oqsoqlanib qolgan edi. Amir Temurning onasi **Takinaxotun** Kesh yurtining obro'li *beka* (bek og'o)laridan hisoblangan. Uning otasi **Amir Tarag'ay** barlos urug'ining *biy* (urug' oqsoqoli)laridan bo'lib, Chig'atoy ulusining e'tiborli beklaridan hisoblangan. Uning ajdodlari esa Chig'atoy saroyi mulozimlari qatoridan o'rin tutgan. Ular Kesh va Nasaf viloyatida o'z mulklariga ega bo'lgan va bu yurtida hokimlik qilgan. Shu boisdan Amir Temurning otasi **Amir Tarag'aybek** ham yilda bir marotaba Ila daryosi bo'yida xon tomonidan chaqiriladigan el-yurt bek va biylarining umum qurultoyiga taklif etilar va bunday yig'inlarda muttasil qatnashar edi.

Amir Temurning yoshligi Ona yurti Keshda kechdi. Yetti yoshga to'lgach, otasi uni o'qishga beradi. U yoshlik chog'laridanoq chavandozlik va ovga ishqiboz bo'lib, kamondan nishonga o'q uzish, ot choptirib turli mashq va harbiy o'yinlar bilan mashg'ul bo'lishni yoqtirar edi. Shu asnoda Amir Temur tulporlarni saralab ajrata oladigan mohir chavandoz va dovyurak bahodir sifatida voyaga yetadi. Uning atrofiga bolalikdagi do'stlari va maktabdoshlari to'planishib, birgalikda mashq qilar, musobaqalarda ishtirok etishar, asta-sekin navkar bo'lishib, harbiy guruhga birlashib shakllana borishardi. Bu guruh orasida **Abbos Bahodir, Jahon Shohbek, Kimori Inoq, Sulaymon Shohbek, Sayfuddinbek** va boshqalar bo'lgan. Keyinchalik ular Amir Temurning safdoshlariga aylanib, uning qo'shinida lashkarboshilik darajasigacha ko'tarilganlar.

Amir Temur tabiatan og'ir, bosiq, teran fikrli va idrokli, samimiyatni tezda fahmlab oladigan inson bo'lgan. Shu tufayli o'spirinlik chog'laridayoq tengqurlaridan sadoqatli do'stlarni atrofiga jalb qila olgan. O'zining ilk harbiy faoliyatini Amir Temur qo'l ostidagi navkarlari bilan ayrim viloyat amirlariga xizmat qilishdan boshlagan. Ularning o'zaro kurashlarida qatnashib, jasorat ko'rsatgan va janglarda chiniqqan. Harbiy mahorat va oliyhimmatlilik Amir Temurning shuhratini oshirib, uning dong'i butun Qashqadaryo vodiysi, xususan Kesh viloyatiga yoyilgan. Amir Temurning aql-zakovati, shijoati va jasorati to'g'risidagi shuhrat uni Movarounnahrning nufuzli amirlaridan avval **Joku Barlos, so'ngra Amir Qazog'on (1346–1358)** bilan yaqinlashtirgan. Otasi Amir Temurni avval (1352) Amir Joku Barlosning qizi **Turmish Og'oga** uylantiradi. 1355- yilda Amir Temur Qazog'onning nabi-



42-rasm. Amir Temur.

rasi, Amir Husaynning singlisi **Uljoy Turkon Og'oni** o'z nikohiga oladi. Keyingi nikoh tufayli Balx amiri bilan bog'langan qarindoshlik aloqalari shubhasiz Amir Temur bilan Amir Husayn o'rtasidagi ittifoqni yuzaga keltirdi va mo'ng'ullarga qarshi jiddiy kurash boshlandi.

### 3. Movarounnahrni birlashtirish yo'lidagi dastlabki qadamlar

Amir Temurning Movarounnahrni birlashtirish yo'lidagi dastlabki harakati XIV asrning 60-yillari boshlaridan boshlangan. Buning sababi XIV asrning 50-yillari oxirida Movarounnahrda amirlarning o'zaro kurashi kuchayib, Amir Qazog'on o'ldiriladi. Mamlakatda siyosiy parokandalik avjiga chiqib, har jihatdan og'ir tanglik sodir bo'ladi. Bu davrda Chig'atoy ulusining sharqiy qismi — Yettisuv va Sharqiy Turkistonda hukmronlik qilayotgan mo'ng'ul xonlari Movarounnahrda og'ir siyosiy vaziyatdan foydalanib, bu o'lkada o'z hokimiyatini o'rnatishga harakat qiladilar. Mo'ng'ul xonlaridan **Tug'luq Temur (1359–1363)** 1360–1361 yillarda Movarounnahrda birin-ketin ikki marta bostirib kiradi. Mo'ng'ul xonlarining g'orati — vayronagarchilik yurishlari, istibdodi va zulmiga qarshi xalq harakati boshlanadi. Biroq, Movarounnahr amirlari xalqqa bosh bo'lib mo'ng'ul bosqinchilariga qarshi kurashga jur'at eta olmaydilar. Ularning bir qismi dushman tarafiga o'tadi, ikkinchi qismi esa el-yurtini tark etib o'zga mamlakatlardan boshpana izlaydi. Amir Temurning amakisi Kesh viloyatining hukmdori **Amir Hoji Barlosdek** bahodir bek Xurosonga tomon qochadi.

Mo'ng'ullarga qarshi turish uchun kuchlarning teng emasligini hisobga olgan 24 yoshli Amir Temur 1360-yilning boshida Tug'luq Temur tomonidan Keshga yuborilgan beklar bilan kelishadi. Sharoit taqozosi bilan Kesh viloyatini butunlay qo'ldan chiqarib yubormaslik maqsadida xon xizmatiga o'tadi. Natijada Tug'luq Temurning yorlig'i bilan o'z viloyatining *dorug'asi* etib tayinlanadi. Shubhasiz, bu noilojliklardan qo'yilgan siyosiy va strategik qadam edi. Bu bilan Amir Temur mo'ng'ullarning navbatdagi talonini oldini olib, mamlakat va xalqni bunday halokatdan qutqargan edi.

Biroq, Movarounnahrning hukmdori etib tayinlangan Ilyosxoja bilan Amir Temurning murosasi to'g'ri kelmaydi. Shu sababli 1361-yilning oxirida mamlakatni tark etishga majbur bo'ladi. U Movarounnahrning nufuzli amirlaridan Husayn bilan ittifoq tuzadi. Ularning ittifoqligi qarindoshlik aloqalari tufayli yanada mustahkamlanadi. Amir Temur va Husayn avval boshdanoq movarounnahrlik isyonkor amirlarga qarshi ichki, so'ngra esa mo'ng'ullarga qarshi kurash olib boradilar. 1363-yilda Amudaryoning chap sohilida Qunduz shahri yonida Temur va Husayn umumiy dushman ustidan g'alaba qozonadilar. Keyingi ikki yil davomida ittifoqchilar Ilyosxoja boshliq *jeta* lashkarlari bilan bir necha marta jang qiladilar. Nihoyat 1364-yil oxirida ular mo'ng'ullarni Movarounnahrdan quvib chiqaradilar.

Biroq, Movarounnahrni qo'ldan chiqarishni istamagan Ilyosxoja 1365-yilning bahorida yana Turkiston ustiga qo'shin tortadi. Ikki o'rtadagi jang 1365-yil 22-may kuni Toshkent bilan Chinoz o'rtasidagi Chirchiq daryosi bo'yida sodir bo'ladi. Tarixda u «*Jangi loy*» nomi bilan shuhrat topadi. Chunki o'sha kuni kuchli jala quyib, jang maydoni botqoqlikka aylangan, hatto otlar loyga botib qolgan. Jangda Amir Temur bilan Husayn kelishib harakat qilmaganliklari oqibatida ular mag'lubiyatga uchraydilar. Jangda Amir Temur qo'shini g'olibona harakat qilib, zafar topayotgan bir paytda, Husayn o'z askarlari bilan jang maydonini tark etadi. Amir Temur chekinishga majbur bo'ladi. Bu g'alabadan so'ng Ilyosxoja hech qanday qarshilikka uchramay, Xo'jand va Jizzax shaharlarini egallab, Samarqand ustiga yuradi. O'sha paytlarda Samarqand katta qo'shinga qarshilik ko'rsata olmasdi. Shaharning na devori, na mustahkam istehkomlari va qurollangan sipohisi va nabironta shijoatli amiri bor edi. Lekin mo'ng'ullarga qarshi xalq ko'tariladi. Shahar mudofaasini u o'z qo'liga oladi. O'z g'alabasi bilan sarmast Ilyosxoja boshliq mo'ng'ullar jabrdiyda samarqandliklarning qaqshatqich zarbasiga uchraydilar. Uzoq davom etgan mo'ng'ullar hukmronligiga qarshi ko'tarilgan bu xalq harakati tarixda «*Sarbadorlar*» harakati nomi bilan shuhrat topadi.

#### 4. Samarqand sarbadorlari

Sarbadorlar harakati dastavval, 1337-yilda Xuroson (hozirgi Afg'oniston va Eronning shimoli)da boshlanadi. Sarbadorlar maqsadga erishish uchun ozodlik yo'lida dorga osilishga ham tayyormiz degan shior ostida mo'ng'ul bosqinchilari va mahalliy mulkdorlar zulmiga qarshi kurash olib boradilar. Xurosonning g'arbiy qismida ular mo'ng'ullar hukmronligini tor-mor qilib, mustaqil Sarbadorlar davlatini barpo etadilar. Bu davlatning markazi Sabzavor shahri bo'lib, u qariyb 45 yil hukm suradi. Sarbadorlar asosan *dehqonlar, hunarmandlar, shayxlar va qullardan* iborat edi. Ularning hukumati demokratik tartibga asosan qurilgan bo'lib, unda tabaqalar deyarli bir-biridan farq qilmagan. Masalan, qullar to'la ozod etilmagan bo'lsa ham, ular boshqalar bilan bir qatorda sanalganlar.

Sarbadorlar harakati XIV asrning 60-yillarida Movarounnahrda mo'ng'ul xonlarining hujumi munosabati bilan kuchayib ketadi. Samarqand butunlay harakat markaziga aylanadi. Qo'zg'olonga tolibi ilm **Mavlonzoda Samarqandiy**, jun tituvchi mahallasining oqsoqoli **Abu Bakr va Xurdaki Buxoriylar** boshchilik qiladilar. Sarbadorlar mo'ng'ullarga Samarqand shahrida qaqshatqich zarba beradilar. Ilyosxoja avval Samarqandni, so'ngra esa butun Movarounnahmi tashlab chiqib ketishga majbur bo'ladi. Shaharda xalq hokimiyati o'rnatiladi va ayrim islohotlar o'tkaziladi. Badavlat mulkdor shaxslarni mol-mulki musodara qilinib, ularga tazyiq o'tkazadilar. Tortib olingan mol va mulklar kambag'al-yo'qsillarga tarqatiladi, jon boshidan olinadigan «*jiz'ya*» solig'i bekor qilinadi. Sharofuddin Ali Yazdiyning yozishicha, bunday voqealardan so'ng Samarqandda tartibsizliklar sodir bo'ladi. Shunga qaramasdan, ular Samarqandni butun qish davomida idora qilib turadilar.

Sarbadorlar boshliq samarqandliklarning mo'ng'ullar xoni Ilyosxoja ustidan g'alabasi va shahardagi tartibsizliklar to'g'risidagi xabar Amir Temur bilan Amir Husaynga ham borib yetadi. Amir Temur qishni *Qarshida*, Amir Husayn esa Amudaryo bo'yida *Solisaroyda* o'tkazadi. 1366-yilning bahorida ular Samarqandga yo'l oladilar va shahar yaqinidagi *Konigil* mavzeiga

kelib tushadilar. Beklar sarbadorlarning yetakchilari bilan muzokara olib boradilar. Afsuski, sarbadorlar beklarning asl niyatlaridan mutlaqo bexabar edilar. Uchrashuvning birinchi kunida beklar, ularning sharafiga ziyofat berib, sha'niga hamdu sanolar aytadilar. Biroq, ertasi kuni ularning qo'l-oyoqlariga kishan solinib, Abu Bakr bilan Xurda Buxoriylar dorga tortiladilar. Mavlonzodani esa Amir Temur o'rtaga tushib qutqarib qoladi. Shu tariqa sarbadorlar boshliqsiz qoldirilib, harakat bostiriladi. Movarounnahrda Amir Husaynning hukmronligi o'rnatiladi. Ammo ko'p vaqt o'tmay Husayn bilan Amir Temur o'rtasida munosabat keskinlashib, ochiqdan-ochiq nizoga aylanadi. Amir Temurning nufuzi ortib borayotganligidan xavfsiragan Amir Husayn Balxga qaytib, uning qal'a devorlari va istehkomlarini mustahkamlashga kirishadi. Balx, Qunduz va Badaxshondan ko'p sonli askar ham to'playdi. Kesh va Qarshi viloyatlarini hukmdori bo'lib qolgan Amir Temur ham o'zining sobiq ittifoqdoshi hamda qaynog'asi Amir Husayn bilan hal qiluvchi jangga hozirlik ko'radi. 1366–1370-yillar davomida ular o'rtasida bir necha bor o'zaro to'qnashuvlar bo'ladi.

### *Savol va topshiriqlar*

- ?
1. XIV asming ikkinchi yarmida Movarounnahrning siyosiy ahvoli qanday edi?
  2. Amir Temurning yoshligi, o'spirinligi haqida nimalarni bilasiz?
  3. Amir Temurning mamlakatni birlashtirish harakatlari haqida gapirib bering.
  4. Sarbadorlar kimlar, ular harakatining maqsadi nima edi? Samarqand sarbadorlari haqida nimalarni bilib oldingiz?
  5. Amir Temur haqida yana qanday kitoblar o'qigansiz? Gapirib berishga tayyorlanib keling.

### **30-§. AMIR TEMUR DAVLATINING TASHKIL TOPISHI**

#### **1. Amir Temurning hokimiyat tepasiga kelishi**

XIV asrning 60-yillarida Movarounnahrda hukm surgan nihoyatda og'ir siyosiy va iqtisodiy vaziyat mamlakatni birlashtirib, kuchli bir davlat tashkil etishni talab qilmoqda edi. **Amir Husayndan ko'ra Amir Temur** o'z zamonining bunday talabini yaxshiroq tushunardi. Shuning uchun ham u o'z

faoliyatining dastlabki bosqichida barcha harakatni Movarounnahrda markazlashgan davlat tuzishga qaratadi. Bunday maqsadni amalga oshirishda u ruhoniylar, harbiylar, savdogarlar va shahar hunarmandlari tabaqalariga suyanadi. Amir Temur tarqoq mamlakatni birlashtirishga kirishar ekan, kurashni avvalo ichki va o'ziga yaqin g'animlaridan boshlaydi. 1370- yilning bahorida Amir Temur kuchli raqib, sobiq ittifoqdoshi, Balx hukmdori Amir Husaynga qarshi yo'lga chiqadi. Qo'shin *Termiz* yaqinidagi *Buyo* qishlog'iga yetganida aslzodalardan **Sayyid Baraka** Amir Temur faoliyatini qo'llab-quvvatlab, unga Oliy hokimiyat ramzi katta nog'ora— *tabl* bilan yalov — *bayroq* tortiq qiladi. Shubhasiz bu voqea siyosiy ahamiyatga ega edi. Chunki u saltanatlik ramzi edi. Amir Temur buni yaxshi tushunardi. Shuning uchun ham u Balxga yetmasdan *O'rpuz* mavzeida amir va no'yonlar bilan mashvarat (majlis) o'tkazadi. Ko'pchilikning xohish va ixtiyori bilan, qadimiy qonun-qoidaga ko'ra, chingiziylar avlodidan bo'lgan **Suyurg'atmish o'g'lon (1370—1388)** mamlakat podsholigi taxtiga o'tqiziladi. Bu orada Amir Temur qo'shini to Balxga yetib borgunicha, yo'l-yo'lakay unga yangi-yangi kuchlar kelib qo'shiladi. Bu paytga kelib Amir Husaynning ko'pchilik amirlari uni tark etadilar. Jangda Amir Husayn qo'shinlari yengiladi, ikki kunlik qamaldan so'ng, 1370- yilning 9- aprelida Balx

shahri Amir Temurga taslim bo'ladi. Amir Husayn asir olinib, qatl etiladi.

1370- yilning 10- aprelida Chig'atoy ulusining bek va amirlari, viloyat va tumanlarning zodagon ayonlari hamda Termizning xonzodalari, shuningdek Amir Temurning piri **Sayyid Baraka** ishtirokida qurultoy o'tkaziladi. Manbalarda



43-rasm. Amir Temur qo'shinalarining Karmon qal'asini qamal qilishdagi jangi. Miniatyura.

ta'riflanishicha, qurultoyda e'tiborli amirlar, Temurning yoshligidagi quoldoshlari va uning sobiq dushmanlari hozir bo'lgan edilar. Ular orasida **Bayon Sulduz, Amir Uljoytu, Amir Kayxisrav, Joku Barlos, Amir Zinda Chashm** va boshqa mo'tabar ma'murlar bor edi. Qurultoyda Amir Temurning hukmdorligi rasman tan olinib, u *Movarounnahrning amiri* deb e'lon qilinadi. Garchi saltanat taxtiga, an'anaga ko'ra dastlab nomigagina Suyurg'atmish, so'ngra uning vafotidan keyin **Sulton Mahmud (1388—1402)** o'tqizilgan bo'lsa-da, amalda markaziy hokimiyatni Amir Temurning o'zi boshqarar, viloyatlardagi hokimiyatni o'g'illari, nabiralari va yaqin amirlari orqali idora qilardi.

## 2. Movarounnahr va Xorazmda feodal tarqoqlikning tugatilishi

Movarounnahrning yagona hukmdori bo'lib olgach, Amir Temur o'z davlatini siyosiy va iqtisodiy jihatdan mustahkamlashga kirishadi. Avvalambor, davlat uchun mustahkam poytaxt — bebosh mahalliy hukmdorlarning hujumlariga qarshi tura oladigan bir qarorgoh zarur edi. Shu maqsadda Amir Temur 1370-yilning may oyida Samarqandga qaytadi va shaharda devorlar, qal'alar hamda saroylar bino qilishga kirishadi. Bu imoratlar Samarqand mo'ng'ullar tomonidan vayron etilgandan keyin 150 yil o'tgach, birinchi marta bunyod qilingan umumjumhuriy inshootlar edi. So'ngra u holdan toygan mamlakatda qonun va tartib ishlarini joriy etadi. Maxsus qo'shin tuzib, unga katta imtiyozlar beradi. Shu bilan birga u o'z davlati chegaralarini mumkin qadar kengaytirishga kirishadi. Avval u Amudaryo va Sirdaryo oralig'idagi yerlarni birlashtirib, o'ziga bo'ysundiradi.

Ammo Mo'ng'uliston tomonidan bo'ladigan xavf hali bartaraf etilmagan edi. Amir Temur davlati uchun ayniqsa, Jo'ji ulusida qad ko'targan Oltin O'rda nihoyatda xavfli edi. Amir Temur saltanati bilan Oltin O'rda xonligi oralig'ida bu davrga kelib mustaqil bo'lib olgan Xorazm yerlarida Qo'ng'iro't so'filarining davlati qaror topgan edi. Qadimdan iqtisodiy va madaniy jihatdan Movarounnahr bilan bevosita bog'liq bo'lgan Xorazm mo'ng'ullar davrida ikki qismga ajralib, markazi Urganch shahri bo'lgan Shimoliy Xorazm Oltin O'rdaga, markazi Kat qal'asi bo'lgan

Janubiy Xorazm esa Chig'atoy ulusiga bo'ysungan. XIV asrning 60-yillari oxirida Oltin O'rdada yuz bergan g'alayonlar vaqtida Qo'ng'iro't so'filari Shimoliy Xorazmda yangi sulolaning mustaqil hukmronligini tiklab oladilar. So'ngra Kat va Xiva shaharlarini fath etib, Shimoliy Xorazm bilan Janubiy Xorazm yerlarini birlashtiradilar. Amir Temur esa butun Xorazmni Chig'atoy ulusining ajralmas qismi deb hisoblar edi. Shuning uchun u Xorazmni o'z davlatiga qo'shib olish siyosatini tutdi. 1372-yilda Amir Temur Xorazmga yurish qilib, uni egallaydi. Biroq tarixiy voqealarning taqozosi bilan Amir Temur Xorazmga besh marta harbiy yurish qildi. Xorazm 1388 yilda uzil-kesil Temur davlatiga qo'shildi.

Shunday qilib, Amir Temur Movarounnahr va Xorazmda feodal tarqoqligiga va o'zaro nizolarga zarba berib, Sirdaryo vohasidan to Orol dengizigacha bo'lgan yerlarda yashovchi xalqlarni yagona davlat tasarrufida birlashtiradi. Bu shubhasiz, Movarounnahr xalqlari taqdirida ijobiy ahamiyatga ega edi.

#### *Savol va topshiriqlar*

1. Amir Temur qanday qilib yagona hukmdor bo'lib qoldi? 2. 1370-yil 10-aprelda o'tkazilgan qurultoy haqida gapirib bering. 3. Samarqand shahrini qaytadan bunyod qilishda Amir Temurning xizmati to'g'risida gapirib bering. 4. Xorazm yurishlari va uning natijasi haqida gapirib bering. 5. Samarqandni ko'rgan bo'lsangiz shahar tarixi haqida hikoya tayyorlang. Ko'rmaganlar rasmlardan foydalanib suhbatga tayyorlanib kelishsin.

\* \* \*

#### *MAVZUNI TO'LDIRISH UCHUN YOZMA MANBADAN MA'LUMOT*

**Samarqandning qayta qurilishi haqida.** Bu borada XV asr muallifi quyidagilarni yozadi: «Ilgarilari Samarqand shahrining ulug'vor qo'rg'oni bo'lib, uning ustma-ust qurilgan bir nechta *boro'si* (mudofaa inshooti) va chuqur *xandaqi* bor edi. Uning qoldiqlari hozirgacha mavjud va uni *Bolo Hisor* deyдилar. Bular Chingizxonning xuruji zamonida xarob bo'ldi.

Saltanat navbati Sohibqiron Amir Temurga yetganda yetti yuz yetmish uchinchi (1371–1373) yili hozirgi paytda (ham) mavjud *shahrbandni* bunyod etdi. Uni qisqa muddatda nihoyasiga yetkazib,

o'sha yilning o'zidayoq arkning qal'asini (ham) qurdirdi. Shundan so'ng Movarounnahr o'lkasi xususan, Samarqandning obodonligi tobora ortib bordi.

On hazrat qurilishlaridan biri, jumladan Samarqandning o'zida qurilgan jome' masjid erur. Tamomi rub'i maskunda uningdek imoratni ko'rsata olmaydilar. Uning asosi xoro (granit) toshidan, mehrobi *po'latdan*; unga g'aroyib shakllar, ajoyib nafisliklar, latif yozuvlar va nozik san'atkorliklar qilingan. To'rt ruknda to'rtta minora *Ayyuq yulduzigacha* bo'y cho'zmish. Har biri o'n gaz keladigan to'rt yuzta marmar ustun uzoq joydan birdaniga olib kelinib, u yerga o'rnatilgan. Sahn va tomi hammasi toshdan shunday bir san'at bilan terib chiqilganki, oylar va yillar ta'siridan, naqshlari o'chib ketishdan, binosi yemirilishdan himoyalangandir.

Boshqa oliy imoratlar jumlasidan shahar atrofida barpo etilgan bir nechta katta bog'lardurkim, har bir bog'da shohona ko'shklar qurilgan. Ular: *Bog'i Dilkusho, Bog'i Chinor, Bog'i Behisht, Bog'i Bo'ldo, Bog'i Amirzoda Shohruh, Bog'i Zog'on, Bog'i Baland, Bog'i Amirzoda Ulug'bek, Bog'i Maydon.*

Bulardan yana (bir qancha) madrasalar, xonaqohlar, ma'muriy binolar, uy-joylar qurilib iqto'lar belgilandikim, ular ul tabarruk shahardagi iste'dod sohiblari va xizmat ko'rsatgan kishilar uchundir. Kundalik ehtiyojdan kelib chiqib, o'z din va podshohlarining hurmati yuzasidan amirlar arkoni davlat, oqolar va farzandlar on hazratga ergashib har biri ul diyorda madrasalar, masjidlar va xonaqohlardan iborat o'z binolarini qurdilar hamda ular uchun obod yerlar, ko'chmas mulklarni vaqf qilib, olimlar, zohidlar va obidlarga maosh belgiladilar».

### 31-32-§§. AMIR TEMURNING HARBIY YURISHLARI

#### 1. Ichki nizolar va Mo'ng'uliston hujumlariga chek qo'yilishi

Movarounnahr mo'ng'ullardan ozod qilinib, bu qadimiy diyorda mustaqil davlat barpo etilgan bo'lsa-da, biroq mamlakatda hali barqaror tinchlik o'rnatilgan emas edi. Bir tomondan, ayrim viloyat amirlari Amir Temur hokimiyatini tan olishdan bosh

tortib turgan bo'lsalar, ikkinchi tomondan, mamlakatning sharqiy va shimoliy hududlari notinch edi. **Mo'ng'uliston bilan Oq O'rda**, Sharqiy Farg'ona, O'tror, Yassi (Turkiston) va Sayram shaharlariga xavf solib, bu hududlarga tez-tez hujum qilar va aholini talon-toroj qilardi. Shuning uchun ham Amir Temur dastlabki yillarda mamlakat sarhadlari xavfsizligini ta'minlashga katta ahamiyat berdi. Isyonchi amirlarga qarshi shafqatsiz kurash olib bordi. 1370-yilning kuzi va 1371-yil bahorida **Zinda Chashm**ga zarba berilib, **Shiburg'on** viloyati bo'ysundirildi. Balx va Toshkent viloyatlari ham Amir Temur hokimiyatini tan oladilar.

Bu orada Amir Temur Mo'ng'uliston hokimi **Qamaruddin** bilan to'qnashadi. Chunki bu davrda uning Movarounnahrda bo'lgan talonchilik xurujlari kuchayib ketgandi. 1370–1371-yillarda u Toshkent va Andijon ustiga bir necha bor bosqinchilik qilib, shaharni talab qaytadi. 1376-yilda esa Qamaruddin hatto Farg'ona vodiysining anchagina qismini bosib oladi. Mamlakatning shimoli-sharqiy hududlariga nisbatan muttasil bo'lib turgan tahdidni bartaraf qilish uchun Amir Temur Qamaruddinga zarba berishga kirishadi. Yigirma yil (1371–1390) mobaynida Sohibqiron Mo'ng'ulistonga yetti marta yurish qilib, **Qamaruddin** amir **Anqoto'ra** ustidan g'alaba qozondi. Shu zaylda Amir Temur Movarounnahr va Xorazmda hukm surgan feodal tarqoqlikka, o'zaro nizo va Mo'ng'uliston tomonidan bo'lib turgan tazyiqqa chek qo'ydi.

## 2. Amir Temur va To'xtamish

Biroq bu davrda Amir Temur davlati uchun eng kuchli xavf **Oltin O'rda** edi. Endilikda Amir Temur Oltin O'rdaga zarba berib, uni kuchsizlantirishga jiddiy harakat qiladi. Uning ichki ziddiyatlaridan ustalik bilan foydalanadi. Lekin u Jo'chi ulusini o'z davlatiga qo'shib olish niyatida emas edi. Faqat Oltin O'rdaning Movarounnahrda tutashgan sharqiy qismini o'z ta'siri ostidagi xonlar tasarrufiga olib berish hamda Saroy Berka orqali o'tadigan karvon yo'lini Movarounnahr tomon burib yuborishni ko'zlaydi. Shu maqsadda Oq O'rda amirzodalardan **To'xtamishga** bir necha bor harbiy yordam beradi. Biroq To'xtamish Amir Temurning

ishonchini oqlamaydi. Oltin O'rda taxtiga ega bo'lgach, hatto u ochiqdan-ochiq unga qarshi kurashga o'tadi. Natijada, Amir Temur To'xtamishga qarshi uch marta qo'shin tortishga majbur bo'ladi. 1389-yilda u *Dizak* (Jizzax)ning *Achchiq* mavzeida, 1391-yilning 18-iyunida (hozirgi Samara bilan Chistopol shaharlari oralig'ida joylashgan (*Qunduzcha*) Kondurcha daryosi vodiysida) To'xtamish qo'shiniga qaqshatqich zarba berdi.

### 3. Tarak daryosi bo'yidagi jang

O'rta asrlarning bu ikki yirik sarkardalari qo'mondonlik qilgan ko'p mingkishilik ikki qo'shin o'rtasidagi so'nggi shiddatli jang 1395-yilning 15- aprelida Shimoliy Kavkazda Tarak daryosi bo'yida sodir bo'ldi. Amir Temur qo'shinini daryo bo'yida o'ziga qulay maydonda safga tortdi. Uning o'ng qanotini o'zi, so'l qanotini esa sevimli nabirasi Muhammad Sul-ton boshqardi. 27 qismdan iborat «*bo'y xushuni*» deb nomlangan saralangan qismni dushmanga favqulodda holatda zarba berish uchun pistirmaga qo'ydi. Jang To'xtamishning *Oqtov*, *Bekyoriq* va *Kuncha* o'g'lon boshliq jangovar qismlarining to'satdan Sohibqiron bosh-qarayotgan o'ng qanotga hujumidan boshlandi. Pistirmadagi qism dushmanga zarba berdi. So'ngra asosiy qismlar jangga kirdi. Shiddatli mahoraba (jang) bu gal ham uch kun davom etdi. Bu safar Amir Temur qo'shini dushmanga qarshi otdan tushib, uni kamondan o'qqa tutish usulini qo'lladi. Jangda ayniqsa, Muhammad Sul-ton, Shayx Nuriddin, Ollohdot, Amir Hoji Sayfuddin hamda amirzoda Rustamlar qahramonlik ko'rsatdilar. O'q va qilich zarbiga chiday olmagan To'xtamish qo'shinining safi buzilib, orqaga chekindi va tarqalib ketdi. To'xtamishxon sanoqligina askari bilan qochib changalzorga kirdi va ta'qib etib kelayotgan g'oliblardan berkindi. Shunday qilib, Amir Temur 1395-yil 15- aprelida Shimoliy Kavkazda Tarak daryosi bo'yida To'xtamish qo'shiniga qaqshatqich zarba beradi. Amir Temur harbiy yurishlari oqibatida *Quyi Itil* (Volga) viloyatlari, *Saroy Berka*, *Saroychik* va *Hojitarxon* (Astraxan) kabi shaharlar bo'ysundirildi. Amir Temur To'xtamishni quvib Ryazan viloyatigacha boradi va Yelets shahrini ishg'ol qiladi. So'ng Moskva

tomon yuradi. Rossiya tarixchilari B. D. Grekov va A. Yu. Yakubovskiyning ta'kidlashicha, Amir Temurning To'xtamish ustidan qozongan g'alabasi, faqat O'rta Osiyo uchun emas, balki butun Sharqiy Yevropa, shuningdek Rus knyazliklari uchun ham buyuk ahamiyat kasb etgan edi.

#### 4. Qo'shni davlatlarga yurish


Amir Temur Movarounnahr va Xorazm yerlarini birlashtirish bilan qanoatlanmadi. Tez orada u qo'shni davlatlar va xalqlar ustiga yurish qilib, ularni o'ziga bo'ysundirish va markazlashgan buyuk saltanat barpo etishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Bu davrda Oltin O'rda, Xuroson va Eronda hukm surgan ijtimoiy-siyosiy vaziyat uning uchun juda qo'l keladi. Sohibqiron harbiy yurishni **Xuroson**dan boshlaydi. 1381-yili Amir Temur **Hirotni** egallaydi. **Saraxs**, **Jom** va **Qavsiya** shaharlari jangsiz taslim bo'ladi. 1381–1384-yillar davomida Eronning katta qismi bo'ysundiriladi.

Amir Temur **Eron**, **Ozərbayjon**, **Iroq**, **Shom** (Suriya) ustiga uch marta askar tortadi. Bu yurishlar tarixda uch yillik, besh yillik va yetti yillik urushlar nomi bilan shuhrat topadi. Uch yillik (1386–1388) harbiy yurishlar oqibatida **Janubiy Ozərbayjon**, **Iroqning shimoliy qismi**, **Gurjiston** va **Armanistondagi** (Van ko'li atrofidagi) yerlar egallanadi. U besh yillik (1392–1396) urushi davomida **G'arbiy Eron**, **Iroqi Ajam** va **Kavkazni** egallaydi.

Amir Temurning Hindiston ustiga qilgan g'azovoti (1398-yil may – 1399-yil mart) qariyb o'n bir oy davom etadi. Hindistondan u katta o'lja, shu jumladan 120 ta jangovar fillar bilan qaytadi. O'ljalarning bir qismi qo'shinga tarqatilib, qolgani Samarqand va Kesh shaharlarida olib borilayotgan qurilishlarga ishlatiladi.

1399–1404-yillardagi yetti yillik urush, eng shiddatli va eng yirik janglardan bo'lib, uning oqibatida Shomning **Xalab**, **Kumis**, **Baalbek**, **Dimishq** (Damashq) kabi yirik shaharlari va Iroqi Arabning **Ubuliston** o'lkasi bilan **Bag'dod**, shuningdek Turkiyaning kattagina qismi fath etiladi. Natijada ikki buyuk sarkarda: Sohibqiron **Amir Temur** bilan sulton **Boyazid Yildirim**larning to'qnashuvi muqarrar bo'lib qoladi. Chunki tobora kuchayib borayotgan bu

Movarounnahr va Xurosonda hukmronlik qilgan Amir Temur va uning avlodlari  
(1370-1507 yillar)



44-rasm. Movarounnahr va Xurosonda hukmronlik qilgan Amir Temur va uning avlodlari (1370—1507-yillar).

ikki turkiy davlatlarning har biri ikkinchisi uchun nihoyatda kuchli raqibga aylangan edi. Bir tomondan, Yevropa ritsarlariga qaqshatqich zarba berib, Bolqon yarim oroli bo'ylab, g'arbga tomon o'z hududlarini kengaytirayotgan *Usmonlilar* davlati uchun Amir Temurning markazlashgan kuchli davlatini qaror topishi qanchalik xavfli tuyulsa, Kichik Osiyoda barpo etilgan qudratli Usmonlilar davlatining kuchayishidan Amir Temur ham shunchalik manfaatdor emas edi.

Amir Temur hayot-mamot yo'lida Boyazid Yildirim bilan bo'ladigan jangga qariyb ikki yildan ortiq tayyorlanadi. Nihoyat Rumga yuzlanib, avval **Qamoh** qal'asini fath etadi, so'ngra **Anqara** shahrini qamalga oladi.

## 5. Anqara jangi

Amir Temur bilan Sulton Boyazid qo'shinlari o'rtasidagi so'nggi va hal qiluvchi jang 1402-yil 20 iyulda **Anqara** yaqinida **Chibukobod** mavzeida sodir bo'ladi. Bu jang tarixda «**Anqara jangi**» nomi bilan shuhrat topadi. Uch kun davom etgan bu jangda har ikki tomondan hammasi bo'lib 360 ming nafar, shu jumladan Amir Temurning taxminan 200 ming, usmonlilar sultonining 160 ming askari qatnashadi. Janggohning qulay qismiga joylashtirilgan Sohibqiron qo'shini o'zining an'anaviy jangovar tartibi — *yasolda* harakat qiladi. Qo'shinning qirq qismdan iborat markaz — *g'uliga* Amir Temur bevosita o'zi qo'mondonlik qiladi. Uning o'ng qanotiga o'g'li **Mironshoh Mirzo**, nabiralari **Muhammad Sulton**, **Pirmuhammad**, **Amir Shayx Nuriddinlar**, so'l qanotiga kenja o'g'li **Shohruh Mirzo**, nabiralari **Xalil Sulton**, **Rustam Bahodir**, **Amir Sulaymonshoh** va **Amir Shohmaliklar** rahbarlik qiladilar. Qo'shin markazi manglayida uchiga yarim oy shaklidagi oltin tug'ro o'rnatilib, to'riq ot yoli osilgan zangori *davlat alami* — bayrog'i muttasil hilpillab turardi. 30 ta jangovar fil jangga shay qilinib, ular ustida sovut va dubulg'a kiygan filbonlar bilan *tirandoz* va *otashboz naftandozlar* joylashgan edi. Markaz va qanotlar ortida **Iskandar Mirzo** boshliq zaxiradagi qismlar o'rin olib, ular jang holatini muttasil kuzatgan holda dushmanga to'satdan beriladigan hal qiluvchi zarbaga tayyor turardi.

Amir Temur qo'shini qarshisida Sulton Boyazidning Rum va Farang mamlakatlaridan to'plagan askarlari saf tortib turardi. O'ng qanotga sultonning qaynisi serb knyazi **Lazarevich** qo'mondonlik qiladi. Bu qo'shin 20 ming nafarli serb polklaridan tashkil topgan edi. Rum askarlaridan iborat qo'shinning so'l qanotini Boyazidning katta o'g'li **Sulaymon Chalabiy** boshqaradi. Bu qanot turk suvoriylari bilan kuchaytirilgan edi. Qo'shin markazida Boyazidning o'zi va uning orqasi — aryergardida o'g'illari **Musa**, **Iso** va **Mustafolarning** harbiy qismlari joylashgan edi.

Anqara jangi Mironshoh Mirzoning dushmanning soʻl qanotiga bergan kuchli zarbasi bilan boshlanadi. Biroq rumliklar matonat bilan qarshilik koʻrsatadilar. Jang-u jadal shiddat olib turgan pallada Boyazid askarlarining bir qismi hujumga bardosh bera olmay, jang maydonini tark etib qochadi. Dushman qoʻshini saflarida paydo boʻlgan sarosimalikni payqagan Amir Temur barcha amirzodalar, umarolar va noʻyonlarning birgalikda dushmanga hujum qilishiga amr qiladi. Uzoq davom etgan shiddatli jangda Sohibqiron kuchlarining siquviga bardoshi qolmagan sulton askarlari chekinishga majbur boʻladilar. Boyazid qoʻmondonligidagi jangchilar qattiq turib qarshilik koʻrsatadilar. Turk yanichoʻrlarining bironyasi ham qolmaydi, barchasi qirib tashlanadi. Suyurgʻatmishxonning oʻgʻli **Mahmudxon** Boyazidni asirga oladi. Uning bilan birga oʻgʻli Musa Chalabiy ham asirga tushadi. Amir Temur rumlik askarlarni taʻqib etib *Anadoʻlu* yarim orolini egallaydi, Oʻrta Yer dengizining sharqiy sohilida joylashgan *Izmir* shahrini zabt etadi va salibchilarning Yaqin Sharqdagi oxirgi qarorgohiga barham beradi. Amir Temurga *Misr* ham oʻz itoatkorligini izhor etadi. Amir Temur *Bursada–Vizantiya* va butun nasoro olamidani Boyazidga yigʻib berilgan bojlardan toʻplangan katta oʻljani qoʻlga kiritadi. Birgina *Bursa* shahridan olingan oltin va javohirlar kattagina karvonga yuk boʻlar edi.

Boyazid Yildirim qoʻlga tushirilib, **oʻrdugohga** (lager) olib kelinganda, oʻz gʻanimiga shohona hurmat va ehtirom koʻrsatgan Sohibqiron turk sultoni vafotidan soʻng (1403-y. 9-mart) uning vorislariga himmat koʻzi bilan boqadi va ularga beqiyos muruvvatlar qiladi. Uning oʻgʻillari Sulaymon, Iso va Musalarga otasini yerlarini suyurgʻol qilib, inʻom qiladi. Amir Temur Usmonli turklar davlatini butunlay bosib olish niyatida emas edi. Vaholanki salib yurishlarining oqibatlarini, Yevropa davlatlarining Yaqin Sharq mamlakatlaridagi umidlari hali musulmon olami yodidan koʻtarilmagan edi. Shuning uchun ham Amir Temur Usmonli turklari davlatini saqlab qoldi va Boyazid vorislariga muruvvat qoʻlini choʻzdi. Shunday boʻlsa-da, Boyazid ustidan qozonilgan buyuk gʻalaba bilan Amir Temurni Fransiya qiroli **Karl VI (1380–1422)**, Angliya qiroli **Genrix IV (1399–1413)** hamda Kastiliya va Leon qiroli **Genrix III (1390–1407)** tabriklab, unga oʻz muborak

nomalarini yuboradilar. Chunki Sohibqiron endigina uyg'onayotgan Yevropaga ulkan xavf solib turgan Usmonli turklar davlatiga zarba berib, butun Yevropaning xaloskoriga aylangan edi.

Kichik Osiyodan Samarqandga qaytgan Amir Temur 1404-yilning 27-noyabrida 200 ming qo'shin bilan Samarqanddan Xitoy safariga chiqdi. Biroq Xitoy ustiga yurish Amir Temurning to'satdan vafot etib qolishi (1405-y. 18-fevral) tufayli amalga oshmay qoldi.

## **6. Harbiy yurishlarning oqibati va ahamiyati**

Amir Temur 35 yil davomida mamlakatni boshqardi. Ko'pdan-ko'p harbiy yurishlar va jang-u jadallarni amalga oshirdi. Ko'p mamlakatlar zabt etildi. Oqibatda Hindiston hamda Xitoydan Qora dengizga qadar va Orol dengizidan Fors qo'ltig'iga qadar bo'lgan g'oyat katta hududni qamrab olgan ulkan saltanatni vujudga keltirdi. Bundan tashqari, Kichik Osiyo, Suriya, Misr va Quyi Volga, Don bo'ylari, Balxash ko'li va Ila daryosi, Shimoliy Hindistongacha bo'lgan mamlakatlarni o'ziga bo'ysundirdi. Bu mamlakatlardan Amir Temur katta o'ljalar bilan bir qatorda ko'zga ko'ringan olimlar, hunarmandlar va mohir ustalarni Samarqand, Shahrisabz va Buxoroga ko'chirib olib keldi. Bu shahar va qishloqlar obod qilindi. U nafaqat Movarounnahr va Turkistonni obod qildi, balki bo'ysundirilgan mamlakatlarning shaharlarini ham qayta qurdirdi. Bag'dod, Darband va Baylakon shaharlarini qayta tikladi. Karvon yo'llarida rabotlar, qal'alar, ko'priklar, shaharlarda masjid va madrasalar hamda bog'-u bo'stonlar barpo etdi. Eng muhimi Eron, Ozarbayjon va Iroqdagi feodal tarqoqlik va boshboshdoqlikka barham berib, Sharq bilan G'arbni bog'lovchi qadimiy karvon yo'llarini tikladi. Bu bilan nafaqat Movarounnahr, balki Uzoq va Yaqin Sharq mamlakatlarining iqtisodiy va madaniy taraqqiyotiga xalqlar va mamlakatlarni bir-biri bilan yaqinlashtirishga ulkan hissa qo'shdi. Amir Temur Yevropaning Fransiya, Angliya va Kastiliya kabi yirik qirolliklari bilan bevosita savdo va diplomatik aloqalar o'rnatdi.

Amir Temurning harbiy yurishlari, jang-u jadallarining oqibatlariga baho berilar ekan, shuni ta'kidlash kerakki, uning faoliyati qo'yilgan maqsad va rejalari jihatidan ikki bosqichga

bo'linadi. Birinchi bosqich (1360–1386) da Amir Temur Movarounnahrda markazlashgan davlat tuzish yo'lida kurashdi. Amir Temurning bu davrdagi faoliyati O'rta Osiyo xalqlarining ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayoti taraqqiyoti yo'lida shubhasiz ulkan ijobiy ahamiyat kasb etdi.

Feodal tarqoqlik tugatilib, markazlashgan davlatning tashkil topishi ijobiy oqibatlariga olib keldi. Mamlakat ishlab chiqarish kuchlarini va mo'ng'ullarning bir yarim asrlik hukmronligi natijasida bo'xronga uchragan iqtisodni tiklash uchun qulay sharoit vujudga keldi. Ayni vaqtda xo'jalikning asosi bo'lgan sug'orma dehqonchilikda muayyan siljishlar ro'y berdi. Yangi-yangi kanallar qazilib, sug'orma dehqonchilik maydonlari kengaydi. Hunarmandchilik, ichki va tashqi savdo rivojlandi, fan va madaniyat ravnaq topib, shaharlar obodlashdi va gavjumlashdi.

Amir Temur faoliyatining ikkinchi bosqichi (1386–1405) da olib borilgan «*uch yillik*», «*besh yillik*» va «*yetti yillik*» harbiy yurishlarni amalga oshirib, *Oltin O'rda*, *Eron*, *Iroq*, *Kavkaz*, *Kichik Osiyo*, *Misr* va *Hindistonni* zabt etdi. Amir Temurning harbiy faoliyati teranroq talqin etilib, unga baho beriladigan bo'lsa, shuni ta'kidlash joizki, u avvalo Osiyo sarkardasi edi. U o'zining g'olib askarlari va qurollaridan o'z zamonasining taomili bo'yicha foydalandi. To'g'ri, jazo nihoyatda qattiq, ammo ko'pincha adolatli bo'lgan. Xullas, Sohibqiron o'rta asrlarda shakllanib rivoj topgan feodal jamiyatining murakkab siymosi edi. U yuksak harbiy daholik va qat'iyatlik bilan o'z jamiyatiga sidqidildan xizmat qildi. Shu boisdan tarixchilar Amir Temurni Iskandar Zulqarnayn (makedoniyalik Iskandar), Qaysar (Yuliy Sezar) va boshqa tarixiy daholarga qiyos qilib, ular bilan bir safga qo'yadilar.

### ***Savol va topshiriqlar***

- ?
1. Amir Temurning ichki nizolarga chek qo'yganligi haqida gapirib bering.
  2. Uning Oltin O'rdaga qarshi yurishlari, natijalari va ahamiyati haqida gapirib bering.
  3. Amir Temurning «uch», «besh», «yetti» yillik urushlari natijalari haqida so'zlab bering.
  4. Anqara jangi haqida gapiring.
  5. Amir Temur turk sultoni vorislariga nima uchun muruvvat ko'rsatganligini va uning maqsadi nima ekanligini so'zlab bering.
  6. Amir Temurning Sulton

- Boyazid ustidan qozongan g'alabasi Yevropada qanday kutib olindi?  
7. Amir Temurning harbiy yurishlari qanday oqibatlarga olib keldi?  
8. Bu harbiy yurishlarning ahamiyati nimada?

### 33–34-§§. AMIR TEMUR DAVLATINING MA'MURIY VA HARBIY TUZILISHI

#### 1. Saltanatni boshqarish

Amir Temur zamonasining buyuk saltanatini barpo qilgan bo'lsa-da, ammo u o'zini bu davlatning «qonuniy xoni» deb umrbod e'lon qilmadi. Chunki u nasl-nasabi jihatidan chingiziylar sulolasiga mansub emas edi. Shuning uchun ham chingiziylar tomonidan belgilangan an'anaga ko'ra Amir Temur avval o'z huzurida **Suyurg'atmishni (1370–1388)**, so'ngra uning vafotidan keyin esa Suyurg'atmishning o'g'li **Sulton Mahmudni (1388–1402-yillar)** rasmiy xon qilib ko'tarib, hatto umrining oxirigacha ularning nomidan yorliqlar chiqartiradi, pullar zarb ettiradi. Ammo har ikkala bu hukmdorlar nomigagina «xon» bo'lib, davlatning siyosiy hayotiga, Amir Temur bergan farmoyishlariga mutlaqo aralashmasdilar. Shunga qaramasdan Amir Temur mamlakatda o'zining bevosita hukmronligiga qonuniy tus berib, uni mustahkamlab olish maqsadida Amir Husaynning tul xotini Saroy Mulkxonimga uylanadi. Saroy Mulkxonim Movaroun-nahrning Chig'atoy xonadonidan chiqqan so'nggi xoni chingiziylar avlodi Qazonxonning qizi edi. 1370-yilda Saroy Mulkxonim bilan bo'lgan nikoh tufayli Amir Temur o'zining amirlik darajasiga «ko'ragon», ya'ni «xonning kuyovi» unvonini qo'shib oladi va rasmiy hujjatlarda «*Amir Temur ko'ragon*» nomi bilan yuritilishiga musharraf bo'ladi. **BIBIXONIM**


Amir Temur davrida davlatning markaziy ma'muriyati boshida devonbegi, uning yonida arkbegi (marosimlarni boshqaruvchi) hamda to'rt vazir turadi. *Birinchi vazir* yer soliqlari, chegara bojni undirish hamda mirshablik ishlarini bajargan. *Ikkinchisi*—askarlar maoshi va oziq-ovqat ta'minotlari bilan shug'ullangan. *Uchinchi vazir* harbiylar, ularning lavozim-u mansablarga tayinlanishi va meros ishlariga qaragan. *To'rtinchisi* — saroy xarajatlarini boshqargan. Amir Temur davlat tuzilishi sohasida

ma'lum darajada o'zgarishlarni amalga oshirgan bo'lsa-da, har holda XIV asrning birinchi yarmida mo'ng'ul xoni Kebek hukmronlik qilgan davrda joriy etilgan mamlakatni harbiy-ma'muriy bo'linishini saqlab qoladi. Ammo davlatning ma'muriy idora etish tarkibining rivojlanishiga, suyurg'olning keng tarqalishi to'sqinlik qiladi.

## 2. Suyurg'ol yerlar

Amir Temurning ulkan saltanati shaklan buyuk va qudratli davlat bo'lib ko'rinsa ham aslida uning iqtisodiy negizi unchalik baquvvat emas edi. Amir Temur bosib olingan viloyatlarni o'g'illari, nabiralari va xizmat ko'rsatgan amirlariga suyurg'ol tarzida in'om qilib, ular orqali boshqardi. Movarounnahrdan tashqari o'z tasarrufidagi barcha viloyat va mamlakatlarni Amir Temur to'rt ulusga bo'ldi. To'ng'ich o'g'li **Muhammad Jahongirga Bab** viloyati bilan 12 ming navkarli qo'shin, ikkinchi o'g'li **Umar Shayxga Fors** viloyati va 10 ming qo'shin, uchinchi o'g'li **Mironshohga Ozarbayjon, Iroq va Armaniston** bilan 9 ming qo'shin, kenja o'g'li **Shohruhga Xuroson, Jurjon, Mozondaron, Seiston** bilan 7 ming askar berildi. Garchi uluslar markaziy hukumatga itoat etsalar-da, ammo ular ma'lum mustaqillikka ega edilar. Ulus hukmdorlarining alohida davlat devonxonasi, qo'shini bo'lib, ular markaziy hukumatga tobeligi xirojning bir qismini Samarqandga yuborib turish va oliy hukmdor harbiy yurishlarida o'z qo'shini bilan qatnashish yoki talab qilingan askarni yuborib turishdan iborat edi.

Suyurg'ol Temur davlati tashkil etilishi arafasida joriy etilib, u «iqto» kabi ma'lum tuman yoki viloyatlarni hukumat yorlig'i bilan G'arbdagi «feod» yoki «len» tarzida oliy hukmdor avlodlari va xizmat ko'rsatgan yuqori tabaqa



45-rasm. Go'ri Amir maqbarasi. XV asr.

vakillariga in'om tariqasida erilgan. Ba'zan suyurg'ol yerlari oliy hukmdorning farmoni bilan hatto avloddan-avlodga meros bo'lib o'tgan. Masalan, Amir Temurning to'ng'ich o'g'li Jahongir vafotidan so'ng unga tegishli Balx viloyatiga *Kobul*, *G'azna* va *Qandahorni* qo'shib, marhumning o'g'li **Pirmuhammadga** beriladi. Shuningdek, Amir Temur Umarshayxning o'g'li **Rustamga Isfaxonni**, Mironshohning o'g'li **Abubakrga Bag'dodni** suyurg'ol qiladi. Mana shu tarzda Movarounnahrda tashqari, mamlakat bir qancha bo'laklarga bo'linib ketadi. Viloyat hokimlari — shahzodalar o'z tasarrufidagi uluslarda doimo iloji boricha mustaqil hukmronlik qilishga intilar edi. Markaziy hukumat esa vaziyat jiddiylashgan paytlardagina ularning ichki ishlariga aralashar edi. Shubhasiz, suyurg'ol asosida qurilgan mulkchilik tartibining g'oyatda kuchayishi oqibatida ayrim viloyatlarning ma'lum darajada mavqeini oshishiga olib kelgan va ichki nizolarni keltirib chiqargan. Lekin katta hudud va imtiyozlarga ega bo'lgan, kuchli qo'shinga tayangan buyuk hukmdor viloyatlarning feodal doiralari tomonidan ko'tarilgan isyonlarni va xalq harakatlarini doimo osongina bostira olgan.

### 3. Qo'shin tuzilishi

Amir Temur ichki va tashqi siyosatida asosan qo'shinga suyanar edi. Chunki u harbiy kuch bilan zabt etilgan mamlakatlarni va asosan viloyatlarda yashovchi xalqlarni kuch bilan tutib turardi. Shuning uchun ham u harbiy islohg'a ayniqsa, qo'shin boshliqlarini tanlash va ularni tarbiyalash, harbiy qismlar va ularning joylashish tartibi, navkar va sarbozlarning qurollanishi hamda ichki intizom masalalariga nihoyatda katta ahamiyat berardi. Shu boisdan Amir Temur manbalarda zamonasining mashhur sarkardasi va eng yirik lashkarboshi sifatida tilga olinadi. Uning harbiy iste'dodi, sarkardalik mahorati, qo'shinlarning tuzilishida Oltin O'rda xoni *To'xtamish*, Dehli sultoni *Mahmud* va Turkiya sultoni *Boyazidlar* bilan olib borgan shiddatli mahorabalarida va jang maydonlarida qo'llagan jang qilish uslublarida namoyon bo'lgan.

Amir Temur qo'shini o'ntalik askariy birikmalar asosida tuzilgan harbiy qismlardan iborat edi. Qo'shin «tuman» — o'n minglik, «hazora» — minglik, «xo'shun» — yuzlik va «ayl» — o'nlik birikmalariga bo'lingan. Tumanlarda askarlarning soni 10 ming, qo'shinda 100 ming nafardan ortiq bo'lgan. Temur o'n minglik askarni boshqarish uchun «tuman og'asi», minglik bo'linmalar uchun «mirihazora», yuzliklar uchun «xo'shunboshi» va o'nliklar uchun esa «aylboshi» kabi harbiy mansablarni ta'sis etadi. Ularning haq-huquqlari, oylik maoshini belgilab beradi. Masalan, oddiy sipohiy mingan otining bahosi barobarida, bahodirlar 2–4 ot barobarida, aylboshi qaramog'idagi navkarga nisbatan o'n barobar ko'p, yuzboshi o'nboshidan ikki barobar ortiq haq olgan. Janglarda bahodirlik ko'rsatib, g'alaba qozongan amir uchun in'omlar ham belgilab qo'yilgan. Masalan, qaysi bir amir biron qo'shinni yengsa, biror mamlakat yoki viloyatni zabt etsa, u tug', nog'ora, bahodirlik martabasi, davlat kengashlariga bemaolol kirish huquqi hamda biron sarhadning noibligi bilan siylangan. Bo'linma boshliqlari — amirlar Amir Temurga tobe bo'lgan qirq aymoq (qabila)dan o'n ikkitasi: *barlos, arg'in, jaloir, tulkichi, duldoy, mo'ng'ul, sulduz, tug'oy, qipchoq, arlot, totor va tarxonlar* orasidan saylab olgan. Amirlik martabasi Amir Temur faoliyatining dastlabki yillarida unga sodiq bo'lgan 313 nafar kishiga berilgan. Viloyatlar asosiy hamda zaxira qismlarni to'plab berardi. Askariy qismlarni viloyatlardan to'plash bilan *tovochi* mansabidagi amaldorlar shug'ullanar edi.

#### 4. Qo'shindagi tartib-intizom

Amir Temur askarlarga va askarboshilarga alohida e'tibor bergan. Har bir zobit (bo'linmaning *xo'shun* yoki *aylboshisi*) jang qilish uslublarini yaxshi bilishi farz sanalgan. Oddiy navkar nizomni qat'iy bajarishga majbur bo'lib, jangda u ayovsiz va dovyurak bo'lishi, omonlik istagan dushmanga yumshoq muomala qilishi va adolatli bo'lishi lozim hisoblangan. Qo'shinlar harbiy yurishga chiqqan vaqtda, ayniqsa, intizomga qattiq rioya qilingan. Safarda eng oldinda har bir qo'shin qismlari «*xabargiri*», ya'ni

«xabarchilar» deb yuritilgan ayg'oqchi-kuzatuvchilar bo'linmasi yurgan. Bunday bo'linmaga eng dovyurak va botir askarlar tanlab, jalb qilingan. Xabarchilar orqasidan soqchilar bo'linmasi yo'llangan, u «yasovul» deb atalgan. Qo'shinning asosiy qismlari oldida «manglay» — avangard qismlar harakatda bo'lgan. Manglay asosiy kuchlardan, ba'zan esa bir necha tumanlardan iborat bo'lgan. Manglay bilan qo'shinning asosiy qismlari oralig'ida esa qo'mondonning qarorgohi va uning yon atrofida zaxira (rezerv) qismlar joylashgan bo'lib, u «izofa» deb yuritilgan. Urush jarayonida jang oqibatini ana shu izofa qismlar hal qilgan. Temur qo'shinining asosiy jangovar qismlari markaz, o'ng va so'l qanotlardan iborat bo'lgan. Uning o'ng qanoti «burong'or», so'l qanoti esa «juvong'or» deb yuritilgan. Har bir qanotning oldida bittadan qo'shimcha qo'riqchi manglay — avangardi, yon tomonida esa bittadan qo'riqchi askariy qo'shilmalar — «kanbul»lari bo'lar edi. Shu tariqa qo'shin yetti qism — «qo'llar»dan iborat bo'lib, bulardan uchitasi: markaz, burong'or, juvong'orlar mustaqil, to'rttasi: ikki manglay va ikki kanbullar tobe qismlar edi. Qo'shinning bunday joylashtirilishining o'ziga xos tomoni shunda ediki, uning qanot qismlari markaziy qismiga qaraganda ancha-muncha kuchli edi. O'rta



46-rasm. Go'ri Amir maqbarasining ichki ko'rinishi.

asr muallifi Sharofiddin Ali Yazdiy qo'shinni yetti qo'lga— qismga bo'lib joylashtirish tartibini birinchi bo'lib Amir Temur joriy qilgan deb yozadi. Bu qo'llar janglarda mustaqil harakat qilib, faqat qo'shin qo'mondoniga bo'ysungan. o'ziga xos

Harbiy yurish vaqtlarida yo'l-larda o'rdugoh— qarorgoh qurib to'xtashga to'g'ri kelardi. Agarda o'rdugoh dushmanga yaqinroq joyda joylashgan bo'lsa, uning atrofi mudofaa inshootlari bilan o'rab olinar edi. Qo'shinning izofa qismlari qo'mondon o'rdugohini qo'riqlab turar edi. Jang vaqtida

ular o'z navbatida zarur bo'lgan joylarda jangga solinardi. Kanbullar esa dushmanning o'ng yoki chap qanotini yorib kirishga va yon tomonlaridan aylanib o'tib, orqadan zarba berishga yo'l qo'ymaslikka harakat qilardi. Kanbullar eng botir va tajribali askarlardan tuzilar edi. Qo'shinda ayniqsa, u jangga kirgan paytlarida, piyoda askarlar alohida o'rinni tutgan. Ular mudofaa inshootlari orqasida yashiringan holda birinchi bo'lib jangga kirardilar. Shuning uchun ham qanotdagi tumanog'a va qo'shin amirlari piyodalar bilan otliqlarni jangovar tartibda joylashtirishga katta e'tibor berardilar.

Shunday qilib, Amir Temur zamonasining kuchli va eng jangovar qo'shinini tashkil qildi. Askar boshliqlari va navkarlarini qarshilik ko'rsatuvchi kuchga nisbatan beshafqat ruhda tarbiyalashga muvaffaq bo'ldi. O'z qo'shinini u turli-tuman jangovar qurol-yarog'lar, o't va tosh irg'itgich—*ra'dandoz*, *manjaniq* va *o'ziotar* kabi qurollar bilan qurollantirdi. Jang qilishning yangi harbiy uslublarini qo'lladi. Bu qo'shin bilan u ro'y bergan har bir qarshilik va norozilikka qurol kuchi bilan keskin zarba berdi. Yoki kutilgan xavf ro'y bermasdan turib, uning oldini olish choralari ko'rdi. Amir Temur qo'shinini **Jahongir**, **Sayfuddin** va **Pirhusayn** barloslar kabi janglarda shuhrat topgan mahoratli sarhanglar boshqaradi.

## 5. «Temur tuzuklari»

Amir Temur hayotlik davridayoq uning harbiy san'ati va davlat boshqarish uslubiga bag'ishlangan maxsus asar yaratilib, u «*Temur tuzuklari*» nomi ostida shuhrat topadi. Bu asar shaxsan Temurning og'zidan yozib olingan deb hisoblanadi. Unda davlatni boshqarishda kimlarga tayanish, toj-u taxt egalarining tutumi (yo'nalishi) va vazifalari, vazir va qo'shin boshliqlarini saylash, sipohlarning maoshi, mamlakatni idora etish tartibi, davlat arboblari va qo'shin boshliqlarining burchi va vazifalari, amirlar, vazirlar va boshqa mansabdorlarning toj-u taxt oldida ko'rsatgan alohida xizmatlarini taqdirlash tartibi va boshqalar xususida bayon etiladi.

Amir Temur turk, arab va eronliklar tarixini chuqur bilgan. Amaliy jihatdan foyda keltira oladigan har qanaqa bilimni



47-*rasm.* Shahrisabz. Gumbazi  
Sayidon maqbarasi.

qadrlagan. U davlat ishlari uchun hamma narsaning foydali tomonlarini olishga harakat qilgan. Davlat ahamiyatiga ega bo'lgan har bir masalani hal etishda Amir Temur shu sohaning bilimdonlari va ulamolar bilan maslahatlashardi. Odatda, u tibbiyot, matematika, astronomiya, tarix, adabiyot, tilshunoslik ilmi namoyandalari, shuningdek, din sohasidagi mashhur ulamolar bilan suhbatlar o'tkazardi. Bunday suhbatlarda podsholikka oid muhim ishlar haqida so'z yuritilardi. Masalan, 1403-yilda

**Baylakon** shahrida u ulamolarning majlisini chaqirib, unda nutq so'zlagan. Mamlakat hamda fuqarolarni boshqarishni, turli xil inshootlar va jamoat binolarini qurishda unga olimlar va fuzalolar o'z maslahatlari bilan ko'maklashishlarini so'ragan.

Amir Temur saroyida ulamolardan **Mavlono Abdujabbor Xorazmiy**, **Mavlono Shamsiddin Munshi**, **Mavlono Abdullo Lison**, **Mavlono Bahridin Ahmad**, **Xo'ja Afzal**, **Mavlono Alouddin Koshiy**, **Jalol Xokiy** va boshqalar xizmat qilardi. Amir Temur ilm-fanning: *riyoziyot, handasa, me'morlik, astronomiya, adabiyot, tarix, musiqa* sohaslarining rivojiga katta e'tibor berar edi. Amir Temur o'z reja va maqsadlarini ro'yobga chiqarishda ko'proq mulkdorlar va harbiy jangchilar orasida shuhrat topgan taqvodor ruhoniylar tabaqasi vakillariga suyanadi. U Imom **Sayyid Barakani** o'zining piri deb hisoblaydi. Sayyid Baraka Temur qilich bilan nimaniki qo'lga kiritgan bo'lsa, shularni toat-ibodat hamda fatvolar berib, duogo'ylik bilan mustahkamlab berishga harakat qiladi.

Shunday qilib, Sohibqiron Amir Temur davlatni boshqarish va harbiy san'at sohasida o'ziga xos usul yaratib, shu asosda barpo qilgan davlati bilan dunyoni lol qoldirdi.

- ?
1. Amir Temur saltanatni qanday boshqardi va nimaga asoslandi? Nima uchun Amir Temur «Ko'ragon» nomini oldi?
  2. Amir Temur davlatidagi 4 ulus haqida nimalarni bilib oldingiz?
  3. Suyurg'ol yerlar kimlarga, nima uchun berilgan, misollar keltiring.
  4. Amir Temur qo'shini qanday tartibda tuzilgan?
  5. Bu qo'shindagi tartib-intizom qanday yo'lga qo'yilgan edi?
  6. Amir Temur harbiy san'ati va uning ahamiyati haqida gapirib bering.
  7. «Temur tuzuklari» qanday yaratildi?
  8. «Temur tuzuklari»dagi bugungi O'zbekiston davlati siyosatidagi o'xshashliklarni aniqlab keling.
  9. Amir Temur bilimni qadrlagan shaxs ekanligiga misollar keltiring.
  10. Amir Temur buyuk sarkarda, bunyodkor, davlat arbobi, fan, madaniyat homiysi ekanligi haqida mavzu yoki qo'shimcha manbalardan axborot tayyorlang.

### **MAVZUNI TO'LDIRISH UCHUN YOZMA MANBADAN MA'LUMOT**

Amir Temur harbiy yurish vaqtida qo'shindagi tartib-intizomdan tortib, to har bir jangchining qurollanishigacha katta e'tibor bergan. XV asr muallifi **Abdurazzoq Samarqandi**ning yozishicha, harbiy safarda har bir jangchi uchun bir yilga yetadigan oziq-ovqat olingan. Jangchi esa o'zi bilan *kamon, o'ttiz o'qli sadoq, sovut, nayza va qalqon* olgan. Har ikki suvoriyning bitta zaxira *chopqur oti, o'rdugohda* har bir «ayl» — o'nlik qismda bittadan *chodir, qozon, ketmon, o'roq, bolta, bigiz, ikkitadan belkurak, 100 ta igna, yarim man (og'irlik o'Ichovi) arqon, bitta oshlangan pishiq teri* bo'lishi shart bo'lgan. Har bir viloyat belgilangan asosiy «asl» hamda zaxira — «izofa», ya'ni rezerv qismlarni to'plab bergan. Shuningdek, toshotar — *sangandoz*, devor buzadigan — *manjaniq*, o't irg'ituvchi — *ra'dandoz* va *naftandoz* hamda *o'ziotar* qurollarni ishlata biladigan jangchilarni tayyorlab berish ham viloyat hokimlariga yuklatilgan edi.

Harbiy yurish va jang paytlarida har bir bo'linmaning aylboshisi, xo'shunboshisi, tuman og'asi va qo'shin amiri o'z o'rnini yaxshi bilardi va unga qat'iy rioya qilardi. Yurish vaqtida qo'shinlar ichida alohida yo'l boshlovchilar — «*kuchorchilar*» guruhi bo'lib, safarda ular muhim rol o'ynagan. Kuchorchilarni qo'shin qismlari o'rtasida Amir Temurning o'zi taqsimlab bergan. Jangda esa Sohibqiron avvalda puxta o'ylagan va har tomonlama mukammal ishlab chiqilgan strategiya — *savquljaysh* hamda mahoraba taktikasi — *ta'biyatuljaysh* qo'llanilgan.

## 1. Shahar obodonchiligi

O'zining ko'p yillik harbiy yurishlari bilan Sharqning juda ko'p obod viloyatlarini va shaharlarini zabt etgan Amir Temur o'z davlatining shon-shuhrati uchun uning markaziy qismi bo'lgan Movarounnahring, ayniqsa, poytaxti Samarqandning obodonligiga alohida ahamiyat beradi. U zabt etilgan mamlakatlardan faqat moddiy boyliklarigina emas, balki juda ko'p hunarmandlar, san'at ahlari va olimlarini Movarounnahrga olib keladi va mamlakatni obod etishda ularning mehnatidan foydalanadi. Amir Temurda har bir zafarli voqeani, sevinchli hodisani muhtasham me'morlik obidasini barpo etish bilan nishonlash odati bo'lgan. Shu maqsadda Hindistondan olib kelingan yuzlarcha mohir g'isht teruvchilar, **Sheroz**, **Isfaxon** va **Damashq**ning mashhur usta-hunarmandlari mamlakatda go'zal imorat-u inshootlar bino qiladilar. Amir Temur *Tabrizda masjid*, *Sherozda saroy*, *Bag'dodda madrasa*, *Turkistonda mashhur Ahmad Yassaviy qabri* ustiga maqbara bino qildirdi. Ammo



48-rasm. Shahrisabz. Hazrati Imom majmuasi. O'yakor eshik.

o'zining saxovati va himmatini Kesh va Samarqandda oliy imoratlar qurdirishda ko'rsatdi. O'zining ona-Vatani Keshda otasi va o'g'li Jahongirning qabri ustiga maqbara qurdirdi, katta jome' masjidini bunyod etdi. Temur hukmronligining ilk davrida Kesh shahrini poytaxtga aylantirish niyatida bo'lib, uning obodonligiga katta ahamiyat berdi. Unda dunyoga dong'i ketgan mashhur **Oqsaroy** qad ko'tardi. Eroniy me'morlarning mahorati bilan bino qilingan bu muhtasham saroyning peshtoqi, toq-u ravoqlari va devorlari zangori va oltin rangdagi arabiy naqshli koshinlar, guldor

o'ymakor parchinlar bilan ziynatlandi. Sohibqiron Keshga alohida e'tibor berib, uni O'rta Osiyoning ma'naviy markaziga aylantirishga harakat qildi. Shu boisdan bu shahar «*Qubbatul ilm val adab*» unvoniga ega bo'ldi. Ammo Bobur ta'kidlaganidek, «*Keshning qobiliyati shahar bo'larga Samarqandcha emas edi. Oxir poytaxt uchun Temurbek Samarqandni uq ixtiyor qildi*».

Samarqand saltanat poytaxti qilib olingach, u alohida imtiyozga ega bo'lgan shaharga aylandi. Samarqandda Isfixon, Sheroz, Xalab, Xorazm, Buxoro, Qarshi va Kesh shaharlarining me'mor-u binokorlari qo'li bilan saroylar, masjidlar, madrasalar, maqbaralar quriladi. Shahar tashqarisida esa bog'-rog'lar barpo etiladi. 1403—1404-yillarda Samarqandda bo'lgan Ispaniya elchisi Klavixo Amir Temurning olib borayotgan binokorlik ishlaridan hayratda qolgan edi. Xuddi shu davrda Shohi Zinda me'moriy yodgorliklari guruhining Shodimulk og'a, Amir Husayn, Shirinbeka og'a kabi qator ajoyib maqbaralari, hozirgi vaqtda *Bibixonim* nomi bilan mashhur bo'lgan *Jome' Masjid, Go'ri Amir daxmasi* va boshqalar bino qilinadi.

## 2. Samarqand davlat poytaxti

Amir Temur o'zining butun harakatlarida, shu jumladan binokorlik sohasidagi faoliyatida ham siyosiy maqsadlarni ko'zda tutadi. Masalan, Shahrisabzdagi mashhur Oqsaroyning koshinkor va parchinkor peshtoqining guldor naqshlari orasiga «*Agar bizning quvvat va qudratimizga ishonmasang, bizning imoratlarimizga boq*» degan xitobnoma bitilgan. Turkiston shahrida Ahmad Yassaviy maqbarasini bino qilishda ham shunday maqsad nazarda tutilgan. Chunki dehqonchilik vohalari bilan bepoyon Dashti Qipchoq yaylovlari chegarasida qad ko'targan bu ulug'vor me'moriy imorat ko'chmanchi chorvadorlar ko'z o'ngida Amir Temur davlatining qudrati va mahobatini ko'rsatib turardi.

Samarqanddagi qurilishlar to'g'risida so'z yuritilganda, shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, mo'ng'ullar bosqini davomida butunlay vayron etilgan va aholisi tomonidan tashlab chiqilgan Samarqand shahri Amir Temur hukmronligi davrida o'zining qadimgi o'rnidan birmuncha janubroqda boshdan-oyoq yangitdan



49-rasm. Amir Temur va  
Suyurg'atmishxonning kumush  
tangalari.

qayta quriladi. Shahar tevaragi **Oxanin, Shayxzoda, Chorsu, Korizgoh, Suzangaron va Feruza** kabi nomlar bilan yuritiluvchi oltita darvozali mustahkam yangi qal'a devor bilan o'rab chiqiladi. Shahar arkida Temurning qarorgohi **Ko'ksaroy va Bo'ston-saroylar** bino qilindi. Ko'ksaroy to'rt qavatli bo'lib, gumbazlari va devorlari zangori koshinlar, naqshinkor va guldor parchinlar bilan qoplangani uchun u shunday nom bilan shuhrat topadi. Ko'ksaroyda xonlarni podsholik taxtiga o'tqizish marosimi vaqtida ularni oq kigiz ustiga olib o'tqizadigan toshdan

taxt kursi — **Ko'ktosh** qo'yilgan edi. Bulardan tashqari, arkda davlat devonxonasi, qurol-yarog'lar yasaydigan ustaxona va aslahaxona, tangalar so'qiladigan zarbxona, qamoqxona kabi imoratlar joylashgan edi.

### 3. Hunarmandchilik

Bu davrda Samarqandda yangi, ko'rkam va muhtasham binolardan tashqari turli-tuman kasbdagi hunarmandlar mahallalari qad ko'taradi. Amir Temur mamlakatda, xususan uning poytaxti Samarqandda hunarmandchilikni kengaytirishga alohida e'tibor beradi. Ispan elchisi Klavixoning yozishicha, u hunarli biror kishini ham Movarounnahrni tashlab ketishga yo'l qo'ymagan. Aksincha, Amir Temurning amri-farmoni bilan *Damashqning eng mohir to'quvchilari, Xalabning mashhur paxta yigiruvchilari, Anqaraning movut to'quvchilari, Turkiya va Gurjistonning zargarlari*, xullas, kasb-hunar sohasida qaysi shaharda qancha hunarmandlar bor bo'lsa, hammasi Samarqandga ko'chirilib olib kelingandi. Ularning hammasiga Amir Temur

faoliyat yurgizishlari uchun sharoit yaratib bergan edi. O'sha davrda shaharda turli mazhab va dinlardagi kishilar istiqomat qilardi. Klavixoning ma'lumotiga ko'ra, Samarqandda 150 mingdan ziyodroq aholi yashagan. Shahar maydoni Ispaniyaning Shibliya shahridan kengroq bo'lgan. Lekin uning bu ma'lumotida shahar arki bilan qal'a, ya'ni ichki shahar qismlarigina ko'zda tutilgan xolos.

#### 4. Amir Temur bog'lari

Amir Temur shaharlardagi qurilishlardan tashqari Samarqand atrofida o'zining xesh-u aqrabolariga atab ko'pgina go'zal bog'lar qurdirdi. Mohir me'mor, tajribali sohibkorlarning aql-zakovati, mehnati-yu mahorati bilan barpo etilgan **Bog'idilkusho**, **Bog'ichinor**, **Bog'ibihisht**, **Bog'ibaland**, **Davlatobod**, **Bog'inav**, **Bog'ishamol** kabi chorbog'lar va ulardagi go'zal ko'shklar o'sha davr bog'dorchilik san'atining namunalaridandir. Manbalarda ta'rif etilishicha, shahar atrofi o'sha vaqtlarda Samarqandning eng go'zal va eng hashamatli qismi hisoblangan. Bu yerda bir yarim-ikki chaqirimga cho'zilgan bog'lar va ulardagi sayrgohlardan tashqari, arkon-u davlatning o'yin-kulgi qiladigan maxsus joylari bo'lgan. Shaharning sharq tomonida **Bog'idilkusho** joylashgan. Manbalarda ta'rif etilishicha, uning tashqi hovlisida podshoh saroylari bo'lib, unda qurollangan askarlar turgan, ichki hovlida esa tug'lar bilan bezatilgan olti fil haykallari safga terilgan. Uchinchi hovli Amir Temurning mehmonlarni qabul qiladigan oltin taxtli qarorgohi bo'lgan. Bu hovlilarning tashqarisida atrofiga olma va chinorlar o'tqizilgan hovuzlar, ularning suvi favvorasida qizil va sariq olmalar qalqib o'ynab turgan. Shaharning janubida Bog'ibihisht-u go'zal me'moriy uslubda qurilgan saroy va quvonchni oshiruvchi bog'i bilan mashhur bo'lgan. Sharafiddin Ali Yazdiyning ta'rifi bilan, u Tabrizning sof oq marmaridan bino qilingan. Bog'ning bir tarafida hayvonot bog'chasi ham bo'lgan. Amir Temur bu saroyni vorislaridan biri **Mironshohning qiziga** — suyuqli nabirasiga hadya qilgan edi. Bo'sh vaqtlarida u nevarasining Bog'ibihishtdagi xilvatxonasida (ermitaj) bo'lardi. Bog'ichinor ham shaharning shu qismida edi. Bog'da ko'rkam chinorlar qad ko'targan. So'lim yo'llar

salib shaklidagi qasrga olib borardi. Qasrning tashqarisi Shom naqqoshlarining mohirona ijodi bilan, ichkarisi go'zal surat va lavhalar bilan ziynatlangan va qimmatbaho buyumlar bilan liq to'la edi. Bog'ishamol va Bog'inav saroylari to'g'ri to'rtburchak shaklda bo'lib, har tomoni bir yarim ming qadam edi. Zamini qayrag'och va fil tishidan ishlangan koshinli edi. Qolgan bog'lar ham o'ziga xos ajoyib usulda barpo etilgan edi.

## 5. Shohona marosimlar

Samarqand va uning atrofidagi shohona saroy va bog'larda tantanali marosimlar — to'ylar, izdahomlar, sayillar va shohona mehmondorchiliklar o'tkazilgan. Ayniqsa, shahar atrofidagi bog'larda tashkil etilgan sayillar nihoyatda gavjum bo'lib, ularda Samarqand aholisining deyarli hamma tabaqa vakillari — davlatmandlar-u faqir-fuqarolar ishtirok etgan. Tantanali izdahom tartibidan tortib, a'yonlarning to'yona liboslarigacha katta e'tibor berilgan. Saroy amaldorlari va xodimlari martabalariga qarab o'z o'rinlarini egallaganlar.

Amir Temur o'zi mag'lub etgan mamlakatlarning ham tantanavor marosimlari va urf-odatlarini o'rgangan. Ularni rivojlantirib, o'z saroyida qo'llagan. Ispaniya elchisi Klavixoni Konigil mavzeida bo'lib o'tgan shohona izdahom (yig'ilish), ayniqsa hayratda qoldirgan. Konigilda 10—15 ming chodir o'rnatilib, izdahomda saroy ahli, vazir-vuzarolardan tashqari, aholining turli tabaqa vakillari qatnashgan. Klavixo chodirgohda mansabdor shaxslarning lavozimi bo'yicha chodirlarning joylashtirilish tartibi, jihozi, bezaklari hamda ularning turlari haqida yozadi. Chodirgoh bazmida qiziqchilar, muqallidlar, darvozlar bilan bir qatorda kashmiriy ko'zboylag'ichlar va qo'qillar ham qatnashgan edi. Qizig'i shundaki, izdahomda xonimlar hijobsiz ishtirok etardilar. Malikalar «*izn om*» — ommaga ruxsat etilgan bazmlar uyushtirib va ularga izdahomdagilarni chorlaganlar. Unda erkaklar, hattoki nasoroniy elchi ham qatnashgani ta'rif etiladi. Shunday qilib, Amir Temur o'z davlatining tuzilishi, qonun-qoidalarini tartibga solish bilan bir vaqtda oliy dargoh hayoti bilan bog'liq bo'lgan an'analarni turli xil yangi shohona marosimlar bilan boyitgan.

## 6. Poytaxtmonand qishloqlar. Ichki va tashqi savdo

Bu davrda Movarounnahrning dehqonchilik vohalarida, xususan Zarafshon vodiysida o'nlab sug'orish tarmoqlari qurilib, dehqonchilik maydonlari kengaytiriladi. Yangi-yangi qishloqlar barpo etiladi. Ibn Arabshohning hikoya qilishicha, Amir Temur o'z davlati poytaxti Samarqand atrofida qad ko'targan bir qancha yangi qishloqlarni Sharqning mashhur shaharlari **Dimishq** (Damashq), **Misr** (Qohira), **Bag'dod**, **Sultoniya** va **Shero**z nomlari bilan atadi. Chunki Samarqand kattaligi, go'zalligi hamda tevarak-atrofining obod etilganligi jihatidan dunyodagi eng yirik shaharlardan ham ustunroq turmog'i lozim edi. Shu bilan birga bu davrda Movarounnahr shaharlarida, ayniqsa uning poytaxtida savdo va hunarmandchilik g'oyatda rivojlanadi. Yangi bozorlar, savdo rastalari barpo qilinadi. Shahar bilan dehqonchilik vohalari va chorvador ko'chmanchi aholi o'rtasida savdo aloqalari kengayadi. Shaharlar mol ayirboshlash savdosida muhim rol o'ynaydi. Bu paytlarda Samarqandda savdo va hunarmandchilik juda ham rivoj topganligi ispan qiroli elchisi Klavixoni hayratda qoldirgan edi. Bu shaharda oldi-sotti uchun qulay maxsus savdo rastasining mavjud emasligi tufayli, podsho shahar bo'ylab katta ko'cha soldirishni, uning ikki tomoniga mol sotish uchun rasta va do'konlar qurishni buyurdi. Bunday katta qurilishni yigirma kundan ozroq muddatda amalga oshirilgani shubhasiz kishini hayratga soladi, deb hikoya qilgan edi Klavixo.

Ispan elchisi tashqi savdoda ham Samarqandning katta o'rin tutganini alohida qayd qiladi.

O'sha davr muarrixii Ibn Arabshohning yozishicha, Samarqandga chet el mamlakatlaridan, xususan Xurosondan *ma'danlar*, Hind va Sinddan *yoqut*, *olmos*, Xitoydan *atlas*, *yashin toshi*, *mushk* va boshqa mollar, o'zga mamlakatlardan *oltin* va *kumush* olib



50-rasm. Sulton Shohruhning kumush tangalari

kelinardi. Chet el mamlakatlaridan Samarqandga keltirilgan mollarning miqdori naqadar ko'p bo'lganini Klavixoning bu shaharda bo'lgan vaqtida Xitoy poytaxti **Xonbaliqdan** 800 tuyalik savdo karvoni kelganidan faraz qilish mumkin.

Shubhasiz, bu davrda Amir Temur va uning mahalliy noiblari Xitoy va Hindistondan O'rta Osiyo orqali Yaqin Sharq va Yevropa mamlakatlariga yo'nalgan asosiy xalqaro savdo «*Buyuk ipak yo'li*»ni egallab, savdo karvonlari qatnovi xavfsizligini ta'minlashda muhim chora-tadbirlar ko'radilar. Sharq bilan G'arb o'rtasida savdo-sotiq va elchilik aloqalarini har tomonlama rivojlantirishga g'oyat katta e'tibor beradilar. Bu esa Amir Temur davlatining tashqi iqtisodiy va elchilik aloqalarining barqarorligiga katta ahamiyat berganini ko'rsatadi.

#### *Savol va topshiriqlar*

- ?
1. Amir Temur qanday me'moriy inshootlar qurdirdi?
  2. «*Agar bizning quvvat va qudratimizga ishonmasang, bizning imoratlarimizga boq*» degan Oqsaroy peshtoqidagi yozuvda Amir Temur qanday maqsadni ko'zda tutgan edi?
  3. Amir Temur hunarmandchilikning rivojlanishiga qanday e'tibor berdi?
  4. Amir Temur barpo etgan bog'lar haqida gapirib bering.
  5. Oliy dargoh hayoti bilan bog'liq bo'lgan marosimlar haqida gapiring.
  6. Nima uchun Amir Temur Samarqand atrofidagi qishloqlarning nomini Sharqning mashhur shaharlari nomi bilan atadi?
  7. Samarqandda savdo rastalari qurilishi haqida gapirib bering.
  8. Tashqi savdoni rivojlanganligiga misollar keltiring.
  9. Me'moriy inshootlardan qaysi birining o'zini yoki rasmini ko'rgansiz? Ta'riflang.
  10. Bog' yaratma olasizmi? Siz necha tup ko'chat o'tqazgansiz?

#### **MAVZUNI TO'LDIRISH UCHUN YOZMA MANBADAN MA'LUMOT**

Sharq mamlakatlari, xususan Movarounnahr aholisining ijtimoiy va iqtisodiy hayotida qadimdan shahar bozorlari muhim ahamiyat kasb etgan. Ular nihoyatda gavjum bo'lgan. Ro'za oyida esa ularda tun-u kun savdo-sotiq olib borilgan. Tungi bozor xalq tilida «*bozori shab*» deb atalgan. Shaharning markaziy bozorlari o'rta asrlarda **Chorsu** deb yuritilgan. Chorsu rastalarining tomi gumbaz va ravoqsimon shaklda yopilgani uchun xalq o'rtasida

ular «*tim*» yoki «*toq*» so'zlari ham qo'shib aytilgan. Masalan: *Timi Abdullaxon* yoki *Toqi Zargaron* kabi.

1404-yilda Samarqandda bo'lgan Ispaniya elchisi Klavixoning yozishicha **Samarqand chorsusi** Amir Temur farmoni bilan 20 kunda qayta qurilgan. Chorsu bozori ro'parasida shaharning shu nomdagi darvozasi qad ko'targan. Uning tevaragini qator-qator *mixchagarlik, miskartlik, kulolchilik, sartaroshlik, maxsido'zlik, najjorlik, sahhoblik, zargarlik, ohangarlik* va boshqa do'konlar va ustaxonalar o'rab olgan edi. Bu do'kon-u ustaxonalarda uy-ro'zg'or uchun zarur xom-ashyo, zargarlik zeb-ziynatlari, jahonga dong'i ketgan lojuvard, tillarang, havorang bo'yoqlar, qurol-aslahalar, jiba, sovut, bargustvon (o'q o'tkazmaydigan yopqi) kabi harbiy kiyimlar sotilar edi. Obirahmat suvining qog'oz juvozlarida tayyorlangan turli nav qog'ozlar bilan savdo qiluvchi maxsus do'konlar ham mavjud edi. Bulardan tashqari, chorsuda xushnavis *xattotlar, muqovasoz sohhoblar*, kitob varaqalariga jilo beruvchi *naqqosh va lavohlar* ham alohida do'konlar ochib olgan edilar. Chorsu bozoridagi do'konlar turli xil ip va shoyi, jun hamdabaxmal matolar va ulardan tikilgan turli-tuman *kiyim-kechaklar*, shuningdek *kulolchilik mahsulotlari, zeb-ziynatlar, kandakorlik mahsulotlari* bilan to'la bo'lardi.

### 37- §. G'ARBIY YEVROPA DAVLATLARI BILAN ALOQALAR

#### 1. XV asr boshlaridagi siyosiy vaziyat

Amir Temur davlati va uning hukmdori zamondoshlarining e'tiborinigina o'ziga jalb etib qolmay, balki jahon siyosiy doiralarida yuz bergan barcha voqealarga ham ta'sir ko'rsatdi. Ma'lumki bu davrda, bir tomondan, harbiy qudrati tobora oshib borayotgan Turkiyaning Bolqon yarim oroli davlatlariga nisbatan tazyiqi kuchayib, butun Yevropani xavf ostiga solayotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan bu qudratli davlatning o'zi G'arbga tomon shiddat bilan bosib kelayotgan xavfli raqib Amir Temur davlatining kuchli tazyiqiga duchor bo'lgan edi. Shunday qilib, Kichik Osiyoda ikki fotihning — o'sha vaqtda o'z harbiy qudrati jihatidan eng

yuksalgan **Amir Temur** bilan G'arbiy Yevropaga dahshat solib turgan **Boyazidning** manfaatlari duch keladi. Bunday siyosiy vaziyatda Turkiyaga qarshi vujudga kelgan dushman kuchlarining ma'lum darajada birlashuvi tabiiy edi. Avvalambor Boyaziddan yengilib, o'z yer va mulklaridan mahrum bo'lgan Kichik Osiyo mamlakatlarining hukmdorlari Amir Temurdan madad istab, uning Qorabog'dagi o'rdugohiga borib, qaror topadilar. Hatto Vizantiya va G'alatadagi Genuya hokimining noibi Fransiya qiroli hamda Sultoniya shahrining katolik missionerlari yordam so'rab Amir Temurga murojaat qiladilar. Buning evaziga ular harbiy yurish vaqtida unga yordam berish hamda Konstantinopol va Peraning Boyazidga to'lab kelgan bojini bundan buyon Amir Temurga to'lashga va'da qiladilar. Bunday taklif shubhasiz Temurga maqbul tushadi. Chunki Turkiyani dengiz sohilidagi tayanchidan ajratish uchun unga dengizdan madad zarur edi. Shunday qilib, XIV asr oxiri va XV asr boshlarida Turkiya sultoni Boyazidga zarba berish uchun qulay siyosiy vaziyat vujudga keladi. Bu vaziyatdan Amir Temur ustalik bilan foydalanadi.

## 2. G'arb davlatlari bilan o'zaro kelishuvlar

Bu davrda Amir Temur Boyazid bilan o'zaro diplomatik yozishmalar olib borish bilan bir qatorda, Turkiya bilan bo'lajak to'qnashuvda Trapezund va Konstantinopolning harbiy kemalaridan foydalanishga harakat qiladi. Shu maqsadda u Genuya va Venetsiyaga sovg'a-salomlar hamda maktublar bilan elchilar yuboradi.

O'zaro yordam masalasida Amir Temur Konstantinopol noibi **Ioann VII Paleolog** bilan ham yozishmalar olib boradi. Amir Temurning 1402-yil 15-may kuni Ioann VII Paleolog nomiga yo'llagan xatining mazmuniga qaraganda, Konstantinopol noibi va Genuyaning Peradagi hokimi Boyazidga qarshi kurashda Amir Temurga xizmat qilish, hatto unga «odamlar va har qaysisi 20 ta dan 40 ta harbiy kemalar bilan» yordam berish majburiyatini o'z zimmlariga oladilar. Buni Ispaniya elchisi Klavixo ham o'z kundalik daftarida qayd qilib o'tadi.

Bu davrda Amir Temur Fransiya qiroli **Karl VI (1360–1422)**, Angliya qiroli **Genrix IV (1399–1413)**, Kastiliya va Leon

qiroli **Genrix III de Trastamara (1390–1407)** lar bilan diplomatik aloqalar oʻrnatib, yozishmalar olib boradi. Bu davlatlar orasida, ayniqsa Fransiya, Vizantiya imperiyasi taqdiriga befarq qaray olmas edi. Shu boisdan Fransiya fuqarolari hisoblangan genuyaliklarning yer va mulklarini, ayniqsa Gʻalatadagi mustamlakalarini himoya qilish uchun **Karl VI** oʻz navbatida Amir Temurdan madad kutar va u bilan diplomatik aloqalar oʻrnatishga urinar edi. Amir Temur va Karl VI yozishmalarida qayd etilishicha, Sohibqiron qirolni jiddiy qoʻllab-quvvatlaydi. Shunday qilib, Amir Temurning Kichik Osiyo va Gʻarbiy Yevropa davlatlari bilan olib borgan dastlabki diplomatik yozishmalari va elchilik aloqalari uning Gʻarbga — Turkiya ustiga yurishi munosabati bilan boshlanib, ulardan asosan Boyazidga qarshi birgalikda kurashish rejalari koʻzda tutiladi. Biroq Anqara yaqinida turklarning 160 ming kishilik qoʻshini ustidan qozonilgan buyuk gʻalabadan soʻng Amir Temurning Gʻarbiy Yevropa davlatlari bilan boʻlgan aloqalarining mazmuni tubdan oʻzgaradi. Endilikda u ular bilan doʻstona munosabatlarni mustahkamlash va oʻzaro savdo-sotiq aloqalarini yoʻlga qoʻyish kabi masalalarga ahamiyat beradi.

### 3. Diplomatik aloqalar va yozishmalar

Vizantiya imperatoridan boj olib, uni bevosita boʻysundirish bilan kifoyalangan Amir Temur 1402-yil yozida Fransiya va Angliyaga maxsus elchilar orqali **Karl VI** va **Genrix IV** nomlariga maktublar yoʻllaydi. Elchilar Parijga 1403-yil may oyida yetib boradilar. Elchilar ikki mamlakatning savdogarlari uchun erkin savdo munosabatlari olib borilishini taʼminlash va agar qirool hamda gersoglar rozi boʻlsalar, bu erkin savdoni tegishli bitim yoki shartnoma bilan mustahkamlashni taklif etadi. Shuning uchun ham Temur 1402-yil 1-avgustda Fransiya qiroli Karl VI ga yoʻllagan maktubida bu haqda quyidagilarni alohida taʼkidlaydi: «Bundan keyin sizning (odamlaringiz) bizning yerlarimizga va bizning (kishilarimiz) sizning oʻlkangizga oʻtgan ajdodlarimiz davridagidek, borib-kelib tursalar, sizning va bizning nomimizni hamma joyda olqishlab tursalar, mamlakatimiz **savdogarlari** uchun foyda keltirishsa, koʻp xursand

bo'lar edik. Shuni aytish kerakki, endilikda bizning yurtimizda savdogarlaringizning xavfsizligi ta'minlanadi.»

Fransiya qiroli **Karl VI 1403-yil 15-iyunida** Amir Temurga yo'llagan javob maktubidan ma'lum bo'lishicha, Amir Temur takliflari Fransiya tomonidan mamnuniyat bilan qabul qilingan. Xuddi shu davrda u buyuk g'arbiy viloyatlar hokimi **Mironshoh (1366—1408)** bilan Angliya qiroli **Genrix IV** o'rtasida olib borilgan diplomatik yozishmalarda ayniqsa faol qatnashdi. 1393-yilda **Shimoliy Eron, Iroq hamda Tabriz va Sultoniyani** o'z ichiga olgan xulogular tasarrufidagi mulklarga hokim qilib tayin etilgan Mironshoh Amir Temurning keksayib qolgan davrida G'arbiy Yevropa hukmdorlarining diqqat-e'tiborini o'ziga jalb etadi. Bu davrda u Yevropa davlatlari bilan o'zaro savdo aloqalarini jonlantirish maqsadida xristian ruhoniylariga xayrixohlik bildirib, savdogarlarning daxlsizligini ta'minlash borasida chora-tadbirlarni amalga oshirdi. Shu sababli G'arbda Mironshoh tez orada *«katolik dinining homiysi»* sifatida shuhrat qozondi. Amir Temur, Mironshoh va Genrix IV larning o'zaro diplomatik yozishmalaridan ma'lum bo'lishicha, Angliya bilan elchilik aloqalarini o'matib, savdo-sotiqni jonlantirish yo'lida olib borilgan harakatlarda, ayniqsa Mironshohning tashabbusi katta bo'lgan. Bu tabiiy hol bo'lib, buyuk Amir Temur saltanatining G'arbiy davlatlar bilan olib borgan aloqalari — xoh u elchilar qatnovi, xoh savdo karvonlari bo'lmasin, dastavval Mironshoh tasarrufidagi o'lkalar orqali o'tar edi. Bundan avvalambor ushbu viloyatlarning noibi manfaatdor edi.

Misr va Turkiya sultonlari ustidan qozonilgan g'alabadan so'ng Amir Temur G'arbiy Yevropada yanada keng shuhrat qozondi. Yevropa mustabidlarining Sharqqa bo'lgan azaliy qiziqishi va intilishi yanada kuchaydi. Ayniqsa Kastiliya (Ispaniya) qiroli **Genrix III** Sharq bilan juda qiziqib qolgan edi. 1402-yilning bahorida dastlab Ispaniya elchilari Temurning Kichik Osiyodagi qarorgohiga yuboriladi. Elchilarga Amir Temur va Boyazidlarning kuch-qudrati, boyligi va qo'shinining sonini bilish, hamda ular qo'l ostida yashayotgan xalqlarning urf-odatlarini, dini va qonunlari haqida aniq ma'lumotlar to'plash topshiriladi. Sharq va G'arb

davlatlarining elchilari qatorida Ispaniya elchilari ham Amir Temur tomonidan qabul qilinib, qirol nomiga yozilgan maxsus maktub va in'omlar bilan kuzatiladi. Ularga qo'shib Amir Temur **Muhammadqozi** ismli o'z vakilini Ispaniyaga elchi qilib yuboradi. Genrix III 1403-yilda Amir Temur huzuriga ikkinchi marta maxsus elchilarni yuboradi. Unga Klavixo boshliq qilib tayinlanadi. 1403-yil 21-mayda Ispaniyadan jo'nab ketgan elchilar Samarqandga keladilar. Ispaniya elchilari Samarqandda Amir Temur tomonidan tantanavor qabul qilinib, ularga katta e'tibor va zo'r hurmat ko'rsatiladi.

Klavixo boshliq Ispaniya elchilari 1404-yilning sentabr-noyabr oylarida Samarqandda bo'ladilar. Amir Temurning Xitoyga tomon yurishi munosabati bilan boshqa ko'pgina davlatlarning elchilari bilan bir qatorda Ispaniya elchilari ham 1404-yilning 21-noyabrida Samarqanddan jo'natib yuboriladi. Klavixo Ispaniyaga 1406-yilning mart oyida qaytib keladi. Klavixoning safar taassurotlari «**Buyuk Temur tarixi**» va «**Temur qarorgohi**», «**Samarqandga saforot kundaligi**» nomlari ostida ispan tilida bir necha bor nashr qilinadi. Bu voqealar Amir Temur davrida G'arb va Sharq davlatlari o'rtasidagi diplomatik aloqalar natijasida O'rta Osiyoning har tomonlama rivojlanishiga yordam berdi.

Amir Temur vafotidan so'ng mamlakatda boshlangan siyosiy boshboshdoqlik va uni bir qancha mustaqil davlatlarga bo'linib ketishi oqibatida G'arbiy Yevropa davlatlari bilan Amir Temurning o'rnatgan bevosita savdo va elchilik aloqalari asta-sekin susaydi. Bu shubhasiz, O'rta Osiyoning G'arbiy Yevropa va unda shakllanayotgan jahon tashqi bozoridan ajralib, o'rta osiyoliklarning dunyo xalqlarining taraqqiyotidan chetda qolishining asosiy omillaridan biri bo'ldi.

### *Savol va topshiriqlar*

- ? 1. XV asr boshlaridagi siyosiy vaziyatga baho bering. 2. Yevropa hukmdorlari nima uchun Amir Temur bilan diplomatik aloqalar o'rnatishga harakat qildi? 3. Fransiya qirolli Karl VI bilan yozishmalar haqida gapirib bering. 4. Nima uchun Mironshoh g'arbda «katolik dinining homiysi» degan sifat bilan mashhur bo'ldi? 5. Ispaniya bilan bo'lgan aloqalar haqida nimalarni bilib oldingiz? 6. Ispaniya elchisi Klavixoning Samarqandda bo'lishini gapirib bering. 7. Mustaqil O'zbekistonning bugungi chet el davlatlari bilan aloqalari haqida nimalarni bilasiz?



## TEMURIYLAR VA SALTANATNING PARCHALANISHI

## 38- §. AMIR TEMUR VORISLARI

## 1. Taxt uchun kurash

Muttasil olib borilgan jang-u jadallar, qo'shni mamlakatlarni fath etish bilan nihoyatda kengayib ketgan Amir Temur davlatining tashqi qiyofasi kuchli ko'rinsa-da, ammo u siyosiy jihatdan mustahkam emas edi. Davlatning barqarorligi tadbirkor Amir Temurning irodasi va qilich zarbi bilan saqlanib turilgan edi. Mamlakat hayotida hukm surgan suyurg'ol tartibi va rasmi Amir Temur asos solgan bu ulkan davlatning ko'p vaqt o'tmay nurab, parchalanib ketishiga sabab bo'ladi. Amir Temurning jasadi Samarqandga olib kelinib dafn etilishi va marhumning motam marosimlari tugar-tugamas, vorislar o'rtasida toj-taxt talashuvi boshlanadi. O'sha paytlarda Samarqand saroy doirasida qarorsizlik va parokandalik hukm surar edi. Garchi Amir Temurning o'rtancha o'g'li Mironshoh hamda Xuroson noibi oqil va tadbirkor kenja o'g'li Shohruh Mirzolar barhayot bo'lsalar-da, Sohibqiron hayotlik chog'idayoq o'ziga valiahd etib qahramonligiga qattiq ishongan nabirasi o'sha vaqtlardagi Hindiston va Kobul viloyatlarining hukmdori **Pirmuhammadni** tayinlagan edi. Amir Temurning vasiyatiga muvofiq Pirmuhammadni taxtga o'tqizish tarafdorlari kuchli bo'lsa-da, biroq Mironshohning o'g'li Xalil **Sulton Mirzo** 1405-yilning 18-mart kuni Samarqandni egallab, o'zini *Movarounnahrning oliy hukmdori* deb e'lon qiladi. Pirmuhammadning yo'lini to'sib, uning rejalarini buzib yuborish niyatida hatto u Amudaryoning o'ng tomonidagi yerlarni o'z hokimiyatiga qo'shib ham oladi.

Xalil Sulton garchi bobosidan qolgan xazinalar vositasida Sohibqironning nufuzli a'yon va kibarlaridan ma'lum qismini o'z tarafiga og'dirib Movarounnahr taxtini egallab olgan bo'lsa-da, ammo ko'p vaqt o'tmay u Amir Temurning sadoqatli amirlari, viloyat noiblari va shahzodalarning kuchli noroziligi va isyoniga duch keladi. Birinchi bo'lib, Turkiston hamda Farg'onaning hokimi amir Xudaydod bilan Shayx Nuriddin Xalil

Sultonga qarshi isyon ko'taradilar. Hatto uning o'z ukasi **Mirzo Sulton Husayn** Amudaryoning chap sohili viloyatlarida o'z hokimiyatini o'rnatmoq niyatida akasiga qarshi bosh ko'taradi. O'z navbatida Amir Temur taxtining asosiy valiahdi **Pirmuhammad** Amudaryodan kechib o'tib, **Xalil Sultonga** qarshi Nasafga tomon askar tortadi. Movarounnahrda boshlangan o'zaro va sulola kurashlari shu tariqa avj olib ketadi.

Oqibatda bu davrda Xurosonda **Shohruh**, Balx, G'azni va Kandahorda **Pirmuhammad**, G'arbiy Eron va Ozarbayjonda Mironshohning o'g'illari **Umarshayx Mirzo** bilan **Abubakr Mirzolar** hokimi mutlaq bo'lib oladilar. Sirdaryodan shimolda joylashgan viloyatlar: Turkiston, Sabron, O'tror, Sayram amir **Berdibekning** tasarrufida qoladi. O'ratepa bilan Farg'onani amir **Xudaydod Husayniy** egallab oladi. Xorazmni esa Oltin O'rdaning nufuzli amirlaridan **Idiku o'zbek** bosib oladi. Garchi Shohruh 1405–1408-yillarda Xalil Sultondan Samarqandni tortib olib, otasi Amir Temurning toj-taxtini egallashga harakat qilsa-da, ammo buning uddasidan chiqa olmaydi. Bunga Balx, Seiston, Xuroson va Ozarbayjonda temuriy shahzodalar va ayrim iqtidorli amirlarning birin-ketin ko'tarib turgan g'alayonlari to'sqinlik qiladi. Bu davrda Amir Temurning valiahdi Pirmuhammad va o'rtancha o'g'li Mironshoh bunday g'alayon va fitnalarning qurboni bo'ladilar. Pirmuhammad 1407-yil 22-fevralida vaziri **Pir Ali Toz** boshliq fitnachilar qo'lida shahid bo'ladi. 1408-yil 22-aprel kuni Qoraqyunli turkmanlarining qabila boshlig'i **Qorayusuf** bilan bo'lgan jangda **Mironshoh** halok bo'ladi. Ozarbayjon va Iroq viloyatlari temuriylar qo'lidan ketadi.

1409-yil bahorida Movarounnahrda vaziyat yanada keskinlashadi. Amir Xudaydod O'ratepa va Shohruhiya shaharlarini osongina qo'lga kiritib, Samarqand tomonga askar tortadi. Sheroz yaqinida Zarafshon daryosi bo'yida sodir bo'lgan jangda Xalil Sulton qo'shini mag'lubiyatga uchraydi, o'zi esa asirga olinadi.

## 2. Shohruhning Movarounnahrni egallashi

Shu davrda amirlar isyonini bostirishga ulgurgan Shohruh endilikda butun e'tiborini Movarounnahrqa qaratadi. Chunki u

ota yurtidagi hodisalarga loqayd qaray olmasdi. 1409-yil 25-aprelida u Amudaryodan o'tib, Samarqand sari yurish qiladi va jangsiz shaharni egallashga muvassar bo'ladi.

Amir Temur vafotidan keyin qariyb besh yil davom etgan o'zaro kurash va isyonlar, shubhasiz mamlakat aholisining iqtisodiy ahvoriga keskin ta'sir etib, xalqning jiddiy noroziligiga sabab bo'lgan edi. Shuning uchun ham temur-zodalar va amirlar o'rtasidagi



51-rasm. Ulug'bek.

kurashga xotima berish maqsadida Shohruh boshlagan harakat mamlakat fuqarosining ko'pgina tabaqalari tomonidan quvvatlanadi. Shu bois Shohruh Amir Temur hukmronligi o'rnatilgan viloyatlarni o'z qo'l ostiga olishga hamda mamlakatda tinchlik va osoyishtalik o'rnatishga bir umr harakat qiladi. XV asrning 20-yillariga kelib, Amir Temur merosining Suriya va Arabistondan tashqari asosiy qismini o'z tasarrufiga oladi ham. Shu bilan birga Shohruh mamlakatni boshqarishda temuriyoda va amirlardan iborat hokimlarning aksariyatini o'zi uchun ishonchsiz deb hisoblaydi. Ularning o'rniga deyarli hamma viloyatlarda o'z o'g'illari va nabiralarini hamda o'ziga yaqin tutgan qon-qarindoshlarini noiblikka tayinlaydi, u yerlarni ularga suyurg'ol qiladi. Shu yo'l bilan mamlakatni boshqarish yengil bo'ladi deb o'ylaydi. Biroq, oqibat Shohruh kutgandek bo'lib chiqmaydi. Bunga Shohruh keyinroq nevarasi **Sulton Muhammadning** (Boysunqur Mirzoning o'g'li) qilmishlaridan so'ng ishonch hosil qiladi. Sulton Muhammad Eronga hokim qilib tayinlangach, bobosiga noiblik qilishdan bo'yin tovlab, o'zbo-shimchalik bilan o'z yerlarini kengaytirishga kirishadi. Shohruh itoatsiz nabirasiga qarshi qo'shin tortishga majbur bo'ladi.

Shohruhning uzoq hukmronlik davrida Amir Temur saltanatining asosiy qismi uning qo'li ostida saqlanib qolsa-da,

ammo bu ulkan mamlakat ikki davlatga bo'lingan edi. Ulardan biri Amudaryodan janubda joylashgan Shohruh davlati bo'lib, uning markazi Hirot shahri edi. Ikkinchisi esa, Amudaryodan shimolda Movarounnahr va Turkistonda vujudga kelgan Ulug'bek davlati bo'lib, Samarqand uning poytaxti edi.

### *Savol va topshiriqlar*

- ? 1. Amir Temur saltanatining parchalanish sabablari nimada? 2. Shohruhning Movarounnahrni egallashi haqida gapirib bering. 3. Sizning fikringizcha, yurtni parchalanishi shu yurt fuqarolarining hayotiga qanday ta'sir qiladi? Yurtni omon va yaxlit saqlash uchun nimalar qilish kerak?

## 39-§. ULUG'BEK DAVLATI

### 1. Ulug'bek Movarounnahr hukmdori

1409-yilda Shohruh Samarqanddan Hirotga qaytish oldida Mirzo Ulug'bekni Movarounnahr va Turkistonga hokim qilib tayinlaydi. Ulug'bek Samarqand taxtiga o'tirgan vaqtida o'n besh yoshdagi o'spirin edi. Mamlakatni idora etish tabiiy uning uchun mushkul edi. Shahzoda balog'atga yetgunga qadar davlatni boshqarishni Shohruh o'zining sodiq amaldorlaridan biri **Shohmalik**ning ixtiyoriga topshiradi.

Ulug'bekning asli ismi **Muhammad Tarag'ay** bo'lib, u Amir Temurning Yaqin Sharqda besh yillik yurishlari vaqtida 1394-yilda *Sultoniya* shahrida tavallud topadi. U Amir Temur o'rdugohi va saroyida katta onasi **Saroy Mulkxonim** va onasi **Gavharshodbegim**larning bevosita panohida tarbiyalanadi. Sohibqironning boshqa nabiralari qatorida u Amir Temurning harbiy yurishlari va saroy an'analarida ishtirok etadi. Besh yoshidan boshlab Ulug'bek Shayx Ozariy nomi bilan keyinchalik shuhrat topgan mashhur olim Shayx Orif murabbiyligida tarbiyalanadi. Undan xat-savod va hisob bo'yicha ilk saboqlarini oladi. So'ngra Ulug'bekka otaliq etib **Amir Shohmalik** tayinlanadi. Otaliqdan u tabiiy, davlatni idora qilish san'ati — lavozimlarga mansabdor shaxslarni tayinlash, soliq to'plash, ruhoniylar, amaldorlar va o'zga yurtlardan tashrif buyurgan elchilarni qabul qilish, xayr-u sadaqa berish kabi tartib-qoidalar bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'ladi.

Ulug'bek 10 yoshga to'lganda uni **Muhammad Sultonning qizi Og'obegimga** unashtiradilar. Ona tomonidan Og'obegimning naslu nasabi Oltin O'rda xoni **O'zbekxon (1312–1342)** xonadoniga mansub bo'lgani tufayli, Ulug'bek ham bobosi kabi «ko'ragon» unvoniga sazovor bo'ladi.

Ulug'bek davlati janubda Amudaryo, g'arbda Buxoro vohasiga tutashib ketgan *Urganjiy* dashti (Markaziy Qizilqum)ning sharqiy hududlari, shimolda Sirdaryoning quyi oqimidagi *Sig'noq* va *O'tror* shaharlari, sharq va shimoli-sharqda *Sharqiy Turkiston* bilan chegaralanardi. Ulug'bek garchi *Movarounnahr* bilan *Turkistonning* hokimi deb e'lon qilinsa-da, aslida uning hokimiyati dastavval faqat Samarqand, Buxoro va Nasaf viloyatlari bilangina cheklanadi. Chunki Shohruh avval boshdan Farg'onani to O'zgangacha **Amirak Ahmadga**, Hisori Shodmonni **Muhammad Jahongirga** in'om qilib, Ulug'bekni birmuncha cheklab qo'yadi. Buning ustiga Turkiston **Shayx Nuriddinning** tasarrufida edi. O'sha vaqtda u na Ulug'bek va na Shohruhni tan olardi. Shuning uchun ham hali mamlakat notinch edi.



52-rasm. Ulug'bek madrasasi. Umumiy ko'rinish. Samarqand.

Shayx Nuriddin Turkiston bilan qanoatlanmaydi. 1410-yilda u **Muhammad Jahongir**, Yangi va Sayram viloyatlarining hokimi **Amir Abdulholiq** hamda oqo'rdalik xonzodalardan Chingiz **O'g'lonlar** bilan ittifoq tuzib, temuriylarga qarshi isyon ko'taradi. 1410-yil 20-aprelida Samarqand yaqinida **Qizilravot** mavzeida isyonkor ittifoqchilar bilan Mirzo Ulug'bek va Shohmaliklarning qo'shinlari o'rtasida jang bo'ladi. Jangda Ulug'bek mag'lubiyatga uchrab **Kalifga** tomon qochadi. Shohruh 1410-yilning yozida isyonni bostirish uchun katta kuch bilan Samarqandga yetib keladi. Shayx Nuriddin isyoni bostirilgach, Sirdaryoning o'ng sohilida joylashgan shaharlar: Toshkent, Yassi, Sabron, Sayram, Yangi yana Temuriylar davlati tarkibiga qo'shib olinadi va bu o'lkalarni idora qilish ham Ulug'bekning zimmasiga yuklanadi.

O'sha paytlarda Ulug'bek bilan Shohmalikning munosabatlari buzilib qoladi. Chunki shuhratparast otaliq Ulug'bekni davlat ishlariga yaqin yo'latmay, hatto u bilan hisoblashmay ham qo'ygan edi. Shu sababli Shohruh 1412-yilda Shohmalikni Samarqanddan olib ketishga majbur bo'ladi. Shu vaqtdan boshlab batamom Movarounnahr va Turkistonni boshqarish 18 yashar Ulug'bek qo'liga o'tadi.

## 2. Harbiy yurishlar

Mamlakatda ma'lum darajada hokimi mutlaq bo'lib olgan **Ulug'bek** endilikda Farg'onani amakivachchasi **Amirak Ahmad** qo'lidan tortib olib, bu o'lkada o'z hukmronligini o'rnatishga intiladi. O'z maqsadini amalga oshirish uchun u dastlabki mustaqil harakatni 1414-yilda Farg'onaga yurishdan boshlaydi. Ulug'bekning qo'shiniga bas kelishga ko'zi yetmagan **Amirak Ahmad** jangsiz *Andijon* va *Axsini* topshirib, O'sh va Oloy orqali *Koshg'arga* qochadi. Ammo oradan ko'p vaqt o'tmay *Koshg'ar* hokimining madadi bilan O'sh yaqinidagi jangda Ulug'bek qo'shinini mag'lubiyatga uchratib Farg'onani qaytarib oladi. Bu voqeadan so'ng Ulug'bek 1415-yilning bahorida Farg'onaga ikkinchi marta qo'shin tortishga majbur bo'ladi. Bu gal ham Amirak Ahmad Ulug'bekdan cho'chib yana *Koshg'arga* qochadi. Shohruhning Amirak Ahmad nomiga ishonchnoma yuborib, bu ishga aralashuvi tufayli shahzodalar o'rtasidagi o'zaro nizo bartaraf etilib, Farg'ona unga tobe bo'lib, *Koshg'ar* ham Ulug'bekning qo'liga o'tadi.

1413-yilda Shohruh tomonidan Xorazm Oltin O'rdagi xonlari tasarrufidan qaytarib olingach, Ulug'bek davlatining g'arbiy va janubiy chegaralarining xavfsizligi muqimlashgan bo'lsa-da, ammo uning shimoli-g'arbiy va shimoli-sharqiy tomonlari hali xavotirli edi. Shu sababli Ulug'bek bu davrda Dashti Qipchoqda boshlangan o'zbek shahzodalarining o'zaro olishuvlariga hamda Mo'ng'ulistonda avj olgan ichki kurashlarga jiddiy e'tibor berishga va aralashishga majbur bo'ladi.

Ulug'bek ko'magi bilan *Dashti Qipchoqda* O'zbek ulusida **Baroq O'g'lon**, Mo'ng'ulistonda **Shermuhammad O'g'lon** hokimiyatni qo'lga oladilar. Har ikki shahzodalar orqali Ulug'bek bu ikki qo'shni o'lkalarda o'z siyosatini o'tkazishni mo'ljallagan edi. Biroq bu xonlar Ulug'bekning ishonchini oqlamaydilar. Shundan so'ng Ulug'bek otasining rizosi bilan 1425-yilning erta bahorida Mo'ng'uliston ustiga yurish boshlaydi. Issiqko'l yaqinida sodir bo'lgan to'qnashuvda Ulug'bek mo'ng'ullar ustidan g'alaba qozonadi va katta o'lja bilan Samarqandga qaytadi. O'ljalor orasida ikki bo'lak nefrit toshi ham bor edi. Keyinchalik bu nefritdan Amir Temur maqbarasi uchun qabr toshi yasattiriladi. Mo'ng'uliston urushi Ulug'bek olib borgan jiddiy urushlarning birinchisi va so'nggisi edi. Bu qirq yillik podsholik davrida Ulug'bek qozongan birinchi zafar edi. Bu zafarli yurishning nishoni tarzida Jizzax yaqinida Ilono'tti darasi ichida hijriy 828(1428)-yilda Ulug'bek tomonidan qoyatoshga yozdirilgan o'ziga xos «zafaroma» hozirgi kungacha saqlangan.

Oradan ikki yil o'tgach Ulug'bek *Dashti Qipchoqda* o'z siyosiy mavqeiini mustahkamlab olgan **Baroq O'g'longa** qarshi yurishga majbur bo'ladi. Ulug'bek yordami bilan o'zbeklar ulusida taxtdor bo'lib olgan Baroq O'g'lon uning muruvvatini unutilib, endilikda Sirdaryo bo'yidagi *O'tror*, *Sabron* va *Sig'noq* singari shaharlarga da'vogar bo'lib chiqadi. Unga qarshi yurishda Ulug'bekning omadi kelmaydi. Baroq O'g'lon Sig'noq yaqinida tunda Ulug'bek qo'shinini chor-atrofdan bosib, unga qattiq zarba beradi. Baroq O'g'lonning lashkari uni Samarqand ostonalarigacha ta'qib qilib boradi. Bu mag'lubiyatdan keyin Ulug'bek el-yurt va otasi oldida yuzi shuvut bo'lib, Samarqand taxtidan va Movarounnahr hukmdorligidan ajralishiga sal qoladi. Sig'noq mag'lubiyatidan

o'ziga kerakli saboqni chiqargan Ulug'bek, garchi umrining oxirigacha o'zga viloyatlarga harbiy yurish uyushtirishga jur'at qilmagan bo'lsa-da, XV asrning 30–40-yillari otasi Shohruh bilan Dashti Qipchoqning sharqiy qismida istiqomat qiluvchi aholini o'ziga bo'ysundirgan **Abulxayrxonga (1428–1468)** qarshi kurashishiga to'g'ri keladi. Ko'chmanchilar har yili ayniqsa qish faslida Movarounnahrning ichkarisiga bostirib kirar va o'troq aholini g'orat qilib qaytardilar. Masalan, Abulxayrxon yetakchiligida ko'chmanchilar 1431- va 1435-yillari Xorazmgacha bostirib kirib, uning g'arbiy qismini Urganch bilan qo'shib zabt etadilar. Biroq Dashti Qipchoq ko'chmanchilari va Abulxayrxon bilan kurashish Ulug'bek bilan Shohruh uchun yengil ko'chmaydi.

### 3. Ulug'bek va Abdullatif

Movarounnahrni idora etishda, ayniqsa uning tashqi siyosatida Ulug'bek ayrim hollardagina mustaqil harakat qilgan bo'lsa-da, ammo aslida u Shohruhning Movarounnahrda intizomli va itoatkor noibi bo'lib qoladi. Tashqi va ichki siyosatga aloqador har qanday masalani u otasi bilan maslahatlashib va kelishib, uning rozi-rizoligi bilan hal etishga harakat qiladi. Vaqt-vaqti bilan u Hirotga borib unga hisob berib, Movarounnahr xirojining bir qismini uning xazinasiga jo'natib turishga, Shohruhning harbiy yurishlari vaqtida unga ma'lum miqdorda askar, ot-ulov, oziq-ovqat va qurol-aslaha yuborishga majbur edi.

Shohruh 1447-yil 12-mart kuni nevarasi Sulton Muhammad isyonini bostirish vaqtida Ray viloyatida olamdan o'tadi. Shohruh vafot etishi bilanoq Xuroson va Movarounnahrda temuriy shahzodalar o'rtasida toj-taxt uchun kurash yana avjga minib, mamlakatni beqarorlik chulg'ab oladi. Odatga ko'ra taxtga Shohruhning to'ng'ich o'g'li Ulug'bek o'tirishi kerak edi. Ammo **Boysunqurning** o'g'illari **Alouddavla** bilan **Abulqosim Bobur** Ulug'bekka qarshi harakat boshlaydilar. O'zboshimcha shahzodalarga qarshi Ulug'bek qo'shin bilan chiqishga va ular bilan muzokaralar olib borib kelishishga majbur bo'ladi. Chunki 1447-yilning bahorida Alouddavla Ulug'bekning katta o'g'li

Abdullatifning qo'shinini tor-mor keltirib, uni asrga olgan va Hirotidagi Ixtiyoriddin qal'asiga qamab qo'ygan edi. O'g'lining qurbon qilinishini istamagan Ulug'bek Alouddavla bilan sulh tuzadi. Bitimga ko'ra Abdullatif ozod qilinib, Ulug'bek esa *Hirot* va *Xurosonga* bo'lgan da'vosidan voz kechadi. Biroq ko'p vaqt o'tmay Abdullatif bilan Alouddavla munosabatlari yana keskinlashib ketadi. 1448-yilning bahorida Ulug'bek va Abdullatifning 90 ming kishilik birlashgan qo'shini Hirotga yurish qiladi. Tarnob yaqinida bo'lgan jangda Alouddavla qo'shini tor-mor keltirilib, Hirot qo'lga kiritiladi. Bu g'alabadan so'ng Abdullatif, garchi bobosi Shohruhning Hirotidagi taxtiga o'tirishga muyassar bo'lsa-da, ammo unda otasiga nisbatan adovat paydo bo'ladi. Chunki g'alaba to'g'risida tevarak-atrofga yuborilgan fathnomalarda Abdullatifning nomi inisi Abdulazizdan keyin tilga olinadi. Uning Ixtiyoriddin qal'asidagi xazinasi Ulug'bek tomonidan olib qo'yilib, ma'lum darajada adolatsizlik va mehribonsizlikka yo'l qo'yilgan edi. Bu, shubhasiz, o'ta shuhratparast hamda mol-dunyoga o'ch Abdullatif uchun yetarli bahona bo'ladi. U otasining dushmanlari bilan yashirin tarzda til birlashtirib, zimdan Ulug'bekka qarshi harakat boshlaydi. Avvalambor Abdullatif Hirotida bor-yo'g'i o'n besh kun hokimlik qiladi. Abulqosim Bobur qo'shinining shaharga yaqinlashib kelayotganidan xabar topib, poytaxtni jangsiz bo'shatib, Movarounnahr tomon qochadi. Ulug'bek farmoni bilan Balxga noib qilib tayinlangach, viloyatda «*tamg'a*»ni bekor qilib, savdogarlarni o'z tarafiga og'dirib oladi. Otasidan norozi bo'lgan amirlarni atrofiga to'playdi. Hatto Abulqosim Bobur bilan bog'lanib, uni birlashib Ulug'bekka qarshi kurashga undaydi. Shunday qilib Abdullatif o'z otasiga qarshi ochiqdan-ochiq dushmanlik yo'lga o'tadi.

53-rasm. Shayboniyxon tasviri.  
XVI asr.



shayboniyxon

#### 4. Ulug'bek fojiasi

Davlatning yaxlitligini saqlab qolmoq uchun Ulug'bekda o'zining isyonkor va makkor o'g'liga qarshi yurish qilishdan boshqa iloj qolmaydi. Ammo ayni zamonda mamlakatda siyosiy vaziyat keskinlashib, Ulug'bekning ahvolini yanada mushkullashtiradi.

Hirotidan Samarqandga qaytar ekan Ulug'bek old tomondan Dashti Qipchoq ko'chmanchilarining hujumiga duchor bo'ladi. Abulxayrxon boshchiligidagi ko'chmanchilar o'shanda *Toshkent*, *Shohruhiya*, *Samarqand* va *Buxoro* tevaragidagi qishloqlarni talab, podshoh va yirik mansabdorlarning shahar atrofidagi chorbog'lari va ko'shklarini vayron qiladilar. Ikki tarafdin kelgan dushmanlar bilan bo'lgan to'qnashuvlar oqibatida Ulug'bek qo'shini qattiq shikast topib, u ancha-muncha zaiflashib qoladi. Shu vaqtda Samarqandda vaqtinchalik noib qilib qoldirilgan Ulug'bekning kichik o'g'li Abdulazizga qarshi Samarqand amirlarining noroziligi kuchayib, Ulug'bek uni bartaraf qilishga majbur bo'ladi. Otasining qiyin ahvolda qolganini kuzatib turgan Abdullatif qulay fursatdan foydalanib, bosh ko'taradi va Amudaryodan kechib o'tib, *Termiz*, *Kesh* va *Xuzorni* osongina zabt etadi. So'ngra Samarqandga qarab yo'l oladi. 1449-yil oktabrida Damashq qishlog'i yaqinida qattiq jang bo'ladi va bu jangda Ulug'bek yengiladi. Samarqand amiri *Mironshoh Qavchin* shahar darvozalarini berkittirib Ulug'bekni ichkariga kirishga qo'ymaydi. U Shohruhiyaga ham kirolmaydi va Abdullatifga taslim bo'lishga majbur bo'ladi. Shahar qozisi *Shamsuddin Muhammad Miskinning* qarshiligiga qaramasdan, Abdullatif jaholatparast ulamolarning yashirin fatvosini chiqartirib, otasining o'ldirilishini uyushtiradi. Zamonasining mashhur olimi va hukmdori Mirzo Ulug'bek 1449-yil 27-oktabrda 55 yoshida Samarqand yaqinida fojiali suratda shahid bo'ldi.

Shunday qilib, Ulug'bek Movarounnahrni qirq yil idora qildi. Bu davrda mamlakatning siyosiy hayotida keskin kurash davom etganligiga qaramay bobosi Amir Temurdan farqli o'laroq, u shiddatli harbiy yurishlar uyushtirib, qo'shni mamlakatlarni fath etishga intilmadi. Aksincha, u o'z davlatini mustahkamlashga,

mamlakat birligini saqlab qolishga va madaniy hayotni ko'tarishga, rivojlantirishga harakat qildi, bu yo'lda o'zi bosh bo'ldi.

### *Savol va topshiriqlar*

- ? 1. Ulug'bek haqida nimalarni bilasiz? 2. Ulug'bekning Movarounnahr hukmdori bo'lishi qanday yuz berdi? 3. 1410-yildagi temuriylarga qarshi isyon qanday natija bilan tugadi? 4. Ulug'bekning harbiy yurishlari haqida gapirib bering. 5. Ulug'bek bilan o'g'li Abdullatif o'rtasidagi munosabat nima uchun buzildi? 6. Ulug'bekning fojiali taqdiri haqida gapirib bering. 7. Ulug'bek 40 yillik hukmronligida davlatni boshqarishda nimalarga e'tibor qildi? 8. «Padarkush» Abdullatifni tavsiflab bering.

## 40-§. TEMURIYLAR DAVLATINING INQIROZGA YUZ TUTISHI

### 1. Siyosiy beqarorlik va Abusaid hukmdorligining o'rnatilishi

Shohruh vafotidan keyin avj olib ketgan siyosiy kurash shuhratparast va razil Abdullatifni jaholatparastlik botqog'iga batamom botirib, uni yovuz insonga — otasining qotiliga aylantirdi. Ulug'bek qatl etilib, oradan bir necha kun o'tgach, taxt da'vogarlaridan qutulish maqsadida u o'z inisi Abdulazizni hamda otasiga sodiq bo'lgan amirlarni o'ldirtirib, temuriylarning Movarounnahrda toj-u taxtini batamom egallab oldi. Garchi hokimiyat mamlakat fuqarosi tomonidan «*padarkush*», ya'ni «*ota qotili*» deb la'natlangan Abdullatif va uning tarafdorlari qo'liga o'tgan bo'lsa ham, ammo bu qattol padari buzrukvori taxtida uzoq vaqt o'tirolmadi. Oradan olti yarim oy o'tar-o'tmas Abdullatifga qarshi saroyda fitna uyushtirilib, u 1450-yil 9-may kuni o'ldirildi. Bu qabih qotilning kallasi tanasidan judo qilinib, Registon maydonida Ulug'bek madrasasining peshtoqiga osib qo'yildi.

Bunday mudhish voqeadan so'ng hokimiyatga bir vaqtning o'zida Samarqanddan Shohruhning yana bir nabirasi, Ulug'bekning sevimli jiyani va kuyovi **Mirzo Abdullo**, Buxoroda esa Mironshohning nabirasi **Sulton Abusaidlar** podshoh qilib ko'tariladi. Abdullo mamlakatda barqarorlikni tiklash uchun qo'lidan kelgan barcha choralarni ko'rsatdi, ammo u ham Samarqandda temuriylar taxtida uzoq vaqt o'tira olmaydi.

sharh

U bir yildan sal ko'proq hukmronlik qiladi. Avval u amakivachchasi **Abusaid** bilan, so'ngra qarindoshi **Alouddavla** bilan kurashadi.

Movarounnahr va Xurosonda muttasil davom etib turgan o'zaro kurashlar ko'chmanchi qabilalar uchun juda ham qo'l keladi. Mamlakatning siyosiy hayotiga ular tez-tez aralashib, ichki ishlarining rivojida hal qiluvchi rol o'ynay boshlaydilar. 1451-yilda Abulxayrxon katta qo'shin bilan Abusaid ishtirokida *Toshkent*, *Chinos* va *Jizzax* orqali *Samarqandga* yurish qiladi. *Shiroz* qishlog'i yaqinida *Bulung'ur* anhuri yoqasida jang bo'ladi. Mahorabada ittifoqchilar g'alaba qozonadi. **Mirzo Abdullo** jangda halok bo'ladi. Shunday qilib, Abulxayrxonning yordamida Abusaid Samarqandni egallab, Movarounnahrda hokim bo'lib oladi.

Temuriylar davlatining Xuroson qismi bu davrda Shohruhning nabirasi Abulqosim Bobur tasarrufida edi. 1457-yilgacha u Xurosonni o'z qo'lida tutib turadi. Har ikkala davlatlar o'rtasida nizo kuchli bo'lib, bir-biriga ular dushmandek edi. XV asr o'rtalariga kelib, Xurosonda siyosiy tarqoqlik juda avj olib ketadi. Temuriylar davri muarrixlarining yozishicha, bu davrda Xuroson o'n bir bo'lakka ajralib ketadi. Ular o'rtasida urush-talashlarning to'xtovsiz davom etishi, aholining moddiy va ma'naviy hayotiga qattiq putur yetkazib, iqtisodiy jihatdan davlatni nihoyatda tang ahvolga tushirib qo'ygan edi. Abulqosim Bobur Xurosonni batamom o'z tasarrufiga kiritma olmagan bo'lsa ham, har holda mayda feodallarning mustaqil hokimligiga barham beradi. Biroq 1457-yilda Abulqosim Bobur vafot qilgach, vaziyat yana mushkullashadi. Xurosonda ham, Hirotida ham hokimiyatni da'vo qiluvchilar ko'p bo'lsa-da, lekin ularning birortasi ham davlatni idora qila oladigan kuchga ega emas edi. Bunday qulay vaziyatdan foydalangan **Abusaid** 1457-yilda Hirot taxtini egallaydi va Temuriylar davlatining har ikki qismini birlashtirishga muvaffaq bo'ladi. Biroq uning hokimiyati ham mustahkam emas edi. Chunki Abusaid Xurosonda ham, Eronda ham viloyat hokimlarining mustaqil hukmronlikka intilishlariga jiddiy zarba berib, mamlakatda feodal tarqoqligiga barham bera olmaydi. Ayniqsa uni Abulqosim Bobur vafotidan keyin Xorazmni egallab olgan Sulton Husaynning isyonlari hammadan ko'proq tashvishlantiradi. Garchi

Abusaiddek kuchli hokimga qarshi kurashish qiyin bo'lsa-da, Sulton Husayn XV asr 60-yillarining boshlarida katta kuch bilan Xurosonda paydo bo'ladi. U *Hirotd, Obivard, Niso, Mashhad* va boshqa viloyatlarda goh muvaffaqiyatli, goh muvaffaqiyatsiz tarzda harakat qiladi.

1469-yilning erta bahorida Abusaid *Ozarbayjon, G'arbiy Eron va Iroqqacha* bo'lgan viloyatlarni egallab turgan turkmanlarga qarshi yurish qiladi. Ozarbayjondagi *Mug'on* cho'lidagi jangda Abusaid halok bo'ladi.



54-rasm. Alisher Navoiy.

Otasi o'limidan so'ng, Abusaidning vorislari **Sulton Husayn** bilan to'qnashishga jur'at eta olmay, Movarounnahrda qaytadilar. 1469-yil 24-martda **Sulton Husayn** Xurosonning hokimi sifatida tantana bilan Hirotda kirib boradi. Natijada Temuriylar davlati yana ikki mustaqil qismga: Sulton Husayn hukmronligidagi *Xuroson* va *Movarounnahrda* bo'linib ketadi.

## 2. Movarounnahrda yana parokandalik

Movarounnahrda Abusaidning o'g'illari, avval **Sulton Ahmad (1469–1493-y.)**, keyin **Sulton Mahmud (1493–1494)** va nihoyat Mahmudning o'g'li **Sulton Ali (1494–1501)** mustaqil hokimlik qiladi. Biroq Movarounnahr hukmdori, xususan Sulton Ahmadning uquvsizligi, sustkashligi va buning ustiga savodsizligi tufayli mamlakatda feodal tarqoqlik yanada avj oladi. Bu vaqtda Movarounnahr deyarli mustaqil bo'lib olib, o'zaro nizolashayotgan temuriy shahzodalar yoki mulkdor feodal boshchilik qilib turgan ko'pdan-ko'p viloyatlarga bo'linib ketgan edi. Mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy hayotida so'fiylik ta'limotining yirik namoyandalarining ta'siri behad kuchayib, uning siyosiy turmushida ham ular muhim rol o'ynay boshlagan

Shax

edilar. Masalan, mamlakat urush xavfi ostida qolib, el-yurt boshiga katta tashvishlar tushgan paytlarda so'fiylik tariqotining bunday namoyandalaridan biri **Xoja Ubaydulloh Ahror** yurt boshiga tushgan musibatlarini daf qilish yo'lida bir necha bor jonbozlik ko'rsatgan edi. 1454-yilda Hirot hokimi Abulqosim Bobur Movarounnahrga bostirib kirib, Samarqandni qamalga olganida, 1463-yili uch hukmdor: Samarqand podshosi **Sulton Ahmad** bir tarafdin, Andijonda Farg'ona hokimi **Umarshayx Mirzo** bilan Toshkent hokimi **Sulton Mahmudxon**, ikkinchi tarafdin Xavas yaqinida katta qo'shin bilan to'qnashib turganda, **Xoja Ubaydulloh Ahror** mojarolarga qat'iyan aralashib, raqiblarni yarashishga majbur etadi. Uning el-yurt tinchligi yo'lida ko'rsatgan vatanparvarligi va jonbozligi shubhasiz hukmron tabaqalarning maqsad va manfaatlari bilan chambarchas birikkan bo'lsa-da, ammo u o'z obro'si bilan o'zaro urushning oldini olib, mamlakatni navbatdagi vayronagarchilikdan xalos etgan edi.

### 3. Sulton Husayn va Alisher Navoiy

Sulton Husayn Amudaryoning janubidagi yerlarga hukmron bo'lib, u o'z tasarrufida Xuroson, Xorazm hamda Sharqiy va Shimoliy Eron viloyatlarini birlashtirgan edi. U qariyb 40 yil hukm surgan temuriylarning so'nggi yirik hukmdori bo'lib, uning davrida ham mamlakatda siyosiy vaziyat osoyishta emas edi. Xurosonda beto'xtov davom etgan o'zaro urushlar shahzoda va amirlarning boshboshdoqligiga qaramay, mamlakatning xo'jalik va madaniy hayoti Movarounnahrdagiga qaraganda ancha yuksak darajada saqlanib qoladi. Mamlakatning obod etilib, ravnaq topishida unda barqarorlik o'rnatib, birligini saqlab turishda zamonasining tadbirkor va dono hukmdori **Sulton Husayn** bilan bir qatorda buyuk adib va davlat arbobi **Alisher Navoiy**ning ham xizmati nihoyatda katta bo'ldi.

**Alisher Navoiy** 1441-yilda *Hirot*da dunyoga kelgan. Uning imtiyozli barlos bahodirlaridan bo'lgan otasi va bobosining kattagina yer-suvlari va boshqa mol-mulklari bo'lgan. **Sulton Husayn** bilan **Alisher** bir maktada o'qiganlar. Ular bolalik chog'laridayoq Xurosonning hukmdori Abulqosim Boburning

xizmatida bo'lganlar. Uning vafotidan so'ng 12 yil davomida boshqa-boshqa shaharlarda yashaganlar. Husayn bu davrda avval *Xorazmda*, so'ngra *Xurosonning Hirot, Obivard, Niso, Mashhad* va boshqa viloyatlarida darbadarlikda yurib, kuch to'plab **Abusaidga** qarshi isyonlar ko'taradi. Alisher Navoiy bu yillarda, avval *Mashhad* va *Hirot*da o'qiydi. O'sha paytlardayoq u shoirlik iste'dodi tufayli katta shuhrat qozongan edi. Yoshlikdan Sulton Husayn bilan yaqin bo'lgan Alisher o'ziga nisbatan Abusaidga adovat kayfiyatini sezib qolgach, Samarqandga ko'chib borib, ma'lum vaqt u yerda yashashga majbur bo'ladi. Samarqandda u ilm-fan va she'riyat bilan mashg'ul bo'ladi. *Falakiyotshunoslik, matematika, hikmatshunoslik, muhandislik* ilmini o'rganadi. Bu borada uning madrasada ikki yil olgan ta'limi katta rol o'ynaydi. Bu yerda u mashhur olim, falsafa, mantiq, huquq, arab tili, adabiyot va poetikaning o'tkir bilimdoni **Fazlulloh Abulays Samarqandiy**dan saboqlar oladi. 1469-yilda Sulton Husayn Hirotni egallagach, Navoiyni o'z huzuriga taklif etadi. Alisherni u dastlab muhurdorlik lavozimiga, keyinroq esa vazir qilib tayin etadi.

Sulton Husayn hukmronligining dastlabki davrida Alisher Navoiy qo'lidan kelgancha adolat o'rnatib va xalq haqida g'amxo'rlik ko'rsatib, mamlakatning siyosiy hayotida katta rol o'ynaydi. U mamlakatda mustahkam markazlashgan saltanat vujudga kelishi, viloyatlar sug'orilib obod etilishi, qishloqlarda dehqonchilik, shaharlarda hunarmandchilik va savdoning kengayib taraqqiy qilishi, adabiyot, san'at va ilm-ma'rifatning



ravnaqi davlatning ichki va tashqi munosabatlari yaxshilanib, uning xalqaro ahvolini mustahkamlashi va unda aholining tinch va osoyishta istiqomat qilishi tarafdori edi. Davlatning butunligini saqlab qolish maqsadida u Xurosonda ko'tarilgan jiddiy xalq qo'zg'onlonlarini bostiradi. Lekin Sulton

Sho

55-rasm. Zanglota maqbarasi.  
Janubi-sharqiy tomondan ko'rinishi.  
Toshkent viloyati.

Husayn davlati Alisher kutganicha bo'lib chiqmaydi. Suyurg'ol tartibiga asoslangan bu davlatda, bir tomondan, viloyat hukmdorlari hatto toj-u taxt valiahdlari **Badiuzzamon** va **Muhammad Sulton** isyonlari yuz beradi. Ikkinchi tomondan, zulm oqibatida Hirot va uning viloyatlarida xalq qo'zg'olonlari ko'tariladi. Uchinchidan, o'z manfaatlarini ko'zlagan ochko'z saroy ma'murlari fitna va fasodni g'oyatda avj oldirib, uning botqog'iga Sulton Husaynni ham botiradilar. Bunday ahvol shubhasiz, bosh vazirlik vazifasida turgan dono Navoiyning saroydan, hatto poytaxtdan uzoqlashishiga olib keladi. Mamlakatdagi taraqqiyparvar doiralarning xo'jalik va madaniy ravnaqi sohasidagi harakatlariga jiddiy zarba berdi.

Mamlakatning siyosiy hayotida hukm surgan tanglik, uning ichki munosabatlarida tobora roli oshib borayotgan chorvador o'zbeklarning Movarounnahrda hokimiyatni qo'lga olishini hamda xalq o'rtasida o'z mavqegini tamoman yo'qotgan temuriylar sululasini ag'darib tashlashni osonlashtirgan edi.

Shunday qilib, XV asrning ikkinchi yarmidagi beqaror siyosiy vaziyat tufayli Temuriylar davlati inqirozga yuz tutdi.

### *Savol va topshiriqlar*

?

1. Ulug'bek vafotidan keyingi siyosiy beqarorlik haqida gapirib bering.
2. Xurosondagi vaziyat qanday edi?
3. Movarounnahrda feodal tarqoqlik va uning oqibatlari haqida gapirib bering.
4. Sulton Husayn Boyqaro va Alisher Navoiy kim edi?
5. Alisher Navoiy va Sulton Husaynga baho bering.

## **41-42-§§. TEMURIYLAR DAVLATIDA IJTIMOVIY VA IQTISODIY MUNOSABATLAR**

### **1. Dehqonchilik va chorvachilik**

Mamlakatda tez-tez sodir bo'lib turadigan o'zaro ichki urushlarga qaramasdan XV asrda ham **Movarounnahr** va **Xuroson** shahar hamda qishloqlarida birmuncha obodonchilik ishlari amalga oshiriladi. Sug'orma dehqonchilik va uning asosi bo'lgan suv inshootlari qurilishlariga ma'lum darajada ahamiyat beriladi. Ayrim

dehqonchilik vohalarining suv ta'minoti tartibga solinadi. Dashtlarga suv chiqarilib, yangi yer maydonlari o'zlashtiriladi. Bu borada xususiy sohibkorlarning dashtliklardan yangi yerlarni ochish, korizlar qazib, bog' ko'kartirish va qarovsiz qolgan tashlandiq yerlarni sug'orib, obod etish uchun amalga oshirgan har qanday faoliyati temuriylar tomonidan qo'llab-quvvatlanadi. Hatto bunday sohibkorlar bir-ikki yil davomida hamma soliq va to'lovlardan ozod etiladi.

Bu davrda temuriylar va ularning viloyat hokimlari tomonidan *Samarqand*, *Buxoro*, *Qashqadaryo*, *Marv* vohalarida, *Tus* vodiysida hamda *Hiro*t va uning atrofida yirik sug'orish inshootlari barpo etilib, ayrim dehqonchilik viloyatlarining suv ta'minoti tubdan yaxshilanadi. Temuriylar hukmronlik qilgan davrda amalga oshirilgan eng yirik sug'orish ishlaridan biri Samarqand vohasida Zarafshon daryosidan bosh olgan, Darg'om anhoridan chiqarilgan qadimgi *Angor* kanalining qayta tiklanishi bo'ldi. Bu kanal orqali Zarafshon daryosi oqimining bir qismi bu davrda kam suvli Qashqadaryo vohasiga tashlanib, uning adog'ida joylashgan dehqonchilik yerlari suv bilan ta'minlanadi.

Buxoroning qadimgi sug'orilgan yerlari bo'ylab olib borilgan arxeologik tadqiqotlardan ma'lum bo'lishicha, mo'ng'ullar bosqini oqibatida butunlay vayron etilgan voha suv xo'jaligi XV asrga kelib to'la tiklanadi. Uning dehqonchilik yer maydoni bir-muncha kengaydi. Ulug'bek hukmronlik qilgan davrda Buxoro vohasining janubi-sharqiy chegarasiga yondoshgan Somonjuq dashtiga suv chiqarilib yangi yerlar o'zlashtiriladi.

Mo'ng'ullar bosqini davrida vayron etilgan Murg'ob daryosining bosh to'g'oni — Sultonbandning Shohruh tomonidan tiklanishi va sug'orish tarmoqlarining loyqadan tozalanishi tufayli Marv shahri va Murg'ob vohasining suv ta'minoti tubdan yaxshilanadi. Sulton **Husayn Mirzo** hukmronlik qilgan davrda esa uning tashabbusi bilan *Marviruddan* yangi kanal chiqarilib, kattagina yer maydoni sug'orilib obod etiladi.

Bu davrda *Hiro*t va *Mashhad* atroflarida Alisher Navoiyning tashabbusi bilan amalga oshirilgan sug'orish ishlari ayniqsa, diqqatga sazovordir. Navoiy *Tus* viloyatining yuqori qismida

*Turuqband* suv ombori qurdiradi. O'n farsax (70–80 km) uzunlikda maxsus kanal qazdirib, Turuqband suv omborida jamg'arilgan suv Mashhadga olib kelinadi. Natijada Mashhad suv bilan ta'min etilib, shahar atrofidagi yerlarga suv chiqariladi va obod etiladi. Bu davrga kelib sug'orish uskunalari (texnikasi) taraqqiy qiladi. Temuriylar va ularga taqlid qiluvchi viloyat hokimlari tomonidan Movarounnahr va Xuroson shaharlari atrofida istirohat bog'lari barpo etish munosabati bilan ko'plab sug'orish tarmoqlari qurilib, turli-tuman suv inshootlari bilan jihozlanadi. Bu davrda qishloq xo'jaligida, xususan g'allakorlik, sabzavotchilik va polizkorlikda ziroatlarning deyarli hamma navlari yetishtirilgan. Bog'dorchilikka zo'r ahamiyat berilgan. Mevali daraxtlarning ko'pdan-ko'p xillari ko'kartirilib, mamlakat aholisi yozda ho'l meva, qish va bahor mavsumlarida esa quruq mevalar bilan ta'minlangan. Xo'jalikning asosiy turlaridan yana biri chorcovichilik edi. Mamlakatning iqtisodiy hayotida ayniqsa yaylov chorcovichiligi: *yilqichilik, qorako'chilik, tuyachilik hamda podachilik* muhim o'rin tutadi.

## 2. Yer egaligi

Butun XV asr davomida Movarounnahr va Xurosonda avvalgidek yer va mulkchilikning asosan to'rt shakldagi «*mulki devoniy*» — davlat yerlari, «*mulk*» — xususiy yerlar; «*mulki vaqf*» — madrasa va ibodatxonalar tasarrufidagi yerlar va nihoyat «*jamo'a yerlari*» bo'lgan. Dehqonchilik yerlarining eng katta qismi davlat mulki hisoblangan. Bu yerlarga avvalgidek mamlakat hukmdori Sulton yoki amirlar egalik qilardi. Temuriylar davrida davlat yerlarini «*suyurg'ol*» tarzida in'om qilish keng tarqaladi. Suyurg'ol yerlari hajmi, sharti hamda yer va yorliqqa ega bo'lgan shaxslarning tabaqasi jihatidan turlicha bo'lgan. Odatda shahar yoki viloyatlardan tortib, to alohida qishloqqacha suyurg'ol shaklida in'om etilgan. Butun bir shahar yoki viloyatlar odatda hukmron sulola namoyandalari yoki yirik harbiy va davlat mansabdorlariga berilgan. Suyurg'ol yer va mulklar ko'pincha avlodan-avlodga meros ho'lib qolardi. Suyurg'ol egasiga o'z suyurg'ol doirasida amaldorlar tayinlash, soliqlar va turli to'lovlarni to'plash hamda

aybdorlarni jazolash huquqi berilgan. Suyurg'ol yorlig'iga ega bo'lgan viloyat hukmdorlari markaziy hokimiyatga faqat nomigagina qaram bo'lib, odatda ular deyarli mustaqil edi.

Suyurg'ol egalari tobeligini kuchaytirish maqsadida markaziy hokimiyat ba'zan ular tasarrufidagi yer maydonlarini qisqartirar yoki ularning ma'muriy va adliya jihatidan haq-huquqlarini cheklab qo'yar edi. Suyurg'ol egasi markaziy hukumatga bo'ysunmagan taqdirda suyurg'ol huquqidan mahrum bo'lar va hokim uning viloyatini boshqa shaxsga berar edi. Bo'ysunmagani uchun Shohruh 1414-yilda **Mirzo Iskandarni**, 1415-yilda **Mirzo Boyqaroni** suyurg'oldan mahrum qilgan edi.

Temuriylar davrida maydoni jihatidan mayda va haq-huquqi jihatidan ancha-muncha cheklangan suyurg'ol yerlari ham bo'lgan. Bunday mayda suyurg'ol yerlari odatda xizmat ko'rsatgan kichik mansabdagi harbiylardan tortib, oliy hukmdorning muntazam gvardiyasidagi askarlargacha berilgan.

Dehqonchilik maydonlarining ikkinchi kattagina qismi «*mulk*»— xususiy yerlardan iborat edi. Shubhasiz yirik mulkdorlarning katta yer maydonlari ham, mehnatkash ziroatchilarning mayda paykallari ham xususiy mulk yerlari qatoriga kirgan. Mulk yerlarining katta qismi ma'muriy, harbiy va diniy arboblarning tasarrufida bo'lgan. Masalan, XV asrning ikkinchi yarmida yashagan yirik mulkdorlardan **Hoja Ahrorning** 1300 taga yaqin yer-mulki bo'lgan. Bu mulklarning ayrimlari 300 qo'shga teng bo'lgan.

Bu davrda bosh hukmdor tomonidan yirik mulk egalari biron xizmati uchun tarxonlik yorlig'i berish keng tarqaladi. Tarxonlik yorlig'ini olgan mulkdorlar unga asosan barcha soliq, to'lov va majburiyatlardan ozod qilingan. Tarxonlik yorlig'i odatda amirlar, beklar, saroy amaldorlari, saidlar va boshqa yuqori tabaqa vakillariga berilgan. Bunday yorliqni olgan mulkdor ismiga «*tarxon*» so'zi qo'shib aytilgan. Tarxonlarning ko'pchiligi juda boy bo'lgan.

Temuriylar hukmronligining so'nggi davrida Buxoro, Samarqand, Shahrisabz va boshqa viloyatlarning dehqonlaridan hamda shahar aholisidan yig'iladigan davlat daromadlarining anchagina qismi tarxonlar qo'lida to'plangan edi. Movarounnahrda ular g'oyat katta kuchga aylangan edi.

XV asrda ham avvalgi davrlardagidek juda ko'p yer va suv masjid, madrasa, xonaqoh, maqbara va mozorlarga birlashtirilib, bunday yerlar «mulki vaqf» deb atalgan. Mehnatkash aholi o'rtasida esa vaqfkor yerlar nomi bilan yuritilgan. Ma'lumki, Amir Temur va temuriylar hukmronligi davrida Movarounnahr va Xurosonda juda ko'p masjid, madrasa, xonaqoh, maqbara va shifoxonalar bino qilinib, kattagina dehqonchilik yerlari vaqf qilingan. Odatda yer va suvdan tashqari ko'plab do'kon, korxonalar, tegirmon, objuvoz, bozor rastalari, karvonsaroylar ham vaqf qilinib, ulardan tushgan daromad masjid, madrasa, shifoxona va xonaqoxlarning ta'miri, jihozi, mutavvali, mudarris, tabib va talabalarga beriladigan nafaqalar hamda langarxona (musofirxona) va shifoxonalarning kundalik xarajlari uchun sarf etilgan.

Bu davrda dehqonchilik yerlarining ma'lum kichikroq bir qismi qishloq aholisining umumiy tasarrufida bo'lgan. Bunday yerlar qishloq to'plari yoki jamoalarining mulki hisoblangan. Shubhasiz, bunday shakldagi jamoa yerlari mulkchilikning qadimiy turlaridan bo'lib, ular ko'proq suvga tanqis tog'oldi hududlarida birmuncha keng tarqalgan edi. Shunday qilib, ko'pchilikning ishtiroki va mablag'i bilan barpo etilgan sug'orish inshootlari va ular vositasida o'zlashtirilgan yerlar jamoa mulkiga aylangan mulkchilikning bunday turi shubhasiz temuriylar hukmronligi davrida unchalik keng tarqalgan bo'lmasa-da, har qalay mavjud edi.

XV asrda Movarounnahr va Xurosonda yer egalari «dehqon» ekin maydonlariga ishlov beruvchilarni «muzoriy» deb yuritilgan. Muzoriy, ya'ni ziroatchilar qishloqning mehnatkash tabaqasi bo'lib, ular to'rt guruhga bo'lingan: 1) davlat yerlarida yashovchi muzoriylar; 2) mulkdorlarning yerlarini ishlovchi muzoriylar; 3) o'z yeriga ega bo'lgan dehqonlar; 4) vaqf mulklarida yashovchi muzoriylar.

Muzoriy davlat yoki vaqf yerlarida ham, tarxon yoki suyurg'ol egalari kabi yirik mulkdorlarning yerlarida ham yollanma ziroatchi bo'lib dehqonchilik qilgan. Ularning hosildan oladigan hissasi yer egalari yerdan tashqari urug'lik, omoch, ho'kiz, ot va arava kabilarni berganiga qarab belgilangan. Qanday yerda dehqonchilik qilishidan qat'i nazar muzoriy hamma vaqt soliqlarni to'lar va majburiyatlarni o'tar edi.

### 3. Soliq turlari

Sug'orma dehqonchilik yerlarida olinadigan asosiy soliq «*xiroj*» deb atalgan. Xiroj asosan hosil yetilib, uni yig'ib olish vaqtlarida mahsulot yoki pul holida to'langan. Soliq hosilga va yerning unumdorligiga qarab belgilangan. Chunonchi daryo, buloq va koriz suvlari bilan sug'oriladigan obikor yerlardan xiroj hosilning uchdan bir qismi (33 foiz) miqdorida olingan.

Lalmikor yerlarning unumdorligi obikor yerlarga nisbatan ancha-muncha past bo'lgan. Shunga asosan bunday yerlardan hosilning oltidan bir, ya'ni 16,5% dan to sakkizdan bir, ya'ni 12,5% miqdorida soliq undirilgan. Mulk yerlarining bir qismidan «*ushr*», ya'ni hosilning o'ndan bir qismi (10%) miqdorida soliq olingan. Bunday yerlar odatda zamonasining ilm-fani, ma'rifati va ma'naviy hayotida muhim nufuzga ega bo'lgan ulamolar va mashoyixlar tasarrufida bo'lgan. Chorva mollaridan qirqdan bir, ya'ni 2,5% miqdorida «*zakot*» olingan. Yer soliqlari xiroj, ushr va sardaraxt hamda chorva mollaridan olinadigan «*zakot*» bilan bir qatorda, fuqaro soliq yig'ish va uning hisob-kitobi bilan band bo'lgan turli lavozimdagi ma'murlarning xizmati uchun bir qator yig'imga to'lashga majbur bo'lgan.

Asosiy soliqlardan tashqari mehnatkash aholi hukmdor va uning ma'murlari, suyurg'ol egalari va tarxonlar, shuningdek yirik mulkdorlar foydasiga tekin ishlab berishga majbur edi. XV asrda qurilish ishlari kengayib, bu davrda qad ko'targan saroylar, jamoat binolari mudofaa va sug'orish inshootlari hamda yo'l qurilishi va tuzatishlarida mehnatkash aholi kuchidan keng foydalanilgan. Bunday hashar ishlari «*begor*» deb atalgan. Bu davrda qurilishlarning kengayishi bilan begor ham g'oyat kuchayadi. Begorda qatnashgan har bir hasharchi ishlash uchun kerakli asbob-uskuna va yetarli yemaklarni o'zi bilan olib kelishi lozim bo'lgan.

### 4. Hunarmandchilik

Movarounnahr va Xurosonda markaziy hokimiyatning ma'lum darajada barqarorligi yirik shaharlar va ular atroflarida amalga oshirilgan obodonchilik hamda sug'orma dehqonchilikning

kengayishi shubhasiz, mamlakatning iqtisodiy hayotida muhim o'rin tutgan hunarmandchilik, savdo va tovar-pul munosabatlarining rivojlanishi uchun keng yo'l ochib beradi. XV asrda, xususan uning oxirgi choragi hamda XVI asr boshlarida hunarmandchilikning turli tarmoqlari rivoj topib, keng iste'mol mollari ishlab chiqarish g'oyat ko'payadi. Ichki chakana savdo va pul munosabatlari kengayadi.

Bu davrda Movarounnahrning *Samarqand, Buxoro, Toshkent, Shohruhiya, Termiz, Shahrisabz, Qarshi* va boshqa ko'pgina shaharlari aholisining kasb-kori, ichki va tashqi aloqalari bilan o'rta asr Sharqining namunali hunarmandchilik va gavjum savdo markaziga aylanadi. Hunarmandchilikning rivoj topib, uning turli-tuman tarmoqlar bo'yicha ixtisoslanishining kuchayishi shaharlarni ham o'zgartirib yuboradi. Shaharlarda hunarmandchilik mahallalarining soni ortib, kasb-hunar bilan bog'liq bo'lgan yangi-yangi guzarlar, ko'cha-ko'ylar, bozor rastalari, timlar va toqilar (usti gumbazli bozor) paydo bo'ladi. Ko'pgina shaharlarda *zargarlik, miskarlik, ignasozlik, sovutsozlik, toshtarashlovchilar, shishasozlar, ko'nychilik* kabi hunarmandchilik mahallalari bo'lgan.

Hunarmandchilik sohasida to'qimachilik, kulolchilik, chilangarlik, temirchilik va binokorlik yetakchi o'rinni egallagan edi. Bu davrda shahar va qishloq aholisi, dashtlarda yashovchi yarim ko'chmanchi va ko'chmanchi chorvadorlar o'rtasida, ayniqsa to'qimachilik mahsulotlariga talab g'oyat katta edi. Shaharlarda ip, ipak, jun va kanop tolasidan turli xildagi rangdor guldor hamda nafis va dag'al gazmollar ko'plab to'qib chiqarilar edi.

Ipak va ipakdan to'qilgan nafis futadan *salla, belbog'* va aslzoda yoshlar *kiyim-kechaklari* tikilgan.

Mahalliy va chetdan keltirilgan ipakdan turli nav shoyi gazlamalar to'qish keng yo'lga qo'yilgan edi. Manbalarda atlas, kimxob, banoras va duxobalar qatorida tovlanuvchan yaltiroq xoro, nafis va guldor debo kabi shoyidan to'qilgan gazmollarning nomlari uchraydi. Manbalarda tasvir etilishicha, XV asr boshida Samarqandda Amir Temur tomonidan o'tkazilgan tantanalarda hunarmand va savdo ahllari ham qatnashgan. Unda Hirotning kimxob to'quvchilari ko'chma dastgohda mato to'qib, o'z hunarlarini namoyish etishgan. Duxoba to'qish o'sha davr uchun

texnika jihatidan ancha murakkab kasb hisoblangan. Bu shubhasiz Samarqandda to'qimachilik dastgohlari-yu to'qish san'atining yuksak darajada bo'lganidan dalolat beradi.

XV asrda temir buyum, qurol-yarog' va asboblarni yasash yuqori darajaga ko'tariladi. Metall buyum yasovchilarning aksariyati uy-ro'zg'or buyumlari, qurol-yarog'lar va asbob-uskunalar yasovchi temirchilardan iborat edi. Ular orasida *mix yasovchilar, taqachilar, sim cho'zuvchilar, pichoqchilar* kabi turli xil buyumlar yasovchi ustalar bo'lgan.

Bu davrda Samarqand davlatning poytaxti sifatida avvalgidek, qurol-yarog' yasaladigan markaz bo'lib qoladi. Shaharda hatto maxsus sovutsozlar mahallasi qaror topgan edi. Poytaxt qurolsozlari hujum va mudofaa *qurol-yarog'lari: qilich, qalqon, o'q va yo'qlar, dubulg'a va sovutlar* hamda *jibalar* yasardilar. Hokimlar, sarkarda-amirlar uchun yasalgan maxsus qurol-yarog'lar oltin qoplamali qimmatbaho toshlar qadalgan naqshinkor bo'lardi. Ibn Arabshohning yozishicha, Amir Temur *Go'ri Aminga dafn etilgach, uning devorlariga oltin va qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan kiyim-boshlari, qurol-yarog'lari va anjomlari osib qo'yilgandi. Buyumlarning eng kichigining bahosi butun boshli bir viloyatning yillik solig'ini qoplar edi. Mamlakatning katta-kichik shaharlarida miskarlik ham ancha-muncha rivoj topgan edi. Mis va jezdand turli xil uy-ro'zg'or buyumlari yasalar va mayda mis chaqalar zarb qilinardi. 1399–1404-yillarda bino qilingan Bibixonim jome' masjidida eshiklari yetti xil metall qotishma «haftjo'sh» bilan qoplangan edi. Shaharlarda, xususan Samarqand va Hirotda zargarlik rivoj topardi. Shahar zargarlari orasida oltin, kumush va jez qotishmalaridan turli xil ze'bi-ziynatlar va qimmatbaho buyumlar yasaydigan va ularga nozik did bilan nafis badiiy ishlov beruvchi mohir ustalar soni ko'payardi. Odatda naqshinkor badiiy buyumlar boylik hashamlari hisoblanib, ular faqat mulkdor tabaqalargagina mansub edi. Bunday qimmatbaho jihozlarni yasaydigan hunarmand-zargarlar mutlaq mulkdorlarga xizmat qilishardi va ular bilan yaqindan aloqada bo'lardi.*

O'rta asr hunarmandchiligida *kulolchilik* eng rivoj topgan sertarmoq sohaga aylanadi. U *kasog'lar, xum va xumchasozlar* va

*tandirsozlar* kabi bir nechta tarmoqlarga bo'linadi. XIV–XV asrlarning ayniqsa sirli sopol buyumlari diqqatga sazovor bo'lib, ular badiiy jihatdan nihoyatda rango-rang shakli va turi g'oyat xilma-xil hamda yuqori darajada sifatli bilan ajralib turadi. Ayni shu davrda yuqori sifatli koshinli sopol idish-tovoqlar pishirilgan. Shubhasiz bu davrning turli-tuman sirsiz idish-tovoqlari yirik hajmdagi xum va xumchalardan tortib, to bolalar uchun yasalgan mayda o'yinchoqlar mehnatkash ahlining keng tabaqalariga g'oyat manzur bo'lgan. Bulardan tashqari kulollar tandirlar yasashgan, suv quvurlari — g'ulbalar, chiqir va charxparrak ko'zachalari va boshqa ko'pgina ashyolar pishirgan. Kulolchilik bilan bir qatorda u bilan chambarchas bog'liq holda binokorlik ashyolari ishlab chiqaradigan pishiq g'isht va g'isht taxtalar pishiradigan *kirpichpazlik* ham g'oyat keng avj oladi. Bu davrda tosh yo'nish unga sayqallar berib, o'ymakor naqshlar va xushxat yozuvlar bitish san'ati kamolotga yetadi. Samarqandda Bibixonim jome' masjidida Qur'onni qo'yish uchun o'rnatilgan ulkan tosh lavh, Amir Temurning Go'ri Amirdagi nefrit qabr toshi, Shohizinda va boshqa joylardagi XV asr sag'analarning marmar toshlari va ularga ishlangan jimjimador naqshlar, o'ymakor oyatlar, marsiyalar va tarxlar xalq hunarmandlarining binokorlikdagi yuksak badiiy asar namunalaridan bo'lib, ularda tosh yo'nuvchilarning mehnati va san'ati bilan xattotlarning zo'r mahorati tutashib ketgan.

## 5. Binokorlik, yog'och o'ymakorligi, qog'oz ishlab chiqarish

Bu davrda mamlakatning yirik viloyat shaharlari, xususan Samarqand va Hirotda qurilish ishlari keng avj olib, binokorlarning roli oshib ketadi. O'sha vaqt binokorlari orasida *me'morlar, muhandislar, g'isht teruvchilar, suvoqchi ganchkorlar, ganchga naqsh o'yuvchi naqqoshlar, tosh yo'nuvchi va duradgorlar* ko'p bo'lar edi. Binokor ustalar kasblariga ko'ra g'isht terib imorat qaddini bino qiluvchilar «*banno*» va peshtoq-u ravoq hamda toqilariga parchin va girixlar qoplab imoratga pardoz beruvchilar «*ustod*» deb yuritilgan.

XV asrda shishasozlik ham ancha-muncha taraqqiy qilgan. Samarqandda hatto shishasozlar mahallasi bo'lgan. Manbalarda

qayd etilishicha, shishadan turli shakldagi idishlar: *ko'zachalar, qadahlar, siyohdon-dovotlar, doridonlar, surmadonlar* hamda boshqa turli xil ro'zg'or buyumlari yasalgan. Yirik, muhtasham binolar va davlatmand shaharlik mulkdorlarning uy-joylari qurilishida rangli oynalardan foydalanilgan.



56-rasm. Ulug'bek Mirzoning kumush va mis tangalari.

Bu davrda binokorlik, to'qimachilik va ko'pgina boshqa kasb-hunarlarining rivojida yog'ochsozlik muhim ahamiyat kasb etgan. Yog'ochsozlar xilma-xil yog'och asbob-uskunalar hamda buyumlar yasashgan. Yog'ochdan *to'qimachilik dastgohlari, ikki g'ildirakli aravalari, egarlar, g'isht va poyabzal qoliplari, sandiq, quti, beshik, belanchak, qush qafaslari, taroq va hassalar* yasalgan. Mohir yog'ochsoz ustalar yog'och o'ymakorligi bilan shug'ullanishgan. Ular *naqshinkor eshiklar, panjaralar, ustunlar, toqi-ravoqlar, xontaxtalar, kursilar* va boshqa xil ko'pdan-ko'p ashyo va jihozlar yasaganlar. Go'ri Amir va Shohizindaning oyatlar bitilgan naqshinkor eshiklari XV asr xalq ustalarining yog'och o'ymakorligi san'atidagi eng nodir namunalaridan hisoblanadi. Ulug'bek zamonida Registon maydonida qad ko'targan Muqatta' masjidining devoridan tortib, toq-u ravoqlarigacha, ustunlaridan to eshik va panjaralarigacha naqshinkor yog'ochlardan ishlangan edi.

Samarqand hunarmandchiligida ayniqsa qog'oz ishlab chiqarish alohida o'rin tutadi. Shahar yaqinida, Obirahmat anhuri sohilida qog'oz ishlab chiqaradigan maxsus objuvozlar va korxonalar bo'lgan. Samarqand qog'ozini o'rta asr Sharqi xattotligida g'oyat mashhur bo'lib, uning ma'lum bir qismi chet o'lkalarga chiqarilgan.

Bu davrda teri oshlash, charm pishirish kasblari ham ancha rivoj topib, u bir necha mayda tarmoqlarga bo'lingan edi. XV asrda charmdan *yengsiz kamzul, poyabzal, ot va arava anjomlari* tikilgan. Charm tikuvchi kasblar orasida *mahsido'z, kovushdo'z,*

*etikdo'z, egarchi, yuganchilar* kabi charmdo'zlar bo'lgan. Harbiy yurish o'zaro kurashlar sharoitida charmdan yasalgan sadoq (o'qdon)lar, kamonning charm g'illoflari, pichoq va qilichlarning charm qoplangan qinlariga talab katta bo'lgan.

Ustki kiyimlar tikuvchilar orasida po'stin va pochapo'stin tayyorlaydigan po'stindo'zlar bo'lib, ular o'z mahsulotlari bilan asosan dasht aholisining talabini qondirganlar. XV asrda Samarqandda bosh kiyimlar rastasi quriladi. Bu yerda *telpak, kuloh, tumoq* kabi bosh kiyimlar tikadigan savdo do'konlari joylashgan edi. Demak, XV asrda Movarounnahr va Xurosonning deyarli hamma yirik shaharlarida o'rta asr hunarmandchiligining barcha tarmoq va sohalari bo'yicha ixtisoslashgan korxonalar, do'konlar, ustaxonalar va rastalar bo'lgan.

Hunarmandchilik mahsulotlarining aksariyati shaharlarning markaziy bozori atrofida joylashgan do'konlarda tayyorlanib, sotilar edi. Rastalarda esa bog'-rog'larda va mevazorlarda yetishtirilgan mevalar, shirinliklar, Samarqandning *shirmoiy, sedana payvand, noni zargaron, noni osiyoiy* kabi mashhur anvoyi nonlari, *ziravorlar, attorlik mollari* sotilar edi.

Shunday qilib, bu davrda hunarmandchilikning asosini keng iste'mol mollari ishlab chiqaradigan korxonalar yoki do'kon kabi ustaxonalar tashkil etardi. Mulkiy va huquqiy jihatdan hunarmandlar, garchi bir butun ijtimoiy tabaqaga mansub bo'lmasalar-da, har holda ularning safi shogirdlik ta'limini o'tagan turli tabaqa farzandlari hisobiga to'lib boradi. Korxonalar boshlig'i «*usta*» deb yuritilib, uning qo'l ostida bir nechta «*xalfa*», ya'ni yordamchi va shogirdlar kasb-hunar o'rganar hamda hunarmandchilik mahsulotlari ishlab chiqarar edilar. Malakali ustalar har kimni ham shogird qilib olmas yoki shogirdlikdan xalfalikka ko'tarmas edi. O'sha davrning taniqli xattotlari yoki naqqoshlariga, zargar-u zardo'zlariga faqat davlatmandroq xonadonlarning farzandlarigina shogird bo'la olardi. Shunisi borki, hunarmandlar shaharning madaniyatli tabaqasi guruhiga mansub kishilar edi. XV asr va XVI asr boshlarida yashagan shoirlar musiqachi-sozandalar va muarrixlarning bir qismi badavlat hunarmandlar va mayda savdogarlar orasidan yetishib chiqqan edilar.

## 6. Savdo aloqalari va pul muomalasi

XV asrda Temuriylar davlati uzoq va yaqin qator qo'shni mamlakatlar: **Xitoy, Hindiston, Tibet, Eron, Rusiya, Volga bo'yi va Sibir** bilan muntazam savdo-sotiq qilardi. Xitoydan asosan *ipak, shoyi, matolar*, xususan *atlas va parchalar, chinni, la'l, gavhar* va mushk; Hindistondan nafis oq rangli *ip matolar, nil bo'yoqlar, xushbo'y ziravorlar*; Erondan *surp, marvarid, durlar*; Rusiya, Tatariston va Sibirdan *qimmatbaho mo'yna, teri va mo'm* olib kelinar edi. Yevropa mamlakatlaridan Samarqandga olib kelingan mollar orasida *farang gazmollari, movuti, cherkas pichog'i* bor edi. Ishratxona maqbarasi vaqfida Misr qatonidan (paxtasidan) tikilgan *choyshab, misriy salla*, Xitoy duxobasidan tikilgan choyshablar qayd etilgan.

Samarqandda chet mamlakatlarga, xususan Rusiya, Tatariston va Sibirga arzon narxli ip matolar, asosan *bo'z, duxoba, shoyi gazlama, qog'oz, quruq meva, guruch, paxta va kalava* (yigirilgan ip)lar chiqarilgan.

Chet davlatlar bilan o'zaro savdo-sotiqni kengaytirishda temuriylarning qo'shni mamlakatlar bilan olib borgan elchilik aloqalari katta rol o'ynaydi. XV asrning birinchi choragida Ulug'bek va Shohruh davlatlari bilan Xitoy o'rtasida muntazam ravishda elchilar almashib turiladi. Xitoy temuriylar bilan savdo qilishdan manfaatdor edi. Movarounnahr va Xurosondan u yilqi sotib olardi. Har ikkala davlat o'rtasidagi savdo va elchilik aloqalari bu davrda yanada rivoj topadi. Deyarli har ikki-uch yilda Samarqand bilan Hirotga Xitoy elchilari, Xonbaliqqa (Pekinga) esa Movarounnahr va Xuroson elchilari va savdogarlari qatnab turishgan. 1418-yilda **Ardasher** boshliq **Shohruh** elchilari Xitoyda bo'ladilar. 1419-yilda bunga javoban **Li-Do va Jong-Fu** Xitoydan Samarqand va Hirotga elchi bo'lib keladilar. Elchilar **Ulug'bek** va **Shohruh** nomiga o'zaro do'stlik munosabatlarini rivojlantirish xususidagi takliflar yozilgan maktub va katta sovg'a-salomlarni topshiradilar. 1420-yilda Shohruh va Ulug'bek 530 nafardan iborat elchilik karvonini Xitoyga jo'natadilar. Temuriylarning elchilari ikki yildan ortiqroq Xitoyda bo'lib, 1422 yilda o'z vatanlariga qaytib keladilar.

Movarounnahrda Xitoyga o'sha zamonlarda ikki karvon yo'li orqali borilgan. Birinchi yo'l **Toshkent, Sayrom, Yettisuv va Sharqiy Turkistonning Turfan va Qumul** shaharlari orqali, ikkinchi yo'l **Farg'ona vodiysi** orqali — **Xo'jand, Qo'qon, Marg'ilon, Andijon va O'sh** orqali **Oloy vodiysi** bo'ylab borgan va Sharqiy Turkistonning **Koshg'ar, Xo'ton va Yorkand** shaharlari orqali o'tgan.

Shohruh bilan Ulug'bek zamonida Tibet va Hindiston bilan ham yaxshi qo'shniçilik munosabatlari o'rnatiladi. 1421-yilda Tibetdan Buxoro va Samarqandga elchilar keladi. 1441–1442-yillarda Shohruh Hindistonga *Bijanagar* saroyiga tarixchi **Abdurazzoq Samarqandiy** boshchiligida elchilar yuboradi. U **Karmon, Ormuz va Fors qo'ltig'i** orqali **Hindistonga** qilgan sayohatini yozib qoldiradi.

Shunisi ham borki, XV asrda, xususan uning birinchi yarmida mamlakatning iqtisodiy hayotida, ayniqsa hunarmandçilik va ichki savdo munosabatlarida sodir bo'lgan taraqqiyot ma'lum darajada shu davrda o'tkazilgan pul islohoti bilan ham bog'liq edi. Ma'lumki, Ulug'bek 1428-yilda muomaladagi fulusiy pullar islohotini amalga oshirdi. Mehnatkash aholini ichki çakana savdo munosabatlariga kengroq jalb etish maqsadida Ulug'bek yengil vaznda zarb etilgan va muomalada yurgan chaqa pullarni man etdi. Eski chaqalami yangisiga almashtirib, ichki savdoning mayda mis pullarga bo'lgan talabini qondirish uchun bir vaqtning o'zida u Buxoro, Samarqand, Qarshi, Termiz, Toshkent, Shohruhiya va Andijon shaharlarida zarbxonalar tashkil etib, bir xil vazndagi salmoqdor *fulustar* zarb ettirdi va muomalaga chiqardi. Eski chaqalar qisqa vaqt ichida yangi fuluslarga almashtirilib olingach, mis pullar zarbini markaz-lashtirish

maqsadida, faqat Buxoro zarbxonasi saqlab qolinib, boshqa shahardagi zarbxonalarga barcham beriladi. Xalq o'rtasida «fulusi adliya», ya'ni «adolatli chaqa» nomi bilan shuhrat topgan Ulug'bekning bu yangi mis fuluslari Movarounnahrning barcha shahar va qishloqlarida keng muomalaga kirib, davlatning ichki savdosini naqdina



57-rasm. Buxoro. Ulug'bek madrasasining darvozasiga o'yilgan kitoba. XV asr.

(naqd pul) bilan to'la ta'min etadi. Ichki chakana savdodagi pul munosabatlaridagi tanqislikni fulusning vazni va qiymatini oshirish bilan hal etilishi, o'rta asrlar zamonasida nodir va favquloddagi voqea bo'lsa-da, har holda Ulug'bekning bunday islohoti mamlakatda hunarmandchilik mahsulotlarining ichki chakana savdosi uchun keng yo'l ochib bergan edi. Shu bilan birga Ulug'bek tashqi savdodan kelgan daromadni oshirish maqsadida «tamg'a»ni birmuncha oshirdi.

Shunday qilib, Ulug'bek zamonida mamlakatda ichki va tashqi savdoning kengayishi hunarmandchilik mahsulotlarining hajmini oshirib, kasb-hunar tarmoqlarining rivojida asosiy omillardan biriga aylandi.

### *Savol va topshiriqlar*

- ?
1. Temuriylar davrida dehqonchilik qay darajada rivojlangan edi?
  2. Sug'orish inshootlarining ko'plab qurilganligiga misollar keltiring.
  3. Shu paytga kelib chorvachilikning qaysi sohalarini rivojlantirilgan?
  4. Yer egaligining turlari haqida nimalarni bilasiz?
  5. «Dehqon», «muzoriy»lar kimlar, ular qanday guruhlariga bo'lingan?
  6. Temuriylar davrida qanday soliq turlari bo'lgan va ular qanday to'langan?
  7. «Begor»lar nima? Unga misollar keltiring.
  8. Temuriylar davrida hunarmandchilik va uning qanday turlari rivojlandi?
  9. Yog'ochsozlikning, qog'oz ishlab chiqarishning rivojlanganligiga misollar keltiring.
  10. Savdo aloqalari qanday yo'lga qo'yilgan edi?
  11. Ulug'bekning pul islohoti va uning natijalari haqida gapirib bering.

## III BOB

### TEMURIYLAR DAVRIDA FAN VA MA'NAVIYAT

#### 43-44-§§. ULUG'BEK DAVRIDA ILM VA FANNING TARAQQIY ETISHI

##### 1. Ilm va fan markazlari

XV asr boshlarida temuriy shahzodalar o'rtasida avj olib ketgan o'zaro kurashlar va vaqt-vaqti bilan sodir bo'lib turgan harbiy yurishlar mamlakatning ichki hayotiga salbiy ta'sir etsa-da, biroq **Shohruh (1405—1447)**, **Ulug'bek (1409—1449)**, **Abusaid (1451—1469)** va **Sulton Husayn (1469—1506)** hukmronlik qilgan davrlarda mamlakatda ma'lum darajada qaror topgan osoyishtalik tufayli qadim zamonlardan davom etib kelayotgan an'analar asosida ilm-fan va madaniyat yanada jonlandi.

## O'RTA OSIYO XV ASRDA



Bu davrda Movarounnahrning poytaxti Samarqandda ham, Xurosonning markazi Hirotda ham Amir Temur an'analari davom ettirilib, olimlar-u fuzalolar, shoirlar-u bastakorlar, me'morlar-u binokorlar, naqqoshlar-u mohir hunarmandlarning kattagina guruhi to'plangan edi. Movarounnahrda, xususan Samarqandda ilm-fan va san'atning taraqqiyotida zamonasining madaniy doiralari muhitida tarbiyalanib, yoshligidayoq mashhur olim sifatida shuhrat qozongan Ulug'bekning roli va hissasi nihoyatda buyukdir. Movarounnahr va Xurosonning boy va serqirra madaniyati va islom dunyosining ma'naviy an'analari suyangan hamda o'z davrining madaniy tajribalaridan to'la foydalanib, uni o'zlashtirgan Ulug'bek mamlakatning ravnaqi, ayniqsa uning ma'naviy kamolotida ilm-fanning va san'atning naqadar

muhimligini yaxshi tushunardi. Ulug'bek mamlakatning siyosiy va iqtisodiy hayotini boshqarish bilan bir qatorda, ilmiy ishlar bilan shug'ullanadi, olimlarning munozaralarida faol qatnashadi. Manbalardan keltirilgan ma'lumotlarga qaraganda, Ulug'bek o'tmishdoshlari **Ahmad Farg'oniy, Abu Nasr Forobiy, Muso Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy va Ibn Sino** asarlarini batafsil o'rganadi. Bu buyuk mutafakkirlarning asarlari orqali u qadimgi yunon olimlari **Aflotun, Arastu, Gipparx, Ptolomeylarning** mumtoz asarlari bilan ham tanishadi. Ulug'bek Movarounnahr



58-rasm. Ulug'bek rasadxonasi.

shaharlarini, xususan Samarqand va Buxoroni ilm-u ma'rifat dargohiga aylantirishga intiladi. Uning farmoni bilan 1417-yilda Buxoroda, 1417—1420-yillarda Samarqandda va 1433-yilda G'ijduvonda madrasalar qad ko'taradi. Hatto Buxoro madrasasining darvozasiga «*Bilim olish har bir musulmon ayol va erkakning burchidir*» degan kalima o'yib yozib qo'yiladi. Movarounnahrning bu uchta qadimiy shaharlarida barpo etilgan ilmgohlar, xususan Samarqand madrasasi zamonasining dorilfununi edi. Ushbu madrasalarda ilohiyat ilmlari: *Qur'on, hadis, tafsir, fiqh* (din va shariat qonun va qoidalari) bilan bir qatorda *riyoziyot*, (matematika), *handasa* (geometriya), *ilmi hay'at* (astronomiya), *tibbiyot* (meditsina), *tarix, jo'g'rofiya, ilm-u aruz* (poetika), *arab tili va uning morfologiyasi* (kofiya) kabi dunyoviy ilmlar ham o'qitilardi. Ulug'bekning Samarqanddagi madrasasi ikki qavatli, ellik hujrali bo'lgan. Har bir hujra uch xonaga: *qaznoq* (omborxonona), *yotoqxona* va *darixonalariga* bo'lingan. Tarixiy manbalarda saqlangan ma'lumotlarga qaraganda, madrasada yuzdan ortiq talaba istiqomat qilgan va ta'lim olgan. Madrasada

o'sha zamonning iqtidorli olimlaridan mavlono *Shamsiddin Muhammad Havofiy* yetakchi mudarris bo'lgan. O'rta asrlarning mashhur olimlari **Qozizoda Rumi**, **G'iyosiddin Jamshid Koshoniy**, **Mirzo Ulug'bek** va uning shogirdi **Alouddin Ali Qushchilar** turli fanlardan dars berganlar. XVI asrning mashhur adibi **Zayniddin Vosifiyning** yozishicha, 1420-yilda madrasa ochilgan kuni birinchi darsni **Shamsiddin Muhammad Havofiy** o'qigan ekan. Darsda tolibi ilmlardan to'qson nafari qatnashgan, lekin darsning ma'nosiga Ulug'bek Mirzo bilan Qozizoda Rumiyan boshqa hech kim tushunmagan. Ayrim ma'lumotlarga qaraganda, madrasada ilmi hay'at (astronomiya)dan darsni **Qozizoda Rumi** bergan. Hatto fors-tojik adabiyotining klassiklaridan biri **Abdurahmon Jomiy** yoshlik chog'ida Samarqandga kelib, Qozizoda Rumiyan bir necha marta astronomiya fanidan saboq olgan. Madrasada kamida 15—16 yil tahsil ko'rib, uning dasturi bo'yicha fanlarni to'la o'zlashtirgan va imtihonli saboqlarda o'z bilimini namoyish qila olgan tolibi ilmlarga *«sanad»*—shahodatnoma yozib berilgan. Mana shunday shahodatnomalardan biri Ulug'bekning Samarqanddagi madrasasida qariyb o'n olti yil tahsil ko'rgan baxlik Shamsiddin Muhammad nomiga hijriy 838 (1435)-yil rajab oyining o'rtalarida Qozizoda Rumi imzosi bilan yozib berilgan edi.

Samarqanddagi Ulug'bek madrasasida mudarrislik qilgan olimlarning bir qismi turli fanlardan talabalarga dars berish bilan bir qatorda, matematika, geografiya va astronomiya bo'yicha amaliy masalalar bilan ham shug'ullanadilar. Rasadxona hali qurilib ishga tushirilgunga qadar osmon yoritgichlarining holatini kuzatish ishlari ma'lum darajada mana shu madrasada va Ulug'bek tomonidan qurdirilgan **Muqatta'** masjidida olib borilgan edi.

## 2. Ulug'bek rasadxonasi


Samarqandda o'z atrofida to'plangan taniqli olimlarning bevosita ishtiroki va ularning yordamida Mirzo Ulug'bek 1424—1428-yillarda shahar yaqinidagi **Obirahmat** anhuri bo'yida rasadxona qurdirdi. Hanuzgacha olimlarning qiziqishini uyg'otib kelayotgan bu ulkan imoratning balandligi 31 metr edi.

Zahiriddin Muhammad Boburning yozishicha, bu imorat to'rt burchakli bo'lgan. Binoning sirti koshin va sirli parchinlar bilan qoplangan. Binoning ichki sahni *sudsi faxriy* (sekstant) va koridorlar bilan uch qismga ajratilgan. Rasadxona joylashgan bu mavze mahalliy aholi o'rtasida «*Naqshi jahon*» degan nom bilan shuhrat qozongan.

Rasadxona qurilishida samoviy yoritgichlarni kuzatish va o'rganish borasida xizmat qiluvchi uning markaziy qismi — *sudsi faxriy* (sekstant) qurilmasi va uni maxsus o'lchov asbob-u uskunalari bilan jihozlashga alohida e'tibor beriladi. G'iyosiddin Jamshid boshchiligida rasadxonaning asosiy o'lchov asbob-uskunasi — ulkan *sekstant* o'rnatiladi. Samarqand sekstanti o'sha davrda Sharqda ma'lum bo'lgan sekstantlarning eng kattasi hisoblangan. Ali Qushchi uning balandligini Istambuldagi mashhur Sofiya ibodatxonasining balandligiga (qariyb 50 m) qiyos qilgan. Shu bilan birga Ulug'bek rasadxona qoshida zamonasining boy kutubxonasini ham tashkil etadi. Bu kutubxonada fanning deyarli hamma sohalariga tegishli qariyb o'n besh ming jild kitob saqlangan.

Rasadxona tevaragida olimlar va xizmatchilar uchun katta-kichik hujralar quriladi. Uning etagida esa o'zi uchun Ulug'bek ikkita chorbog' barpo etadi. Ulardan biri Bog'imaydon, ikkinchisi esa Chinnixonona nomi bilan shuhrat topadi.

Afsuski, tarixiy manbalarda aniq ko'rsatilganiga qaramay, Ulug'bek rasadxonasining qayerda joylashgani uzoq vaqt noma'lum bo'lib keldi. Chunki u asrlar davomida qarovsiz qolib, allaqachon



59-rasm. Ulug'bek rasadxonasining markaziy qismi — sudsi faxriy (sekstant) qurilmasidagi darajot belgilari (o'lchov uskunasi g'arbiy qismi).

vayronaga aylangan, so'ngra oddiygina tepalik manzarasini olgan edi. Mahalliy aholi o'rtasida Naqshi jahon nomi bilan shuhrat topgan bu tepalikda qazish ishlari olib borgan arxeolog V. L. Vyatkin 1908-yilda Ulug'bek rasadxonasining xarobalarini topishga va uning faxriy sekstanti yer osti qismini kovlab ochishga muvassar bo'ldi. Ulug'bekning faol ishtiroki bi-

lan va uning bevosita rahbarligi ostida rasadxona Movarounnahr, xususan uning poytaxti Samarqandda zamonasining anchagina boy kutubxonasiga ega bo'lgan va o'sha zamon sharoitiga nisbatan mukammal astronomik asbob va uskunalar bilan jihozlangan oliy darajadagi ilmgohga aylanadi. Rasadxonada Ulug'bek bilan birga mashhur matematik va astronomlardan zamondoshlari o'rtasida «*Aflotuni zamon*» deb nom olgan **Qozizoda Rumiy, G'iyosddin Jamshid Koshoniy, «o'z davrining Ptolomeyi»** nomi bilan shuhrat qozongan Ali Qushchi va ko'pgina boshqa olimlar ilmiy kuzatishlar va tadqiqotlar olib boradilar. Xullas, Ulug'bek Samarqandda butun bir astronomiya maktabini yaratdi.

Samarqandda Ulug'bek rahbarligida barpo etilgan bu ilmiy dargoh matematika, ayniqsa astronomiya sohasida ilmiy dunyoda olamshumul ahamiyat kasb etgan natijalarga erishadi. Rasadxonada olib borilgan kuzatish va tadqiqotlar tufayli 1018 sobita (qo'zg'almas) yulduzlarning o'rni va holati aniqlanib, ularning astronomik jadvali tuziladi. O'rta Osiyo, Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlari bo'ylab joylashgan 683 geografik punktlarning Samarqand kengligiga nisbatan koordinatalari belgilab chiqildi. Rasadxonada olib borilgan tadqiqotlarning natijalari asosida matematika va astronomiyaga oid qator nodir asarlar yaratildi.



60-rasm. Zangiota maqbarasi.  
Peshtoq. Toshkent viloyati.

XV asr aniq fanlarning, xususan astronomiyaning ravnaqi va Samarqand astronomlari qozongan olamshumul muvaffaqiyatlarida, ayniqsa Ulug'bekning roli va hissasi buyukdir. Ilm-fanga bo'lgan cheksiz muhabbat, zo'r qobiliyat va mehnatsevarligi tufayligina u Samarqand astronomiya maktabining asoschisi va rahbari sifatida ulkan muvaffaqiyatlarga erishdi. O'z ustida muntazam ishlash va bilimlarini tinmay chuqurlashtirish natijasida Ulug'bek o'zining ko'pgina zamondoshlaridan ham o'zib ketdi.

Samarqand rasadxonasida olib borilgan ko'p yillik tadqiqotlarning samarasi, Sharq klassik astronomiyasining nazariy va amaliy masalalarini o'zida mujassamlashtirgan va uni yangi dalil-isbotlar bilan boyitgan shoh asar Ulug'bekning «Ziji jadidi Ko'ragoniy» (Ko'ragoniyning yangi astronomik jadvali) nomli kitobidir. Bu asar 1437-yilda yozib tugallangan bo'lsa ham, unga muallif umrining oxiriga qadar bajarilgan ilmiy-tadqiqot natijalari asosida kuzatishlar va qo'shimchalar kiritib boradi. «Ziji jadidi Ko'ragoniy» asosan ikki qismdan: keng muqaddima va 1018 sobita yulduzlarning o'rni va holati aniqlab berilgan jadvallardan iborat. Shuni qayd qilish joizki, Ulug'bekning astronomik jadvali o'sha zamondagi shunga o'xshash jadvallar orasida yuksak darajada aniqligi bilan ajralib turadi. Shuningdek, Ulug'bekning yil hisobini hozirgi hisob-kitoblarga solishtirgudek bo'lsak, u bor-yo'g'i bir minut-u ikki soniyaga farq qiladi. Bular XV asr uchun g'oyat yuksak aniqlik bo'lib, hozirgi zamon o'lchovlariga juda yaqindir. «Ziji jadidi Ko'ragoniy» dan tashqari Ulug'bek «*Tarixi arba'ulus*» (To'rt ulus tarixi) nomli tarixiy asar hamda musiqa ilmiga bag'ishlangan beshta risola yozadi.

O'zbek klassik adabiyotining asoschisi Mir Alisher Navoiy Ulug'bekka yuksak baho beradi. Olam oxirigacha Ulug'bekning ilmiy merosi yuksak baholanishini qayd etib, quyidagi misralarni yozib qoldiradi.

Temurxon naslidan Sulton Ulug'bek  
Ki olam ko'rmedi sulton aningdek...

Bilib bu nav' ilmi Osmoniy,  
Ki ondin yozdi «Ziji Ko'ragoniy»  
Qiyomatga deganda ahli ayyom,  
Yozarlar oning ahkomidan ahkom.

XV asrda Movarounnahrning poytaxti Samarqandda ilmiy-tadqiqotlar olib borgan mashhur olimlarning ijodiy faoliyati, astronomiya va matematika fanlari sohasida qilgan kashfiyotlari, yaratgan nodir asarlari bilan ilm-fan taraqqiyotiga qo'shgan hissalarining salmog'iga qarab fikr yuritilsa, Ulug'bekning astronomiya maktabini o'z davrining o'ziga xos akademiyasi deb atash mumkin. Ulug'bek tevaragiga uyushgan 100 dan ortiq

olimlarni o'z bag'rida yetishtirgan nomi jahonga mashhur Samarqand rasadxonasi shu vazifani o'tagan. «Samarqand akademiya»si dastavval bundan 225 yil muqaddam mashhur fransuz faylasufi, yozuvchi va tarixchi olim **Volter (1694—1778)** tomonidan e'tirof etilgan. «*Ulug'bek Samarqandda bo'lib akademiya asos soldi, yer sharini o'lchashga buyurdi va astronomiya jadvallarini tuzishda ishtirok etdi*» deb yozgan edi Volter bu haqda. Darhaqiqat, «Samarqand akademiyasi» 1010-yil Xorazmning qadimiy poytaxti **Gurganchda** tashkil etilgan «*Donishmandlar uyi*»dan (Ma'mun akademiyasi) keyingi ikkinchi «*Dor ul-ilm*» edi. Bu Dor ul-ilmning poydevori bo'lgan Ulug'bekning astronomiya maktabi o'rta asrlar musulmon Sharqi astronomiyasining rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatdi.

#### *Savol va topshiriqlar*

- ?
1. Ilm-fanni rivojlantirish yo'lida Ulug'bekning faol harakatlarini gapirib bering.
  2. Ulug'bek rasadxonasi va uning ilmiy ahamiyati haqida gapirib bering.
  3. Ulug'bekning ilmiy ijodi haqida nimalarni bilasiz?
  4. Ulug'bek qayerlarda madrasalar qurdirgan?
  5. Buxoro shahrida bino qilingan madrasa darvozasiga ilm olishning ahamiyati haqida qanday shior o'yib yozilgan? Bu shiorning mohiyati nimada deb o'ylaysiz?
  6. «Samarqand akademiyasi» haqida nimalarni bilasiz? Bu ilmgohda Ulug'bekdan tashqari yana qanday buyuk olimlar faoliyat ko'rsatgan? Ular haqida gapirib bering.

#### **MAVZUNI TO'LDIRISH UCHUN YOZMA MANBADAN MA'LUMOT**

##### **Ulug'bek rasadxonasining qurilishi haqida**

XV asr muallifi Abdurazzoq Samarqandiy bu to'g'rida quyidagi satrlarni yozadi:

*«Ilm-u fanlar bo'yicha yetarli nasiba va to'liq sarmoya egasi bo'lgan Mirzo Ulug'bek ... mavlono Salohiddin Qozizodaiy Rumiy, ... mavlono Alouddin Ali Qushchi, ... mavlono G'iyosiddin Jamshid va mavlono Muiddinlar kabi barcha ilmlar ... xususan riyoziy va hikamiy tadqiqotlar bo'yicha asr ... hukamolari va mashhur bilimdonlar ... zehni muhandislar-u ... faylasuflar bilan birgalikda bir anjuman tuzdi...*

*(Bu sohada) yetuk kamolot hosil qilgach va asboblarni shaylagach, (Ulug'bek) rasad va ziyj mayl qildi va Samarqandning*

shimolida, Sharq tomonga moyilroq yerda mos bir joyni tayin qildi. U (rasadxona binosini qad ko'tarib)... imoratning xonalari ichiga to'qqiz falakning hay'ati-yu, to'qqiz (osmon) doiralari shakllarini, darajalar, daqiqalar, soniyalardan tortib to' oshiralargacha (chizildi) hamda aylanuvchi falaklar, yetti sayyora yulduzlari, sobita yulduzlar ko'rinishi va yer kurrasi hay'ati-yu iqlimlar suratlarini, tog'lar, biyobonlar va u (yer kurrasiga) nimaiki tegishli bo'lsa (hammasi) bilan birga dilnazir naqshlar-u benazir raqamlar bilan chizishga buyurdi, oftob va boshqa sayyoralarining taqvimini kuzatib borib, hikmat egasi bo'lmish janob Nasriddin Tusiy tuzgan «Ziyji jadidi Elxoniy»ga foydali va nozik (tafsilotlar) orttirdi hamda (u ziyjdagi) oftob sayyoralar taqvimida (yo'l qo'yilgan) ko'p aniq tafovutlarni ko'rsatdi. Bu nozik ishda unga ulug' hukamolar madadkor va muovin edilar. Bu muhim ishning ovozasini shahar va mamlakatlar bo'ylab tarqalib, shuhrat topdi. Shahzoda u ziyjga tuzatishlar kiritilib tamomlanishiga muvaffaq bo'ldi va unga «Ziyji Sultoni Ko'ragoniy» deb nom berildi. U ziyj munajjimlikda san'ati mohirlari va taqvim ustalari orasida qo'llanilib kelmoqda».

## 45—46-§§. MADANIY HAYOT

### 1. Me'morchilik va amaliy san'at

XV asrda Samarqand va Hirotda me'morchilik, naqqoshlik, tasviriy san'at va adabiyot nihoyat darajada taraqqiy etadi. Bu ikki poytaxt shaharlarda jamoat ehtiyoji uchun zarur ko'plab hashamatli binolar qad ko'taradi. Temuriy hukmdorlar orasida ayniqsa, Ulug'bek bobosi Amir Temurdek bunyodkor bo'lib, mamlakatda qurilish ishlariga katta ahamiyat beradi. U hukmdorlik qilgan davrda qator masjid, xonaqoh, hammom, sardoba va karvonsaroylar qad ko'taradi. Mozorot va ziyoratgohlar obod etiladi. Avvalambor, Amir Temur davrida qurib bitkazilmagan talaygina binolarni qurib bitkazadi. **Go'ri Amirning** kirish peshtoqi, **Shohizinda** ansamblidagi ba'zi bir maqbaralar, **Shahrisabzdagi Ko'kgumbaz** masjidi, **Yassidagi Ahmad Yassaviy** qabri ustiga qurilgan binolar shular jumlasidandir.

Ulug'bek, ayniqsa Samarqandni obod qilishga alohida e'tibor beradi. Uning davrida Samarqand shahrining Registon maydoni shakllandi. U qaytadan loyihalashtirib, maydonda Ulug'bek madrasasidan tashqari, peshtoqli va ulkan gumbazli xonaqoh, karvonsaroy, devoridan tortib, ustun va toqilarigacha o'ymakor yog'ochlardan ishlangan «*Masjidi Muqatta'*» bino qilindi. Ikki yuz o'n gumbazli «*Ko'kaldosh*» jome' masjidi qad ko'tardi. Bu oliy imoratlardan faqat **Ulug'bek madrasasigina** bizning davrimizgacha saqlanib qolgan xolos. Madrasa me'morlik jihatidan musulmon Sharqida ana shu turdagi binolarning klassik namunasi hisoblanadi.

Ulug'bek davrida yana bir yirik me'moriy kompleks, Shohizinda ansambli to'la qurib bitkazildi. Bu me'moriy kompleksning markaziy qismida qad ko'targan naqshinkor obidalar, ayniqsa «*Qozizoda Rumi*» maqbarasi me'moriy jihatdan eng ajoyibi hisoblanadi. U peshtoqli ulkan gumbazli ziyoratxonadan iborat bo'lib, koshinkor va beqiyos jilvali rango-rang parchinlar bilan naqshlangan.

Ulug'bek tomonidan qurdirilgan me'moriy binolar ichida **Samarqand rasadxonasi** alohida o'ringa ega. Chunki u ulkan Sharqning ko'p asrlilik ilm-u ma'rifat va madaniyati tarixida shuhrat topgan rasadxonalar orasida Movarounnahrda qad ko'targan-u yakka-yu yagonadir. Sharq mamlakatlarida ilm-u ma'rifatni, xususan astronomiya va matematika fanlarining rivoji yo'lida uning bajargan xizmati nihoyatda buyukdir. Jamoat binolari qurilishi me'morchilikda Registon maydonida bino qilingan «*Mirzoyi hammomi va karvonsaroyi*», «Bog'i maydon» da qad ko'targan «*Chil sutun*» (Qirq ustun) va «*Chinnixona*» saroylari ayniqsa diqqatga sazovordir. «*Tillakori madrasasi*» o'rnida bo'lgan Mirzoyi karvonsaroyida ko'pincha xorijiy mamlakatlardan kelgan savdogarlar qo'nishgan. Boburning ta'riflashicha «*Chil sutun*» va «*Chinnixona*» saroylari nihoyatda muhtasham va ko'rkam bo'lgan.

XV asrning ikkinchi yarmida Movarounnahr va uning poytaxti Samarqandda hashamatli qurilishlar anchagina cheklangan bo'lsa-da, ikki qavatli «*Xoja Ahror madrasasi*» (1456), «*Ishratxona*» (1464) va «*Oqsaroy*» (XV asr 70-yillari) kabi bir nechta me'moriy imoratlar qad ko'tardi.

Demak, bu davrda me'morchilik va amaliy san'atda asiy an'analar yanada chuqurlashtirilib, yuqori darajali ma'naviyatni anglatuvchi o'ziga xos uslub yaratildi. Bu uslubda bino qilingan imoratlar o'zining uyg'unligi, ritmi, kompozitsiyasi, rang-barangligi va tantanali manzara kashf ettiruvchi vositalari bilan ajralib turadi. Darhaqiqat o'zining mukam-



61-rasm. Abdullaxon bandi suv ombori. XVI asr.

malligi, yetuk shakli, nafisligi va go'zal naqshlari bilan kishini mahliyo etuvchi XIV—XV asrlar qurilish san'atining ajoyib durdonalari minglab kishilar mehnatining mevasidir. Ularda xalq ichidan yetishib chiqqan mohir me'mor naqqosh va bannolarning aql-idroki, mahorati va qurilish sohasidagi ko'p asrli tajribasi o'z ifodasini topgan. Bu me'moriy obidalarning mahalliy ustalari go'zallikning ob'yektiv qonunlarini chuqur bilganlar, o'z ijodlarida davrning g'oyasi va ruhini bera olganlar. Ularning me'moriy usuli ham, naqshi ham o'ziga xos xislat, fazilatlarga egadir.

## 2. Ma'naviy hayot

XV asrning ikkinchi yarmida Movarounnahming ma'naviy hayotida so'fiylik tariqatining ta'siri kuchayib, dunyoviy ilmlarga deyarli ahamiyat berilmay Samarqand rasadxonasidek «Dor ul-ilm» qarovsiz qolgan bir paytda Xuroson shaharlari, xususan uning poytaxti obodonlashib, u ilm-fan, adabiyot va san'atning markaziga aylandi. Hirotida ayniqsa Sulton Husayn Boyqaro (1469—1506) hukmronlik qilgan davrda qator naqshinkor imoratlar va inshootlar qad ko'taradi. Hirotning obod etilishi va unda amalga oshirilgan qurilishlarning aksariyati o'sha vaqtlarda Xurosonda Temuriylar davlatida vazirlik lavozimida bo'lgan va nihoyatda davlatmand Mir Alisher Navoiyning nomi bilan ham bevosita bog'liqdir. Ayrim ma'lumotlar bo'yicha, Xurosonda, xususan



62-rasm. Zangiota maqbarasi.  
Mehrob. Toshkent viloyati.

Hirot va uning tevarak-atroflarida Navoiy va uning safdoshlari tashabbusi bilan uch yuzdan ortiq jamoat binolari: *masjid, madrasa, maqbara, xonaqoh, hammom, shifoxona, saroy, istirohat bog'lari, rabotlar* hamda turli xil *sug'orish inshootlari: hovuz, ko'prik, bandlar*— suv omborlari qurilgan. Qurilishlarning ko'pi Navoiyning bevosita homiyligi bilan yoki uning mablag'iga amalga oshirilgan. XV asr muarrixi **Xondamirning** yozishicha, Alisher Navoiy o'z mablag'iga **52 rabot, 19 hovuz, 9 hammom** va boshqa bir qancha *masjid, madrasa, xonaqoh* va *shifoxonalar* kabi xayrli imorat va

inshootlar qurdirgan. **Astrobod** shahrida qurilgan *«Mir saroyi»* va *«Jome' masjidi»*, shuningdek **Marv** shahrida bino qilingan *«Xusraviya»* nomli madrasa shular jumlasidandir. Shu bilan birga Navoiy jang-u jadallar va zilzilalar asoratida vayron bo'lgan ko'pgina jamoat binolarini ta'mir etib, qayta tiklashdek murakkab ishlarga ham qo'l urgan.

Movarounnahr va Xurosonning XV asr me'morchiligida o'zining mukammalligi va bajargan vazifasi jihatidan jamoat binolari orasida ayniqsa shifoxonalar, hammomlar, istirohat bog'lari alohida o'riq tutadi. Alisher Navoiy Injil anhuri bo'yida *«Shifoiya»* ni qurishga kirishar ekan, avvalo uning zamonida qarovsiz qolgan Hirot Dorushifosini qayta tiklab uni obod etadi.

Bu davrda Hirot Dorushifosi, ayniqsa *kahrollari* — ko'z kasalligi tabiblari g'oyat shuhrat topadi. Bir safar hatto Xoja Ahrorning Navoiy nomiga yozgan maxsus maktubi bilan **Mavlono Fazlulloh** davolanish uchun Samarqanddan Hirotga yuboriladi. Xoja Ahror kasal bo'lganida esa Navoiy farmoniga binoan **Nizomuddin Abdulxay** tabib Samarqandga keladi. Shubhasiz Hirotning XV asr tabib va hakimlari tabobat sohasida ko'plab

kitob va risolalar yozganlar. Navoiyning tabobat fani asoslarini yaxshi bilishi va u bilan qiziqishi hamda insonparvarligi tufayli Hirotda *Dorushifo*, ya'ni davolash uyi ochiladi. Unda mashhur tabiblarning to'plani-shiga va tabobat ilmini rivoj olishiga qulaylik yaratiladi. Eng qizig'i shuki shifoxonada davolash uchun ham, davolanish uchun ham barcha shart-sharoitlar mavjud bo'lib, bemorlarga dori-darmonlar, yemaklik uchun oziq-ovqatlar muhayyo etilgan. Bu buyuk zotning va-fotigacha, uning tarbiyasida 12 mingga yaqin madrasa talabalari, shoirlar, olimlar, muzaxxiblar, musavvirlar, zargar, duradgor va binokor ustalar kamol topadilar.



63-rasm. Zahiriddin Muhammad Bobur. Miniatyura. XVI asr boshlari.

Xalq salomatligi va tozaligi yo'lida jamoat binolaridan hammomlarning g'oyat muhimligini yaxshi tushungan Navoiy Hirot va uning atrofida bir nechta hammomlar qurdiradi.

Navoiyning rejasi va tarxi bilan bino qilingan yirik me'moriy ansambllar, uning yetuk me'mor ekanidan guvohlik beradi.

XV asrning madaniy hayotida istirohat bog'lari tashkil etish san'ati ham diqqatga sazovordir. Bu davrda *Samarqand*, *Buxoro*, *Marv*, *Hirot* va boshqa ko'pgina shaharlar atrofida go'zal oromgohlar barpo etiladi. Istirohat bog'lari, gulzorlar bilan o'ralgan baland saroy va naqshinkor shiyponlar, ularga elituvchi sersoya so'lim xiyobonlar, zilol suvli ariqlar, markazida girdi va ichi toshtaxtalar bilan ishlov berilgan hamda atrofiga gujum va majnuntollar o'tqazilgan to'rt yoki sakkiz burchakli hovuzlardan iborat bo'lgan. Bunday istirohat bog'larini o'z ko'zi bilan ko'rgan *Xondamir* «*Bu sharofatli joy nafis bezaklar va g'aroyib ixtirolar bilan orasta qilingandir*» deb ta'riflagan.

### 3. Kitob san'ati

XV asrda Hirotda me'morchilik bilan bir qatorda kitobat san'ati, ya'ni qo'lyozma asarlarni ko'chirib yozish va u bilan bog'liq bo'lgan xattotlik, musavvirlik, lavvohlik (lavha chizish) va sahhoflik (muqovasozlik) san'ati ham nihoyatda yaxshi taraqqiy etadi. Kitobat san'atning ma'lum bir sohasiga aylanib, nafis kitob bu san'atning nodir va bebaho asari hisoblanadi. Bu davr nafis kitob va xattotlik san'ati taraqqiyotida yangi bir bosqich bo'lib, mohir san'atkorlarni yaratdi. Bosmaxona va kitob nashr etish hali vujudga kelmagan zamonda kitob yaratish va uning nusxalarini ko'paytirish og'ir mehnat va ko'p vaqt sarf etiladigan nihoyatda mushkul ish bo'lgan. Har bir kitob qog'ozidan tortib, muqovasigacha, siyohidan tortib to bo'yoqlari-yu zarhaligacha ma'lum reja va qoida asosida tayyorlanar edi. Hatto kitobdan xushbo'y hid anqib turishi uchun ba'zan siyohga gulob yoki anbar qo'shilar edi. Xattotlik nozik kasb, o'ziga xos san'at ham edi. Xattot bo'lish uchun uzoq vaqt sabr-matонат va ishtiyoq bilan xattotlikni mashq qilish, zahmat chekish lozim edi. Xattot mukammal savodli, badiiy didi baland, ijodkor kishi bo'lishi lozim edi. Har bir xattotning o'z usuli va o'z uslubi bo'lib bu usul va uslublar ustozdan shogirdga o'tar, an'analar davom ettirililar va rivojlantirililar edi.

Bir necha kasb-hunar sohibining uzoq va mashaqqatli mehnati bilan bunyodga kelgan nafis kitob oz nusxada bo'lib, u nihoyatda qimmat bo'lar edi. Bunday kitoblar ko'pincha podshohlar, amirlar va davlatmand amaldor kishilarning buyurtmasi bilan ishlanar va maxsus kitobxonalarda saqlanar edi. Nafis kitob va xattotlik san'ati XIV—XV asrlarda yangi taraqqiyot bosqichiga ko'tarildi. Mashhur xattot **Mirali Tabriziy (1330—1404)** *nasta'lik* deb nomlangan yangi uslubdagi xatni kashf qiladi. Xushnavis xattotlardan biri **Sultonali Mashhadiy (1432—1520)** edi. U **Nizomiy, Attor, Hofiz, Sa'diy, Xisrav Dehlaviy, Jomiy, Navoiy, Husayn Boyqaro** va boshqa shoirlarning asarlarini ko'chiradi. Sultonali tomonidan ko'chirilgan 50 dan ziyod kitob va ko'pgina qit'alar hozirgi vaqtgacha yetib kelgan. Sultonali o'ymakorlik san'atida ham mohir bo'lgan. U Husayn Boyqaroning «*Bog'i*

*Jahonoro*» bog'idagi saroy va boshqa binolarning devorlariga o'yib bitiklar yozgan. Husayn Boyqaro qabr toshidagi lavha ham Sultonali tomonidan o'yib bitilgan. U xattotlik san'ati turlari haqida maxsus asar ham yozgan. Sultonali Mashhadiy «*Qiblat ul-qutub*» (Kotiblar qiblas) va «*Sulton ul-xattotin*» (Xattotlar sultoni) nomlari bilan shuhrat topadi.

Bu davrda temuriy hukmdorlari devonxonalari qoshida, xususan Samarqand va Hirotida maxsus saroy kitobxonalari tashkil etilgandi. Bunday kitobxonalar o'rta asrning o'ziga xos hunarmandchilik korxonasi bo'lib, ularda qo'lyozma asarlarni to'plash va saqlash bilan bir qatorda, ulardan nusxalar ko'chirish, turli manzarali rango-rang tasvir va naqshinkor lavhalar bilan asarlarni bezash hamda muqovalash kabi kitobsozlik bilan bog'liq bo'lgan qator amaliyot bajarilgan. Bunday saroy kitobxonalarining boshliqlari «*kitobxona dorug'asi*» yoki «kitobdor» nomlari bilan yuritilib, uning qo'l ostida ko'plab, xushnavis xattotlar, qo'li gul naqqoshlar-u musavvirlar, mohir lavvohlar-u sahhoblar buyurtmalarni bajarganlar. Masalan, XV asrning birinchi yarmida Hirotida Ulug'bekning ukasi Boysung'ur kitobxonasida qirqta xattot va bir qancha naqqoshlar qo'l yozma asarlardan nusxalar ko'chirish va ularni bezash bilan band bo'lgan. 1429-yilda bu kitobxonada Abulqosim Firdavsiyning mashhur «*Shohnoma*» poemasi ko'chirtirilib, u 20 ta turli mazmun va manzarali rangdor miniatyuralar bilan bezatilgan.

XV asrning ikkinchi yarmida Hirotida kitobat san'ati yanada rivoj topadi. Husayn Boyqaro va Alisher Navoiy saroy kitobxonasini nodir asarlar bilan boyitishga g'amxo'rlik qiladilar.

#### 4. Tasviriy san'at

XV asr va XVI asr boshlarida tasviriy san'at sohasida ulkan muvaffaqiyatlarga erishiladi. **Behzod, Mirak naqqosh, Qosimali, Mahmud Muzahhib, Hoji Muhammad naqqosh** va Shohmuzaffar kabi mo'yqalam sohiblari yetishadi. Bizgacha saqlanib qolgan tasviriy san'at obidalari va yozma manbalar Movarounnahr va Xuroson tasviriy san'atining o'ziga xos uslubini, musavvirlar ijodiyotining xayoliy mavhumlikdan hayotiylikka, aniq tasvirga

tomon rivojlanib borganini ko'rsatadi. Bu jihatdan, ayniqsa Behzod asos solgan Hirot musavvirlik maktabi ulkan yutuqlarga erishdi. Bu davr tasviriy san'ati obidalari o'zining mavzui va voqeligiga qarab portretlar, hayotiy lavhalar, tabiat manzaralari, bino va badiiy asarlarga ishlangan tasvirlardan iborat bo'lgan. Siymolar qiyofasi tasvirlari orasida **Jomiy, Navoiy, Abdullo Xotifiy, Behzod, Husayn Boyqaro, Bobur, Shayboniyxon** va boshqalarning tasvirlari bizgacha saqlanib qolgan. Musavvirlar bu tarixiy shaxslarning tashqi qiyofasini aniqroq va mukammalroq tasvirlashga, ayrim hollarda, hatto ularning ma'naviy dunyosini ochishga intilganlar. Bu jihatdan ayniqsa, **Navoiy** portretlari diqqat-e'tiborga molikdir. Masalan, mashhur rassom **Mahmud Muzahhib** tomonidan chizilgan **Navoiy** tasvirida shoir hassaga tayangan, uning qomati birmuncha bukchaygan, qarashlarida ham horg'inlik alomatlari, ham ulug'vorlik va olijanoblik ko'zga yaqqol tashlanib turadi.

Zamondoshlari tomonidan *Moniyi soniy* «Ikkinchi moniy» keyingi davr olimlari tomonidan «*Sharq Rafaeli*» deb nomlangan **Kamoliddin Behzod** XV asr tasviriy san'atining ulug' namoyandasidir. U musavvirlikda «Hirot maktabi» deb nomlangan yangi bir ijodiy uslubning asoschisi bo'ldi va ustoz san'atkor sifatida O'rta Osiyo, Eron, Ozarbayjon va boshqa o'lkalar tasviriy san'atining taraqqiyotiga samarali ta'sir etdi. Behzodning musavvirlik san'ati ayniqsa serqirra bo'lib, uni mo'yqalami bilan chizilgan tasvirlar o'zining nafisligi, yorqinligi va bo'yoqlarining jozibadorligi jihatidan Sharq musavvirlik san'atida alohida o'ringa egadir. Uning ijodi xilma-xil mazmunga ega bo'lib, u tarixiy siymolar (Husayn Boyqaro, Shayboniyxon, Alisher Navoiy) portretlaridan tortib, to serjilo hukmdor saroylaridagi qabul marosimlari va jang maydoni manzaralarigacha haqqoniy va ta'sirli qilib bera olgan. Ayniqsa, Dehlaviyning «*Layli va Majnun*» poemasi bag'ishlangan uning lirik manzaralari yoki Sharofuddin Ali Yazdiyning «*Zafarnoma*» asari uchun chizilgan jang maydonidagi shiddatli jang tasvir etilgan miniatyuralari nihoyatda jozibador va ta'sirchandır. Xullas, tasviriy san'at asarlarida xattotlarning husnixati, muqovasoz va zarhalchilarning san'ati uyg'unlashib, g'oyat ko'rkam bir tusga kiradi. Bularning barchasi

san'at turlari bilan badiiy adabiyotning o'zaro uzviy aloqada ravnaq topganini, biri ikkinchisiga samarali ta'sir etganini ko'rsatadi.

## 5. Musiqa

XIV—XV asrlar O'rta Osiyo xalqlarining musiqa san'ati taraqqiyotida ham yangi va mahsuldor bir bosqich bo'ldi. Bu davrda yangi kuy va qo'shiqlar, cholg'u asboblari va musiqa nazariyasiga doir nodir asarlar yaratildi. Juda ko'p mahoratli sozandalar, bastakorlar va hofizlar yetishdi. **Abduqodir Nayiy, Qulmuhammad Shayxiy, Husayn Udiy, Shohquli Gijakiy, Qosim Rabboniy** va boshqalar shular jumlasidandir. Omilkor musiqachilar bilan bir qatorda **Ulug'bek, Navoiy, Jomiy, Binoiy** kabi mutafakkir va shoirlar ham musiqa san'ati bilan shug'ullanib, uning rivojiga ma'lum hissa qo'shadilar. Masalan, Ulug'bek «*bulujiy*», «*shodiyona*», «*axloqiy*», «*tabriziy*», «*usuli ravon*» va «*usuli otlig'*»; Navoiy, «*isfaxoniy*» kuylarini ijod qiladi. Jomiy va Binoiyilar musiqa nazariyasiga doir asar yaratadilar.

Musiqa san'ati ahllarining ijodiy faoliyati bilan IX—XII asrlarda vujudga kelgan duvozda (o'n ikki) maqom bu davrda yangi taraqqiyot pog'onasiga ko'tariladi, takomillashadi va yangi kuylar bilan boyiydi. Demak, musiqa san'ati ham XIV—XV asrlarda san'atning boshqa turlari va poeziya bilan uzviy aloqada yangi taraqqiyot pog'onasiga ko'tariladi. Mohir san'atkorlar, mashshoqlar, bastakorlar va hofizlar yetishadi. Nodir va bebaho san'at asarlari vujudga keladi.

## 6. Adabiyot

XIV asrning ikkinchi yarmi va XV asr O'rta Osiyo xalqlari adabiyoti taraqqiyotida yangi va juda sermahsul davr bo'ldi. Bu davrda adabiyot badiiy uslub jihatidan takomillashdi, yangi pog'onaga ko'tarildi. Nasrda ham, nazmda ham ko'plab nodir badiiy va lirik asarlar yaratildi. O'rta Osiyo xalqlari, xususan o'zbek hamda tojik adabiyoti o'rtasida o'zaro aloqa va hamkorlik kengaydi va mustahkamlandi. O'zbek tarjima adabiyoti vujudga keldi. Badiiy

adabiyotning o'sishi bilan uzviy bog'langan holda adabiyotshunoslik ham taraqqiy etdi, qimmatli ilmiy asarlar yaratildi.

Bu davrda zamonasining iste'dodli shoirlari va adiblari **Qutb Sayfiy, Saroiy, Haydar Xorazmiy, Durbek, Amiriy, Yaqiniy, Atoiy, Sakkokiy, Lutfiy, Robur, Muhammad Solih** va boshqalar yashab ijod qiladilar. **Durbek** tomonidan qayta ishlangan «*Yusuf va Zulayho*» dostoni, toshkentlik shoir **Atoiy**ning devoni, **Lutfiy**ning «*Zafarnoma*» va «*Gul va Navro'z*» poemalari shu davr badiiy adabiyotining durdonalaridir. Bu davr o'zbek shoirlari ichida **Lutfiy (1366—1465)** alohida o'rin tutadi. Navoiyga qadar o'zbek she'riyatida Lutfiy darajasiga yetadigan shoir bo'lmagan. U birgina o'zbek tilida asarlar yaratib qolmadi, balki tojik tilida ham qasidalar yozdi. Lutfiy ijodida haqiqat va adolatni sevish, shafqat va muruvvatli bo'lishni targ'ib qilish, ilm va san'atni sevish kabi fikrlar katta joy olgan.

Bu davr adabiyoti taraqqiyotida buyuk tojik shoiri **Abdurahmon Jomiy (1414—1492)** hamda o'zbek adabiy tilining rivojiga ulkan hissa qo'shgan o'zbek klassik adabiyotining sardori **Alisher Navoiylarning** roli g'oyat buyukdir. Lirikasohasida **Sa'diy, Hofiz va Kamol Xo'jandiy** qatorida turgan **Jomiy** sermahsul olim va iste'dodli adib edi. Qariyb yarim asr davom etgan ijodiyotida u fan va adabiyotning turli masalalariga oid 99 ta kitob yozdi. U XV asr adabiyotida mavjud bo'lgan deyarli barcha janrlarda asarlar yaratdi. O'zidan oldingi ulug' so'z san'atkorlarining an'analarini davom ettirdi va rivojlantirdi. Badiiy yuksak asarlari bilan dunyo adabiyoti xazinasiga o'lmas obidalar qo'shdi. Jomiyning eng yirik va mashhur asari yettita katta dostonidan iborat «Haft avrang», «Bahoriston», «Xiradnomai Iskandar» nomli falsafiy didaktik doston va axloqiy-talimiy asarlardir. Abdurahmon Jomiy XV asrning buyuk mutafakkiridir. Uning ijodiy faoliyati qardosh tojik xalqining madaniyati taraqqiyotidagina emas, balki butun O'rta Sharq madaniy hayotida katta voqea bo'ldi.

Abdurahmon Jomiy ulug' o'zbek shoiri va mutafakkiri **Alisher Navoiy**ning zamondoshi, ustoz va do'sti edi. Bu ikki madaniyat

rahnamosining do'stligi va hamkorligi o'zbek va tojik xalqlari do'stligi va hamkorligining yorqin timsolidir. Navoiy Jomiyini ustoz, buyuk so'z san'atkori deb bildi, u bilan hamkorlik qildi. Xuddi shuningdek, Jomiy ham Navoiyni buyuk so'z san'atkori sifatida taqdirlab, unga yuksak baho berdi.

## 7. Alisher Navoiy

XV asr badiiy adabiyoti ravnaqida buyuk davlat arbobi, ulug' shoir, olim, mutafakkir Alisher Navoiyning hissasi g'oyat buyukdir. Navoiy butun faoliyati va ijodiyotini insonning baxt-saodati uchun kurashga, xalqning osoyishtaligiga, o'zaro urushlarning oldini olishga, obodonchilik ishlariga, ilm-fan, san'at va adabiyot taraqqiyotiga bag'ishladi. U ulug' insonparvar, donishmand, davlat arbobi, o'zbek adabiy tili, o'zbek klassik adabiyotining yangi taraqqiyot pog'onasiga ko'targan buyuk so'z san'atkori, iste'dodli qomusiy olim bo'lib yetishdi. U davrining madaniy hayotiga rahbar, ilm-fan, san'at va adabiyot ahllariga homiy, ko'plab shogirdlar yetishtirgan ustoz bo'ldi. Navoiy til, adabiyot, musiqa, tarix, falsafa, astronomiya, tarbiya nazariyasi sohasida juda ko'p qimmatli ilmiy asarlar, o'ttizdan ortiq yirik badiiy asar yozdi, *«Xamsa»*, *«Xazoyin ul-maoniy»*, *«Mahbub ul-qulub»*, *«Lison ut-tayr»* shular jumlasidandir. Navoiy «Foniy» taxallusi ostida tojik tilida ham ijod qilib, *«Devoni Foniy»*, *«Xasbi xol»*, *«Tuhfat ul-asfor»* kabi lirik asarlar yaratdi.

Navoiy asarlarida muhabbat va sadoqat, do'stlik va qardoshlik, adolat va tinchlik zo'r mahorat bilan tarannum etiladi. U odamlarni insonga muhabbatli bo'lishga da'vat etadi, mehnatni ulug'laydi. Shoir odamlarni fanni egallashga, bilimlarni o'zlashtirishga chaqiradi, savodli bo'lishning amaliy ahamiyatini uqtiradi.

Navoiy tarixni bilishning ahamiyati, ayniqsa katta ekanini aytib, odamlarni tarixni o'rganishga da'vat etadi. Uning fikricha, tarix fani shohlar, hukmdorlarning tarjimai holini emas, balki mamlakat tarixini o'rganishi kerak. U mamlakatni nimalar halok qilishini va nimalar farovonlikka olib kelishini, qanday ishlar

tufayli mamlakat obod bo'lishini, qanday ishlar sababli mamlakat tanazzulga yuz tutishini, qanday ishlar tufayli mamlakat ma'mur bo'lganligini, qanday ishlar xalqqa farog'at va baxt keltirishini tarix ko'rsatib berishi lozim deb hisoblaydi.

Navoiy ta'kidlashicha, xalqning farovonligi, davlatning ravnaqi — dehqonlar va kosiblarning og'ir va mashaqqatli mehnati natijalariga bog'liq. Shu sababli ularni hurmatlab, mehnatini ardoqlash lozim. Navoiy shohlarning, beklarning va boshqa amaldorlarning hunarmand kosiblarga, dehqonlarga zulm o'tkazishlariga qarshi chiqadi. Navoiy odamlarni insofli, olihimmat, mehnatsevar bo'lishga da'vat etadi. Jahondagi barcha ma'murchilikning manbai mehnat deb, uni maqtaydi.

Navoiyning xushxulq, odobli va tarbiyali bo'lish to'g'risidagi fikrlari ayniqsa qimmatlidir. U tarbiyali bo'lishni yuksak va olijanob fazilatlardan biri deb hisoblab, odamlarni xushmuomala, xushfe'l bo'lishga chaqiradi. Shoir yuksak axloqiy sifatlarni adolat, insonparvarlik, odamlarga mehribon bo'lish bilan chambarchas bog'lab, adolat yordamida mamlakatni obod qilish mumkinligini har bir kishi o'zining xulqi va odobi bilan odamlarni xursand qilishi lozimligini uqtirib o'tadi.

Xullas, o'zbek xalqining ulug' shoiri va mutafakkiri Alisher Navoiy o'zining faoliyati va ijodiyoti hamda bebaho asarlarida ko'targan o'ta insonparvar g'oyalari bilan jahon adabiyotining buyuk san'atkorlari qatoridan o'zining munosib o'rnini egalladi. Uning nomi va merosi Gomer va Dante, Rudakiy va Firdavsiy, Nizomiy va Shota Rustaveli, Sa'diy va Jomiy, Shekspir va Balzak, Pushkin va Tolstoy, Rabindranat Tagor va Lu Sin kabi ulkan mutafakkirlarning nomi va merosidek abadiydir.

Afsuski, XV asr oxirida mamlakatda mulkdor viloyat hokimlarining o'zaro nizolari va markaziy hukumatga qarshi isyonlari kuchayib, dorulsaltanatda fitna-fasodning avj olib ketishi oqibatida boshlangan siyosiy tanglik, shubhasiz uning iqtisodiy va madaniy hayotiga salbiy ta'sir etdi va uni og'ir tushkunlikka olib keldi. Bularning hammasi temuriylar hukmronligining so'nggi kunlari nishonasi bo'lib, uni zamonaning peshqadam siymolari

juda yaxshi sezganlar. O'sha zamonda yashagan shoir va adiblardan Muhammad Solih sodir bo'lgan siyosiy vaziyat oqibatiga baho berib,

*«Davlati oliy Temur ketgusidir,  
Navbat o'zga kishiga yetkusidir» — deb yozgan edi.*

\* \* \*

### *Savol va topshiriqlar*

- ?
1. Me'morchilik va amaliy san'atdagi yutuqlar to'g'risida gapirib bering.
  2. Xuroson va uning ma'naviy hayoti haqida nimalarni bilib oldingiz?
  3. Kitob san'ati va kutubxonalarning rivojlanganligini misollar bilan tushuntiring.
  4. Tasviriy san'atdagi yutuqlar, «Sharq Rafaeli» ijodi haqida gapirib bering.
  5. Musiqa san'atining rivojlanishida XIV—XV asr yangi bosqich bo'lganligini isbot qiling.
  6. Adabiyotning rivojlanishi, badiiy uslub jihatidan takomillashganligini Lutfiy, Jomiy ijodi bilan ta'riflang.
  7. O'zbek adabiyotining ravnaqida A. Navoiyning xizmatini ko'rsatib bering.
  8. Navoiy ijodining qaysi tomonlari sizga yoqadi? Uning asarlari bilan tanishmisiz?

### *MAVZUNI TO'LDIRISH UCHUN YOZMA MANBADAN MA'LUMOT*

O'rta asrning buyuk adibi Alisher Navoiyning turkiyzabon xalqlar, xususan o'zbek xalqining ma'naviy ravnaqi yo'lidagi mamlakat obodonchiligi, el-yurtning farovonligi yo'lidagi faoliyati beqiyosdir. Mirzo Muhammad Haydarning yozishicha, Navoiyning har yilgi daromadi o'n sakkiz ming *«shohruhiy»* dinorga teng bo'lgan. Bu mablag'ning deyarli hammasini u xayrli ishlarga, shu jumladan jamoat qurilishlariga sarf etgan. U birgina Hirot shahri yaqinida Injil anhuri bo'yida bir qancha binolar: *«Ixlosiya»* madrasasi, uning qarshisida *«Xolisiya»* xonaqohi, *«Qudsiya»* jome' masjid, *«Shifoiya»* davolash uyi, *«Safoiya»* hammomi, va ular qoshiga toshhovuz qurdiradi. Binokorlik ishlari Hirotning qator mohir me'mor, muhandis, banno va naqqoshlari tomonidan bajariladi. *«Ixlosiya»* madrasasi va *«Xolisiya»* xonaqohida bir necha ming kishi istiqomat qilib, fan, adabiyot va san'at bilan mashg'ul bo'lgan. O'sha davr tarixchisi Xondamirning yozishicha *«Xolisiya»* xonaqohida har kuni zaifa

va miskinlar ziyofat qilinib, laziz taomlar bilan to'ydirilgan. Yangitdan quriladigan har bir bino yoki ta'mir etilib qayta tiklanadigan har bir yodgorlikka mukammal me'moriy zeb berish uchun Navoiy qurilishga hamma vaqt ko'plab turli kasbdagi binokor ustalarni jalb qilgan. Ta'mirlash ishlari bevosita Navoiy boshchiligida amalga oshirilgan.

Xondamirning ta'riflashicha «*Ko'p kunlar u etagini beliga qistirib, yollangan ishchilar singari ustalarga g'isht uzatardi va boshqa ishlar qilardi. Tez-tez me'mor, usta va kosiblarga qimmatbaho sarupolar kiydirardi. Ko'p navozish va boshqa in'omlar bilan xursand qilardi. Shunday qilib, uch-to'rt yillik ish olti oy muddat ichida tamomlanar edi.*»

## O'TMISH SADOSIDA TARIX SABOQLARI VA MA'NAVIYAT

(*Xotima o'rnida*)

Qadimda Turon, o'rta asrlarda Turkiston va Movarounnahr nomlari bilan shuhrat topgan Ona diyorumizning 1000 yildan oshiqroq tarixi bayoniga yakun yasalar ekan, shuni e'tirof etish joizki, xalqimizning bu ko'hna o'tmishi, avvalambor, uning mashaqqatli bunyodkorlik faoliyati tarixidir. Chunki bu davrda uning betinim mehnati tufayli o'lkamizda azim daryolar, katta-kichik soy va jilg'alar jilovlanib, dehqonchilik maydonlari kengaytirildi, bog'-rog'lar va bo'stonlar barpo etildi. Hozirgi kunda Siz-u biz hayot kechirayotgan voaha va viloyatlar shakllandi va obod etildi. Son-sanoqsiz qishloqlar qad ko'tardi. Shaharlar kengayib, ular serqirra hunarmandchilik, tijorat, ma'rifat, ilm-u fan hamda madaniyatning markaziga aylandi. Kosib-hunarmandlarning turli xil tarmoqlari rivoj topib, qo'li gul mohir hunarmandlarning nozik did va ijodiy mahorati bilan yasagan buyum-u asboblari hamda zeb-ziynatlari o'ziga xos yuksak san'at asari darajasida qiyomiga yetkazildi.

Bir tomondan, sug'orma dehqonchilik va chorvachilik, ikkinchi tomondan, hunarmandchilikning taraqqiyoti o'z navbatida ichki va tashqi tijoratning kengayishiga, ayniqsa tashqi bozor bilan olib borilgan aloqalarning mustahkamlanishiga olib keldi. Bular

o'z navbatida sharqona binokorlik va me'morchilikning shakllanishi va rivoji asosida shaharlarning kengayib, ko'rkamlashuviga ulkan turtki berdi.

Sug'orma dehqonchilik, irrigatsiya, ayniqsa muhandislik asosida suv inshootlarini qurish, binokorlik, me'morchilik va kon ishlarining yo'lga qo'yilishi o'z navbatida xat-u savod, ilm-u ma'rifatning yuksalishiga olib keldi. Aynan shu davrda Muso Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Abu Nasr Forobiy, Abdulloh Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino va Mirzo Ulug'bek singari o'rta asrlarning buyuk alloma olimlari yetishib chiqdi. Ular jahon ilm-u fanining taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shdilar.

El-yurti boshqarishda ham o'ziga xos davlatchilik, qonun va qoidalar, yer va mulkka bo'lgan haq-huquq tizimlari yuzaga keldi. Bu diyorda ixshid, afshin, tudun, buxorxudot, chag'onxudot, vardanxudot, dabusshoh, malikazoda, dehqon va ko'pgina boshqa mayda viloyat hokimlari boshqargan ilk feodal davlatchalardan tortib, Turk xoqonligi, Somoniylar, Qoraxoniylar, Xorazmshohlar hamda Amir Temur va Temuriylar kabi buyuk davlatlar tashkil topdi. Bu tarixiy voqelik shuni qat'iy tasdiqlaydiki, aziz o'quvchi Vatanimiz hududlarida davlatchilik madaniyati qadim zamonlardayoq shakllangan. O'rta asrlarda esa u yanada rivoj topib buyuk saltanatlik boshqaruv tizimigacha ko'tarilgan. Asrlar osha davom etgan bu tarixiy bosqichda mashaqqatli qo'l mehnati vositasidagi dehqonchilik, uning barokati, rohat-u uqubati, yerga egalik qilish va unga bo'lgan e'timod, shubhasiz, xalqimizning turmush tarzi, xulq-atvoriga kuchli ta'sir qilib, unda mustahkam e'tiqod, pok axloq, sabr-qanoat qilish odobini shakllantirdi. Islomiyat davrida ular yanada mustahkamlandi va o'ta xalqchil baynalmilallik mafkurasi shakllanib taraqqiy topdi. Bu davrda Ismoil Buxoriy, Iso Termiziy va Burhonuddin Marg'iloniy va Bahovuddin Naqshband kabi zabardast daho va ulamolar yetishib chiqdi. Ular islom dini va qonunshunosligi taraqqiyotiga va uning jahon dini darajasiga ko'tarilishiga katta hissa qo'shdilar.

O'z bilak kuchi va aql-u zakovati bilan obod etgan ona yurtini tashqi dushmanlar tajovuzlaridan muhofaza qilish, mustaqillikni

saqlab qolish, fursat boy berilgan davrlarda esa istiqloq uchun xalqimiz birdamlik bilan oyoqqa turdi, «yo hayot, yo mamot» shiori ostida qahramonona kurashdi. Xalqimizning vatanparvarligi xalifalikka qarshi ko'tarilgan «Oq kiyimlilar», mo'ng'ullar bosqiniga qarshi olib borilgan Mahmud Torobiy yoki «Sarbadorlar harakatlari» da, ayniqsa o'z ifodasini topdi. Bunday og'ir va musibatli davrlarda **Mahmud Torobiy, Temur Malik, Jaloliddin Manguberdi, Najmiddin Kubro, Badruddin Qozi** kabi Vatan mudofaachilari tarixda misli ko'rilmagan qahramonlikni namoyish etdilar.

Adolat yo'qolib, zulm kuchaygan vaqtlarda el-yurtda tanglik va notinchlik yuzaga keldi. Xalq g'alayonlari ko'tarilib, mamlakat iqtisodiy va siyosiy buhronga duchor bo'ldi. Bunday og'ir va mushkul vaziyatli davrda, ayniqsa mahalliy hokimlarning boshboshdoqli xatti-harakatlari avj olib, ular o'z valiahdlariga qarshi bosh ko'tardilar. Bunday davrlarda mamlakat tanazzulga yuz tutib, davlat barham topdi. Diyorimizda qad ko'tarib, ravnaq topgan Somoniylar, Qoraxoniylar, Xorazmshohlar, Amir Temur va Temuriylar buyuk saltanatining qismati afsuski mana shunday fojiali oqibatlar bilan tugadi. Bu borada Temuriylar davlatining fojiali qismati ayniqsa saboqlidir. Bu asnoda Farg'ona hokimi **Zahiriddin Muhammad Bobur** Temuriylar saltanatini himoya qilish va uni saqlab qolish yo'lida astoydil kurashdi. Biroq, og'ir iqtisodiy tanglik va siyosiy parokandalik sharoitida Boburning omadi yurishmadi. U o'z Ona-Vatanini tark etib, o'zgarlar yurtiga yuzlanishga majbur bo'ldi. Bobur avval Afg'onistonni, so'ngra Shimoliy Hindistonni o'ziga bo'ysundirib, bu o'lkada «Buyuk mo'g'ullar» nomi bilan tarixda shuhrat topgan Boburiylar saltanatiga asos soldi. Bu davlat, Ulug' Turkiston davlatchiligi udumlarini davom ettirib, uch asrdan ortiqroq hukm surdi. Bu davrda Hindiston yuksaldi, ravnaq topdi va shuhrat qozondi.

Ona-Vatanning mana shunday qismatidan saboq chiqargan ota-bobolarimizning «Vatanni sevmok imondandir», degan sharafli so'zlarida shubhasiz, katta fazilat bo'lib, Vatanga bo'lgan muhabbat esa ota-ona va ustozlarga bo'lgan izzat-hurmat, oilaga bo'lgan sadoqat va e'tiqoddan boshlanadi.

## FOYDALANILGAN MANBALAR VA ADABIYOTLAR RO'YXATI

### Manbalar:

*Abu Bakr Muhammad ibn Ja'far Narshaxiy.* Buxoro tarixi. Toshkent, «Fan», 1966.

*Abu Nasr Forobiy.* Fozil odamlar shahri. Toshkent, 1993.

*Abu Rayhon Beruniy.* Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. Tanlangan asarlar, 1-jild, Toshkent, «Fan», 1968.

*Amir Temur Ko'ragon.* «Zafar yo'li». Toshkent, «Nur», 1992.

*Ahmad Yassaviy.* Devoni hikmat. Toshkent, 1992.

*Abdurazzoq Samarqandiy.* «Matla' us-sa'dayi va majma' ul-baxrayn». (Ikki saodatli yulduzning chiqishi va ikki dengizning qo'shilish o'rni.) Toshkent, «Fan», 1960 va 1969.

*Abulg'oziy.* Shajarai turk. Toshkent, «Cho'lpon», 1992.

*Ahmad al-Farg'oniy.* Astronomiya ilmi asoslari. Toshkent, «Sharq», 1998.

*Gulbadanbegim.* Humoyunnoma. Toshkent, «Ma'naviyat», 1998.

*Zahiriddin Muhammad Bobur.* Boburnoma. Toshkent, «Fan», 1960 va 1982.

*Beruniy bilan Ibn Sinoning savol-javoblari.* Toshkent, «Fan», 1950.

*Burxonuddin al-Marg'inoniy.* Hidoya. 1-jild. Toshkent, «O'zbekiston», 1994.

*Ibn Arabshoh.* Ajoyib al-maqdur fi tarixi Taymur (Temur tarixida taqdir ajoyibotlari). Toshkent, «Mehnat», 1992.

*Imom Ismoil al-Buxoriy.* Al-adab al-Mufrad (Adab durdonalari). Toshkent, «O'zbekiston», 1990.

*Mahmud Koshg'ariy.* Turkiy so'zlar devoni (Devonu lug'atit turk). Uch jildlik, 1-jild. Toshkent, «Fan», 1960, 2—1961; 3—1963.

*Mirzo Ulug'bek.* To'rt ulus tarixi. Toshkent, «Cho'lpon», 1994.

*Nizomiddin Shomiy.* Zafarnoma. Toshkent, «O'zbekiston», 1996.

*Nizomulmulk.* Siyosatnoma yoki siyar ul-muluk. Toshkent, «Adolat», 1997.

*Tarixi Tabariy.* Toshkent, «Fan», 1987.

*Temur tuzuklari.* Toshkent, 1991.

*Sharafuddin Ali Yazdiy.* Zafarnoma. Toshkent, «Fan», 1972.

*Yusuf Xos Hojib.* Qutadg'u bilig. Toshkent, «Fan», 1972.

### Adabiyot

*Islom Karimov.* Turkiston umumiy uyimiz. Toshkent, «O'zbekiston», 1995.

*Islom Karimov.* O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida. Xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. Toshkent, «O'zbekiston», 1997.

*Islom Karimov.* Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. Toshkent, «Sharq», 1998.

- Abdullayev I.* Abu Mansur as-Salobiy. Toshkent, «Fan», 1972.
- Abdullayev I.* Beruniyga zamondosh shoirlar. Toshkent, «Fan», 1975.
- Abdullayev I., Hikmatullayev H.* Samarqandlik olimlar. Toshkent, «Fan», 1969.
- Abdurahmonov A.* Ulug'bek akademiyasi. Toshkent. «Qomus», 1994.
- Ayniy S.* «Muqanna qo'zg'oloni». Qissalar, maqolalar kitobidan. Dushanba, 1993.
- Alimov U.* O'rta asrlarda Movarounnahrda bog'chilik xo'jaligi tarixi. Toshkent, «Fan», 1984.
- Ashraf Ahmad.* Ulug'bek Muhammad Tarag'ay (1394—1449). Toshkent, «Xalq merosi», 1994.
- Ahmedov B.* *Ulug'bek.* Toshkent, «Yosh gvardiya», 1989.
- Ahmedov B.* O'zbekiston xalqlari tarixi manbalari. Toshkent, «O'qituvchi», 1991.
- Bartold V. V.* Ulug'bek va uning davri. Asarlar, II jild, 2-kitob, M., 1964.
- Bahodirov R.* Abu Abdulloh al-Xorazmiy va ilmlar tasnifi tarixidan. Toshkent, «O'zbekiston», 1995.
- Buniyatov Z. M.* Anushtagin, Xorazmshohlar davlati (1087—1231). Toshkent, G'afur G'ulom nashriyoti, 1998.
- Buxoro tarixi. Toshkent, «Fan», 1976.
- Bo'riyev O., Vahobova B.* Yozma manbalar Al-Farg'oniy haqida. Toshkent, «Fan», 1998.
- Valixojayev B.* O'zbek adabiyotshunosligi tarixi. Toshkent, «O'zbekiston», 1993.
- Valixojayev B.* Xoja Ahror tarixi. Toshkent, 1994.
- Vamberi Xerman.* Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi. Toshkent, 1990.
- Gumilev L. N.* Qadimgi turklar. M., 1961.
- Zohidov V.* Uch daho (Forobiy, Beruniy, Ibn Sino). Toshkent, 1987.
- Ibodov J. X., Matviyevskaya.* Ahmad al-Farg'oniyning riyoziyot va falakiyot tarixidagi o'rmi. Toshkent, «Istiqlol», 1998.
- Ibrohimov N.* Ibn Battuta va uning O'rta Osiyo bo'ylab sayohati. M., 1988, Toshkent, 1993.
- Imom al-Buxoriy hayoti. Toshkent, «Sharq», 1998.
- Irisov A.* Abu Rayhon Beruniy. Toshkent, 1960.
- Irisov A.* Beruniy va Hindiston. Toshkent, «Fan», 1963.
- Irisov A.* Ibn Sinoning «Salamon va Ibsol qissasi». Toshkent, «Fan», 1974.
- Irisov A.* Ulug' tabib va olim Abu Ali ibn Sino. Toshkent, «Fan», 1960.
- Irisov A.* Xorazmiy va Forobiy. Toshkent, 1961.
- Irisov A., Munirov K.* Toshkent tarixida ba'zi siymolar. Toshkent, «Fan», 1983.
- Irisov A., Nosirov A., Nizomiddinov I.* O'rta osiyolik qirq olim. Toshkent, «Fan», 1961.
- Islom. Ma'lumotnoma, Toshkent, 1989.

- Is'hoqov M.* Sug'diyona tarix chorrahasida. Toshkent, «Fan», 1990.
- Is'hoqov M.* Unutilgan podsholikdan xatlar. Toshkent, «Fan», 1992.
- Yo'ldoshev N.* Bahouddin Naqshband. Buxoro, 1993.
- Kamoliddinov Sh. S.* Abu Sa'd Abdulkarim ibn Muhammad as-Sam'oniyning «Kitob al-ansob», O'rta Osiyo tarixi va madaniyati tarixining manbai. Toshkent, «Fan», 1993.
- Ma'naviyat yulduzlari** (Markaziy Osiyolik mashhur siymolar, allomalar, adiblar.) Toshkent, «Meros» nashriyoti, 1999.
- Mallayev N.* O'zbek adabiyoti tarixi. Toshkent, 1954.
- Murodov A.* O'rta Osiyo xattotlik san'atining tarixi. Toshkent, «Fan», 1971.
- Muhamedov X.* Qadimiy mudofaa devorlari. Toshkent, «Fan», 1973.
- Muhammadjonov A.* Qadimgi Toshkent. Toshkent, «Fan», 1988.
- Muhammadjonov A.* Temur va Temuriylar saltanati. «Qomus», 1994—1996.
- Muhammadjonov A.* O'zbekistonning qadimgi gidrotexnika inshootlari. Toshkent, «O'zbekiston», 1997.
- Muhammadjonov A.* (Buxoro shahri 2500 yoshda. O'zbek va rus tillarida.) Toshkent, «Fan», 1998—1999.
- Negmatov N.* Tojiklar. Tarixiy Tojikiston, hozirgi Tojikiston.
- Nosirov A.* Ali Qushchi. Toshkent, 1964.
- Nosirov A., Hikmatullayev X.* Ahmad al-Farg'oniy. Toshkent, «Fan», 1966.
- Nuriddinov M.* Boburiylar sulolasi. Toshkent, «Fan», 1994.
- Uvatov U.* Muhaddislar imomi. Toshkent, «Ma'naviyat», 1998.
- Usmonov O.* Kamoliddin Behzod va uning naqqoshlik maktabi. Toshkent, «Fan», 1977.
- Fayziyev T.* Mirzo Ulug'bek avlodlari. Toshkent, «Yozuvchi», 1994.
- Fayziyev T.* Temuriylar shajarasi. Toshkent, «Yozuvchi», 1995.
- Shoniyozov K.* Qang' davlati va qang'lilar. Toshkent, «Fan», 1990.
- O'rinboyev A.* Abdurazzoq Samarqandiyning Hindiston zafarnomasi, Toshkent, «Fan», 1960.
- G'ulomov Ya. G'.* Qadimgi madaniyatimiz izlaridan. Toshkent, «Fan», 1960.
- Hasanov H.* Mahmud Koshg'ariy. (Hayoti va geografik merosi.) Toshkent, «Fan», 1969.

## O'ZBEKISTON TARIXINING ENG ASOSIY SANALARI

- V asrning oxiri** — O'ra Osiyo binokorligida pishiq g'ishtning ishlatila boshlanishi.
- 551-yil** — Bumin boshliq Turk xoqonligining tashkil topishi.
- 603-yil** — Turk xoqonligining Sharqiy va G'arbiy xoqonliklarga bo'linib ketishi.
- 667-yil** — arablarning Chag'oniyonga yurishi.
- 673-yil** — Ubaydulloh ibn Ziyodning Buxoroga bostirib kirishi.
- 676-yil** — Said ibn Usmonning Buxoroga yurishi.
- 707-yil** — Qutaybaning Buxoro vohasiga bostirib kirishi.
- 710-yil** — Nasaf va Keshning arablar tomonidan bosib olinishi.
- 711-yil** — Qutaybaning Xorazmga yurishi.
- 712-yil** — Qutaybaning Sug'd va Samarqandga yurishi.
- 713-yil** — arablarning Ustrushona va Choch (Shosh) ga yurishi.
- 714-yil** — Isfijobning Qutayba tomonidan bosib olinishi.
- 715-yil** — arablar tomonidan Farg'ona vodiysining bosib olinishi.
- 720-yil** — Gurak va Divashtichning qo'zg'olonlari.
- 728-yil** — Sug'd qo'zg'oloni.
- 747—749-yil** — Abu Muslim harakati — Movarounnahrda ummaviylar hukmronligiga qarshi qo'zg'olon.
- VIII asr oxiri** — Qorluqlar davlatining tashkil topishi.
- 806-yil** — Rofe ibn Lays boshliq Samarqand, Buxoro, Shosh, Naxshob va Xorazm aholisining qo'zg'oloni.
- IX asrning 60-yillari** — Safforiylar harakati.
- 873-yil** — Safforiylar g'alabasi va safforiylar davlatining tashkil topishi.
- 875-yil** — Somoniylar davlatining tashkil topishi.

888-yil —

IX asr oxiri —

819—842-yillar —

842—864-yillar —

865—892-yillar —

874—907-yillar —

899—959-yillar —

907—914-yillar —

914—943-yillar —

943—954-yillar —

954—961-yillar —

961—976-yillar —

976—997-yillar —

997—999-yillar —

900—908-yillar —

X asr o'rtalari —

X asr oxiri —

999-yil —

1010-yil —

1040-yil —

XI asr —

1141-yil —

IX—XII asrlar —

XII asrning ikkinchi choragi

—

1097-yil (vafoti) —

1097—1127-yillar —

1127—1156-yillar —

1156—1172-yillar —

1172—1200-yillar —

1194-yil —

1200—1220-yillar —

1206-yil —

1216—1218-yillar —

1218-yil —

1219-yil —

1219—1221-yillar —

1220-yil fevral —

Ismoil Somoniy tomonidan Movaroun-  
nahrning birlashtirilishi.

O'g'uzlar davlatining tashkil topishi.

Nuh ibn Asad.

Ahmad ibn Asad.

Nasr I ibn Ahmad.

Ismoil ibn Ahmad.

Muhammad Narshaxiy.

Ahmad ibn Ismoil.

Nasr II ibn Ahmad.

Nuh I ibn Nasr.

Abdulmalik ibn Nuh.

Mansur I ibn Nuh.

Nuh II ibn Mansur.

Mansur II ibn Nuh.

Ismoil Somoniy tomonidan Xurosonning  
Movarounnahrqa qo'shib olinishi.

Qoraxoniylar davlatining tashkil topishi.

G'aznaviylar davlatining tashkil topishi.

Somoniylar davlatining barham topishi.

Urganch «Bilimdonlar uyi» akademiyasi.

Dandanaqon jangi.

Saljuqiylar davlatining tashkil topishi.

Qatvon jangi

o'zbek xalqining tashkil topishi.

Xorazmshohlar davlatining qayta tiklanishi.

Anushtagin.

Qutbuddin Muhammad.

Alouddin Otsiz.

Elarslonxon.

Alouddin Takash.

Eroning Xorazmga bo'ysundirilishi.

Sulton Muhammad

Malik Sanjar qo'zg'oloni.

Xorazmshoh va Chingizxon aloqalarining  
yaxshilanishi.

O'tror fojiasi.

mo'ng'ullarning Movarounnahrqa hujumining  
boshlanishi.

mo'ng'ullar bosqiniga qarshi kurashda Xo'jand  
hokimi Temur Malik jasorati.

Chingizxon bosqiniga qarshi buxoroliklar  
jasorati. Shaharga o't qo'yilishi.

- 1220-yil mart — Samarqand qamali. Jome' masjidini mudofaachilarining jasorati, shaharning vayron etilishi.
- 1220-yil — Muhammad Xorazmshohning Chingizxon ta'qibidan chekinishi va vafot etishi.
- 1220—1231-yillar — Jaloliddin Manguberdi
- 1220-yil — mo'ng'ullar tomonidan Termizning vayron etilishi.
- 1221-yil — Chingizxonning Urganchga hujumi.
- 1221-yil — Jaloliddinning Parvon dashti va Hind daryosi bo'yida mo'ng'ullar bilan jangi.
- 1224--yil — Chig'atoy ulusining tashkil etilishi.
- 1238-yil — Mahmud Torobiy qo'zg'oloni.
- 1272—1273-yillar — Xulogular tomonidan Kesh, Naqshob va Buxoroning talon-toroj qilinib, vayron etilishi.
- 1336—1405-yil — Amir Temur ibn To'rg'ay (Tarag'ay) Bahodir.
- 1365-yil — «Jangi loy»
- 1365-yil — Samarqandda sarbadorlar qo'zg'oloni.
- 1370-yil — Amir Temur Movarounnahr amiri.
- 1386—1388-yillar — Temurning «Uch yillik yurishlari» (Eron, Kavkazorti).
- 1391-yil — «Qunduzcha jangi».
- 1392—1396-yillar — Temurning «Besh yillik yurishlari».
- 1394—1449-yillar — Mirzo Ulug'bek Muhammad Tarag'ay.
- 1395-yil — Tarak daryosi bo'yidagi jang.
- 1399—1404-yillar — Temurning «Yetti yillik yurishlari».
- 1402-yil — Temur bilan Yildirim Boyazidning to'qnashuvi, «Anqara jangi».
- 1403-yil — Ispaniya elchisi Rui Gonzales de Klavixoning Samarqandga tashrif buyurishi.
- 1417-yil — Buxoroda Ulug'bek madrasasining qurilishi.
- 1417—1420-yillar — Samarqandda Ulug'bek madrasasining bino qilinishi.
- 1424—1428-yillar — Ulug'bek rasadxonasining qurilishi.
- 1429-yil — Samarqand akademiyasi «Dorul ilm» ga asos solinishi.
- 1433-yil — G'ijduvonda Ulug'bek madrasasining qurilishi.
- 1500-yil — Shayboniyxonning Samarqandni olishi.

## QISQACHA TARIXIY ATAMALAR LUG'ATI

- Avorizot** — favquloddagi xarajatlar uchun to'planadigan yig'im.
- Avqof** — masjid va madrasalarning vaqf xo'jaligi bilan shug'ullanuvchi.
- Ajam** — Arab xalqlari va mamlakatlaridan o'zga yurt va xalqlar.
- Azarxurra** — otashparastlar topinadigan muqaddas olov; o't.
- Ayl** — Amir Temur askariy qismlarining o'n nafarli bo'linmasi.
- Aylboshi** — o'n nafarli askariy bo'linmaning kichik zobiti; askarboshi.
- Akkor** — koranda, qishloqning ziroatkor aholisi.
- Amid ul-mulk** — davlat hujjatlari va elchilik aloqalari vaziri.
- Amir ul-umaro** — amirlar amiri, bosh sarkarda.
- Animizm** — ruh va jonga ishonish; ota-bobolar ruhiga sig'inish.
- Ariz** — qo'shin ta'minoti bilan shug'ullanuvchi vazir.
- Ark** — ichki qal'a, podshohning shahar ichidagi qo'rg'on-saroyi, qarorgohi.
- Arkbegi** — podsho qarorgohining boshqaruvchisi.
- Atrabon** — otashparastlik ibodatxonasining ruhoniysi, otashgoh xizmatchisi.
- Axriman** — zardushtiylik dinining zulmat, ochlik, urush, o'lim, gunoh va qabihliklar tangrisi.
- Axuramazda** — zardushtiylik dinining bosh tangrisi, yorug'lik, farovonlik, sihat-salomatlik, tinchlik va barcha ezguliklar xudosi.
- Ahvoli zohira** — vaziyat.
- Band** — toshlardan bino qilingan suv omborining to'g'oni; suv ombori; to'g'on.
- Banno** — g'isht teruvchi binokor.
- Bantak** — qul.
- Barzikor** — qo'shchi, ziroatkor, qishloqning mehnatkash aholisi.
- Barid** — kirim.
- Barot** — ijaraga olish.
- Bek** — el-yurt, viloyat hokimi.
- Begor** — jamoat ishlariga safarbar etish; hashar.
- Biy** — urug' va qabila oqsoqoli.
- Boj** — savdogarlardan olinadigan soliq.
- Borgoh** — makon; dargoh; dunyoga keladigan va unga qaytadigan azaliy muqaddas maskan (joy), narigi dunyo.
- Bosqoq** — mo'ng'ullar hokimlik qilgan XIII—XIV asrlardagi mahalliy hokim.
- Botmon** — og'irlik o'lchovi (XIV—XV asrlarda u 20 kg ga teng bo'lgan).

- Burong'or** — qo'shinning o'ng qanoti.
- Burg'u** — karnay.
- Bo'dun** — chorvador aholi; qora bo'dun — qora xalq.
- Vazir** — devonxona boshlig'i.
- Vazkirom** — soliq yig'uvchi, moliya xodimi.
- Vag'n** — ibodatxona.
- Vag'npat** — kohin, ibodatxona ruhoniysi.
- Vag'nze** — ibodatxona yer va mulklari.
- Visoqboshi** — to'rt nafarli askariy guruh boshlig'i; chodir boshlig'i.
- Gyol** — sopol gardish, sopol uzuk — tunnellar tutqichi.
- Dapirpat** — kotib, elchi, sarkotib.
- Darra** — charm va qayishdan to'qilgan yo'g'on va og'ir zarb beruvchi qurol.
- Darg'ot** — to'g'on.
- Debo** — tovlanuvchi nafis ipak mato.
- Devon** — vazirlar mahkamasi.
- Devonbegi** — vazirlar mahkamasining bosh ma'muri.
- Dehqon** — «qishloq hokimi», yerdor, feodal.
- Digir** — charxparrak va chiqirlarga ariqdan yoki chiqir xandaqdan suv botirgich ko'za.
- Dinor** — bir misqol (4,8 gr) og'irlikda so'qilgan oltin yoki kumush tanga.
- Dovul** — katta nog'ora.
- Dorug'a** — harbiy ma'mur.
- Dorug'ona** — dorug'alar foydasiga to'planadigan to'lov.
- Doya** — cho'ri.
- Dudang** — hosilning oltidan ikki hisobida olinadigan dehqonchilik solig'i.
- Dulob** — charxparrak; quduqdan suv chiqaradigan charx.
- Yenicher** — turklarning piyoda askari.
- Yom-jom** — savdo yo'llaridagi qo'noq.
- Jarih** — 958 kv.m. yer maydoni.
- Jeta** — qaroqchi; qoloq.
- Jiz'ya** — g'ayridinlardan olinadigan jonbosh solig'i.
- Jome' masjid** — juma kunlari jamoat namozi o'qiladigan katta masjid.
- Joriya** — cho'ri.
- Juvong'or** — qo'shinning so'l qanoti.
- Juybon** — suv taqsimlovchi mirob.
- Zobitona** — kirimni hisoblovchi moliya xodimi uchun olinadigan to'lov.
- Zakot** — chorvadan olinadigan soliq; to'plangan boylikdan to'lanadigan daromad solig'i.
- Zarbxona** — chaqa va tangalar so'qiladigan ustaxona.
- Zot suhbatayn** — dioptir (tirqish).
- Zot sho'batayn** — trekver (astronomik asbobjining qismi).
- Zo'g'ata** — qayrilma pixli (nashtar) mix yoki qalmoq; paykon.
- Izofa** — zaxira qism.

- Ilmi aruz** — poetika.
- Ilmi hay'at** — astronomiya.
- Ixshid** — ilk o'rta asr knyazi, viloyat hokimi, xon yoki amir avlodlari.
- Iqto', iqta'** — yirik mansabdorga hadya etilgan yer va mulk.
- Kadivar** — yirik yerdorlarga mute qishloq aholisi; krepostnoy.
- Kalava** — yigirilgan ip o'rami.
- Kalavachi** — ip yigiruvchi.
- Kalon** — XIII asrdagi yer solig'i.
- Kanbul** — qo'riqchi askariy bo'linma.
- Karbos** — bo'z; paxta ipidan to'qilgan mato.
- Kashovarz** — qo'shchi; ziroatkor.
- Kaxxol** — okulist, ko'z tabibi.
- Keshik** — XIII asrda mo'ng'ullar qo'shinidagi zaxira qism; gvardiya, guruh.
- Kibor** — ma'mur; zodagon.
- Kitoba** — lavha.
- Kirpichpazlik** — xumdonda pishiq g'isht pishirish.
- Koriz** — yer osti suv inshooti.
- Korikor** — xizmatkor.
- Kofiya** — arab tili morfologiyasi.
- Kochi** — marza.
- Koshin** — sirli pishiq g'isht.
- Koh** — saroy ichki qal'a, ark, o'rda.
- Kohin** — ruhoni; ibodatxona mutavallisi.
- Koroplastika** — ma'budalarning sopol haykalchalari.
- Kuchorchi** — yo'l boshlovchi.
- Ko'ragon** — xon kuyovi.
- Ko'shk** — istehkomli baland qo'rg'on.
- Labirint** — dalon, g'ulom g'irdish; darvoza og'zi istehkomi.
- Lavh** — yozuv taxtasi, yozuv kursichasi yoki kursi.
- Lak** — yuz ming.
- Lag'm** — tunnel; yer osti yo'li.
- Madrasa** — oliy ilmgoh.
- Majus** — otashparast.
- Majusiy** — otashparastlik dindori.
- Manglay** — ilg'or guruh.
- Masnad** — taxt, suyanchiq, daraja, hukmronlik o'rni.
- Mesh** — suv yoki qimiz solinadigan teri xalta yoki to'rva, sanoch.
- Mirixazora** — minglik harbiy bo'linmaning amiri.
- Mirob** — suv xo'jaligi boshqaruvchisi.
- Mirobona** — suv solig'i.
- Mirrix** — urush, jang va g'alaba tangrisi.
- Miftoh** — darvozalik to'g'on; shluz, suv tashlag'ich.
- Mol sardarax** — bog' va daraxtzorlardan olinadigan soliq.

- Mos paxta** — ko'hna paxta.
- Muzzahhib** — zarhal beruvchi mo'yoqalam sohibi.
- Muzoriy** — qo'shchi, ziroatkor, ekin ekuvchi.
- Mulk** — xususiy yer.
- Mulki vaqf** — madrasa va masjidlar tasarrufidagi yer-mulk, xayri ishlar uchun ajratilgan mol-mulk.
- Mulki devoniy** — davlat yerlari.
- Mumallikayi xos** — davlat mulklari boshqaruvchisi.
- Musallas** — uzum yoki mayizdan tayyorlangan shirin sharob.
- Mustavfiy** — markaziy hokimiyat devonxonasi daftardor hisobchisi; moliya vaziri.
- Mutaobbid** — o'ta dindor.
- Muxassilona** — soliq yig'uvchilar uchun to'lov.
- Muhrkash** — chit va matolarga gul bosuvchi.
- Muxtasib** — tosh-tarozu, narx-navo va mafkura nazoratchisi.
- Mushrif** — saroy ish boshqaruvchisi.
- Muqto' yoki iqtodor** — iqto' yer va mulklariga ega bo'lgan shaxslar.
- Muhoraba** — jang, urush, harbiy to'qnashuv.
- Muhrdor** — devonxonaning muhr saqlovchisi; muhr bosuvchi, muhr sohibi, hukmdor.
- Mo'la** — shahar devorlarining burji, minorasi.
- Mo'g'ul** — chet ellik, musofir, daydi, muhojir.
- Naddof** — jun tituvchi, jun savalovchi, quluyi naddof jun to'quvchilar oqsoqoli.
- Naus** — otashparastlar xixonasi, ostadonlar saqlanadigan mozor qo'rg'on.
- Naft** — shahar va qishloq aholisi.
- Naftandoz** — neftli va pilikli ko'zachalarni irg'itadigan harbiy qurol.
- Nova** — suv tashlag'ich tarnov; suv tashlag'ich.
- Namozgoh** — iyd ibodatlari o'qiladigan masjid; iydgoh.
- Nohid (anahita), nana** — hosildorlik va farovonlik ma'budasi.
- Ozod-zod** — zodagon.
- Ozodkor** — hunarmand.
- Ostadon (assuariy)** — sopol tobutcha.
- Otashgoh** — muqaddas o'choq; o'txona, olovxona.
- Otashkada** — otashparastlar ibodatxonasi.
- Ohangar** — temirchi.
- Payza** — yorliq.
- Palahmon** — toshotar; harbiy qurol.
- Pandus** — ko'tarma yo'l.
- Parchim** — bayroq yoki tug' uchigabog'lanadigan shoda, qo'tos dumi, ipak shoda.
- Parchin** — sirlangan rang-barang g'isht parchalarining qadamlari.
- Poykor** — kichik mirob; qishloq mirobi.
- Rabod** — tashqi shahar, karvonsaroy.
- Rais** — shahar hokimi.

**Rangrez** — matoga rang beruvchi; nilchi  
**Ra'dandoz** — tosh otg'ich; harbiy qurol  
**Riyoziyot** — matematika  
**Savquljaysh** — strategiya.  
**Sadoq** — o'qdon.  
**Sadoqxona** — tir.  
**Sanad** — shahodatnoma, hujjat.  
**Sardoba (obdon)** — pishiq g'ishtdan qurilgan gumbazli hovuz; suvxona.  
**Sarishumor** — jonbosh solig'i.  
**Sarrojlik** — egar va jabdug' yasovchi ustaxona.  
**Sahbob** — muqovasoz, muqovachi.  
**Sohibqiron** — qam egasi, jahon egasi, jahongir.  
**Sixg'altak** — charxli ko'tarma.  
**Sohib jamona** — hosil miqdorini belgilovchi ma'mur uchun yig'iladigan to'lov.  
**Sohibi muayyad** — maktubot va axborot vaziri, aloqa ishlari vaziri.  
**Sohibi shurat** — harbiy vazir.  
**Suvoriy** — otliq askar.  
**Sudsi faxriy** — sekstant (astronomik uskuna).  
**Suyurg'ol** — oliy tabaqa zodagonlarga in'om qilingan yer-mulk.  
**Tabla** — ikki tomonli hind nog'orasi.  
**Tavajjuhohi xorijiy** — favquloddagi xarajatlar solig'i.  
**Tazar** — yer osti kanalizatsiya inshooti.  
**Tamg'a** — savdo boji: savdogarlardan olingan soliq.  
**Tanob** — 2—2,5 ming kv.m. hajmdagi yer maydoni.  
**Targ'u** — zig'ir poyasidan to'qilgan dag'alroq mato.  
**Tabyiat ul-jaysh** — harbiy taktika.  
**Tirkash** — kamondan o'q uzadigan nishon tuynugi.  
**Totem** — urug' yoki qabila ibtidosi, urug' asoschisi, ajdod, urug' jamoalari topinadigan hayvon, o'simlik yoki jism.  
**Totemizm** — totemlarga sig'inish.  
**Totemistik** — totemistik odatlar, rasm-rusumlar.  
**Toq** — usti yopiq bozor va hunarmandchilik rastasi.  
**Tudun** — turk xoqonligining viloyat hokimliklaridagi vakili.  
**Tuman** — o'n minglik harbiy qism.  
**Tuman og'asi** — o'n minglik askariy qism amiri, qo'mondon.  
**To'r** — yer osti harbiy istehkomi.  
**Tutun yoki tudun** — viloyat hokimi.  
**Tug'ro** — davlat nishonasi, ramzi.  
**Ulton** — charm, oshlangan teri.  
**Usturlab** — astronomiya asbobi, astrolyabiya.  
**Ushur** — hosildan 10% hisobida olinadigan dehqonchilik solig'i.  
**Farmondor** — boshqaruvchi.  
**Farna** — baxt va tole xudosi.

- Fulus** — mayda mis chaqa.
- Futa** — ip yoki ipakdan to'qilgan sallabop mayin mato.
- Xabargir** — xabarchi, ayg'oqchi, kuzatuvchi.
- Xazara** — minglik askariy bo'linma.
- Xandaq** — mudofaa inshooti.
- Xaraju maraj** — boshboshdoqlik, o'zboshimchalik, beboshlik.
- Xatib** — din peshvosi.
- Xattot** — kitob va risolalar ko'chiruvchi kotib, xattot.
- Xvabu** — viloyat hokimi.
- Xvatov** — hokim.
- Xiroj** — hosilning 20—25% hisobida olinadigan qishloq xo'jalik solig'i; XV asrda bu soliq «mol» deb yuritilgan.
- Xonashumor** — har xonadondan olinadigan jonbosh solig'i.
- Xonaqoh** — g'aribxona, musofirxona.
- Xoro** — tovlanuvchi yaltiroq ipak mato.
- Xoqon yoki qog'on** — hukmdor, podsho.
- Xubbi** — suv muakkali; suv ma'budasi.
- Xurofiy** — soxta, uydirma, asossiz (din, e'tiqod, urf-odatlar haqida).
- Xo'shun** — yuz nafarlik harbiy bo'linma.
- Xo'shunboshi** — yuzlik bo'linma zobiti; komandir.
- Charxparrak** — suv ko'targich inshoot.
- Chilangar** — temirchi.
- Chilangarlik** — temirchilik.
- Chiqir** — tuya yoki ho'kiz qo'shib aylantiriladigan suv ko'targich inshoot.
- Chokar** — harbiy drujina, ko'ngillilar to'dasi.
- Chokardiza** — chokarlar qal'asi, kazarma.
- Chopqun** — bosqinchilik, bosmachilik, talon-toroj qilish.
- Chorikor** — hosildan 25% olish hisobiga ishlovchi yollanma qo'shchi ziroatkor.
- Chohpar** — o'ra.
- Cho'r** — lashkarning sharqiy qanot amiri.
- Shayxulislom** — din va ilm peshvosi.
- Shahriston** — ichki shahar.
- Shinni** — tut va uzum hamda qovun-tarvuzdan pishiriladigan shirin sharbatli qiyom.
- Shod** — Turk xoqonligidagi tuman — o'n minglik lashkar boshlig'i.
- Shulen** — XIII asrda olingan oziq-ovqat solig'i.
- Eloqxon** — elning oq xoni; yurtning kichik hukmdori, viloyat hokimi.
- Erkin** — qo'shinning g'arbiy qanot amiri.
- Etnogenez** — xalq va elatlarning kelib chiqishi.
- Yabg'u yoki jabg'u** — el-yurt hokimi, mahalliy hokim.
- Yasovul** — soqchi.
- Yasoq** — soliq, jarima, to'lov.
- O'lpon** — yer solig'i.

- O'rdugoh** — qo'shin lageri to'xtaydigan qo'noq; podsho qarorgohi.
- O'tloq va suvloq** — yaylovlardan olinadigan soliq.
- Qabo** — ustki kiyim, yopinchiq.
- Qaznoq** — omborxon.
- Qazo** — adliya ishlari qozisi, sudya, qozilik.
- Qam** — shaman, ko'ktangriga sig'inuvchi tavhidlik dini.
- Qasida** — she'riy madh, maqtov yoki marsiya, didaktik mazmundagi she'r janri.
- Qasr** — saroy, oliy va hashamatli bino.
- Qaton** — kanop poyasidan to'qilgan mato.
- Qopchur** — mo'ng'ullar davrida chorvadan olinadigan soliq.
- Qoraunas** — duragay, chatishgan.
- Qoraxon** — buyuk xoqon.
- Qutvol** — davlat qurilishi boshlig'i, sarkori.
- Qo'rg'on, qo'rg'oncha** — atrofi baland paxsa devor bilan o'ralgan darvozali turar joy.
- Qo'sh** — bir juft ho'kiz bilan haydaladigan yer maydoni.
- G'ozilar** — ko'chmanchilar hujumiga qarshi ko'ngillilardan tuzilgan qurolli maxsus guruh, otryad, adolat kurashchilari.
- G'uvokor** — savdogar (ilk o'rta asrlar).
- G'ul** — muntazam qo'shin.
- Handasa** — geometriya.
- Haylboshi** — suvoriylar amiri.
- Holati razl** — o'lim to'shagi, jon chiqar payti.
- Hojib** — harbiy boshliq.
- Hojib ul-hujob** — qo'mondon.
- Hojib ul-buzruk** — bosh qo'mondon.

## MUNDARIJA

<b>Kirish</b> .....	3
<b>Birinchi qism. Ilk o'rta asrlarda O'zbekiston (IV—VIII asrlar)</b>	
<b>I bob. Ilk o'rta asrlarda dehqon munosabatlari va davlatchilik</b> .....	6
1-§. Ilk o'rta asrlarda qishloq jamoasi .....	6
2-§. Ilk o'rta asr davlatlari .....	12
3-§. Eftallar davlatida ijtimoiy va iqtisodiy hayot .....	17
4-§. Turk xoqonligi .....	23
5-§. Ilk o'rta asrlarda mahalliy davlatlar .....	33
6-§. Ilk o'rta asrlarda madaniy hayot .....	42
<b>II bob. O'rta Osiyoning Arab xalifaligi tomonidan istilo qilinishi, xalifalik zulmiga qarshi xalq ozodlik qo'zg'olonlari (VII—VIII asrlar)</b> .....	54
7-§. Arab xalifaligining tashkil topishi va uning harbiy yurishlari .....	54
8-§. Arab xalifaligi istilosining iqtisodiy va ma'naviy oqibatlari .....	63
9-§. Xalifalikka qarshi xalq harakatlari .....	66
10-§. Abumuslim qo'zg'oloni va abbosiylar hukmronligining o'rnatilishi .....	71
11-§. «Oq kiyimlilar» qo'zg'oloni .....	74
<b>Ikkinchi qism. O'rta asrlarda O'zbekiston (IX—XIII asrlar)</b>	
<b>I bob. Movarounnahr va Xurosonda Arab xalifaligi hukmronligining zaiflashuvi va mustaqil davlatlarning tashkil topishi</b> .....	80
12-§. Xalifalikdan mustaqil davlatlarning ajralib chiqishi (VIII asr oxiri — X asr o'rtalari) .....	80
13-§. Somoniylar davlati .....	86
14-§. Somoniylar davlatida ijtimoiy va iqtisodiy hayot .....	91
15-§. IX—X asrlarda Movarounnahrda yer egaligi .....	100
16-§. Qoraxoniylar davlati .....	104
17-§. Qishloq xo'jaligi va iqto' yerlarining kengayishi .....	109
18-§. Xorazm davlati va uning yuksalishi .....	113

<b>II bob . IX—XIII asr boshlarida Movarounnahrning madaniy hayoti</b> .....	118
19-§. O'рта asr mutafakkirlari va fan .....	118
20-§. Movarounnahr va Xorazmning madaniy hayotida yangi davr (IX—XIII asr boshlari) .....	124
21-§. IX—XIII asr boshlarida me'morchilik, san'at, musiqa va diniy e'tiqod .....	132
22-§. Etnik jarayonlar va o'zbek xalqining tashkil topishi .....	139
<b>III bob . Vatanimiz xalqlarining mo'ng'ullar zulmiga qarshi ozodlik kurashi</b> .....	141
23-§. Xorazmshohlar saltanatining mo'ng'ul davlati bilan munosabati .....	141
24-§. Chingizxon istilosi .....	147
25-§. Xorazmshohlar davlatining halokati .....	158
26-§. Mo'ng'ullar istilosidan keyingi siyosiy vaziyat, xo'jalik hayoti va xalq qo'zg'olonlari .....	162
27-§. Chig'atoy ulusining tashkil topishi va uning siyosiy ahvoli .....	168
28-§. Chig'atoy ulusining ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli va madaniy hayoti .....	174
<b>Uchinchi qism . O'рта asrlar uygonishi davrida O'zbekiston (XIV—XVI asr boshlari)</b>	
<b>I bob . Amir Temur saltanati</b> .....	181
29-§. Siyosiy tarqoqlik va Sarbadorlar harakati .....	181
30-§. Amir Temur davlatining tashkil topishi .....	187
31—32-§§. Amir Temurning harbiy yurishlari .....	191
33—34-§§. Amir Temur davlatining ma'muriy va harbiy tuzilishi .....	200
35—36-§§. Mamlakat obodonchiligi yo'lida .....	208
37-§. G'arbiy Yevropa davlatlari bilan aloqalar .....	215
<b>II bob . Temuriylar va saltanatning parchalanishi</b> .....	221
38-§. Amir Temur vorislari .....	221
39-§. Ulug'bek davlati .....	224
40-§. Temuriylar davlatining inqirozga yuz tutishi .....	231
41—42-§§. Temuriylar davlatida ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlar .....	236
<b>III bob . Temuriylar davrida fan va ma'naviyat</b> .....	249
43—44-§§. Ulug'ber davrida ilm va fanning taqqiy etishi .....	249
45—46-§§. Madaniy hayot .....	257
<b>O'tmish sadosida tarix saboqlari va ma'naviyat (Xotima o'rnida)</b> .....	270
<b>Foydalanilgan manbalar va adabiyotlar ro'yxati</b> .....	273
<b>O'zbekiston tarixining eng asosiy sanalari</b> .....	276
<b>Qisqacha tarixiy atamalar lug'ati</b> .....	279

Muhammadjonov A.

**O'zbekiston tarixi** (Milodning IV asridan XVI asr boshlarigacha): 7-sinf: Umumta'lim maktablari uchun darslik/Mas'ul muharrir: B. Ahmedov.— 4-nashr.— T.: A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashr., 2004.— 288 b.

BBK 63.3(5U)+63.3(2)4

ABDULAHAD RAHIMJONOVICH MUHAMMADJONOV

**O'ZBEKISTON TARIXI**  
*(Milodning IV asridan XVI asr boshlarigacha)*  
*7-sinf uchun darslik*

*Toshkent, A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004*

Muharrir *R. Mirholiqov, I. Zoyirov*  
Badiiy muharrir *T. Sa'dullayev*  
Texnik muharrir *V. Veremeyuk*  
Musahhih *Z. Karimova*

IB № 500



Bosishga ruxsat etildi 04.03.2004. Bichimi 60×90 1/16. Gam. Tayms. Kegli 11, 9 shponli. Ofset bosma usulida bosildi. Shartli b.t. 18.0. Shartli kr.-ott. 73,5. Nashr.t. 15.32. Adadi 30100 nusxada bosildi. Buyurtma № A-5541. Bahosi 2118 s.

A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. Toshkent—129, Navoiy ko'chasi,30.  
Shartnoma 1/2004.

O'zbekiston Respublikasi Matbuot va axborot agentligining Toshkent matbaa kombinatida chop etildi. Toshkent—129. Navoiy ko'chasi, 30.